

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**A.S. Jo‘rayev, G‘.A. Safarov,
O.R. Meyliyev**

SOLIQ NAZARIYASI

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2019**

UO'K: 336.201
KBK: 65.261.4ya73

*Taqrizchilar: i.f.d., prof. M. Almardonov;
dots. A.Amanov*

Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma / A.S. Jo'rayev, G'.A. Safarov, O.R. Meyliyev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 376 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada soliqlarning nazariy asoslari va ularni bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati yoritilib, asosiy e'tibor soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari, soliq elementlari, soliq munosabatlari subyektlarining huquqlari va soliq majburiyatlari, soliq tizimi va uning shaklanishi, soliq siyosati, soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi va turlari, soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligi, soliq ishini tashkil etish, xalqaro soliqqa tortish kabi masalalarga qaratilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishi talabalari hamda soliq nazariyasi bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislariga mo'ljallangan.

UO'K: 336.201
KBK: 65.261.4ya73

ISBN 978-9943-13-772-1

© A.S. Jo'rayev, G'.A. Safarov,
O.R. Meyliyev, 2019
© «IQTISOD-MOLIYA», 2019

Xalqning roziligi bilan yoki uning roziligi-siz olinadigan soliqlar uning hamyoni uchun bir xil bo'lishi mumkin, lekin xalq ruhiyatiga uning ta'siri turlichadir.

F. Bekon

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalashning hozirgi sharoitida turli sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ko'p jihatdan kadrlarning bilim va ko'nikmalariga bog'liqligi bois ta'lim tizimini isloh qilishda kadrlar tayyorlashning sifatiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, buning samarasi o'laroq ta'lim tizimining joriy davr talablari darajasida ko'plab o'quv adabiyotlari yaratilmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.4-bandida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bo-

zorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish belgilangan.

Mazkur o'quv qo'llanma ham ta'lim tizimining talablari-dan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lib, soliqlarning nazariy jihatlarini o'zida mujassam etgan davlat tilidagi adabiyotlarning yetarli darajada emasligi uning dolzarbligini yanada oshiradi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat soliq tizimini ham isloh qilishni talab etmoqda.

Ma'lumki, mamlakat soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi ko'p jihatdan ularning naqadar nazariy jihatdan asoslanganligi bilan belgilanadi. Shu bois soliqlarning nazariy jihatlarini o'rganish doimo dolzarbdir.

Mazkur o'quv qo'llanmada soliqlar nazariy jihatdan atroflicha o'rganildi va tahlil etildi. Uning birinchi bobi "Soliq nazariyasi" fanining predmeti, mazmuni va metodiga bag'ishlangan bo'lib, unda "Soliq nazariyasi" fani ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida o'rganilgan, fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi hamda uni o'rganish usullari keng yoritilgan.

Ikkinchi bobi soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, unda soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, mamlakatimiz hududida soliqqa tortish jarayonining rivojlanish xususiyatlari yoritilishi bilan birgalikda turli davrlarda yuritilgan soliq siyosatining o'ziga xos tomonlari ochib berilgan.

O'quv qo'llanmaning uchinchi bobi soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillarini nazariy jihatdan yoritishga qaratilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi va belgilari, soliqlarning funksiyalari va tamoyillari kabi masalalarga qaratilgan.

To'rtinchi bob soliqlar va soliqqa tortish nazariyasining asosiy elementlarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda soliq elementlarining mohiyati va tarkibi yoritilgan va asosiy

e'tibor soliq stavkalari va imtiyozlarining mohiyati, turlari, ularni belgilash mezonlari va iqtisodiyotni tartibga solish va rag'batlantirishdagi ahamiyatiga qaratilgan.

Beshinchi bob soliq munosabatlari subyektlarining huquqlari va soliq majburiyatlarining bajarilishiga bag'ishlangan bo'lib, unda soliq to'lovchilarning huquqlari va soliq to'lovchilarning majburiyatlari, soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi va soliq solish obyektlarini hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash xususiyatlari, soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartiblari yoritilgan.

O'quv qo'llanmaning oltinchi bobi O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanish jarayoniga qaratilgan bo'lib, mazkur bobda soliq tizimining iqtisodiy mohiyati va uning klassifikatsiyasi har tomonlama yoritilgan. Jumladan, to'g'ri va egri soliqlar, yuridik hamda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlar, umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'imlarning nazariy jihatlari atroflicha yoritilishi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga ham ahamiyat berilgan.

Yettinchi bob soliq siyosatiga bag'ishlangan bo'lib, unda soliq siyosatining mohiyati, mamlakatimizda amal qilayotgan soliq siyosatining huquqiy asoslari, ularning amal qilish xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari, shuningdek, soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, soliq xizmati organlarining o'rni va ularning o'z funksiyalarini amalga oshirishida moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi atroflicha yoritib o'tilgan.

Sakkizinchi bobda soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, turlari va javobgarlik to'g'risidagi umumiy qoidalari yoritilib, unda soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari, moliyaviy sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari keltirilgan.



To'qqizinchi bob soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi turli nuqtayi nazardan baholangan, jumladan, soliq yukining mohiyati va uni aniqlash tartibi, soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri, soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

O'ninchi bob soliq ishini tashkil etish asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi, Davlat soliq qo'mitasining vazifalari va funksiyalari, soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi va AQSh soliq tizimida soliq idoralari faoliyati keng yoritilgan.

So'nggi o'n birinchi bob xalqaro soliqqa tortishni yoritishga qaratilgan bo'lib, unda xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari, jahon soliq kodeksini qabul qilish zarurati hamda ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, har bir bob so'nggida tekshirish uchun savollar keltirilgan bo'lib, o'quvchini ushbu bobni qanday o'zlashtirganlik sifatini aniqlashga yordam beradi.

O'quv qo'llanmada berilgan mavzular doirasida testlar keltirilgan bo'lib, o'quvchini ushbu o'quv qo'llanma mavzularini qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashga xizmat qiladi.

I BOB. SOLIQ NAZARIYASI FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA METODI

Reja

- 1.1. Soliq nazariyasi fani ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida
- 1.2. Fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi
- 1.3. "Soliq nazariyasi" fanini o'rganish usullari

1.1. Soliq nazariyasi fani ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida

Soliq munosabatlari davlatning bajaradigan vazifa va faoliyati amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki har qanday ustqurtma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi. O'z navbatida, bazisning fundamental asosini yaratuvchi omillar ayni paytda uning qismatini ham belgilaydi. Mazkur ta'kiddan kelib chiqib, ana shu bazisning oqilona asosini shakllantiruvchi soliq hamda uning tizimini jamiyat tarixi taraqqiyotida tutgan rolini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, o'ziga xos dastak ekanligini ilg'ash qiyin emas.

Chunki, har qanday jamiyat o'zining xususiyati va tabiatiga ko'ra bu jarayonga hamohangdir. G'oyat mas'uliyatli, o'z navbatida o'ta yuqori darajadagi ehtiyojni o'zida ifodalagan soliqlarning o'ziga xos rivojlanishi natijasida ularning jamiyat taraqqiyotida yangi qirralari, imkoniyatlari ortib bordi.

Soliq nazariyasi fani soliqlarning nazariy jihatlarini, xususiyatlarini o'rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to'xtalishdan oldin Soliq kategoriyasiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Soliq kategoriyasi - bu muhim iqtisodiy jarayon bo'lib, uning paydo bo'lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini ta'minlaydi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli ushbu kategoriya har bir davlat tomonidan o'ziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta-sekin rivojlanib borishi bilan uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa, soliqlarga nisbatan qo'yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma'lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo'lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko'payadi. Bunday holatda soliqlarning shakllari pang-baranglashib boradi.

Har qanday fan o'zining predmetiga ega, ya'ni izlanish obyektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'lib kimyoviy moddalarning tarkibini o'rganish hisob-lansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmi xarakteristikasi bo'lsa, Soliq nazariyasi fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini) o'rganishdir.

Demak, soliq nazariyasi fanining predmeti - bu soliq to'lovchilarning majburiy to'lovlar bo'yicha davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini o'rganishdan iborat. Ushbu keltirilgan ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, fan o'z predmetini o'rganishda turli usullarning o'zaro aloqasining nazariy jihatlarini o'rganar ekan. Jumladan, soliq subyektlari, davlat byudjeti, majburiy to'lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining nazariy jihatlarini, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

Fanning mohiyati shu o'rtadagi moliyaviy munosabatni, ya'ni soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish, soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi.

Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlilik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytilsa, byudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi.

Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qolishi mumkin. Daromadlarning soliq subyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi.

Demak, soliq nazariyasi fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

1.2. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi

Odatda soliq o'zida nimalarni ifoda etishi borasidagi bilimlarni olish murakkab masala hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda bu fanni filga qiyoslash mumkinki, uni tasvirlab bergan taqdirda ham u haqida yetarli tasavvur hosil bo'lmaydi (magaramki bu filni o'z ko'zingiz bilan ko'rmingizcha).

Soliqlar masalalariga doir bilimlarni o'rganish boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishni talab etadi. Jumladan, Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, Iqtisodiyot nazariyasi, Moliya, Soliq menejmenti, Soliqlar va soliqqa tortish kabi fanlar shular jumlasidandir.

Fanning iqtisodiy ta'limotlar tarixi bilan bog'liqlik jihati shundan iboratki, agarda iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani o'z predmetida asosan jamiyat taraqqiyoti davrlarida ulardagi

muammolarni yechib berishga qaratilgan turli shaxslarning iqtisodiy fikrlarini, g'oyalarini, turli nazariyalarni o'rgansa, Soliq nazariyasi fani ham o'z predmetini o'rganishda soliqlarga tegishli bo'lgan turli xil g'oyalar va nazariyalarni o'rganadi.

Soliq nazariyasi fani iqtisodiy nazariya fani bilan chambarchas bog'liqdir va uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan bo'limidir. Chunki soliq nazariyasining qonuniyatlari umumiy iqtisodiy nazariya qonuniyatlari-dan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi.

Shuningdek, mazkur fan moliya nazariyasi fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun moliya ham, soliq ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Ularning ikkala-si uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin Soliq nazariyasi o'ziga xos bo'lgan pul munosabatlarini, ya'ni soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy pul munosabatlarini o'rganadi.

Fanning soliqlar tarixi fani bilan bog'liqlik jihati shundan iboratki, soliq nazariyasi fanida ham soliqlarning rivojlanish bosqichlari, davrlari, har bir davrda va davlatda amal qilgan soliqlar, ularning tarkibi va tuzilishi, dinamikasi kabilar o'rganiladi.


Soliq menejmenti fani bilan soliq nazariyasi fanining bog'liqligi shundan iboratki, soliq menejmentida soliq ishini tashkil etish davlat nuqtayi nazaridan yoki davlat miqyosida va korxonada olinadigan bo'lsa, soliq menejmenti ishlarini tashkil etish nazariyalari soliq nazariyasining ajralmas qismini tashkil etadi.

Fan shuningdek, soliqlar va soliqqa tortish fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Soliq nazariyasi fani o'z predmetini o'rganar ekan, birinchi navbatda bugungi kundagi mamlakatimiz soliq tizimi bilan hamnafas bo'lishi lozim. Bunda amaldagi soliq mexanizmining nazariy masalalari o'chib beriladi.

Soliq nazariyasi fani davlat byudjeti fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatida byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo'lmasa, byudjet munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar



soliq, buxgalteriya hisobi, soliq huquqi fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.



Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va bosqin qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pullik munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar

ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo'lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tatbiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

Soliq xizmati xodimlari o'zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning obyektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: «Nazariya qo'mondon, amaliyot askarlardir» Nazariya amaliyotni to'g'ri yo'lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo'lishlari zarur.

1.3. Soliq nazariyasi fanini o'rganish usullari

Har bir fanning shakllanishi fanning predmeti shakllanishi bilan birgalikda uning ilmiy bilish usullarining qaror topishi bilan ham bog'liq. Har qanday fanni o'rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o'z predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun, fanni o'rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo'linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o'rganishning birdan bir to'g'ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan, Soliq nazariyasi fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko'rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa - bu induksiya. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu - deduksiya.

Shu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi Soliq nazariyasi fanining ham o'ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratiladi va xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta'siri e'tiborga olinmaydi.

Soliq nazariyasi fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - bu o'rganilayotgan butun obyektning qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo'lsa, sintez esa, o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon, deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo'l bilan o'rganiladi.

Fan o'z predmetini o'rganishda makroiqtisodiy va mikro-iqtisodiy holda tahlilni qo'shib olib borish muhim o'rin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikro-iqtisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar nuqtayi nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.




Shuningdek, fan o'z predmetini o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullardan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

Ko'pchilik soliqqa tortishni nima ekanligini tushunishmaydi, shunday bo'lsa ham soliq bizning kundalik hayotimizga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Rasmdagi shaxs umrining ko'p qismi davomida Buyuk Britaniya Ichki Daromadlar Xizmatiga soliq to'layotganini va bu jarayon juda murakkabligini, uni hanuzgacha tushinmaganini izohlaydi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida soliq tizimi juda murakkab, faqat juda oz kishilar (ayrim professional soliq maslahatchilari, advokatlar) soliq tizimini tushunishadi, shunga qaramay fuqarolar va tadbirkorlar ularga nisbatan mavjud barcha soliq majburiyatlariga to'liq bo'ysunishadi. Albert Enshteyn «Dunyodagi tushunish qiyin bo'lgan so'z bu $\frac{3}{4}$ daromad solig'idir» deb ta'kidlab o'tgan. Adolatli ravishda shuni ta'kidlash joyizki, qiyinchiliklarning katta qismi soliq qoidalari tug'ri qullanilishiga bog'liq, agar ular qullanilsa faqatgina taxnik hisob kitoblarda amalga oshiriladi xolos, bundan keyingina soliq qancha miqdorda to'lanishini aniqlash kerak bo'ladi. Bundan keyingi qiyinchilik barcha mamlakatlardagi mavjud soliq tizimining bir-biridan farqi bilan ifodalanadi.

Soliqqa tortishga xos bo'lgan yana bir noaniqlik bu soliq-larga nisbatan yondashuv turli xil fanlar nuqtayi nazaridan berilganligi bilan izohlanadi va buni quyida ko'rib chiqamiz. Ushbu fan turli iqtisodiy fanlar bilan bevosita bog'liq va ular bilan uzviylikda o'zaro bog'langan. Shuning uchun ko'pchilik bu fanga boshqa fanlarni o'rganish orqali ham kirib keladi. Buxgalteriya hisobi, huquqiy fanlar, iqtisodiy fanlar orqali soliqqa tortishni o'rganishga intiladi, vaholanki, soliqqa tortish alohida fan sifatida boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqa-

dorlikda o'rganiladi. Tarixchi Neyl Ferguson o'zining «Pulning paydo bo'lishi, dunyoning moliyaviy tarixi» kitobida quyidagilarni alohida qayd etib o'tgan: «buyuk tarixiy voqea- hodisalar ortida moliyaviy sirlar yotadi» va shuni tavsiya etadi moliya tarixi orqali tarixga qayta nazar tashlash mumkin. Shuning uchun ham soliqqa tortish moliya tarixining ajralmas qismidir. Ushbu fanning kelajagini belgilashda soliq shart- sharoitlarini o'rganish orqali bu mashaqqatli yo'ldan o'tadi.¹



Men 63 yildan beri soliq to'layapman va haligacha u haqida hech narsa bilmayman.

Bu yana shuni aniqlab beradiki, xususiy sektorda soliqqa tortish bo'yicha kim ishlasa turli professional tashkilotlarga, hisob institutlari, yuridik hamjamiyatlarga taalluqli bo'lishi mumkin va o'zlarini soliq konsultantlari, soliq amaliyotchilari, soliq advokatlari, soliq hisobchilari sifatida atashlari mumkin va turli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari mumkin. Yana shuni unutmash kerakki, soliq mutaxassislari soliq idoralari uchun ishlaydilar va davlat xizmatchilari sifatida faoliyat yuritadilar yoinki jamiyat xizmatchilari maqomida bo'ladilar.

Talabalarga soliqni hisoblashda uchraydigan muammolarni yechish uchun juda ko'p foydali adabiyotlar mavjud, lekin ularning faqat oz qismigina soliqqa tortishning rivojlantirish asoslarini belgilovchi tamoyillar va nazariyalarni to'liq yoritib beradi. Bu masalani yoritib beruvchi har qanday darslik qalin va og'ir bo'lishi talab etiladi. Asosiy maqsad ta-

¹ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015

labalarni fan doirasida dastlabki ko'nikmalardan tortib to qiyin masalalarni hal qilishgacha jarayonda qatnashtirib, soliqqa tortish nazariyasi va tamoyillariga olib kirish va buning natijasida bu sohadagi bilimlarini oshirish bilan ifodalanadi. Oddiy hisob-kitoblarni amalga oshirishda soliqqa tortish nimaga kerak va u nimaga ishlatiladi, degan tushunchaga ega bo'lish shart emas. Lekin quyida beriladigan ma'lumotlar orqali talabalarda soliqqa tortishning nisbatan qiyin bo'lgan fan sohasi ekanligini isbotlaydi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliq nazariyasi fanining predmeti va o'rganishning qanday usullari mavjud?
2. Soliq nazariyasi fani nima uchun iqtisodiy fanlar tarkibidan o'rin olgan?
3. Fanni o'rganishdagi umumiy usullar haqida tushuncha bering.
4. Fanni o'rganishdagi alohida usullar haqida tushuncha bering.
5. Soliq nazariyasi fani o'z predmetini o'rganishda qaysi fanlar bilan aloqada bo'ladi?
6. Soliq nazariyasi fanini o'qitish nima uchun kerak?
7. Soliq nazariyasi fani nimani o'rgatadi uning qanday vazifalari bor?
8. Soliq nazariyasi fanining mazmunida nimalarni o'rgatish maqsadi yotadi va uning mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday?

II BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Reja

- 2.1. Soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari
- 2.2. Markaziy Osiyo hududida soliqlarning paydo bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi
- 2.3. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar va soliqqa tortishning xususiyatlari
- 2.4. Xonliklar va chor Rossiyasi davrida soliqlar va soliqqa tortishning xususiyatlari
- 2.5. Sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo'lgan yondashuv

2.1. Soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari

Soliqlarning paydo bo'lishi, ularning ilk ko'rinishlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish har bir ilm ahlini qiziqtirishi tabiiy. Soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, soliqlar tarixini yorituvchi manbalarning guvohlik berishicha, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zururiy bo'g'iniga aylangan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi ham doimo o'zgarib turgan.

Soliqlarning ilk ko'rinishi sifatida qurbonlik qilingan noz-ne'matlar e'tirof etiladi. Buning xususiyati shundan iboratki, qurbonlik qilish majburiy bo'lmay, balki ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgan. Qilingan qurbonliklar esa kambag'allarga, nochorlarga, yetimlarga, muhtojlarga ulashib berilgan. Keyinchalik joriy etilgan soliqlar esa bevosita qabila hamda urug'lar o'rtasida davom etib turgan urush-janjallar-



ga bog'liq. Bunday soliqlar natura shaklida bo'lib, bir qabilani bosib olish yoki o'zini muhofaza qilish uchun safarbar etilgan.

Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'ringa chiqishiga, avvalambor, davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo'linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi hamda ularning ma'lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo'lgan.

Ingliz iqtisodchisi *S.Parkinson* so'zi bilan aytganda: «Soliqlar ko'hnadir - xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo'mondan o'z hududida joylashgan daryo yoki tog'dan savdogar hamda sayohatchi o'tsa ulardan haq olishi sabab bo'lgan»².

Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o'zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, ular qadimda bir qancha ko'rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pullik shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi.

V.M.Pushkaryova soliqlar rivojlanish tarixini 3 bosqichga ajratib ko'rsatadi³. Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o'rta asrlar qishloq xo'jaligi tizimiga xos bo'lib, u tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Shu davrdan e'tiboran soliqlar va ularni undirish mexanizmi joriy etildi.

Soliqlarning joriy etilishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning amal qilishiga davlat apparatining shakllanishi, armiya, sud va ularning moliyaviy manbalar

² Паркинсон С. Закон и доходи. - М.: ПКК "Интерконтакт", 1992. - С.14-15.

³ Пушкарева В. История финансовой мысли и политики налогов. Учебное пособие. - М.: Инфра-М, 1996. - С.17.



bilan ta'minlash zaruriyati, tovar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi kabi omillar sabab bo'lgan.

Ilk soliqlar tizimsiz to'lovlar ko'rinishida bo'lib, ular natura shakliga ega bo'lgan. Aholi soliqlarni ekinlar hosilidan, savdo-sotiqdan hamda ovlagan hayvonlaridan to'laganlar. Urush vaqtida esa qo'shimcha oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslahalar yetkazish, nochor bo'lsa askar sifatida qo'shimcha jalb etilgan. Rim imperiyasi hamda Afinada tinch-totuv paytlarda soliq olinmagan. Soliqlarni joriy etish va undirish faqat urush davrlariga to'g'ri kelgan.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi soliqlarning hozirgidek pul ko'rinishiga kelishiga olib keldi. Oldin soliqlar asosan chegara va qo'shin ehtiyojlariga, shahar atrofini mustahkamlashga, yo'l va ibodatxona qurilishlariga yig'ilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan soliqlar davlat xazinasi daromadining birinchi galdagi manbayi bo'lib qoldi.

Hozirgi davr soliq tizimiga mohiyatan o'xshash ilk soliq tizimi qadimgi Rimda shakllangan. Bu soliqlar faqat urush xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan. Rim aholisi o'zining mol-mulki, turmush darajasi hamda oilaviy ahvolidan kelib chiqqan holda soliq to'lashgan. Soliq summalari maxsus shaxslar tomonidan hisob-kitob qilingan.

Rimda davlat tashkilotlarining rivojlanishi bevosita imperator Oktavian Avgustin (eramizdan avvalgi 63-14-yillar) tomonidan soliq islohotini amalga oshirishga, oqibatda esa ilk bor pul ko'rinishidagi soliqlarning joriy etilishiga olib keldi. Soliqlarni joriy etish va ularni nazorati bilan shug'ullanuvchi moliyaviy muassasa shakllandi. Yer solig'i davlat soliqlarining asosiy ulushini tashkil etgan. Shu qatori ko'chmas mulkdan, baliqlardan, chorva va boshqa mollardan soliqlar undirilgan. To'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlar ham amal qilgan. Masalan, oborot solig'i 1 foiz, qullar savdosidan oborot solig'i 4 foiz va boshqalar. Bu davrga kelib soliqlar nafaqat fiskal, balki u yoki bu iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha tartibga soluvchilik vazifasini ham bajara boshlagan.

Ammo XVII asrgacha Yevropada soliqlar tartibsiz undirilganligi uchun yagona tizimga ega bo'lmagan. Ularning taqdi-



ri urush natijalariga bog'liq bo'lib, goh kamayib, goh ko'payib ketar, natijada aholining tinkasini quritar edi. Faqatgina XVII asr oxiri XVIII asr boshlariga kelib soliqlar rivojlanishining ikkinchi bosqichi boshlandi.

Ikkinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko'rilgan. Soliq obyektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun-qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq tizimi yuzaga kelgan. To'g'ri va egri soliqlar ilk bor ajratilib, bu soliqlarning muhim va ahamiyatli jihatlari o'chib berilgan. Soliqlar ichida asosiy o'rinni aksizlar egallagan. Bular qonuniy ravishda shahar darvozalarida mamlakatga kiritiluvchi yoki undan chiqariluvchi tovarlardan undirilib, hamma daromadlar va tushumlar soliqqa tortilgan.

Yevropa mamlakatlarida demokratiyaning rivojlanishi natijasida soliqlarni hisoblash va undirish borasida aholining haq-huquqlarini himoya qilish masalalari o'rtaga tashlandi. Natijada 1689-yil Angliyada «Bill huquqlari» kitobida qat'iyon xalq vakillari organlariga davlat daromadlari hamda xarajatlari to'g'risida ma'lumot berishi belgilandi.

Fransiyada esa faqatgina 1791-yil «Buyuk Fransuz revolyutsiyasi»dan keyin davlat byudjeti va soliqlari haqida ma'lumot berila boshlandi.

Soliqqa tortish tizimi rivojlanishi bilan bir qatorda soliqqa tortish nazariyasi ham asta-sekin shakllana bordi. Soliqqa tortish nazariyasining ilk asoschisi shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smitdir (1723-1790). U o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning davlat moliyasi tizimidagi ahamiyatini soliq to'lovchilarga tushuntirib, ularni davlatga to'lash *qullik emas*, balki *erkinlik alomati* ekanligini asoslab berdi.

Uchinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o'rnatish va undirishga oid qonun-hujjatlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatda moliya ilmining rivojlanishi bilan soliqqa tortish muammolari va uslubiyatlariga



bag'ishlangan yangi-yangi ilmiy-nazariy qarashlar vujudga keldi. Ammo hech qanday iqtisodiy maktab soliqlarning fiskal funksiyasidan muhimroq qarashni ilgari sura olmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko'p mamlakatlar yangi ilmiy nazariyalarni hayotga tatbiq etishga uringanlar, lekin faqatgina birinchi jahon urushidan so'ng yangi ilmiy qarashlarning samarasi o'laroq soliq tamoyillari hozirgi mukammal ko'rinishga ega bo'lgan. Ayni shu vaqtda zamonaviy soliq tizimining poydevori qurila boshlandi, to'g'ri soliqlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda byudjet daromadlari ulushining katta qismini to'ldiruvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqlarni progressiv stavkalari joriy etildi.

Shu bilan birga tan olish lozimki, shu vaqtgacha biror bir davlatda mukammal soliq tizimi amal qilmaydi. Hozirgacha iqtisodiyot ilmi soliqqa oid ko'pdan ko'p savollarga javob topa olmayapti. Ammo rivojlangan mamlakatlarda doimo amalga oshiriladigan islohotlar shundan dalolat beradiki, barcha hatti-harakatlar soliqlarning adolatli, teng taqsimlangan hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabi unsurlarning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan.

Soliq bu keng qamrovli va uzoq tarixga ega bo'lgan fan. Fanning keng qamrovga ega ekanligi yozuvchilar uchun ko'p muammolarga sabab bo'ladi. Birinchidan, ko'plab muhim kitoblar va maqolalar mavjud bo'lganligi sababli bu fan hali ham o'rganilayotgan fanlardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan shuni anglash mumkinki soliq tarixi haqida aniq bir tushuncha berish ikki baravar qiyinchilik tug'diradi. Ikkinchidan soliqlarga qaysi nuqtai nazardan qarash vazifasi mavjud ya'ni mamalakat tarixiga soliqlar yoki soliq to'lovlari yoki fanning paydo bo'lishi jihatidan qarash.

Soliq solishlar, soliq tarixida muhokamali obektlarning ko'pligiga qaramasdan ularning hammasi ham ma'lum bo'lmagan, ularning ko'pchiligi munozarali, har xil ko'rinishda bo'lgan. Boshqaruvchilar va davlatlarning soliq daromadlariga muhtojligining sabablari berib o'tillgan. Lekin soliq to'lash har doim majburiy bo'lgan. Fransiya qiroli Lyudovik



XIV ning moliya vaziri Jan –Batist Kolberom soliqning xususiyatlarini qisqa qilib ko'rsatib bergan: Soliqqa tortish san'ati xuddi o'rdakning patini yulishda kam sonli vishillash bilan ko'p miqdordagi patlarga ega bo'lishga o'xshaydi.

Soliq tarixida keng tarqalgan eng ko'p asosiy masalalar qabul qilingan adolatsiz soliqlarga qarshi isyon ko'tarish va qarshi kurashish bo'lgan. Bunday qarshiliklarning asosiy sabablaridan yana biri bu soliq yig'imlar, soliq yig'uvchilar va soliq darajalari bo'lgan. David Burgning "Butun dunyo soliq isyonlari tarixi" deb nomlangan kitobi juda ko'p davrlarda mamlakatlardagi soliqlarga qarshi g'alayonlarni qamrab olgan. U ko'plab tarixiy hodisalarni, xususan: Amerikada Magna Karta revolutsiyasi va 1789-yilda Fransiyada Revolutsiya kabi soliqqa qarshi g'alayonlari o'tkazilgan. Bu g'alayonlar tez-tez bo'lib turgan va " iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va diniy muammolarni o'z ichiga olgan".

Magna Karta qo'zg'alonida soliq muammolari muhim o'rinda bo'lmagan. Magna Karta qo'zg'aloni tufayli o'z davri uchun muhim bo'lgan mamalakatni boshqarish qonuni ishlab chiqilgan va inson huquqlari haqidagi birinchi konstitutsiyaviy hujjat hisolangan. Ko'plab Moliyaviy mojarolar sababli yuzaga kelgan Magna Karta qo'zg'aloni avjiga chiqqan vaqtda qirol Jon Angliya taxtiga o'tirgan. Qo'zg'alon qamrab olgan vaqtda Yevropada soliqlar o'zgara boshlagan. Xalqdan olinadigan daromad soliqlar va mol-mulklar yer egalari tomonidan boshqarilgan, bu esa mamlakat uchun o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun yetarli bo'lmagan va shuning uchun soliqlarni oshirishga majbur bo'lgan. Yer egalarning mulklari va savdodan tushgan pullari soliqlar bilan nazorat qilinmagan. Qirol Jon 1199-yilda tang ahvoldagi qirollikni meros qilib oladi. Qirol Jon tezlik bilan akasi Richardning o'rniga taxtga o'tiradi. Akasi Richard ham qasrdagi ishlarini boshqargan. 1204- yilda Jon Normandiyani Fransiyaga boy beradi. Shundan so'ng qirol Jon daromadlarni oshirish uchun bir soliqni ikki soliq turiga almashtiradi va bunda soliq turlari oshgan va ular tez-tez majburiy ravishda undirib olingan. Buning oqibatida Qirol Jon Senterbur arxiyepesko-



pi Stephen Langton bilan kelishmay qoladi va papa Angliyani 6 yil qo'l ostida ushlab turdi. Tezda Qirol Jon Angliyadagi barcha cherkovlarning mol-mulkini qo'lga oldi, lekin ko'p miqdordagi pul evaziga ularni qaytardi.

Qirol Jon Magna Karta qo'zg'alonini bostirishda jonbozlik ko'rsatdi. 1215-yildagi 61-hujjatga ko'ra "hujjatlarning yarmi moliyaviy shikoyatlar haqida bo'lib, ular qirolning pul yoki yig'ib olinayotgan hosil miqdorini oshirishidan xalqning qoniqmayotganligini ko'rsatadi". Boshqa bir 23-hujjatda esa moliyaviy shikoyatlar yozilmagan bo'lsada, og'irlik o'lchovlarni va o'lchamlarni standartlashtirish kabi muammolarning moliyaviy masalalarga daxldor ekanligini anglashimiz qiyin emas.

Qirol Jon boshqaruvni o'z qo'lga olgach, soliqlarni joriy qiladi va bu soliqlarga o'sha davrda ehtiyoj bor edi. 1207-yilda soliq munosabatlari juda aniq tushunarli edi. 1207-yilda daromadning 13 qismi soliq sifatida olingan.

O'sha davrda milliy soliqlar bilan feodal solig'i o'rtasida katta farq bo'lgan. Yangi soliq turi kelajakdagi ehtiyojlar uchun yig'ilgan. Bu soliqlar yerdan boshqa mol-mulkdan olingan va ba'zi monarxlardan tashqari jamiyatning hamma sinflari tomonidan to'langan. Soliqlar qirolning maxsus odami tomonidan yig'ilgan.

Kelajak uchun soliqning asosiy mazmuni. Manga Karta qo'zg'aloni Fransiya Revolutsiyasi bilan o'xshash, bunga ko'ra Lues XVI qirollikni inqiozli holatda meros qilib oladi. Yetti yillik urush va Fransuzlarning Amerika Mustaqillik urushiga jalb qilinishi Fransiyaning inqirozga olib keldi. Revolyutsiyaning bo'lishiga bundan boshqa ko'plab sabablar bor edi: eski tuzumning qiyinchiliklari, jamiyatdagi tengsizlik, burjuaziyaning oddiy xalq ustidan asossiz joriy etgan soliq to'lovlari kabilar. Faqatgina cherkovlar emas, hattoki, ba'zi zodagonlar ham to'g'ri soliqlarni to'lamaganlar. Soliqlarni yig'ib beruvchilar uzoq vaqt o'zlarining feodal yerlarini qo'lda saqlab qolganlar. O'n yettinchi asrning oxiriga kelib to'g'ri soliqlar zodagonlikning belgisi sifatida namoyon bo'lgan. Agarda kimning puli bo'lsa va ular soliqlarni to'lashga qurbi

yetsa ular kam soliq to'laganlar. O'zi uchun imtiyozlarni sotib olish boy odam uchun juda ham oson bo'lgan.

Fransiya zodagonlarining soliqlarni to'lamasligi Fransiyaning urush vaqtida qarz olishga majbur qildi. Ma'lum darajada soliqlarning ko'tarilishi xalqda noroziliklarning paydo bolishiga olib keldi. Bu esa davlatda daromad solig'ining nufuzi oshishiga olib keldi va barcha jismoniy shaxslardan mol-mulkiga qarab soliq undirildi. Daromad solig'ini Fransiya Revolyutsiyasida muhim rol o'ynagan shaxs yozuvchi Tomas Payne tushuntirib bergan. Uning eng katta ishi "Inson huquqlari" asari (1791-1792- yillarga qadar chop etilmagan) hisoblanadi. Uning asari keng muhokamada bo'ladi va 1798-yilda Buyuk Britaniyada Britaniya Bosh vaziri Uilyam Petti tomonidan daromad solig'i joriy qilindi.

Amerika Mustaqillik urushida Amerika kolonistlarining Britaniya Parlamentining soliq to'g'risida chiqargan qarorlariga qarshi g'azabi kuchayib bordi. Yetti yillik urush soliqlarning soni sarflangan va ko'payib ketgan. Bu soliqlar asosida Britaniya hukumatining qarzlarni to'lashga sarflangan. Amerika koloniyalari o'zlarining moliyaviy qiyinchiliklari to'g'risida gapirish uchun parlament a'zolarini saylashda ishtirok eta olmagan. Bu esa odamlarga yomon ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli ular "tushuntirib berilmagan soliq bizga kerakmas" deb norozilik bildirishgan. Noroziliklarning bir nechta asosiy sabablari bo'lib, Amerika koloniyalari uchun bir nechta qarorlarlar rejalashtirilgan, masalan 1733-ildagi molesas solig' va 1764-yildagi Shakar soliqlari shular jumlasidan. Bu soliqlar Stamp qaroriga ko'ra plantatsiyalardan olingan. Bu qarorga ko'ra koloniyalardan shtamplangan qog'ozlardan fodalanish talab qilingan. Bu shtamplangan qog'ozlar Londondan sotib olingan va soliqlar Britaniya pulida to'langan. 1766-yilda bu soliqlar bekor qilinadi. Eng muhim soliq bo'lgan choy solig'i joriy etiladi.

Choy solig'i 1767-yilda Charles Tovnshend tomonidan ishlab chiqilgan nizomi asosida joriy etilgan. Bu nizom Tovnshend nizomi nomi bilan ham yuritiladi. Bu nizom uzoq vaqt amal qilgan. Koloniyalardan olingan soliqlar yanada oshirilis-

hi, koloniya majburiyatlarining yanada ortishi koloniyalarining mustaqillikka bo'lgan harakatlarini tezlashtirib yubordi. Choy solig'i ommalashmadi va odamlarning noroziligiga olib keldi va oqibatda esa 1770-yilda "Boston odamlarni o'ldirish" nizomining qabul qilinishiga olib keldi. Bu mashum voqea esa Amerika revolyutsiyasining boshlang'ich alomati bo'ldi. Shundan so'ng Britaniya hukumati Townshend qonunlarining ko'pchiligini bekor qildi. Lekin choy solig'i bekor qilinmadi. Choy solig'i bilan shakar va shtamp soliqlari o'rtasidagi farqlar xalq o'rtasida to'g'ri tushunilmadi. Bu holatda esa norozilikning kuchayishi Britaniya Ost-Indiya kompaniyasining inqirozga yuz tutishiga olib keldi.

Kompaniya uning to'plangan „choy tog'i" va 1773-yildagi „choy qonuni" ga binoan choy kontrabandasiga qarshi kurashiga va import bojining o'zgarmaganiga qaramay choy importi mustamlaka mamlakatlar uchun arzonroqlashtirilgan edi. The British East India kompaniyasiga hech qanday soliqlarsiz Britaniyaga choy import qilish va hech qanday vositachilarsiz mustamlakalarga to'g'ridan tog'ri eksport qilishga ruxsat berildi va bu kompaniya shu tariqa monopolda aylandi. Keyinchalik mansabdorlarda mustamlakalarning mustaqilligi haqida xavotir va boshqa monopollardan qo'rquv paydo bo'ldi va Britaniyaliklar mustamlakalardan soliq olish huquqini o'z boshqaruviga olishi haqida „Boston choy Partiyasi" ga xabar berdi, bunga etiroz bildirganlar choy kemalarini boston portlariga langar tashlashiga qo'ymasdan kemalarni dengizga haydadilar. Bu voqea 1775-yili boshlangan mustaqillik urushiga sabablardan biri bo'ldi.

Bundan tashqari soliqlarning ortib borishiga qarshi ko'plab qo'zg'olonlar sodir bo'lgan. Ulardan 3 tasi eng yirik va mashhurdir.

Soliq tarixida ko'plab turli soliqlar qabul qilingan rivojlanib borgan. Jamiyat rivojlanishi bilan soliq tizimi ham rivojlanib borgan. (masalan, hisobni yuritish, bug'galteriya yozuvlari va daromadlarni hisoblay boshlanishi natijasida). Ko'plab soliqlar esa faqat o'z davridagina qo'llangan, hozirda esa is'temoldan chiqqan Biz buni qirol Jonn davridagi, har-



biy" soliq misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu soliq yirik yer egalari tomonidan urush vaqtida qirol armiyasiga ritser yuborish tarzida amalga oshirilgan. Asta-sekin bu soliq pul ko'rinishiga o'tgan va qirol pullarni yollanma ishchilar yollashga sarflagan. Bu kabi xizmatlarni pul ko'rinishda o'lchash uchun puldan foydalanishdan avval buni o'zgartirishning iloji bo'lmagan. Ammo puldan foydalanish keng tarqalishiga qaramasdan hamma ham unga ega bo'lmagan va soliqlarni boshqa yo'llar bilan to'lagan.

Burg (2004) ning izoh berishicha, eng avvalgi va umumiy soliq shakli bu corvee bo'lgan, ya'ni mamlakatga majburiy ishchi kuchini ta'minlash uchun shakllantirilgan (odatda kambag'al odamlardan) va hattoki, 19-asrda ham ba'zi mamlakatlar bundan foydalanilgan. Shuningdek, „ushoq“ soliq turi ham keng tarqalgan bo'lib, bu soliq yerdan foydalanganlik uchun undirilgan (yer egalarning yerdan olgan hosillariga nisbatan % ko'rinishida). Bu „ushoq“ solig'i tushunchasi dinga asoslandan soliqqa yaqin hisoblanadi. U Bibliyada tilga olingan, „masalan yerdan olingan 10-meva va qoramol xudoga qurbonlik qilingan“. Bu soliq turi haqida qadimgi yunon tarixchisi Geradot asarlarida ham ma'lumot berilgan.

Yana ko'plab soliq turlari Angliyada o'rta asrlarda mavjud bo'lgan. Masalan, jarimalar, qonunlarni buzganlardan, merosxo'rlardan ularning ota-onalari vafotidan keyin qolgan mol-mulklaridan soliq to'lattirilgan, jarima va qurbonliklar va qirol turmush qurishga ruxsat berishi uchun to'lovlar, kichik yerlar uchun vasiylikdan, qirol sudiga murojat qilish uchun, sud jarayonini kechiktirish, hadiya va ustavni tashdiqlash ko'rinishidagi daromadlar mavjud bo'lgan. O'rta ars manarxlarining daromadlariga ham asosan qirollik yerlaridan va yerga egalik qilish qonunlarini buzganlik uchun jarimalar solingan.

Yuqorida keltirilgan daromadlar doimiy oshirilib borilgan va oddiy daromad manbalari hisoblangan. Bundan tashqari agar oddiy daromadlar kam deb topilsa, qo'shimcha daromad manbalari talab etilgan (asosan qirol urushga ketgan-

da orta asrlardagi). "Scutage" va "Carucage" kabi 2 ta soliq turi, shuningdek „tallage" solig'i ham mavjud bo'lgan. Bu soliq shahar yerlari va foydalanishga berilgan qirollik yerlari foydalanuvchilaridan undirilgan. "dona" yoki "auxila" yaxudiy-lardan, ruxoniy va din uylaridan undirilgan. Turli xildagi soliqlar: Mulk va tovar aylanmasidan soliqlar va turli % da undirilgan: 7%, 13%, 15%,20% va h.k. va bu o'rta asrlar oxirigacha davom etgan (17- asrgacha). Angliyada 1381-yilda jon solig'i ham mavjud bo'lgan, ammo keng tarqalmagan. Buning sababi qo'zg'olonlar hisoblangan (WAT TYLER qo'zg'aloni), soliqlar hatto hech qayerda ishlamaydigan fuqaro va kasbidan qat'iy nazar yagona narxda bolgan.

Vaqt o'tgan sari ko'plab soliqlar paydo bo'la boshlagan. Masalan vino uchun soliq, eksport tovarlar uchun soliq (tunnage, poundage), chorva hayvonlari uchun, xom-ashyo materiallari, ishlab chiqarish tovarlari uchun, spirtli ichimliklar uchun soliqlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari yerdan, o'choqdan, oynalar, shishalar, butulkalar, shamlar, charm, o'yin kartalari, kristallar, sovun, qog'oz, kraxmal, meditsina vositalari, metall qoplamalar, temir, g'isht, kafel, shlyapa, qo'lqop, yog'och, xizmatkorlar, hatto qushlarga ham soliq solingan, (Rossiya, buyuk Pyotr davri).

Yuqorida aytilganidek, Buyuk Britaniyada ursh paytida soliqlar ortgan. Yana bir sezilarli soliq bu daromad solig'i bo'lib, bu soliq 18-asrda Buyuk Britaniyada joriy etilgan. Agar hukumat daromadlarida taqchillik kuzatilsa, pulni ko'paytirish yo'llarini qidirishgan. Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra bu yo'llarning ko'pi ish bergan. Daromad solig'i bu aholining soliq solinadigan daromadlari va foydalariga o'zgarish edi. Chunki ularni hisoblash va aniqlab olish ancha oson bo'lgan.

Parvoz, og'ish, oldini olish, rasmiyatchilik

Ko'p hollarda javobgarlikdan qochish, yani soliqlardan qutulib qolishga urinishlar ham bo'lgan. Soliq to'lovchilar, ko'proq kompaniyalar vaqti-vaqti bilan bunga harakat qilib turganlar.



Ko'plab soliqlardan qochishlar bo'lgan ulardan: 212 yilda ko'plab misrliklar o'z uylarini tark etganlar. Rim jon solig'i yuki og'irligidan keyinchalik imperator Karakalla viloyatlarda yashaydigan hammani rim fuqarosi, deb elon qiladi (mirslıklardan tashqari). Burg (2004) da aytilishicha rim imperiyasining shimoliy hududlariga dushmanlar hujum qilganda ko'plab kambag'al odamlar dushmanlar tomoniga o'tib ketganlar, buning sababi chidab bo'lmas darajadagi soliqlar bo'lgan va bu kabi soliqlar rim armiyasini dushmanlarga qarshi kurashish uchun sarflangan.

Shuningdek, 1970-yilda Birlashgan qirollikda ko'plab pop yulduzlari (Jon Lennon) Angliyani tark etishganligining asosiy sababi ularning daromadidan 98% lik daromad solig'i undirilishi edi. Google, Starkburks va Facebook kabi kompaniyalar soliq stavkalari qulay bo'lgan joylarda joylashishni ma'qul ko'rishadi.

Soliqning tarixiy qismi juda muhim, chunki har bir mamlakatning yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan o'z soliq tizimi mavjud va bu rivojlanishlarga nazar solish orqali biz qaysi soliq turi samaraliroq, qaysi biri esa foydasiz ekanligi haqida aniq fikrga ega bo'lishimiz mumkin.

2.2. Markaziy Osiyo hududida soliqlarning paydo bo'lishi, uning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi

Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga davlatchilik munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita bog'liq bo'lib, uning sababi sifatida shuni qayd etish lozimki, davlatning mavjud bo'lishi davlat xarajatlarini moliyalashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ma'lumki, davlatchilik munosabatlarining ilk ko'rinishlaridan tortib hozirga qadar ham davlat xarajatlarini moliyalashtirishning soliqlardan boshqa samarali mexanizmi mavjud emas.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Markaziy Osiyo hududida davlatchilik munosabatlari eramizdan avvalgi



ming yillik boshlariga borib taqalib, uning hududidagi eng qadimgi davlatlar sifatida *Katta Xorazm, Baqtriya va So'g'diyona* davlatlari qayd etilgan. Ushbu davlatlarni boshqarish tizimi, ularda amal qilgan soliqlar borasida aniq ma'lumotlar saqlanmagan bo'lsada, aytish lozimki, shak-shubhasiz u yoki bu ko'rinishdagi soliqlar amal qilgan. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga doir munosabatlar Markaziy Osiyo hududida ham dunyoning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi davrlar nuqtayi nazaridan oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib borgan.

Mamlakatimiz tarixida miloddan oldingi va miloddan keyingi davrlarda hukmronlik qilgan davlatlarda davlat boshliqlarining oliy maqsadlari o'z xazinasini tinmay to'ldirib borish, keyingi avlodlariga 2-3 barobar ortiq boylik qoldirish bo'lgan. Yig'ilgan xazinalarning eng ko'p qismi unumsiz tadbirlarga tartibsiz sarflanib, hatto isrof bo'lganligi ayon. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko'chmanchilik sharoitida o'zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko'plab urug' va qabilalar yer maydonlari, suv, o'tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelganlar, ayrim hollarda esa o'zlaridan kuchliroq, yirik qabilalarga yer solig'i, ya'ni o'lpon to'lab turganlar.

Tarixiy manbalar podshoh xazinasining dastlabki asosiy manbayi sovg'a-salom bo'lganligidan dalolat beradi. Lekin Doro hukmronligi davriga kelganda soliqlar joriy qilindi. «Doroni Forslar savdogar deyishlariga sabab, u birinchi bo'lib soliqlarni joriy etganligidadir» deb yozgan edi Gerodot. Doro soliq tizimini faqat o'z mamlakatida emas, balki zo'rlik bilan qaram qilib olgan mamlakatlarga ham joriy etdi. Soliq miqdori satin pul birligi talant hisobida aniqlangan. Ahamoniylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalardan soliqlar salkam ikki asr mobaynida yillik xiroj va harbiy otryadlar yetkazib berish shaklida undirilgan. Bu davrda soliq turlari ham har xil bo'lgan. Masalan, sak va kasbiylar kabi qabilalar 250 talant (1 talant 25 kg. 248 gr. Sof oltinga teng bo'lgan), ya'ni 6312 kg. miqdorida, parfiyaliklar, xorazmiylar, so'g'dlar va oriylar 300 talant, ya'ni 7575,4

kg. miqdorida xiroj to'lashgan. Qat'iy belgilangan xirojlardan tashqari har xil sabablarni ro'kach qilib qo'shimcha soliqlar ham joriy etilgan va ular suv yo'lini to'sib qo'yish yoki bos-hqa xil zo'ravonlik kabi tahdidlar orqali undirib olingan.

Erondagi qadimgi Persapoli shahridan topilgan uzoq aj-dodlarimiz, ya'ni baqtriyaliklar, xorazmliliklar, so'g'dlar va saklar tasvirlagan rasmlarda saklar kiyim-kechak, baqtriyaliklar tuya va idishlar, xorazmliliklar dudama xanjar, jangavor bolta, bilakuzuk va otni shohga olib borayotgan manzara chizilgan. So'g'd bitiklariga ko'ra O'rta Osiyoga mashhur ot-lar, oltin, firuza va qimmatbaho toshlar olib kelingan.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni bosib olib, uni o'z saltanati tarkibiga kiritgach, bu yerda istiqomat qiluvchi-lar soliqlarni yunonlar tamoyili bo'yicha to'lay boshlaganlar. Yunonistonda soliqqa tortish Markaziy Osiyodagidan farq qilib, soliqlar daromad solig'i va ehsonlardan iborat bo'lgan. Daromad solig'i daromadning o'ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan va jamoat manfaatlarini himoya qi-lish maqsadlari yo'lida ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoda asosan Ahamoniylar barpo etgan davlat apparati tuzilmasini saqlab, mahalliy zodagonlar tarkibidan satraplar hokimiyatini tuzgan. Maxsus soliq xizmati joriy qilmagan, soliq undirish vazifasi muayyan kishi zimmasiga yuklatilgan. Ular esa soliq to'lovchilardan xazina bilan tu-zilgan shartnomada belgilangandan ko'ra ko'proq soliqlar yig'ib, o'z manfaatlari uchun ham qo'shimcha mablag'lar to'plab olishgan.

Eramizdan oldingi 140-yilda Yunon-Makedon mamlaka-ti barham topdi. I asrning oxiridan boshlab to Yeramizning IV asr o'rtalarigacha Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi hukmronlik qildi. Bu davrda soliqlarni hisoblash va undirish tartibi haqida yetarli ma'lumot bo'lmasa ham, lekin ayrim arxeologik topilmalar soliqlar oltin bilan hisoblanishini, un-dagi hujjatlar soliqlarni qabul qiluvchi xazinabon lavozimi bo'lganligidan darak beradi. Surxondaryo viloyatining Denov shahriga yaqin Dalvearzintepa qishlog'idan topilgan Kushon davlati davrida bunyod etilgan saroy qoldiqlari orasidan 40

kg dan ortiq oltin joylashtirilgan xum topilgan. Ashxobod yaqinidan topilgan bitiklar, yozuvlar esa soliq to'lash bo'yicha katta devon bo'lganligidan darak beradi. Bu hujjatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, soliq yig'ish va mahsulotlarni asrashga ko'pdan ko'p amaldorlar jalb qilingan.

IV-VI asrlardagi turkiy qavmlar tarixiga oid qadimgi manbalarda qabilalar, urug'lar o'rtasida sodir bo'lgan to'q-nashuvlarda mag'lubiyatga uchragan tomon aholisi yangi hukmdorlariga mavjud yer yoki chorvalari uchun soliqlar to'lab turganligi, dehqonchilik yoki chorvachilik bilan shug'ullanish imkoni bo'lmagan joylarda esa soliq o'rniga belgilangan miqdorda konlardan ma'danlar qazib berganliklari kabilar haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Arablar istilosigacha Markaziy Osiyoda shakllangan soliqlar tizimining xususiyati shundan iboratki, bu davrda quldorlik va feodal davlat boshqaruvining o'ziga xos belgilari birlashib ketgan, hatto ayrim hollarda zodagonlar lashkar boshilarga maosh to'lamasdan, uning o'rniga ikki toy tizimi joriy qilingan. Soliqlarni undirishda mahalliy oqsoqollar bilan birga soliq undirishning ijara usuli ham qo'llanilgan. Soliqlar ko'pchilik hollarda tumanlar bo'yicha belgilanib, to'lovchilarning xususiyatlari e'tiborga olinmagan.

651-yildan boshlab mamlakatimiz hududida arablar hukmronligi o'rnatildi. Soliqqa tortish tizimi bir muncha murakkablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq - zakot (mol-mulkdan 2,5 foiz miqdorida) ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo'ljallangan, kambag'allar, yetimlar va yo'lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan.

Bundan tashqari quyidagi soliqlar mavjud edi, *vazifa* - o'lpon, *juzya* - jon solig'i, *xiroj* - yer solig'i.

Xiroj quyidagi shakllarda undirilgan:

misaha - ishlov beriladigan maydon birligidan qat'iy stavkalarda;

muqota - qat'iy belgilangan summada;

muqosama - hosilning muayyan ulushida (1/3 qismi).

Xiroj Navro'z bayrami arafasida yig'ib olingan. Juzyani musulmon bo'lmagan fuqarolar (ozod yerkaklar) to'laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag'allar va qullar bu soliqni to'lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o'ziga to'qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari chorvadorlardan, hunarmandlardan va savdogarlardan soliqlar olingan.

Arablar hukmronlik qilgan davr soliq siyosatida ancha muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsada, ammo ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lgan. Xususan, Noib Ashras olib borgan soliq siyosatida qisqa vaqt ichida ikki qarama-qarshi yo'l tutilgan. Oldiniga musulmonlar juzya va xirojdan ozod etilgan. Ammo ko'p vaqt o'tmay xazinaga tushumlarning keskin qisqarib ketishi bu farmonni bekor qilishga majbur etgan. Oqibatda So'g'd va Buxoroda norozilik kuchayib, u qo'zg'alonga aylangan. Ashrasning muvaffaqiyatsiz soliq siyosati tufayli arablarga qarshi qudratli harakat avj olib, Movaraunnahrning tez orada arablar ixtiyoridan chiqishi bilan yakunlandi.

Ikki asrdan ko'proq hukmronlik qilgan arablar saltanati tugab, Somoniylar (869-1005-yillar) hukmronligi o'rnatilgach, ular davlatida o'nta devon tashkil etildi. Devonlardan uchtasi Devoni mustavfiy (kirim-chiqim ishlarini boshqargan) va Devoni muhtasib (bozorda toshu-tarozi, narx-navo va musulmonlar tomonidan shariat qoidalari bajarilishi ustidan nazorat qilgan), Devoni mushrif (davlat ishlari, xususan kirim-chiqim ishlarini yuritgan hamda) soliqlarni ham nazorat qilgan. Somoniylar boshqaruv tizimida Mustavfiy devoni daromadlar va xarajatlar uchun javobgar oliy moliya amaldori mahkamasi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, soliqlarni yig'ishni o'z nazoratiga olgan va kuzatib borgan.

Movaraunnahrda IX-X asrlarda yerlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekanligiga bog'liq edi. Yerlar uch toifaga bo'lingan:

Birinchi toifa yerlar - sultonga tegishli bo'lib (mulki sultoni), bunday yer ustidan nazorat keyinchalik «Mulki devoniy» deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomoni-

dan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko'p edi. Bunday yerlarga asosan dehqonlar yerlari kirgan.

Ikkinchi toifa yerlar - shaxsan hukmron sulolaning ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zodagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, sayyidlar (Muhammad payg'ambar xonadoni avlodlari), ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo'lgan xususiy mulk yerlar.

Uchinchi toifa yerlar - musulmon diniy muassasalariga, ya'ni masjid, madrasa, xonaqoh maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf yerlar.

Xiroj uchala toifa yerlaridan ham olingan bo'lib, ular «mulki xiroj» deb atalgan, lekin bunda oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo sayyidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to'liq yoki qisman ozod qilingan.

X asr boshlarida Movaraunnahrni Qoraxoniylar egaladi, ya'ni dariyzabon sulolasi o'rnini turkiyzabon sulolasi egallagach, markazlashtirilgan davlat o'rniga mamlakatni boshqarishning ulus tizimi o'rnatilib, barcha yer xon mulki hisoblangan, dehqonchilik yer egaligi instituti sifatida tarix sahnasidan tushishiga sabab bo'ldi. Bu davrda «iqta'» soliq yig'ishning asosiy manbayiga aylangan. «Iqtadorlar» o'z navbatida dehqonlarning oddiy jamoatchiga aylanishiga zamin yaratdi. Yerlar muayyan muddatga «Iqtadorlar» foydasiga muayyan daromadni to'liq yoki qisman olish huquqi bilan sovg'a qilingan. «Iqta'» sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan belgilangan soliqlarnigina olishi mumkin edi. «Iqta'»ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa obyektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do'konlar) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi lozim edi.

Saljuqiylar hukmronligi davrida soliq tizimi ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turgan. Manbalarda keltirilishicha shohlarda hamisha ikkitadan xazina bo'lib, ularning biri *asosiy*, ikkinchisi *xarj va xarajat* xazinasi bo'lgan. Qo'lga kiritilgan boyliklar asosan birinchi, ya'ni asosiy xazinaga kiritilib, zaruratsiz foydalanilmagan. Olingan taqdirda ham qarz sifatida olinib, tezda qaytarilgan.



Saljuqiylar davri soliq siyosatida ushbu davlatda ko'p yillar mashhur vazirlik lavozimida faoliyat ko'rsatgan Nizomulmulk (to'liq ismi Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy) muhim rol o'ynagan. Uning mashhur «Siyosatnoma» asarining 4-faslida soliq (zakot)chilar masalasi ko'tariladi. Uning qayd etishicha «soliqchilar xirojni shunday yo'l bilan talab qilsinlarki, odamlarga ziyon yetmasin. Soliq o'z vaqtidan oldin olinsa, raiyatga ranju azob yetadi, ular majburlikdan mol-davlatlarini yarim bahoda sotib, uy-joylarini tashlab ketib, ovora va sarsonlikda g'ariblikka muhtalo bo'ladilar»⁴ deb hisoblaydi. U soliqlarning me'yorida bo'lishi va ma'lum vaqtda to'lanishini rivojlanishning muhim omili sifatida qaraydi.

Amaldorlarning bu tamoyillarga amal qilmaganlarini jazolash, raiyatdan zo'rlik bilan mol tortib olingan bo'lsa egalari qaytarish, ularning orttirgan molu-boyliklari musodara qilinib, xazinaga topshirilishi, boshqalarga ibrat bo'lishi uchun amalidan olib, unga boshqa amal bermaslikni tavsiya etadi va uning o'zi shu qoidalarga amal qilganini yuqoridagi asarida qayd etgan.

1221-yilda O'rta Osiyoda mo'g'ullar hokimiyati o'rnatildi. Bu hududlarda soliq siyosatini olib borish maqsadida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirlar hayotga tatbiq etila boshlandi va Mahmud Yalavoch boshchiligida o'lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlar undirilar edi. «Kalon» solig'i dehqonlardan yig'iladigan asosiy soliq bo'lib, u hosilning o'ndan bir qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan «ko'pchur» solig'i olingan bo'lib, uning miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari «Yaso» qonuni bo'yicha aholidan davlat foydasiga «shulsi» deb atalgan soliq undirilgan. Ushbu soliq turining miqdori har bir otardan ikki yas-har qo'y va har ming otidan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan. Shuningdek, mamlakatdagi savdo yo'llarida joylashgan bekat - «yom» (jom) larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilib, ularning miqdori shu darajada ko'payib ketar

⁴ Razzoqov A. Nizomilmulkning iqtisodiy qarashlari. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi». 1999-yil 11-son.

ediki, ba'zi hollarda har bir «yom» uchun 20 ot-ulov, so'yish uchun qo'ylar, sog'ish uchun sog'uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan.

Mo'g'ullar istilosi davrida dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi, chunki yer solig'ini to'lashdan tashqari dehqonlar turli xil majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi. Hunarmandlar ayniqsa, qurol tayyorlab berish kabi majburiyatlarni olgan edi. Feodal va zodagonlarga xonzoda va xon xotinlari yorliq hamda *payzalar* tarqatgan, bu unvonlar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat hamda majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqini bergan. Payza ko'rsatilganda mahalliy aholi, masalan sayohat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga yem berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi.

Yil sayin aholining yashash sharoiti og'irlashib borishi mamlakatning ko'p joylarida qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olonlar zudlik bilan bostirilgan bo'lsada, lekin mo'g'ul hukmdori Munnexon Movaraunnahrda soliq to'lovchilar amalga oshirayotgan tartibsizliklar va suiistemolliklarga tegishli farmon chiqardi. Unga ko'ra boy kishi 10 dinor, kambag'allar esa 1 dinor to'laydigan bo'ldi. Chorva solig'i 100 tuyoqdan bir bosh olinishi belgilandi. Musulmon, xristian va butparastlar ruhoniylari, shuningdek, kekxa va ishlashga noqobil kishilar soliq to'lamaydigan bo'ldilar.

Chig'atoy ulusida yer solig'i o'ndan bir hajmda belgilangan. Soliqlar hatto sharob, guruch, go'sht hamda ot yemishi tarzida ham har bir xo'jalikdan undirilgan. Yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo'g'ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarga ega bo'lganlar, har xil yorliqlar olganlar. Oliy mansabdorlar soliq to'lamaganlar.

Soliq yig'ishga mas'ul etilgan Mahmud Yalovoch qo'zg'olonlardan so'ng o'z lavozimidan bo'shatildi va Movaraunnahrdan haydab yuborildi. Soliq yig'uvchi va noib etib uning o'g'li Mas'udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qildi. U mo'g'ullarga o'lpon va soliqlarni o'z vaqtida to'lab turdi. Natijada mo'g'ullar Movaraunnahrni boshqarish ishiga ara-



lashmaganlar. Bunday holat Amir Temur hokimiyati o'rnatilguncha davom etdi.

2.3. Amir Temur va Temuriylar davrida soliqlar va soliqlar tortishning xususiyatlari

Amir Temur insoniyat tarixida yirik davlat arbobi va o'rta asrning yengilmas, betakror lashkarboshisi sifatida Markaziy Osiyo hududida yirik saltanat barpo qilib, o'z saltanati tarkibiga 27 ta davlatni birlashtirdi. U hamisha o'z davlat tizimini takomillashtirib borishni o'ylar, mo'g'ullardan farqli o'laroq, boshqa o'lkalarni zabt etishnigina emas, balki aksincha, u yerlarni idora qilish to'g'risida ham qayg'urar edi.

Shu bilan birgalikda davlatni adolatli idora etishda soliq siyosatining o'rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunar edi. Amir Temurning soliqlar masalasi bilan jiddiy shug'ullanganligini isbotlaydigan qator dalillar mavjud.

Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyati bo'lmish «*Temur tuzuklari*» da ifodalangan bo'lib, uning soliq siyosati xususiyatlarini quyidagi fikrlari orqali ifodalashimiz mumkin: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinaning kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi»⁵. Asarda soliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan: «Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin yerlarini hisobga olsinlar va unday yerlardan olinadigan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasi) uchun olsin-

⁵ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 98-bet.

lar. Lalmikor yerlarni esa, jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu yerlardan (soliq olishda) uchdan bir va to'rttdan bir qoidasiga amal qilsinlar»⁶. Ushbu jumalardan ko'rishimiz mumkinki, soliq yerning lalmikor va sug'oriladigan qismlaridan alohida-alohida tartibda undirilgan. Bundan tashqari yangi yerlar o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari ham belgilangan: «Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchunchi yili esa oliq-soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin»⁷. Amir Temurning ushbu oqilona siyosati tufayli soliq to'lovchilarga soliq to'lash uchun qulay sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mahsulot tarzidagi soliqni soliq puli bilan almashtirib turish mumkin bo'lgan: «Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g'allaning mazkur davridagi narxiga muvofiq belgilasinlar»⁸. Amir Temur olib borgan soliq siyosatining muhim xususiyatlari sifatida shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, u tomonidan zabt etilgan o'lkalarga nisbatan alohida soliq siyosati yuritilgan. «Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar»⁹.

Amir Temur farmoyishiga binoan soliq undirish ishlari rahm-shafqatga asoslangan bo'lishi lozim: «Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilgach, hosilni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'lovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon

⁶ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 98-bet.

⁷ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 99-bet.

⁸ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 98-bet.

⁹ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 1991 y. 98-bet.



ishlatish, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqitish va tushuntirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdur»¹⁰.

Amir Temur yuritgan soliq siyosati o'z davriga nisbatan soliqqa tortishning ilg'or g'oyalarini o'zida ifodalay olgan. Soliqlarning davlatni mustahkamlashdagi ahamiyati hisobga olinishi bilan birgalikda muhim xususiyati sifatida qayd etish lozimki, u soliq to'lashga layoqatli soliq to'lovchilar bo'lishini e'tirof etgan. Shu boisdan ham davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida soliq munosabatlarini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Vaholanki, bu boradagi muammolar hozirgi davlatchilik munosabatlari davrida ham mavjud bo'lib, bunga buyuk saltanat sohibi Amir Temur bundan VI-VII asr avval erishishga harakat qilgan.

Shuningdek, Amir Temurning yuqoridagi fikrlaridan ko'rishimiz mumkinki, soliq undirish soliq to'lovchilarning muayyan mol-mulkka ega bo'lganida, ya'ni hosil olganidan keyin undirilgan. Shuning bilan birgalikda soliqlarni undirish xarajatlarini kamaytirishga ham harakat qilingan, ya'ni soliq to'lovchilar soliqni o'z vaqtida olib kelsalar soliq undiruvchi yuborish taqiqlangan. Soliq yig'ishda ko'proq tushuntirish, ogohlantirish va qo'rqitish kabi yo'llardan foydalanilgan.

Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosan yer egalari bo'lgan dehqonlar va yerga ishlov beruvchi ijarachilar amalga oshirganlar. Bu davrda asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan *xiroj* va *ushr* soliqlari amal qilgan. Bundan tashqari mamlakatda bog'dorchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun *mol sardaraxt*, *mol o'tloq*, *mol suvoq*, *mirobona* soliqlari ham amal qilgan. Yer solig'i yetishtirilgan hosilga va yerning sifatiga qarab hosilning 1/10

¹⁰ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991 y. 72-bet.

dan (ushr) to $1/3$ qismigacha miqdorida olingan. Savdogarlar va hunarmandlar *tamg'a* yoki *zakot* to'lashgan, chegaradan o'tgan mollar hisobidan ham *boj* olingan. Bu soliqlar davlat xazinasining asosiy manbaya hisoblangan.

Yuqoridagi soliqlardan tashqari favqulodda soliqlar ham amal qilgan bo'lib, ularga: *molujihot* - yer solig'ining bir turi bo'lib, pul yoki natura tarzida to'lanishi mumkin bo'lgan; *ixrojot* - saroylarga qarash uchun maxsus yig'im; *boj* - savdogarlardan chegarani kesib o'tishda undiriladigan bojxona solig'i; *sarmushar* - jon solig'i; *xonamushar* - har bir xonadondan olinadigan yig'im; *qo'nalg'a* - elchi, amaldorlar, choparlarni bepul qabul qilish va mehmon qilish yig'imi; *shilon puli* - noiblarni ziyofat qilishi uchun yig'im; *jon solig'i* - jon boshidan yiliga bir marta to'planadigan soliq; *pehshash* - yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'implarni kiritish mumkin.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan katta xizmatlaridan biri davlat boshqaruv tizimining mumtoz namunalarini qayta tiklash bilan chegaralanmasdan, zamon talablarini ko'zda tutib, yangi usullarni joriy qilishidir. Uning strategiyasida insonparvarlikka asoslangan mukammal jamiyat qurish g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Ungacha xazinani idora qilish faqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo'lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo'shib olib bordi. Xazina daromadlari solikli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Xazina xarajatlari tarkibidan obo-donchilik, ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot xarajatlarining hissasi ortib bordi. Bularning hammasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishi, uning xalqaro mavqeyini oshirishda faol ta'sir etdi.

Amir Temur Markaziy Osiyo iqtisodini rivojlantirishga, fan va madaniyatni qanchalik ko'tarishga uringan bo'lmasin, shafqatsiz to'liqlar u tashkil etgan buyuk saltanatning parchalanishiga, parokanda bo'lishiga olib keldi. Uning va-fotidan so'ng avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash uzoq davom etib, shahzodalar o'rtasida olib borilgan kurash o'lka-



ning moliya-soliq tizimiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Harbiy xarajatlar ko'payib borgani sari uning manbayi hisoblangan soliqlar tizimi izdan chiqdi.

XV asr davomida Movaraunnahr va Xurosonda avvalgidek yer mulkchiligining asosan to'rt shaklidagi: mulki devoniy - davlat yerlari, mulk - xususiy yerlar, mulki vaqf - madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va nihoyat jamoa yerlari bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek, mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida davlat yerlarini *suyurg'ol* tarzida in'om qilish ham keng tarqalgan. *Suyurg'ol* yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan to alohida qishloqqa cha *suyurg'ol* shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Amir Temur davrida bo'lganidek temuriylar davrida ham *suyurg'ollarni* ulashish amaliyoti keng tarqaldi. Markaziy hokimiyat vakillari - Shohrux, Ulug'bek, Abu Said, Sulton Husayn yoki uluslarni boshqargan shahzodalar yerlarga meros tarzida egalik qilish uchun ulashganlar.

Suyurg'ol egasiga o'z *suyurg'oli* doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida Xorazm - Shoh Malik; Farg'ona - Mirzo Ahmad; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson - Boysung'ur; Qobul, G'azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu bahodirning *suyurg'oli* edi. *Suyurg'ol* yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo'lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi. *Suyurg'ol* egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma'muriy va adliya jihatidan haq-huquqini cheklab qo'yar edi. *Suyurg'ol* egasi markaziy hukumatga bo'ysunmagan taqdirda *suyurg'ol*



huquqidan mahrum bo'lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi.

Temuriylar davrida dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi xususiy yerlardan iborat bo'lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan. Bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalari biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish keng tarqalgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar, asosan barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga tarxon so'zi qo'shib aytilgan.

Ulug'bek davrida Samarqand yana ravnaq topdi. Bu davrda san'at va ilm-fan rivoji uchun shu qadar katta ishlar qilindiki, bu davrni «Samarqandning oltin davri» deb atay boshlashdi. U soliq siyosatida dehqonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirdi va dehqonlar faravonligini oshirishga imkon yaratdi. Tushumlar qisqarishining o'rnini esa *tamg'a* - hunarmand va savdogarlardan olinadigan yig'imni ko'paytirish hisobiga to'ldirdi.

Temuriylar davridagi soliqlarni o'rganishda ayrim faktlarni keltirib o'tish o'rinli. Masalan, temuriylardan Husayn Boyqaro mamalakatdagi isyonlar tufayli xarajatlar ko'payganini hisobga olib, Hirot hokimi Muboriziddin Valibekka nishon yuborib, yangi xarajatlar uchun Hirot va uning tevarak-atrofidagi tumanlardan 100 ming dinor kepakiy to'plab jo'natishni buyurdi. Hirot hokimi tumanlardan faqat yarmini, qolganini esa aholidan sarmushar, ya'ni jon solig'i sifatida undirishga qaror qildi. Bunday mehnatkash xalqqa judayam qiyin bo'lgan bir sharoitda Alisher Navoiy Hirot aholisi zimmasiga tushgan 50 ming dinorni o'z jamg'armasi hisobidan to'ldi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida bir qadar tartibli soliq tizimi amal



qilgan. Amir Temur va temuriylar davridagi soliq siyosati, uning yuritilish tartibi, undirilishiga oid qonun-qoidalar, to'lovchilarga berilgan imtiyozlar, bosib olingan hududlar uchun Amir Temur tomonidan qo'llanilgan soliq islohotlari, yig'ilgan soliqlardan xarajatlarni moliyalashtirish uchun ishlatish me'yorlari avvalgi davrlar soliq islohotidan tubdan farq qilib, ularni to'liqroq o'rganish hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2.4. Xonliklar va Chor Rossiyasi davrida soliqlar va soliqlarga tortishning xususiyatlari

Temuriy shahzodalarning o'zaro to'xtovsiz olib borgan taxt talashishlari oxir- oqibatda saltanatning *Shayboniyxon* qo'liga o'tishiga olib keldi va XVI asr boshlaridan Movaraun-nahrda yangi shayboniylar sulolasi qaror topdi. Ular deyarli yuz yil hukmronlik qilib, temuriy zodagonlar va ular bilan bog'liq oliy ruhoniylar, yer sohiblari yo'q qilindi, ularning yerlari, mulklari va boshqa boyliklari ko'chmanchi o'zbek zodagonlari qo'liga o'tdi. Lekin shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi temuriylar davlati xususiyatlarini saqlab qoldi. Avvalgidek muayyan shaxslarga dastlab davlat xazinasiga tushgan soliqlarni ma'lum vaqt o'z foydasiga undirish huquqi berildi. Buxoroda bunday shartli tuhfa forscha «*tan-ho*» atamasi bilan atala boshladi.

Shayboniylar davlatida soliq, o'lpon va majburiyatlar tizimi ancha murakkab bo'lgan. Rasman 90 ga yaqin soliq va o'lponlar undirilgan. Asosiy soliq *xiroj* bo'lib, u sug'oriladigan yerlarning 30-40 foiziga solingan; davlat apparati, sipohiylar va xon saroyini boqish uchun ixrojot olingan; bog'lar, polizlar, bedazorlar ham soliqlarga tortilgan. Agar davlat apparati pulga juda muhtoj bo'lsa, *favqulodda soliqlar* joriy etilgan. Soliq va o'lponlardan tashqari majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, ular ichida eng og'iri *yasoq* bo'lgan, ya'ni aholi kanallar, xandaqlar qazish, yo'llar qurish, o'tin, somon, shox-shabba yig'ishga safarbar qilingan va tekin ishlab ber-



gan. Yuqoridagilardan tashqari shayboniylar davrida *tog'or, ulufa, qo'nalg'a, madadilashkar, boj, tansuqot, tuhfa* va bos-hqa soliqlar amal qilgan.

XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat uchta mustaqil davlatga: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Ularning har biri o'z chegarasi, davlat tizimi va xazinasi, o'zining mustaqil moliyasiga ega edi.

XVI asrdayoq tashkil topgan **Xiva xonligi** inqirozni boshidan kechirar edi. Soliq yukining og'irligi dehqonlar, shaharliklar va ko'chmanchi-turkman qabilalari zimmasiga tushardi. Turkmanlar yer-mulk solig'i - hosilning o'ndan bir qismini va o'nlab ming bosh qo'yni «xon qozoni» uchun soliq sifatida to'lar edilar. Adoqli-xizr qabilasi xonga navkarlar yoki gvardiya yetkazib berar edi. O'lpon faqat xon uchun emas, balki xon sulolasining ayrim vakillari uchun ham undirilardi. Turkman qabilalari tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarib, vaqti-vaqti bilan muayyan mustaqillikka erishardilar.

Xiva xonlari xazinasi XVII asrda alohida xazinachilar qo'lida edi. Quyi ma'muriy apparat arboblari (qishloq oqsoqollari) dan iborat edi. Qishloqlarda yer egalari zimmasiga ularga bo'ysunuvchi aholi hisobidan yo'ldan o'tib boruvchi elchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash majburiyati yuklangan edi. Xiva xonligida shu vaqtda xon xazinasiga daromadning asosiy qismi o'troq va yarim ko'chmanchi aholi ishlov beradigan haydaladigan yerlardan tushar edi. Xazinaga qarashli yoki davlat yerlarida yashaydigan dehqonlar forscha "dahyak" yoki arabcha "ushr" so'zi bilan nomlanadigan xiroj, chig'irlar yordamida sug'oriladigan yerlardan hosilning beshdan bir qismi miqdorida to'lagan. Xususiy mulk qilib berilgan yerlardan xiroj ular qanday toifaga bog'liqligiga qarab olinardi. Xon yorlig'i bo'yicha muayyan mulk qilib berilgan xususiy mulk yorliq yerlari va azaldan xususiy mulkni tashkil etgan odatdagi xususiy mulk yerlar solg'it deb nomlanuvchi, pul bilan to'lanadigan yer solig'iga tortilgan. Aday mulk (oddiy xalq tilida atay mulk) yerlaridan yer solig'i emas, balki qura solig'i undirilgan, bu soliqni to'lovchilar o'z mulkiy ahvolla-

riga ko'ra kiritiladigan toifaga muvofiq hisob-kitob qilingan va shu sababli daromad solig'i xususiyatlariga ega bo'lgan. Solg'itni xazinaga va dahyakni o'z vaqf muassasasi foydasiga kiritishga majbur bo'lgan vaqf yerining ijarachilari eng og'ir ahvolga tushib qolgan edilar. Sayyidlar, xo'jalar, shayxlar va mansabdor shaxslarning yerlari maxsus xon yorliqlari bilan xiroj to'lashdan ozod qilingan. Bunday shaxslar turkcha-forscha so'z bilan yorliqdor, deb nomlangan. Navkarlarga tegishli yerlar ham xirojdan ozod qilingan. Tovar bitimlar uchun soliqlar - zakot va tarozi yig'implari belgilangan. Xonlik savdo markazlari (Urganch, Xonqa, Xiva, Gurlan va boshqa shaharlar) savdogarlari bundan tashqari har yili xonga boy puli solig'ini to'lashgan. Uning hajmi xonning maxsus farmoni bilan savdo shaharchalariga yuborilib, har bir savdogarni xon xazinasiga go'yo qaytarish sharti bilan muayyan summani taqdim qilishga majbur qilingan, biroq odatda bu summa hech qachon qaytarilmagan. Ana shu o'ziga xos tarzda qarzlar bir yilda ikki-uch marotaba olingan. Ko'chmanchi va chorvadorlardan xon xazinasiga chorva umumiy tuyog'ining qirqidan bir miqdorida zakot olingan. Bundan tashqari Amudaryoning o'ng sohilidagi chorva egalaridan olinadigan tarcho'b yig'imi ham bo'lib, pada sohildagi to'qaylar orasidan o'tganida shox-shabbalardan kavshanganligi uchun ana shu soliq olingan. To'qaydan o'tgan har bir podadan bitta qo'y olingan.

Xiva xonligida o'lpon yig'ish uchun hokimlar (okrug hukmdorlari), ularning noiblari yoki qozilar javob berishgan. Ular huzurida *bojmonlar* (boj yig'uvchilar) va *zakot yig'uvchilar*, agar hududda davlat yerlari ham bo'lsa, *mushriflar* (natura shaklida to'lanadigan o'lponlarni yig'uvchilar) ham xizmat qilgan. Qishloqlarda ma'muriy-mirshablik tarkibidagi barcha ishlar bilan oqsoqollar shug'ullanib, ular aholidan o'lponlar ham yig'ishgan. Xonlikning ma'muriy va moliya-soliq apparati pul bilan ta'minlanmaganligi sababli, o'lponlarni ayniqsa, dahyakni yig'ishda jiddiy suiiste'molliklar qilishga yo'l qo'yilgan.

XVIII–XIX asrlarda xonlikda turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar taʼsirida ayrim soliqlarning nomi, mohiyati oʻzgarib turdi, yangi soliqlar va yigʻimlar joriy qilindi. Masalan, Xiva xonligida solgʻit, solgʻit-kesma, choʻp puli, changalak kabi soliqlar amal qilgan. Xonlikda salkam 25 ta mahalliy soliqlar undirilgan. Ular orasida lavozimlarni sotishdan koʻriladigan daromadlar alohida ajralib turardi. Natura shaklida oʻlponlar boshqa xonliklarga qaraganda ogʻirroq boʻlgan. Masalan, qazuv - katta va kichik soylarni yigʻilib qolgan loyqalardan tozalash 15-25 kun davom etgan. Koʻchuv - suv toshqiniga qarshi inshootlarni barpo qilish 15 - 25 kun, begor - koʻpriklarni taʼmirlash, xon va uning amaldorlari uchun saroylar qurish 12 kun va undan ortiq davom etgan.

Tarixiy manbalar Xiva xonligida quyidagi soliqlarning amal qilganligidan dalolat beradi: *begor*; *qazuv* (balo qazuv deb ataluvchi 6 kunlik majburiy mehnat va suv taqsimlovchi tarmoqlarni tozalash); *qochuv* (ehtiyot dambalarini qurish uchun safarbar qilish); *olgʻut* (bir yoʻla olinadigan yigʻimlar, solgʻut bunga kirmaydi); *solgʻut* (yer soligʻi); *multiq soligʻi* (qoʻshinga qurol-aslaha sotib olish uchun olinadigan pul soligʻi); *arava oluv* (aravalardan davlat ehtiyoji uchun safarbar qilish); *uloq tutuv* (tuya va otlarni, aholini safarbar qilish); *qoʻnolgʻa* (dehqonlar tomonidan amaldorlarga kechasi tunash uchun joy berish); *soʻysin* (uy egasining qoʻnoqda qolgan kishini qoʻy yoki buzoq soʻyib mehmon qilishi); *chopar puli* (soliq yigʻish xabarini yetkazganlik uchun toʻlanadigan haq); *tarozi haqi* (soliq toʻlash jarayonida tarozibonga beriladigan pul); *mirobona* (mirob foydasiga beriladigan pul); *darvozabon puli* (yuk bilan shaharga kirganda shahar darvozaboniga beriladigan pul); *otlanuv* (xalq lashkari va xon qatnashadigan ovda majburiy qatnashish); *ipak moli* (aholi ipakchilik daromadining 1/40 qismini olish); *mir tumon haqi* (mahalliy hokim haqi); *shigʻovul puli*; pul soligʻi toʻlash paytida *xazinachiga toʻlanadigan soliq*; *qoʻruvbon puli* (daraxt qorovuli yoki yaylovni nazorat qilib turuvchi shaxsga toʻlanadigan haq; *mushrifona* (hosilni tekshiradigan va miqdorini belgilaydigan kishiga beriladigan pul); *afanak puli*; *chiviq puli*;



ommaviy ishlar o'tkazish davrida *ruhoniylar foydasi uchun yig'iladigan pul va boshqalar*¹¹.

Buxoro amirligi moliya tizimi negizida arablar istilosi davrida butun musulmon Sharqi o'zlashtirgan soliq - xiroj turgan. Xiroj yerdan olinadigan hosilning beshdan bir yoki uchdan bir qismi sifatida olingan, ushr solig'i esa o'ndan bir qismni tashkil etgan. Hunarmandlar o'z qobiliyati, didiga mos ravishda bayramlarda xonga o'z buyumlarini taqdim etishgan. Favqulodda hollarda ular har bir do'kondan yig'im to'lashgan.

Buxoro amirligida o'lpon yig'ish bilan *devonbegi* - moliya vaziri shug'ullangan. Ular daftarlar - o'lpon ro'xatlarini tuzgan. Moliya amaldorlari devonbegi rahbarligida kadastrlar, amir saroyining moliya hisoboti va moddiy qismi bilan shug'ullanganlar. Natura majburiyatlari ustidan nazoratni arbob olib borgan. XIX asrning birinchi yarmida xususiy mulk yer soliqlari Buxoro amiri xazinasiga eng ko'p daromad keltirgan. Ular ichida eng ahamiyatlisi hali ham xiroj edi. Xiroj yerlari (zamini xirojiiy) amirlikdagi dehqon aholiga tegishli yerlarning katta qismini tashkil etgan. Xiroj muayyan yerlardan belgilangan summada pul va ma'lum miqdorda don bilan undirilgan (xiroji vazifa) yoki hosilning beshdan, oltidan, sakkizdan bir qismi miqdorida hosilning mutanosib qismini to'lashda (xiroji muqassama) ifodalangan. To'lanadigan soliq hajmi esa sinov tariqasida yanchish yo'li bilan olingan.

Tokzor, yo'ng'ichqazor va mevali daraxtzorlardan tanobona olingan. 1807 yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba'zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan. Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo'shpuli olingan.

XV-XVII asrlarda zakot beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasi-

¹¹ Saburova S. Xiva xonligida soliq. «Soliq to'lovchining jurnali», 2001-yil 12-son.



ga olinadigan bo'ldi. Zakot to'lashdan bosh tortgan qabilalar ustiga *omonpuli* (moli omoniy) olingan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha XVIII asrgacha qadim zamonlardan olimlar, qozilar, sipohiyar va navkarlar xiroj hamda tanobona to'lashdan ozod etilganlar.

XIX asrning 50-yillari oxirida qishloq dehqon aholisining ko'pchiligi qonun bilan belgilangan yer solig'i - xirojdan tashqari, poliz yoki bog' bilan band bo'lgan har bir tanob yer (tanob puli) va yo'ng'ichqazor uchun (alaf puli) alohida soliqlar to'langan. Bu ikkala soliq ko'pincha *tanoba* yoki *tanob puli* deb atalardi. Zarafshon vodiysida yashovchi bir necha dehqon jamoasi amir Nasrulloqa murojaat etib, ularning uyidan olisda joylashgan polizlarga solinadigan tanobani kamaytirishni iltimos qiladi. Amir iltimosni qondirgach, polizlardan alohida soliq - *qo'shpuli* olina boshlandi. Zakot eng muhim soliq bo'lib, uni to'lash har bir musulmon uchun besh farzning biri hisoblanib kelingan. Bu mol-mulk solig'ini undirish uchun amaldorlar tayyorlangan va zakot olish obyektlari aniqlangan. Ko'chmanchi va chorvadorlardan zakot chorvadan pul yoki natura shaklida (besh tuyadan bitta, qirq qo'ydan bitta) undirilgan. Ishchi mollardan olinadigan alohida yig'im ham mavjud bo'lib, uni *yaksara* deb atashgan. U bir juft ot yoki ho'kizdan bir botmon bug'doy hajmida olingan. Bitta ishchi moliga ega bo'lganlar bu miqdorning yarmini to'lashgan, u *nimsara* deb atalgan. Suv tegirmonlari va juvozlardan pul yoki *naturada yig'im* undirilgan, uning hajmi korxonaning qanday tuzilgani va daromad keltirishiga hamda qishloq xo'jalik jihatidan qanday ahamiyatga egaligiga qarab o'zgarib turgan.

Tarixdan ma'lumki, XIX asrning 50-yillaridan boshlab, Rossiya O'rta Osiyoni bosib ola boshladi. Buxoroning ma'lum qismini bosib olgach, Amir juda og'ir shartnomani qabul qiladi. Rossiya bilan urush paytida amir Muzaffar *aminona*

(sodiq fuqarolik) deb nomlangan maxsus soliqni joriy etdi va u doimiy soliqqa aylanib, amirlik tugatilguncha (1920) amal qildi. Zakot va aminonadan tashqari savdo yig'imlariga (dal-loli), bir viloyatdan boshqasiga olib o'tilayotgan tovarlar va umuman yuklardan olinadigan *maxsus bojlar* ham kirgan. Zakot bilan birga tovar dastlab olib chiqilgan joydan uzoqlashuviga qarab uning narxi ancha ko'paygan. Tovarlarini daryodan olib o'tganlik uchun *suv puli*, bozordagi joy uchun *puli taxtajoy* kabi soliqlar ham mavjud bo'lgan.

Buxoro amirligida moliya, asosan mol-mulk solig'i bilan **qushbegi** poyon shug'ullangan. U ark etagida yashagani, mahkamasi shu yerda bo'lgani bois qo'yi qushbegi, deb atalgan. Davlatdagi barcha zakot yig'uvchilarning boshlig'i mavjud bulib uni ham zakotchi **kalon** (oliy zakot yig'uvchi) deb atashgan.

XIX asrning birinchi yarmida **Qo'qon xonligining** soliq tizimi Buxoro amirligi bilan o'xshash bo'lgan. Bu yerda ham g'allazorlardan *xiroj* yig'imi uzumzorlar, polizlar, bog'lar va texnika ekinlari bilan band bo'lgan yerlardan *tanobona* undirilgan. Tovarlar, mol-mulk va chorvadan *zakot* olingan. Shaxsan xonga qarashli qishloqlardan xoslik - undiruvchi amaldorlarga emas, balki bevosita xonga beriladigan yoki xonning maxsus farmoni bilan u yoki bu a'yonlarga ta'minot uchun beriladigan soliq undirilgan.

Qo'qon xonligida o'lponlar *xassagi* va *beklikka* bo'lingan. Xassagi - bu xon g'aznasiga ijara ko'rinishida tushgan daromadlar. Beklik esa - bu bek g'aznasiga tushgan daromadlar. Xon g'aznasiga daromadlarning hamma ko'rsatilgan turlari tushgan, lekin ularni faqat Qo'qonda va unga tobe qishloqlarda yig'ilgan. Boshqa joylardan xon g'aznasiga tovarlar va chorva mollardan *zakot*; Sirdaryodagi kechiklardan *bojlar*; *tuzdan soliq*; xassagi yer-mulkidan *yig'im*; xon mablag'lariga turli shaharlarda qurilgan do'konlar, karvonlar, omborlardan *ijara yig'imlari*; to'y marosimlarini o'tkazish uchun *dallo* foizlari; *egasiz (baytulmol) mulklar*.

Viloyat hokimliklariga haraj va tanob o'lponlarini yig'ish huquqi berilgan. Xon g'aznasiga Xudoyorxonning hukmron-



ligi (1865-1875-yillar) davrida har yili bir yarim million so'm-gacha pul tushgan.

XIX-asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining daromadlari natura ko'rinishda bo'lgani kabi, pul ko'rinishida ham tushgan bo'lib, ularning bir qismi viloyat hokimlari tomonidan qo'shimcha va boshqa ehtiyojlarga ishlatilgan. Daromadning qolgan qismi xon g'aznasiga tushgan. Sholi, bug'doy, jo'xori va boshqa g'alla ekinlari ekilgan. Dalalarda hosilning beshdan bir qismi undirilgan. Mevali daraxtlar, uzumzorlar, o'tlar, sabzavot, paxta va boshqa ekinlar band qilgan yerlardan esa yig'im miqdori maydonga qarab belgilangan.

Yer solig'i *tanobo* nomi bilan yuritilib, uning miqdori ekladigan ekinga bog'liq bo'lgan. Masalan, terak va qayrag'och bilan band bo'lgan bir tanob yerdan 50 tiyindan undirilgan. Poliz, qovun, tarvuz, bodring, tut daraxtlari bahorda ekilgan piyoz va sabzi dalalarining bir tanobidan 1 so'mdan; uzumzor va meva bog'larining bir tanobidan 2 so'mdan undirilgan. Polizlardan yig'imlar uylar, do'konlar soniga va hunarmandchilikning ba'zi jihatlariga qarab belgilangan.

Xaraj aholi qaysi beklkning tasarrufida bo'lsa, o'sha beklkning ixtiyoriga tushgan. Bek buning evaziga gornizonni boqish va hukumat talabiga ko'ra urush paytida qo'shinlarning ma'lum kontingentini chiqarishga burchli bo'lgan.

Xiroj o'tovdan yig'ilgan, bir o'tovga uch botmondan besh botmongacha g'alla to'g'ri kelgan. Qo'qon xonligida xaraj yig'imiga shahar begi tayinlangan. Sarkor mudirlik qilgan. Tayinlanuvdan keyin sarkor soni yerning ishlov beriladigan maydonlari soniga qarab belgilangan, yordamchi miroblarni yollangan. Bunday maydonlarning har biriga ariq oqsoqol mudirlik qilgan.

Bahorgi ishlarning boshlanishi bilan sarkor har bir maydonga bittadan mirobdan yuborgan. Ular yoz davomida maydondagi xo'jayinlar soni va ekinlar miqdorini bilib berishga burchli bo'lganlar.

Hosil yig'im-terimining boshlanishi bilan har bir maydonga mulla yuborilib, uning kelishi bilan ariq oqsoqol, mirob



va mulla xaraj ro'yxatlarini tuzganlar. Ular har bir kishining g'allasi yanchilishini qaytadan o'lchab chiqqanlar va to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini aniqlab, bu sonni ro'yxatga kirtishgan. Bodda-kotib ro'yxatni aholi va ariq-oqsoqollardan so'rab surishtirish orqali tekshirgan. So'ngra tasdiqlash uchun bekka taqdim etilgan.

Qo'qon xonligida odatdagi soliqlardan tashqari xonlar yangilarini ham joriy etgan. Bunda ayniqsa Xudayorxon ajralib turgan. U ekilgan mevasiz daraxtlardan, poytaxtga olib kelingan pichandan, tog' o'rmonlarida kuydiriladigan pista ko'mirdan soliq olgan. Xudoyorxon xazinadagi yetishmovchilikni xilma-xil musodara qilishlar va chayqovchilik vositasida to'ldirgan.

O'rta Osiyoni **Chor Rossiyasi** tomonidan bosib olinishi bu yerda asrlar davomida qaror topgan tizim - qishloq xo'jaligi soliq tizimi o'zgara bordi. Avval chor hukumati dehqonlardan soliq olishni kamaytirdi, lekin yerlarni soliqqa tortishning xiroj va tanob tizimini saqlab qoldi. Soliqlarni mutlaqo pul bilan to'lash tartibi joriy etildi, davlat foydasiga natura shaklidagi majburiyatlar bekor qilindi. Soliq undirish ishlari saylab qo'yiladigan qishloq idoralariga topshirildi. Chor hukumati 1867-yilda ko'chmanchi aholi uchun o'tov yig'imi joriy qildi, unga binoan har bir o'tovdan soliq undirila boshlandi.

1886-yilda Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risida yangi Nizom joriy qilindi. Unda yerga oid munosabatlarda qator tadbirlar o'tkazish ko'zda tutilgan edi: barcha yerlarning xazinaga tegishliligi e'lon qilindi va ilgari kim yerlarga ishlov bergan bo'lsa, yer o'shanga foydalanish uchun berildi va barcha yerlar soliqqa tortildi.

Chor Rossiyasining asosiy maqsadi xonliklarni yarim mustamlakadan haqiqiy mustamlakaga aylantirish edi. Shu munosabat bilan XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston General gubernatorligi tashkil qilindi. Bosib olingan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarini anchagina qismi Chor Rossiyasi uchun faqat xomashyo va tabiiy resurslar manbayigina emas, balki byudjetning daromad manbayi sifatida muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi.



Xiva xonligida 1898-yildan 1902-yilgacha bo'lgan davrda 250-300 pud mis tangalar zarb qilingan. Xiva xoni bunday tangalar tushumidan savdogarlarga majburiy tarzda qarzlarni berar, buning uchun kredit summasining 15 foizini to'lashni talab qilardi. Ana shu mablag'lar evaziga o'ndan ortiq paxta tozalash zavodi qurildi, paxtaning deyarli hammasi Chor Rossiyasiga jo'natilardi.

Bu hududlarda Turkiston General gubernatorligi moliyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar belgilandi:

- xonliklarning zabt qilingan hududlarida o'z valyutalari o'rniga rus valyutalarini joriy qilish;

- davlat molisini boshqarishda byudjet-smeta rejimini joriy qilish;

- mavjud soliq tizimini Rossiya soliq tizimi andozasiga moslab, tubdan o'zgartirish.

Chor Rossiyasi qo'yilgan vazifalarning deyarli hammasiga erishdi. Bu hududlarda an'anaga aylangan zakot o'rniga *hunarmandchilik solig'i*, xiroj o'rniga esa - *oklad tizimi* joriy etildi. Bulardan tashqari aksiz soliqlari, paxtaga va boshqa xomashyolarga solinadigan soliqlar to'g'ridan to'g'ri Chor Rossiyasi byudjetiga borib tushardi. 1914-yil 12-noyabr qonuniga binoan, temir yo'l va bandargohlarda har pud paxtadan alohida muvaqqat soliq olish belgilandi. 1915-yil yanvaridan boshlab mahalliy aholi harbiy majburiyatlarni bajarish o'rniga, harbiy soliqqa tortildi. Bu soliq jami bevosita soliq turlarining 21 foiz miqdorida olingan.

Ammo 1914-yilda boshlangan birinchi jahon urushi xarajatlarining keskin oshishiga sabab bo'ldi. Xarajatlarni qoplash maqsadida aholidan yig'iladigan soliqlar miqdori to'xtovsiz ko'payib bordi.

2.5. Sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo'lgan yondashuv

1917-yil oktabrda bolsheviklar zo'rlik bilan amalga oshirgan to'ntarish Sobiq Ittifoq xalqlari, shu jumladan, O'z-



bekiston tarixida salkam 75 yil davom etgan yangi mustamlakachilik sahifasini boshlab berdi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan agrar ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan xo'jalik tadbirlari zanjirida mustaqil ish olib boruvchi yakka dehqonning manfaati oldingi o'ringa qo'yildi. 1919-yil mart oyida yangi iqtisodiy siyosat (NEP) e'lon qilinishi munosabati bilan yangi soliq siyosati tashkil etildi. Mazkur tizim *qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, daromad, mulk va renta soliqlari, tamg'a yig'implari, meros va boshqa bojlar* kabi majburiy to'lovlarni o'z tarkibiga qamrab olgan. 1922-yil 11 aprelda «*Natura solig'i haqida*» gi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lgan oziq-ovqat razvedkasi o'rniga yalpi hosilning 10 foizi miqdorida *oziq-ovqat solig'i* belgilandi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay xo'jalikning katta-kichikligidan kelib chiqib, soliqni tabaqalashtirish joriy etildi. Soliq quyidagi proporsiyalarda olinishi belgilab qo'yildi: 2 desyatinagacha yeri bo'lgan xo'jaliklardan hosilning 5 foizi, 2-4 desyatinagacha 10 foizi, 4-6 desyatinagacha 12 foizi, 6-8 desyatinagacha 14 foizi va hokazo.

Yangi iqtisodiy siyosat paxtachilik siyosatiga ham muayyan o'zgarishlar kiritdi. Paxtachilikni mehnat qurollari bilan ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Ularga turli xil imtiyozlar berilib, *ot-ulov solig'idan*, kamquvvatli xo'jaliklar *oziq-ovqat solig'idan* ozod qilindi. Bularning hammasi dehqonlarning kayfiyatiga, ularni ko'proq paxta etishtirishga bo'lgan intilishida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

1923-yil 13-iyunda ba'zi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida oziq-ovqat solig'idan *yagona qishloq xo'jaligi solig'iga* o'tish to'g'risida dekret chiqarildi. Natijada tovar-pul munosabatlarining subyekti bo'lgan dehqonlarning roli sezilarli ravishda kuchaydi. Xususiy kapital asosida tashkil etilgan vositachilik va savdo shirkatlari qat'iy mafkuraviy nazorat ostida bo'ldi. Ko'pincha xususiylarga juda katta miqdorda soliq solinar, tadbirkorlarning erkin faoliyati esa butunlay cheklab qo'yilgan edi. Keyinchalik davlat xususiy sektorni tugatishni tezlashtirish maqsadida qo'shimcha soliqlar undirildi.

1923-1925-yillarda quyidagi soliqlar amal qilgan:

1. *To'g'ri soliqlar:*

- qishloq xo'jaligi solig'i;
- hunarmandchilik solig'i (savdo va ishlab chiqarish korxonalariga);
- mulk solig'i;
- renta soliqlari;
- gerb yig'implari va boshqalar.

2. *Egri soliqlar:*

- aksiz soliqlari (choy, kofe, shakar, tuz, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari va boshqa turdagi tovarlarga nisbatan joriy etilgan);
- turli xil bojlar.

1922-1923-yillarda *to'g'ri soliqlar* byudjetni solikli daromadlarining 43 foizini, 1923-1924-yillarda 45 foizini, 1925-1926-yillarda 82 foizini tashkil etgan.

1930-yillarda yangi soliq islohotlarini o'tkazish talab qilindi. Soliq islohotlari o'tkazishning asosiy *sababi* quyidagi kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan edi:

- soliqlar sonini qisqartirish maqsadida oborot solig'ini joriy etish;
- bir soliq obyektini bir necha marotaba soliqqa tortilishi va baholarni rejalashtirishning murakkabligini tugatish. Buning uchun *foydadan ajratmalar va kooperatsiyada daromad solig'i* joriy etildi.

Oborot solig'i tarkibiga bir necha soliq va foydadan ajratmalarga 6 xil soliq birlashdi. Olib borilgan soliq islohoti natijasida korxonalariga byudjetga olinadigan daromadlar 7 baravar ortdi.

Lekin shunga qaramasdan respublikada birorta og'ir industriya giganti barpo etilmadi, chunki ularni qurish milliy mustamlakachilik manfaatlariga mos kelmas edi. Shuning uchun respublikada paxtachilikni rivojlantirish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari, oziq-ovqat, yengil sanoat tarmoqlarini kengaytirishgagina ahamiyat berildi. Sanoat korxonalarining aksariyati xomashyo, yarim tayyor mahsulot ishlashga ixtisoslashtirildi. Chunki tayyor mahsulotdan tushadigan



mo'maygina daromad O'zbekiston xomashyosini qayta ish-lashga moslashgan Ittifoqdagi markaziy korxonalar tomoni-dan amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangandan so'ng O'zbekiston front ehtiyojlarini ta'minlovchi moddiy bazaga aylandi. Byu-djetdan harbiy tadbirlarga sarflangan mablag'lar 114,7 milli-ard so'mni tashkil etib, shundan 58,8 milliard so'm yoki 50,8 foizni harbiy xarajatlar tashkil qilgan edi. Bundan tashqari, respublika frontga 4 mln. 148 ming tonna paxta, 54 ming tonna pilla, 3 mln. 83 ming dona qorako'l terisi va oziq-ovqat mahsulotlari jo'natgan. O'zining vatanparvarlik burchini yuksak darajada namoyish qilgan O'zbekiston xalqi fashizm ustidan faqat Sobiq Ittifoqni emas, eng avvalo, o'z xalqini saqlab qoldi. O'zbekiston hududida urush harakatlari sodir bo'lmagan bo'lsada, boshqa respublikalar qatori bu yerda ham iqtisodiy tizim izdan chiqdi. Iqtisodiyotni qayta tiklash ishlari boshlanib, qator tadbirlar belgilandi. Jumladan, soliq tizimiga katta e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda soliq miqdo-ri xo'jalik tomorqasiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Natijada ayrim viloyatlarda uzumzorlarni kesib tashlashga o'xshash hodisalarga barham berildi. Soliq 2-3 baravar kamaydi.

1958-yildan boshlab aholi mablag'i hisobidan «ixtiyoriy» tartibda yoziladigan zayomlar bekor qilindi, daromad solig'i va boshqa soliqlar qisman kamaytirildi.

1965-yildan boshlab foydadan ajratmalar to'lovi o'rniga 3 xil ko'rsatkich asosida hisoblanadigan to'lovlar joriy qilin-di. Bu to'lovlar turli korxonalar misolida sinovdan o'tkazildi. Lekin ular kutilgan natijani bermaganligi sababli milliy da-romadning o'sish sur'atlari pasayib ketdi.

Shu munosabat bilan 1987-yil 7-iyulidagi moliya mexa-nizmini qayta qurish qaroriga muvofiq sanoat korxonalari va tarmoqlari asosiy e'tiborni joriy masalalarni hal qilishga qaratib, moliya va iqtisodiy masalalardan chetlashganlikla-ri tanqid qilindi, korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yetarli e'tibor berilmaganligi ko'rsatildi. Qa-rorning ikkinchi bandida oborot solig'ining to'lovchisi bevo-sita mahsulot yetishtiradigan korxonalar bo'lishi kerak, deb



ko'rsatilgan. Bu moddaning ahamiyati shundan iboratki, bir tomondan respublikaning asosiy hal qiluvchi xomashyosi hisoblangan paxta, pilla, rangli metallardan foydalanib boshqa respublikadagi korxonalariga mahsulot ishlab chiqarsa, ular joyida soliqqa tortilib, ikkinchi tomondan paxta va boshqa xomashyolarni sotishdan kelgan daromadlar soliqqa tortilmas, respublika byudjeti bu daromadlardan mahrum edi. Bu tadbirlar O'zbekistonda moliya tizimidagi inqirozlarni kuchaytirdi. Natijada iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha respublika Ittifoqda oxirgi o'rinlardan birini egallar edi.

Sobiq Ittifoq davrida davlat bilan davlat mulkchiligi o'rtasida soliq munosabatlari bo'lishi mumkin emas degan mafkuraviy aqidaga tayangan holda davlat bilan davlat mulkiga tegishli korxonalar va tashkilotlar o'rtasida soliq munosabatlariga barham berishga harakat qilingan, lekin yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Sobiq Ittifoq davlati tashkil etilgandan e'tiboran uning hududida turli xil soliqlar amal qilgan va davlatning soliqsiz mavjud bo'lmasligini yana bir bor ko'rsatdi.

Soliq sohasidagi o'ta muhim o'zgarishlar Sobiq Ittifoq Markaziy Qo'mitasining 1987-yil iyul plenumida tasdiqlangan «*Davlat korxonalari (birlashmalari) to'g'risida*»gi qonuni qabul qilinishi bilan bog'liq. Unga muvofiq korxonalar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar byudjetga to'lovlar bilan bir qatorda ular foydasini soliqqa tortish mumkinligi ham rasmiy ravishda tan olindi va 1991-yil 1-yanvaridan e'tiboran xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar va davlat o'rtasidagi munosabatlar soliq usuliga o'tkazildi.

Demak, yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi davlatchilik munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni mavjud bo'lishi va amal qilishi davlat xarajatlarini moliyalashtirish zarurati bilan ifodalanaadi. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarining mintaqamiz va jahon mamlakatlari tarixidan ko'rishimiz mumkinki, soliqlar har qanday davlat mavjud bo'lishining



asosiy shartlaridan biri bo'lib, ular davlat xarajatlarining asosiy qismini qoplab kelgan.

Soliqlar va soliqqa tortishning rivojlanishi kishilik jamiyati tarqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning ilk ko'rinishlari natura va mehnat ko'rinishida bo'lsa, jamiyatda tovar-pul munosabatlarining tabora rivojlanishi, ularni ham pul tarzida undirilishini kuchaytirdi.

Soliqlarning rivojlanish bosqichlari ularning tizimsiz yoki tizimli tartibda amal qilishi, asossiz yoki asosli tartibda joriy etilganligi, demokratik talablarga javob berishi kabi mezonlar asosida ajratilib, birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o'rta asrlar qishloq xo'jaligi tizimiga xos bo'lib, tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko'rilgan. Soliq obyektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq tizimi yuzaga kelgan bo'lsa, uchinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o'rnatish va undirishga oid qonun-hujjatlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Markaziy Osiyo hududida soliqlarning paydo bo'lishi ushbu hududda davlatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, davlat boshliqlari yuritgan siyosatdan kelib chiqqan holda ularning turlari, shakllari, undirish usullari o'zgartirib turilgan. Soliqlar faqatgina davlat xazinasini to'ldirish vositasi bo'lib qolmasdan, ulardan davlat siyosatini amalga oshirishda ham keng foydalanilgan. Shuning bilan birgalikda davlat boshliqlari va boshqa amaldorlar uchun boyluk orttirishning asosiy vositasiga aylangan. Markaziy Osiyo hududida soliqlarning rivojlanish bosqichlarida qanday davlat shakli amal qilgan bo'lmasin soliqlarning qator turlari amal qilgan bo'lsa-da, ularning nazariy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Davlatchilik shakllari ehtiyojlari, mintaqadagi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi bunga zarurat tug'dirmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ko'pincha haddan ortiq soliqlarning undirilganligi



bois, mintaqada ko'plab qo'zg'alonlarga asosiy sabab bo'lgan omillardan biri bu shubhasiz soliqlar hisoblanadi.

Shuning bilan birgalikda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mintaqamiz hududida soliq siyosatini yuritish borasida o'z davriga nisbatan bir qadar ilg'or fikrlarni ham qayd etish lozim. Bu borada Amir Temur davri soliq siyosati va Nizomulmulkning bu boradagi fikrlarini dalil sifatida keltirish mumkin.

Mintaqada hokimiyat tepasiga kelgan shaxsning manfaatlariga bo'ysundirilgan soliq siyosati olib borilgan. Ular o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda soliq islohotlari olib borganlar. Markaziy Osiyo hududida Chor Rossiyasi va Sobiq Ittifoq hukmronligi davridagi soliqlar va soliqqa tortishning xususiyatlari sifatida qayd etish mumkinki, Chor Rossiyasi hukmronligi davrida soliqlar aholidan olinishi saqlanib qolingani holda mintaqada zavod va fabrikalarning ishga tushirilishi natijasida ulardan ham undirila boshalangan bo'lsa, Sobiq Ittifoq davrida esa barcha mulklarni milliyashtirish oqibatida soliqlarga bir qadar kamroq e'tibor berilgan. Shunga qaramasdan davlat xarajatlarining ko'pgina qismi soliqlar hisobiga moliyalashtirilgan bo'lsa-da, davlat bilan davlat mulkchiligi o'rtasida soliq munosabatlari bo'lishi mumkin emas, degan mafkuraviy aqidaga tayangan holda soliq siyosati olib borilgan va davlat bilan davlat mulkiga tegishli korxonalar va tashkilotlar o'rtasida soliq munosabatlariga barham berishga harakat qilingan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliqlarning paydo bo'lishini tushuntirib bering.
2. Soliqlarni undirish shakllarini davrlar nuqtayi nazari-dan yoriting.
3. Soliqlarning rivojlanish bosqichlari qanday belgilariga ko'ra bir-biridan farq qiladi?
4. Jamiyat taraqqiyoti bilan soliqlarning rivojlanish bosqichlari uzviyligini asoslab bering.
5. Markaziy Osiyo hududida soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?



6. Arablar istilosi davrida qanday soliqlar undirilgan va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?

7. IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda yerga egalik munosabatlari qay tarzda tashkil etilgan va soliqqa tortilgan?

8. Mo'g'ullar istilosi davrida qanday soliqlar undirilgan va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?

9. Amir Temur va temuriylar davri soliq siyosatining xususiyatlari nimalardan iborat va ular oldingi davlatlar soliq siyosatidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

10. Amir Temurning soliqlar borasidagi fikrlarini qanday baholaysiz?

11. Shayboniyxon va xonliklar davri soliq siyosatining xususiyatlari nimalardan iborat?

12. Chor Rossiyasi istilosi davrida mintaqada soliq solish borasidagi o'zgarishlar va ularni mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri qanday?

13. Sobiq Ittifoq davrida soliq'larga qanday tartibda yondashuv bo'lgan va bunga Sovet hokimiyati qay darajada erisha oldi?

14. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi natijasida olib borilgan soliq tizimidagi islohotlar zaruruti nimalar bilan belgilanadi?

III BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI

Reja

- 3.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati
- 3.2. Soliqlarning obyektiv zarurligi va belgilari
- 3.3. Soliqlarning funksiyalari
- 3.4. Soliqqa tortish tamoyillari

3.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida sinfiy hukmron kuch sifatida yuzaga chiquvchi davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyati davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda *soliq kategoriyasi* davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqeylik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi bu tor ma'noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliya-



lashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: *birinchidan*, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, *ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga bizning respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu yerda davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab, cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat o'z hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. Shu bilan birga davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham obyektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'lar shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo'lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarni iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.



Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbayi hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta'riflarni tahlil qilish ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo'lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo'lgan soliqlarning tutgan o'rnini aniqlash zarur. Chunki davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish shakllarining rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi o'zgargan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o'zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelingan. Masalan, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish,



soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbayidir.

Insoniyat tarixida yirik davlat arboblari biri o'rta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur soliqlarga katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. O'sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlariga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatga ko'ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo'lmoqda. Ammo soliq munosabatlari haqida qancha rivoyatlar aytib o'tilmagan bo'lsin, uning mohiyati aholi soliq to'loviga nisbatan faqat o'z mohiyatini xazinada topgan. Xazina har qanday tizimda ham davlatni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bunday vosita nafaqat davlatni boshqarishda, balki shuning bilan birgalikda aholi manfaatlarini qondirishda namoyon bo'lgan. Natijada xazina taqsimoti taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kungacha **solliqlarning mohiyatini belgilab beruvchi** turli xildagi izlanishlar olib borilgan va quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz va shu o'rinda eslatib o'tish joizki, ushbu ta'riflar yakuniy ta'riflar emas.

- Soliq bu - davlatni qo'llab-quvvatlash uchun aholidan, mol-mulklardan va tovar aylanmasidan olinadigan majburiy to'lov.

(Ingliz tilining Oksford lug'atidan)

- Soliq bu - davlat manfaatlari uchun jismoniy va yuridik shaxslardan majburiy tarzda undiriladigan to'lov.

(Ingliz tilining izohli lug'atidan)

- Soliq bu - hukumatni saqlab turish uchun zarur bo'ladigan alohida shaxslarga va mulkka nisbatan qo'llaniladigan soliq olish shakli.



(Uebster internet lug'atidan)

- Soliq bu – jamiyatning barcha a'zolari farovonligi uchun hukumat hisobiga undiriladigan to'lov. Kimdan qancha olish va qancha qismini qoldirish hamda undirilgan to'lovlar nima uchun ishlatilishi haqida hukumat ishonch bildirgan kishilargina hukm chiqarishlari mumkin.

(Djonson 1913 (1775), 2-bet)

- Soliq bu – davlat organlari tomonidan undiriladigan va uning o'rniga to'g'ri to'g'ri hech narsa berilmaydigan majburiy to'lov.

(Djeyms va Nobs 2012, 12-bet)

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiborga olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. *Adam Smit* (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlar ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

N.I.Turgenev o'zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818yil) shuni ta'kidlaydiki, «Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf-odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan», «...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi. ...Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikkita eng asosiy xususiyatdir» bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida tutgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.



Shu o'rinda soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tish o'rinlidir. "Soliqlar, - deb yozadi D.Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi"¹². Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D.Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan.

Yana bir maqbul ta'rif S.G.Pepelyaev tomonidan berilgan: "Soliq - ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir"¹³.

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarni iqtisodiy mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan, "Siyosiy iqtisod" izohli lug'atida soliqlar "... korxonalar, tashkilot va aholini, mamlakat moliyaviy resurslarini tashkil etishdagi ishtirokining xarakterlovchi majburiy to'lovlar tizimi"¹⁴ deb izohlanadi.

Professor D.G.Chernikning fikricha "Soliqlar - davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'implarni o'zida aks ettiradi"¹⁵.

Professor B.G.Boldirev boshchiligida yozilgan "Kapitalizm moliyasi" o'quv qo'llanmasida soliqlarga qo'yidagicha ta'rif berilgan: "Soliqlar — davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari",¹⁶ haqiqatdan ham bunday olib qaraydigan bo'lsak, yuqorida

¹² Рикардо Д. Сочинения т. И. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. - М.: «Госполитиздат», С. 360

¹³ Пепеляев С.Г. Основы налогового права. М.: 1995, С. 24

¹⁴ Политическая экономия. Толковый словарь. М.: «Политиздат», 1990. С. 330.

¹⁵ Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992, 13 С. 19.

¹⁶ Болдырев Финансы капитализма. «Финансы», М.,1987. С. 21



keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu ta'riflar o'zida soliq-larning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'raligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Sh.Gataulin “. . . soliqlar o'zi nima va ular nimaga kerak”, degan savolga qo'yidagicha javob beradi: “Soliqlar - bu davlat sarf-xarajatlarning asosiy manbasi bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir”¹⁷. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqning mohiyatini to'raligicha yoritmaydi hamda soliqning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida bu munosabatlar obyekti bo'lib nima hisoblanadi. degan savollarga javob bera olmaydi.

Ayrim iqtisodchilar soliqni milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida izohlashga harakat qilganlar, - “Soliqlar - milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir”¹⁸.

Shuni ta'kidlash kerakki, prof. O.Olimjonovning fikriga ko'ra soliq quyidagicha ta'riflansa, soliqning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi “Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir”¹⁹.

Bizningcha, soliqga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqning mohiyati, ularning iqtisodiyot-

¹⁷ Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996. 18-bet.

¹⁸ O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Mehnat”, 1995-y. 377-bet

¹⁹ Olimjonov. O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. «Hayot va iqtisod», 1992.



dagi o'рни va rolini, soliqlarning harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Soliqlarga olimlar tomonidan berilgan bir qancha ta'riflarni o'rganib chiqdik. Shu o'rin-da bu ta'riflar ma'lum ma'noda bir-birini takrorlab, to'ldirib va boyitib kelmoqda. Yuqoridagi ta'riflar soliqlarni to'liq va aniq yoritish, ularning barcha jihatlarini batafsil qamrab olmaydi. Shuning uchun soliq kategoriyasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, shuningdek, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarni nazariy jihatlarini aniqroq va to'liqroq yoritadigan ta'rifni keltirish muammosi mavjud.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Biz soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun dastavval, soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib, tahlil qilib olishimiz lozim.

Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq - davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imidir.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

- soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;
- soliqni fuqaro emas, mulkdor to'laydi;
- soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;
- soliq to'lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, soliqlar - bu byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to'lamaslikka, soliq obyektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 12-moddasida *Soliqlar, deganda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.*

Boshqa majburiy to'lovlar, deganda Soliq Kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga;



- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infrastrukturasi barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotida sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga tegishli eng kam xarajat hajmi bilan bog'liq bo'ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo'lib, u yanada kengroq kategoriya - davlat byudjeti bilan chambarchas bog'langan. Chunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi²⁰.

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag'batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash

²⁰ Vahobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. TMI, 2002 y. 36-bet.



maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog'liq bo'lib qolishini oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularni amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o'ynashi mumkin²¹.

3.2. Soliqlarning obyektiv zarurligi va belgilari

U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddatlilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to'lash kabi umumiy belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit kategoriyasi mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq kategoriyasi ham bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarning boshqa to'lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, soliqlarning belgilari borasida ham iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, prof. *Q. Yahyoyev* soliqlarning umumiy belgilari sifatida quyidagilarni asoslaydi.

1. Soliqlar va yig'imlar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq Kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga – davlat byudjetiga tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlar «Umid», «Ekosan» kabi jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, shuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi.

²¹ Xvan L.B. Soliq xuquqi. T.: «Konsauditinform», 2001-y. 26-bet.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir²².

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak» nomli kitobida soliq'larga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni *majburiylik va ekvivalentsizlik* kabi belgilarni qayd etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha soliq'larning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko'ra soliq narxdan (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida), ruxsatnoma (litsenziya) lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

Davlatga to'lanadigan soliq'lar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi, vaholanki, ular soliq'lar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

Alohida olingan soliq to'lovchi odatda, jamiyat va o'zining ko'rgan foydasi yoki manfaatini to'lagan soliq'lari bilan solishtirib o'tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliq'lar to'lashdan bo'yin tovlashga, o'z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliq'larni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan pul

²² Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «G'afur G'ulom» 2000-y. 10-bet.



bilan ta'minlashga rozi bo'lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsada, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo'q. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. *Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.*

5. *Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonini yuzaga kelishidir.* Sodda-roq qilib aytganda korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkning ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Demak yuqorida qayd etilgan soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilar ularni iqtisodiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Biz yuqorida professor Q.Yahyoyev va boshqa olimlar tomonidan keltirilgan soliqlarning umumiy belgilarini ko'rib chiqdik. Ayrim manbalarda soliqlarning umumiy belgilarini 4 ta qismga, ayrim manbalarda esa 5 taga bo'lib o'rganilgan.

Demak, soliqlarning umumiy belgilarini chuqurroq o'rganish talab etilmoqda. Shu o'rinda soliqlarning umumiy belgi-



larini to'liqroq va aniqroq, batafsil yoritishi mumkin bo'lgan, har qanday iqtisodiy vaziyatlarda o'zgarmaydigan va doimiy mavjud, ahamiyatli optimal umumiy belgilarini yaratish muammosi hal etilishi lozim.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug'urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

3.3. Soliqlarning funksiyalari

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funksiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funksiyalarga ega bo'lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya, deganda odatda, kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funksiyalari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o'rtasida soliqlar ikki funksiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funksiya sifatida fiskal va nazorat funksiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko'ra eng asosiy funksiya bu soliqlarning fiskal funksiyasidir, chunki bu funksiyasiz nazorat funksiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas.

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.M.Keynsning konsepsiyasiga asoslanadi. By



konsepsiyaga ko'ra soliqlar fiskal funksiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funksiyalariga ega, soliqning bu funksiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L.Xarrot, N. Kaldor, A.Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko'ra soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funksiyasini yuzaga kelishiga fransuz iqtisodchisi E.De.Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar A.Ilersik, G.Koul, fransuz iqtisodchilari M.Klyudo, J.Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra davlat soliqlardan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funksiyasi mavjud, degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Malmiginning fikriga ko'ra soliqlar uch funktsiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish funktsiyalaridir. Uning fikriga ko'ra birinchi funktsiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funktsiyasi turli imtiyozlar va yengilliklar berish yuli bilan amalga oshiriladi²³.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, G'arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funktsiyasi I. Malmiginda taqsimlash funktsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

²³ Малмигин И. Налоги как элементы финанса. М.: перевод с. англ. 1997 г. стр. 69



Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib, ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos, deb ta'rif berishadi.

Bizning fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: soliqning fiskal funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, rag'batlantirish funksiyasi, nazorat funksiyasi, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funksiyasi - *fiskal funksiya* hisoblanib (lotincha *fiscus* so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparatini, mamlakat mudofaasini, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari manbayiga ega bo'lmagan qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining mablag'i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental opgan, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tushadiligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllan-



tiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko'paytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko'proq e'tibor bergan sari ko'p moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi o'zining fiskal funksiyasi vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish o'sishiga, jamg'arish jarayoniga xalal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda xalq xo'jaligining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taqsimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdordagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

Soliqlarning ko'pchiligi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda joylarda korxonalar faoliyatining iqtisodiy shart-sharoitlarini o'zgartirishga majbur etib, moliyaviy resurslarni makrodarajada qayta taqsimlashga olib keladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi *tartibga soluvchilik* roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayin «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki



jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek, aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. *Rag'batlantirish funksiyasi* soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali davlat iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlaydi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali qo'llab-quvvatlab, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

4. Soliqlarning *nazorat funksiyasi* soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini *axborot bilan ta'minlash funksiyasi* ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiyasi

ya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqli tushumlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarurdir. Shunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Bizning soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi, deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlarning iqtisodiyotdagi yuqorida ta'kidlangan muhim o'rnini belgilovchi bir qancha funksiyalari mavjud. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida soliqlarning o'rnini belgilovchi quyidagi asosiy omillarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishning zarurligi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi 4-bandida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish belgilangan.

Bizga ma'lumki, respublikamizda iqtisodiyotni isloh qilish va davlat qurilishini amalga oshirish Respublikamizning birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan ilgari surilgan besh asosiy tamoyilga asoslanadi. Bu qoidalardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholi, ayniqsa, uning kam ta'minlangan qatlamlari yetarli darajada ijtimoiy himoyalangan bo'lishi kerak.

2. Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish zarurligi omili. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-

tida eng asosiy tarmoq agrar sektor hisoblanadi. Masalan, ikkinchi jahon urushidan keyin tiklanayotgan Yaponiya iqtisodiyoti uchun mashinasozlik yetakchi tarmoq sifatida rivojlantirilgan edi. Bu tarmoq Yaponiya iqtisodiyotini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Bu eng avvalo, uning mamlakatga chet el valyuta tushumlarini olib kelishda namoyon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ana shunday asosiy tarmoq vazifasini o'tamoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligida soliq, kredit vositalari yordamida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktyabrdagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrdagi 539-sonli qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun umumiy belgilangan tartibdagi soliq va yig'imlar o'rniga byudjetga 1999-yilning 1 yanvaridan boshlab yagona yer solig'ini to'lash tartibi joriy qilindi.

3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillardan yana biri - hozirgi kunda ko'payib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va huquqiy shaxslarning daromadlarini jalb qiluvchi mukammal soliq to'lovini yuzaga keltirish.

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi xususiy tadbirkorlik faoliyatini keng quloq yoyishi va xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, tadbirkorlar daromadini hisobga olishni qiyinlashtiradi. Xususiylashtirilgan bitta korxonada o'rnida o'nlab kichik, xususiy va jamoa mulkiga asoslangan korxonalar paydo bo'ladi. Mukammal soliq mexanizmi yaratilmaganligi uchun daromadlar summasini aniqlashda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-sonli qaroriga muvofiq kichik korxonalar uchun umumiy belgilangan tartibdagi soliqlar o'rniga byudjetga ixchamlashtirilgan soliq to'lash imkoniyati vujudga keldi. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda ix-

hamlashtirilgan soliq tizimining joriy qilinishi bu tadbirkorlar uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan katta yordam bo'ldi.

Yuqorida tilga olingan omillar soliqlarning respublika iqtisodiyotida o'ziga xos o'rni borligidan dalolat beradi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta'minlash maqsadiga bo'ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Shunday ekan soliqlarning funksiyalari va vazifalari o'rtasidagi aniq farqli jihatlarni o'rganish va soliq munosabatlarini tashkil etish mobaynida bu chegaralarni asoslashni qayd etib o'tish lozim.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o'xshashliklarga ega. Ana shunday an'anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- *Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta'minlab berish.* Soliqlarning fiskal funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskal funksiyasi shunchalik faol bo'ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

- *Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish.* O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishning qudratli vositasi bo'lishi kerak.

- *Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish.* Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi

hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bogliq salbiy oqibatlarining oldini olishi mumkin. 70-80-yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarining aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

- Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat prinsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo'lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, soliqlarning byudjetga ijobiy ta'siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo bo'lgan tijorat strukturalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarining tabaqalashtirish yo'li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini byudjetning o'rta muddatli rejada hayotiyligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

3.4. Soliqqa tortish tamoyillari

Soliqlarning funksiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergan:

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2. Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

3. Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

1. *Yetarlilik tamoyili.* Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga yerishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari o'zicha olganda soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni choq-

da o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. Shunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'siqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur yetkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug'iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga, ilgari to'plangan mablag'larning eyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish agar u birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo'lgan iste'molning minimal hajmlariga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag'batlarning harakat doirasini toraytirib qo'ysa, uchinchidan, jamg'arma miqdorini kamaytirs va mablag'ning to'pla-



nish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

Soliqqa tortishning keyingi ikki salbiy omilini batafsil ko'rib chiqaylik. Moddiy rag'batlantirishlarga nisbatan soliqlarga tortishning noxush ta'sir etishi ish haqi tizimida salbiy alomatlar paydo bo'lishida ko'zga tashlanadi.

Yuqori darajada tabaqalashtirilgan soliq stavkalarining qo'llanilishi natijasida xodim tomonidan ana shu moddiy rag'batni qabul qilishdagi oddiylik va maqbullik ko'lami to'rayib qoladi.

Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi, boisi - mehnatga to'lanadigan haq miqdori, haqiqiy mehnat xarajatlarining murakkabligi va xususiyati o'zgarishi befarq bo'lib qoladi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi hamda qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliqlarga tortishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste'molga qarab soliqlarga tortishni ko'zda tutgan soliq islohoti o'tkazilmoqda. Soliqlarga tortishning salbiy ta'sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg'arish va investitsiyalashga soliqlarning ta'sir etishi borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kam-



chilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishdagi og'irlikni kapitaldan shaxsiy jamg'arishga o'tkazishning umumiy ta'sirini bir xil ma'noda baholash qiyin, jamg'armaning umumiy hajmi uchun kelib chiqadigan oqibatlar soliq tushumlarining hukumat tomonidan ishlatilish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi uy xo'jaliklaridagi jamg'armalar darajasining pasayib ketishiga olib kelgan bo'lsa, u holda bir tekis foiz stavkasi oshgan, bu esa investitsiya kapitaliga talabning kamayishi ta'sir ko'rsatgan bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa jamg'armalardan olinadigan daromad soliqlari investitsiyalarga cheklangan darajada ta'sir qiladi, chunki bunda chet eldan kapitalning ko'proq oqib kelish imkoniyati bor, binobarin, xorijlik sarmoyador jahon bozorida ustun hisoblangan stavkani mo'ljallaydi. Biroq bunday holatda kapitalga bo'lgan mulkchilik harakatga keladi. Bunga misol tariqasida Yaponiyadan kapitalning AQShga oqib o'tganligini ko'rsatish mumkin. AQShda kapitaldan foydalanganlik uchun foiz stavkasi past bo'lgan. Ayni paytda AQShda rezidentlar jamg'armalarini soliqqa tortish stavkasi Yaponiyadagiga qaraganda yuqori edi.

Binobarin, soliq siyosati o'z-o'zidan agar u davlatning moliya-pul siyosati boshqa unsurlaridan ayri holda amalga oshirilsa, takror ishlab chiqarish jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazmasligi ham mumkin.

3. *Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili.* Adolat tamoyillariga muvofiq soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyilining bir qancha asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitla-

rida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat, deganda xo'jalik yuritishning bir munc-ha og'ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar uchun esa og'irroq shartlarni qo'llash tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki buning aksicha vino-arog va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko'radigan shaxslar to'lasa, u holda adolatli, deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to'lovchilarning o'zlari - avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foyda ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'liqni saqlash dasturlaridan asosan ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'ladimi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun



bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag'allarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalana-dilarmi, agar foydalansalar, qay darajada - buning ahamiyati yo'q. Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va xizmat ko'rsatish yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxo-nalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati konsepsiyasi AQSh soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur konsepsi-yasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha baravar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badav-lat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq kat-ta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir odamning soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lgan joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsi-motdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'la-di. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish, deb tushun-maslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imti-yozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillar qadriyatlarining ijtimoiy tizimida qat'iy amal qilmog'i lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, is-te'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, ay-tish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa

tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

4. *Oddiylik va xolislik.* Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek, soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'iy nazar ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarida paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

5. *Boshqarishga qulaylik.* Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka yerishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'pa-



yishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Ma'muriy boshqaruvchilik bilan soliqqa tortish tamoyillarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan maqsadga erishish o'rtasida muvozanat saqlanib qolishi nihoyatda muhimdir. Murakkab tuzilgan choralarning samarasi kam bo'ladi, ularni amalga oshirishdagi muvaffaqiyat ko'pdan ko'p axborot to'plash va undan foydalanishga bog'liq. Soliq xizmati va soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasini ham hisobga olish kerak.

6. *Soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish.* Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llanish orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. *Soliq stavkalarini qiyoslash.* Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mus hkullashtirib yuboradi, aksincha, engil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tamoyillari o'rniga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari, deb atalib, uning oltita prinsipi (5-modda) belgilab berilgan:

–Soliq solishning majburiyligi prinsipi;

Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart.

Hech kimning zimmasiga ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

–Soliq solishning aniqligi prinsipi;

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq bildigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerak.

–Soliq solishning adolatligi prinsipi;

Soliq solish umumiydir.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

–Soliq tizimining yagonaligi prinsipi;

Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir.

O'zbekiston Respublikasining bo'xona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

– Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi;

Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

– Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi;

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Soliqqa tortish tamoyillari to'g'risida turlicha yondashishlar mavjudligini yuqorida ko'rib o'tdik. A. Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning 4 tamoyili, mamlakatimiz soliq kodeksida esa soliq qonunchiligining 6 tamoyili va boshqa iqtisodiy adabiyotlarda ham turlicha soliqqa tortish tamoyillari mavjudligi e'tirof etilgan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodchi olimlar tomonidan soliqlarga berilgan tariflarning o'ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
3. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimalarda ko'rinadi?
4. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimalardan iborat?
5. Soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Soliqlarga oid bilimlarni olimlar tomonidan turlicha talqin etilishi sabablari nimada?
7. Soliqlar belgilarining mohiyatini tushuntirib bering.
8. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
9. Soliqlarning funksiyalari va vazifalarini farqlab bering.



IV BOB. SOLIQ ELEMENTLARI VA SOLIQQA OID BOSHQA TUSHUNCHALAR

Reja

- 4.1. Soliq elementlarining mohiyati va tarkibi
- 4.2. Soliq stavkalari
- 4.3. Soliq imtiyozlari
- 4.4. Soliqlarni undirish usullari
- 4.5. Soliq mexanizmi

4.1. Soliq elementlarining mohiyati va tarkibi

Soliq elementlari haqida gap borganda ko'pincha adabiyotlarda soliqqa tortish tizimi haqida so'z yuritiladi. Shu o'rinda soliqqa tortish tizimi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, soliqqa tortish tizimi soliq tizimiga nisbatan tor tushuncha bo'lib, aslida soliq tizimi tarkibini tashkil etadi. Soliq tizimi soliqqa oid barcha munosabatlarni qamrab olsa, soliqqa tortish tizimi esa ushbu munosabatlarni soliqlarni undirish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlarini o'z ichiga oladi. Shu jihatdan soliqqa tortish tizimi qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonun yo'li bilan belgilangan hamda ijro hokimiyati tomonidan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuasidan iborat. Soliqqa tortish tizimining mohiyati garchand o'zgarmas bo'lib ko'rinsada, uning shakl-shamoyili va yo'nalishi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga, qolaversa soliq siyosatining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Chunki soliqqa tortish tizimi o'z ichiga tarkiban soliq elementlari, soliqlarni tashkil etish tamoyillari va usullarini oladi, bu elementlarning qay darajada talqin etilishi esa bevosita davlat siyosati yo'nalishiga bog'liq. Masalan, soliq elementlariga kiruvchi soliq stavkasining qaysi turlarining ko'proq amal qilishi, soliq imtiyozlarining belgilanis-



hi, soliqlarni undirishni qaysi usullaridan ustuvorlik bilan foydalanish asosan ijro hokimiyati faoliyatining mazmuniga bog'liq. Binobarin, shu ma'noda xuddi soliqlarni vazifalari kabi soliqqa tortish tizimi ham har bir davlatda o'ziga xos tarzda amal qilishi va tashkil etilishi mumkin.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkin, davlat qonunchiligi bilan belgilangan va uning maxsus idoralari tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuyiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi.

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari esa soliqqa tortishda ifodalanadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va davlat byudjeti o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to'liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy voqeliklarni har bir kichik guruhlar muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushunchadir. Soliq elementlari tushunchasi soliqqa tortish tizimini muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya'ni soliq elementlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarni yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo'lib, ular tarkiban: *soliq subyekti*, *soliq obyekt*, *soliq predmeti*, *soliq manbayi*, *soliqqa tortish birligi*, *soliq stavkasi*, *soliq imtiyozlari*, *soliq normasi*, *soliqni to'lash muddatlari*, *soliq yuki*, *soliq bazasini hisoblash usullari*, *soliqqa tortish usullari* va shu kabi tushunchalarni qamrab oladi. Quyida soliq elementlarining har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Soliq subyekti - soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq subyekti - bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va

shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi. O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq subyekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki bu yerda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq subyekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok etmaydilar. Ammo barcha soliq xizmati organlari soliq subyekti sifatida qatnashadi.

Soliq agenti - yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunday yuridik shaxslar o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur korxonada o'z mehnati, investitsiyasi bilan ishtirok etishi natijasida olgan daromadi (foydasi)dan soliqlarni ushlab qoladi va davlat byudjetiga o'tkazib beradi. Soliq agentlari davlat byudjetiga soliqlarni bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingan va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun qonunchilikda belgilangan moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq subyekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida qayd etiladi.

Soliq obyeksi - soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq obyeksi sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq obyeksi aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq subyektlarining huquqlarini soliqqa tortishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq obyeksi qilib albatta unga mulkiy huquqga



ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq subyekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq obyektini sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq obyektini aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliqqa tortish predmeti - soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish obyektini bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq obyektini yoki soliqqa tortish predmetini, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq subyektni namoyon qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq obyektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq subyektni yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq manbayi - bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbayi, ya'ni daromadi. Soliq obyektini va soliq manbayini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq obyektini ham soliq manbayi ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima obyekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Shu o'rinda soliqqa tortish predmetini, soliq obyektini va soliq manbayini farqlash va ularning mohiyatini ochib berish uchun aniq soliq turi bo'yicha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. yer solig'i bo'yicha ko'radigan bo'lsak, uning soliqqa tortish predmetini bo'lib yer uchastkasi maydoni, unga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'lsa soliq obyektini paydo bo'ladi va ushbu yer solig'i qaysi manba hisobidan davlat byudjetiga to'lansa, masalan, yerdan turli xil ko'rinishda foydalanish natijasida olinadigan daromad uning manbayi hisoblanadi. Demak, ushbu fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetini o'z-o'zidan kimdadir soliq to'lash

majburiyatini vujudga keltirmaydi. Misolimizga qaytadigan bo'lsak, yerga bo'lgan huquqni joylardagi mahalliy hokimiyat organlari beradi va shu bilan birgalikda yerdan foydalanuvchida soliq to'lash majburiyati vujudga keladi, chunki unda ushbu yer uchastkasidan foydalanish huquqi mavjud. Demak, soliq predmetiga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'ladigan bo'lsa, u soliq munosabatlarida soliq subyekti sifatida ishtirok etadi.

Soliq bazasi - soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan obyektning miqdoriga ham bog'liq. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq obyektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq obyektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida qayd etganimizdek, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq obyektidan kichik, soliq obyektini qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi - bu obyektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi - obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. So-



liq imtiyozlarining turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular *kassa usuli* va *hisobga olish usullaridir*. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat'iy nazar tovarlarni jo'natilishi o'z navbatida, soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshirilib. Ular quyidagilarga: soliqqa tortishning *kadastrli*, *deklaratsiya* va *manba oldidan soliqqa tortish* usullariga ajratiladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliq qonunchiligida har bir soliq turining byudjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari, deganda soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: *avans (bo'nak) to'lovlari* va *haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar*.

Soliqni to'lash tartibida esa: soliqni yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta, so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliq yuki - soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'idagi faoliyati natijasida to'lagan soliqlarining yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlarining yig'indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda esa soliq yuki soliqni to'lovchilar emas, balki



tovar (ish, xizmat) larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo'llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Soliqlarni yuridik va jismoniy shaxslar undirish jarayonida beriladigan imtiyozlar natijasida soliq yukini soliq to'lovchilarning biridan ikkinchisiga yuklash jarayoni kuzatiladi. Shu o'rinda soliq bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq yukini tartiblash yoki mantiqan aytganda, me'yorlashtirish muammosi yuzaga keladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko'rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko'rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig'ida davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar yig'indisini ana shu vaqt oralig'ida yaratilgan YaIM yoki MD ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to'g'ri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada esa aniq bir olingan subyektgacha to'g'ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

4.2. Soliq stavkalari

Soliqlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri asosan, ularning stavkalari darajasining miqdori bilan belgilanadi. Respublika soliq tizimi shakllanishining hozirgi bosqichida soliq stavkalarining darajasi eng munozarali masalalardan biri bo'lib turibdi.

Soliq stavkalari respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda muvozanat darajasini hamda xo'jalik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari-




ni belgilaydi. Demak, ular moliya-byudjet munosabatlarini sog'lomlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq stavkalari korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaganlari holda moliya-byudjet munosabatlarining pul muomalasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siriga barham bera olishi ham kerak. Bu esa, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq islohatining muhim jihatini tashkil etadi.

Soliq elementlari tarkibida soliq stavkalari alohida o'rin tutadi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq stavkasi, deganda soliq obyektining har bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi.

Soliq stavkasining ahamiyati soliq obyektining qancha qismi qanday miqdorda majburiy to'lov sifatida byudjetga undirilishini xarakterlaydigan masalaga javob beradi.

Soliq stavkalarining mohiyati shundaki, ular soliq obyekti, soliq birligi va soliq normalariga asoslangan holda soliq mexanizmining samarali ishlashini ta'minlaydi. Soliq stavkalaridan davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida foydalanilsa, boshqa tomondan soliq imtiyozlarining bir turi sifatida ular orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantirish rolidan foydalaniladi.



4.2.1-chizma. Soliq stavkalari turlari



Soliq stavkalari ikki xil ko'rinishda: qat'iy stavkalarda va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalanadi. Soliq stavkasi qat'iy stavkada belgilangan holda soliq obyektiga nisbatan qat'iy so'mda belgilanadi. Masalan, yer solig'ining har bir gektari uchun qat'iy so'mda soliq miqdori o'rnatilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga, mol-mulklariga esa nisbiy stavkada yoki foizda soliq miqdori belgilangan.

Soliq stavkasi bilan soliqqa tortish obyekti o'rtasidagi bog'liqlik darajasiga qarab soliq stavkalarini proporsional, progressiv va regressiv kabi turlarga ajratish mumkin.

Soliq stavkalari undirilishga, mohiyatiga va amal qilishi nuqtayi nazaridan bir necha turlariga ajratiladi (4.2.1.-chizma).

Soliq stavkalarining biri bu *proporsional* soliq stavkalari bo'lib, bu soliq stavkalarini asosiy mohiyati shundan iboratki, yuridik yoki jismoniy shaxslardan oboroti, foydasi yoki boshqa bir soliq obyektining bir xil turida yangi qo'llashdan muhim xususiyati shundaki, soliq to'lovchi ega bo'lgan foyda (daromad), dividend, oborot yoki mol-mulk qiymatining hajmi (summasi) qancha bo'lishidan qat'iy nazar bir xil tartibda, ya'ni bir xil foizda soliq stavkasi qo'llaniladi.

Masalan, dividend uchun barcha soliq to'lovchilari uchun soliq stavkasi 15 foiz qilib belgilangan. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi ham bugungi kunda proporsional soliq stavkasi hisoblanadi. Har qaysi soliq to'lovchi qancha oborotga (realizatsiya) ega bo'lishidan qat'iy nazar 20 foiz stavka bo'yicha soliq to'laydi. Shuningdek, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha ham proporsional soliq stavkasi qo'llaniladi. Respublikamiz soliq tizimida amal qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq uning obyekti 1000 so'm bo'lganida ham 100 000 so'm bo'lganida ham soliq stavkasi o'zgarмай qolaveradi, ya'ni soliq obyektining o'zgarishi soliq stavkasining o'zgarishiga ta'sir qilmaydi.

Proporsional soliq stavkasi o'zgarмай soliq stavkasi bo'lib, uning miqdori (foizi) soliq obyektining hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Bu bir tomondan yuqori daromadga (oborotga)



ega bo'lgan soliq to'lovchilar uchun qulay soliq stavkalari hisoblanada, ayrim soliq to'lovchilar uchun noqulaylik tug'dirishi mumkin, ya'ni ushbu soliq stavkasi soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini bajarmaydi.

Soliq stavkalarining keyingi turi *progressiv* soliq stavkasi hisoblanadi. Progressiv soliq stavkasi, mohiyati jihatidan proporsional soliq stavkasiga nisbatan teskari holatda amal qilib, unga muvofiq soliq to'lovchilarning daromadlari, foydasi yoki oboroti ortib borishiga muvofiq tarzda soliq stavkasining ham ortib borishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida buni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i misolida ko'rishimiz mumkin. Bunga muvofiq jismoniy shaxslarning olgan daromadi oshib borishi bilan birga belgilangan shkala asosida soliq stavkasi oshib boradi. Masalan, jismoniy shaxsning umumiy olgan daromadi eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdoridan 7,5 foiz stavkada, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha bo'lgan qismidan 17 foiz stavkada, eng kam ish haqining o'n baravaridan ortgan qismidan esa 23 foiz stavkada soliq undirilishi belgilangan (2017-yil uchun).

Demak, bundan ko'rinadiki, progressiv soliq stavkasida soliq obyektining oshib borishiga mutanosib ravishda soliq stavkasi ham oshib boradi. Qayd etish lozimki, ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda progresiv soliq stavkasi, deganda faqat jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha stavkalar keltiriladi.

Bundan tashqari progressiv soliq stavkalaridan davlat tartibga soluvchi vosita sifatida ham keng foydalanadi, masalan, respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan yuridik shaxslarning mol-mulki-ga belgilangan stavkaning ikki baravari miqdorida soliq undirish belgilangan bo'lib, 2017-yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig'i stavkasi 5 foiz bo'lgani holda ularning me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan mol-mulkidan ikki barobar miqdorida soliq undiriladi.



Progressiv soliq stavkasining ikki turi mavjud: *oddiy progressiya va murakkab progressiya*. Oddiy progressiyada soliqning orttirilgan stavkasi soliqqa tortiladigan barcha obyektga nisbatan qo'llaniladi, murakkab progressiyada esa soliqqa tortish obyekti qismlarga bo'linadi, ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi, ya'ni orttirilgan stavkalar butun obyektga nisbatan emas, balki bundan oldingi bosqichdan ortgan qismiga nisbatan qo'llaniladi. Yuqorida keltirgan misolimiz, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari murakkab progressiyadir.

Progressiv soliq stavkasining kamchiligi shundaki, bizingcha, bu soliq stavkalari soliq to'lovchilarning daromad olish manfaatdorligini rag'batlantirmaydi, shuning uchun progressiv soliq stavkalarini qo'llaganda muayyan chegaraga qadar soliq stavkasini oshib borishini ta'minlagan holda so'ngra regressiv soliq stavkalarini joriy etish soliq to'lovchilar manfaatlariga mos keladi. Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, progressiv soliq stavkalari davlat tomonidan iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solishda alohida ahamiyatga ega.

Soliq stavkalari haqida gapirganda, proporsional soliq stavkasi uchun neytral holat xarakterli bo'lsa, progressiv soliq stavkasi soliqlarning fiskallik xususiyatini xarakterlaydi, ya'ni progressiv soliq stavkalarida byudjet manfaati ko'proq yuzaga chiqadi. Shu jihatdan soliqlardan adolatlik tamoyilining amal qilishini ta'minlash maqsadida regressiv soliq stavkalaridan foydalaniladi.

Regressiv soliq stavkasida soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadi, oboroti, mol-mulk qiymati kabi soliq obyektining ortib borishi bilan soliq stavkasining kamayib borishi ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, regressiv soliq stavkasi progressiv soliq stavkasi nisbatan teskari iqtisodiy hodisani ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida regressiv soliq stavkasi asosan soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish maqsadida qo'llanilib, bu asosan korxonalarining mah-

sulot (xizmat, ish)ni chetga eksport qilishini rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan. Jumladan:

Foyda solig'i bo'yicha:

Eksportchi korxonalar uchun realizatsiyaning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga eksport qilish ulushiga bog'liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi. Eksport ulushi:

– realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo'lganida – belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

– realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha:

– realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo'lganida – belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

– realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Respublikamiz soliq tizimida eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qator imtiyozlarning mavjudligi milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon yagona soliq stavkalarini joriy etish to'g'risida bahsli munozaralar davom etib kelayapti.

Bu qarashlarni rus olimlari A.Abalkin, P.Bunich va boshqalarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. Ularning qayd etishlariga ko'ra korxonalar foydasidan olinadigan soliq uchun yagona stavka joriy qilish bozor munosabatlariga o'tayotgan davlatlar uchun maqbul va yagona yo'l ekanligini ta'kidlaydi. Fikrining isboti tariqasida yagona stavkaning joriy qilishning to'rt sababini ajratib ko'rsatadi:

1) xo'jalik mexanizmning yagonaligi;

2) kapitallarni sarflash sohalarining soliq munosabatlariga nisbatan tengligi, bu kapitallarning yerkin harakat qilishi uchun asos yaratadi;

3) Barcha korxonalarni soliq to'lovchilar sifatida davlat oldida teng huquqliligi;



4) Bozordagi raqobat kurashida sharoitlarning tengligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunga qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Ana shunday fikrlarga ko'ra barcha korxonalar uchun yagona stavkada foydadan soliq olish maqsadga muvofiq emas. Korxonalarning turlicha moliyaviy sharoitda bo'lgan hozirgi davr holatida yagona stavkani qo'llash korxonaning moliyaviy ehtiyojlari bilan davlat manfaatlari yuzasidan keskin qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar soliq tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular amaliyotida soliq stavkalarini tabaqalashtirilgan holda qo'llanilishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Chunki soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini yuzaga chiqishi asosan uch xil ko'rinishda bo'ladi. Bular soliq imtiyozlarini amalga oshirish (soliq obyektini kamaytirish), soliq to'lovchilari soliqdan ozod etish hamda soliq stavkalarini tabaqalashtirish hisoblanadi.

Qayd etish joizki, soliq stavkalarini tabaqalashtirish soliq tizimi hamda iqtisodiyotning real sektori uchun ham foydali bo'lsada, ammo bu jarayonda eng asosiy muammo soliq stavkalarini tabaqalashtirish mezonidir.

Yuridik shaxslardan (daromad) foyda solig'i bo'yicha soliq stavkalari asosan xorij sarmoyasining milliy iqtisodiyotga jalb qilinishi darajasi soliq to'lovchilarning bolalar va badiiy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan darajasiga qarab tabaqalashtirilgan. Bunda soliq stavkalarining eng ko'p tabaqalashtirish mezoni sifatida xorij sarmoyasining miqdori asos qilib olingan. Darhaqiqat ushbu mezon jahon amaliyotida ham asoslangan va yuqori samara beruvchi mezon hisoblanadi. Chunki xorij sarmoyasini respublikamiz iqtisodiyotiga qanchalik ko'p jalb etilsa, yalpi ichki mahsulotning investitsiyaga sarflanayotgan qismi iste'molga imkon tug'diradi hamda aholining turmush tarzini oshishiga olib kelishi mumkin. Shu maqsadda ham respublikamiz soliq tizimining oldiga qo'yilgan asosiy vazifalaridan biri sifatida soliqlarning chet-el sarmoyalarini milliy iqtisodiyotimizga jalb etilishini rag'batlantirish hamda qulay investitsion muhitini yaratishdan iborat qilib belgilangan.



Agar soliq stavkalarini tabaqalashtirishda to'g'ri va egri soliqlar holatiga e'tibor beradigan bo'lsak, egri soliqlarga nisbatan to'g'ri soliqlarda soliq stavkalari ko'proq tabaqalashgan. Buning asosiy sababi bizningcha, soliqlarning rag'batlantiruvchilik roli asosan to'g'ri va egri soliqlar orqali yuzaga chiqadi, shunga asoslangan holda soliq stavkalarini tabaqalashtirishda to'g'ri va egri soliqlar orqali korxonalarni turli xil faoliyat bo'yicha rag'batlantiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq xo'jalik yurituvchi subyektlardan asosan suv manbalarining tejab tergab foydalanish hamda davlat byudjetini daromad bilan ta'minlash sifatida kiritilgan bo'lib, uni tabaqalashtirishda ikki xil yondashuv amalga oshirilgan, ya'ni suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq stavkalari sohalar va suvlarning paydo bo'lish manbalariga ko'ra tabaqalashtirilgan. Buni yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkin. Unga e'tibor beradigan bo'lsak, xo'jalik jarayonida eng ko'p suv iste'mol etiladigan sohalar hamda boshqa sohalar bo'yicha suv manbayiga ko'ra har bir birlik suv hajmi uchun tiyinlarda soliq stavkalari belgilangan va bu soliq stavkalarini yillar bo'yicha oshib borayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.


To'g'ri soliqlar jumlasiga kiruvchi mol-mulk solig'i ham korxonalarining o'z tasarrufidagi va foydalaniladigan mol-mulkklarining samarali foydalanishga undash va byudjet manfaati nuqtayi nazaridan kiritilgan bo'lib, mol-mulk solig'i bo'yicha soliq asosan proporsional holda o'rnatilgan bo'lib u hozirgi (2017-yildan) kunda 5 foizlik stavkadan belgilangan.

Shuningdek, to'g'ri soliqlardan biri hisoblangan yagona soliq to'lovi kichik biznes subyekti uchun alohida soliq turi bo'lib, bu kichik subyektlar uchun ixtiyoriy shaklda berilgan, u bo'yicha belgilangan soliq stavkalari ham tabaqalashgan soliq stavkalari hisoblanadi. Bunda soliq stavkasini tabaqalashtirish mezoni asosan sohalar bo'yicha berilgan.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida to'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlar ham amal qilib, ushbu soliq turlari bo'yicha ham tabaqalashtirilgan soliq stavkalari qo'llaniladi.



O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq stavkalarini tabaqalashtirish mezonlari



4.2.2-chizma. Soliq stavkalarini belgilash mezonlari

Qo'shilgan qiymat solig'i eng asosiy soliq turlaridan biri bo'lib, bu asosan oborotdan olinadigan va sotuvdan olinadigan soliqlarning o'rniga kiritilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha dastlabki yilda 32 foizli stavka qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda umumiy tartibda 20 foizlik va nollik stavka bo'yicha soliq undirilmoqda. Ayrim turdagi iste'molda muhim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10 (15) foizlik tabaqalashtirilgan stavka ham joriy etilgan bo'lib, bu 2000-yilda bekor qilindi.

Egri soliqlardan yana bir turi bo'lgan aksiz solig'i bo'yicha ham tabaqalashtirilgan soliq stavkalari qo'llanilgan bo'lib, bu soliq turida soliq stavkalarini tabaqalashtirishda boshqa soliqlardan farqli ravishda soliq stavkalari soliq to'lovchilar sohalar yoki soliq to'lovchilarning joylanishiga qarab emas, balki aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati bo'yicha tabaqalashtirilgan.

Umumiy xulosa qilib aytganda soliq stavkalarini tabaqalashtirish soliq tizimining eng muhim asosiy muammolaridan biri bo'lib, o'ta nozik va muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi, chunki unda davlat byudjeti va soliq to'lovchilarning manfaatlari aks etgan.

4.3. Soliq imtiyozlari

Jahon soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri bu soliq imtiyozlaridir. Har qanday davlat uning xo'jalik yuritish tizimi qanday bo'lishidan qat'iy nazar davlat byudjetini daromadlar bilan ta'minlashda asosiy vositalardan biri bu soliqlar va soliqsiz to'lovlardir. Ammo joriy etilgan soliqlar sof fiskal shaklda o'rnatilishi mumkin emas. Chunki faqat byudjet manfaati nuqtayi nazaridan o'rnatilgan soliqlarning amal qilishi uzoq vaqtni o'z ichiga olmaydi. Shuning uchun muayyan darajada soliq imtiyozlaridan foydalanish taqozo etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo'lib, bizningcha ular quyidagilardir:



*Birinchi*dan, soliq imtiyozlarini mavjudligining asosiy sabablaridan biri bu soliq to'lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqeyi, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma'lum bir ma'noga ega bo'lmaydi;

*Ikkinchi*dan, davlat iqtisodiyotga ta'sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba'zi muhim sohalarini yoki soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya'ni davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo'ladi, bundan ko'rinadiki, soliq imtiyozlari davlatning o'z funktsiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

*Uchinchi*dan, soliq imtiyozlari qo'llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iborat. Ya'ni bundan soliqlar sifatida byudjetga jalb etilishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli byudjetga jalb etilmasdan soliq to'lovchilarning o'zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to'lovlarini byudjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag'batlantirishga erishiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq islohotlarini samarali yuritish maqsadida soliqlar vositasida ta'sir etish, ular bo'yicha imtiyozlarni qo'llash, iqtisodiyotning turli sohalarini bir tekis rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat soliq imtiyozlarini qo'llash orqali iqtisodiyotning turli sohalariga turlicha, ya'ni ayrim rentabelli va norentabelli sohalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ta'sir ko'rsatadi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to'laroq anglab yetish uchun avvalo, ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Prof. Q.Yahyoiev fikriga ko'ra «Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir»²⁴. Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta'kidlashicha, soliq imtiyozi, degan termin o'rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi²⁵. Amaliyotchi, iqtisodchi olim Sh.Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)»²⁶.

Prof. T.S.Malikovning ta'kidlashicha, soliq imtiyozlari, deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obyektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlari (turlari)dir. Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilgan. Individual xarakterga ega bo'lgan imtiyozlarni berish odatda ta'qiqlanadi²⁷.

Soliqlarning va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog'liq bo'l-

²⁴ Yahyoiev Q. Soliq. T.: «Mehnat», 1997-y. 20-bet.

²⁵ Yahyoiev Q. Soliq. T.: «Mehnat», 1997-y. 20-bet.

²⁶ Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996-y. 74-bet.

²⁷ Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000-y. 76-bet.



gan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishicha, «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo'lishidir»²⁸.

Agar Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq soliq to'lovchilardan soliqlarni aralash undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha, «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun - qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin»²⁹. Bundan ko'rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'lib, unda soliq imtiyozlari bilan byudjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o'rni ingliz iqtisodchisi Keynes nazariyasida alohida o'rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog'i soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta'sir etish va byudjetning daromad qismini to'ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin g'arb davlatlarida neoklassik yo'nalish, institutsional - ijtimoiy yo'nalish talablariga mos tarzda soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e'tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondashuvlaridagi tub farqlar bo'lishiga qaramay ularning vakillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlari rolini ular quyidagicha ifodalar edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha

²⁸ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 98-bet.

²⁹ Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 98-bet.



ishlab chiqarish bilan tafsiflanuvchi o'sish davrini o'tayotgan bo'lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamaytirish, ya'ni soliqlarni ko'paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo'sh mablag'larini ko'proq byudjetga jalb qilish lozim, deb hisoblaganlar. Agar mamlakat iqtisodiyoti turg'unlik holatini kechirayotgan bo'lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo'shimcha sarmoya jalb qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug'iladi degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko'paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa byudjetga qo'shimcha mablag'lar va kapital qo'yilmalar uchun mablag'lar tug'ilishiga imkoniyat tug'diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan. G'arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash sifatida ifodalanuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo'ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e'tibor beriladi. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy xulq-atvoriga davlat ta'sirini ifodalaydi. Ammo bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda soliq imtiyozlarini belgilash asosida ishlab chiqarishni rag'batlantirish, chet el investitsiyalari kirib kelishini ta'minlash, ijtimoiy himoyalashni tashkil etish, turli sohalarning rivojlanishiga aktiv ta'sir etish muammosi yotadi. Shu o'rinda mamlakatimizda soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari xalqaro soliq munosabatlariga mos kelishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning faol ishtirok etishida moslashuvchan bo'lishi lozim.



Soliq imtiyozlarining asosiy belgilari (tavsiflari)

Belgi	Mohiyati
Qonuniylik	Soliq to'lovchilarning ayrim guruhlari boshqa soliq to'lovchi guruhlaridan farqli o'laroq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ma'lum bir cheklovlarga ega ekanligi qonuniy jihatdan belgilab qo'yilgan.
Muddatlilik	Soliq imtiyozi qonunchilik tomonidan belgilangan aniq bir muddat davomida amal qilishi mumkin.
Ixtiyoriylik	Imtiyozlardan foydalanish ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, majburiy ravishda qo'llash mumkin emas.
Soliq majburiyatlarining kamaytirilishi	Soliq imtiyozining har qanday ko'rinishi soliq yukining pasayishini nazarda tutadi.
Tanlash (ajratish)	Imtiyozlar ma'lum bir talablarga yoki belgilarga javob beradigan, soliq to'lovchilarning alohida toifalariga taqtim etiladi.
Maqsadlilik	Imtiyoz iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, aniq bir maqsadga erishish va ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun qo'llaniladi.
Samaradorlik	Soliq imtiyozlarining samaradorligi o'z funksiyalarini amalga oshirishini bildiradi.

4.3.1-chizma. Soliq imtiyozlarining asosiy belgilari

Soliq imtiyozlari byudjetga tushumlarni kamaytirgani bois, fiskul nuqtayi nazarda ularni amalda qo'llash davlat manfaatlariga mos emas. Ammo soliq imtiyozlari tufayli iqtisodiyot tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini va xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadining o'sishi o'z navbatida, soliq bazasining oshishiga, bu esa, byudjetga soliq daromadlari tushumining oshishiga olib keladi.

Soliq imtiyozlariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-moddasida quyidagicha ta'rif be'riladi: "Ushbu Kodeksda boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan, soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar, deb e'tirof etiladi".



Soliq imtiyoziga iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rif beradigan bo'lsak, imtiyozlar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuyidir.

Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar munosabati bilan bo'shagan hamda ushbu imtiyozlarning amal qilish muddati ichida foydalanilmagan mablag'larning summasi imtiyozlar berilayotgan chog'da belgilangan maqsadlarga mazkur imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan keyin bir yil mobaynida yo'naltirilishi mumkin.

4.3.1-jadval

O'zbekistonda iqtisodiy osish, soliq tushumlari va soliq imtiyozlarining qo'llanilish tahlili³⁰

Ko'rsatkichlar	2014-y.	2015-y.	2016-y.
Yalpi ichki mahsulot, (mlrd so'mda)	128 624,8	171369,0	199 325,1
Soliq tushumlari, jami, (mlrd so'mda)	31 730,5	36 493,3	41030,7
Soliq imtiyozlari, jami, (mlrd so'mda)	8 231,	9 282,4	13552,4
Soliq imtiyozlarining YAIMdagi ulushgi	6,4%	6,7%	6,8
Soliq imtiyozlarning jami soliq tushumidagi ulushi	36,3%	36,4%	33,0

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika va Davlat soliq qO'mitasi-ning malumotlari asosida hisoblandi.



Jadval malumotlaridan ma'lum bo'ladiki, soliq imtiyozlari YAIM dagi ulushi 2014-yilda 6,4%ni tashkil qilgan bolsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 6,7%ni, 2016-yilda bu ko'rsatkich 6,8% ni tashkil qilmoqda. Soliq imtiyozlarining jami soliq tushumidagi ulushi tegishli ravishda 36,3%, 36,4% va 33,0% ni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tahlillardan ko'rinadiki aksariyat hollarda imtiyoz berishdan byudjet zarar ko'rmaydi, uning qiymati boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga tushadi xolos. Imtiyoz berish bilan kifoyalanmasdan uning ishlashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi, soliq, pul-kredit siyosati davlatning iqtisodiy boshqaruv siyosati bilan muvofiqlashtirilishi, soliq mexanizmi soliq imtiyozlarining ishlashi uchun sharoit yaratishi lozim³¹.

Fikrimizcha, asosiy yo'nalish ilmiy-texnika taraqqiyotini yuksaltirishga va uni ishlab chiqarishga joriy etishga, keng iste'mol tovarlarining rivojlantirilishiga qaratilishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida mustaqil respublikamiz iqtisodiy erkinlashtirishni amalga oshirar ekan, iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari rag'batlantirish va samarali qo'llanilishiga qarab quyidagi ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalariga imtiyozlar berish;
- soliq to'lashdan vaqtincha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;

³¹ Ashurova N. Soliq imtiyozlari va byudjet daromatlarining uzviyligi. Moliya-ilmiy jurnali. 2015-yil 4-son.82-86-b.



–eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Soliq imtiyozlari vositasida iqtisodiyotni boshqarish davlatning shunday faoliyati bilan bog'liqki, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yo'qotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning ba'zi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq subyekt, soliq obyekti, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtayi nazaridan bir necha guruhlarga (turlarga) bo'lish mumkin.

Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo'yicha guruhlash mumkin. Biz buni quyidagi tartibda asoslashga harakat qilamiz.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo'yicha umumiy o'xshashliklar mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo'yicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda:


- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida soliq tizimini takomillashtirib borishda, xorijiy mamlakatlarda soliq stavkalarining qo'llanish mexanizmidan foydalanish, soliqlarning to'liq va o'z vaqtida kelib tushushini nazorat qilish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda investitsiyalar, ilmiy tekshiruv va tajriba konstruktorlik ishlarini rag'batlantirish va tartibga solishda davlat tomonidan soliq imtiyozlaridan keng foydalaniladi. Soliq imtiyozlari rag'batlantirish va maqsadga muvofiq yo'llanilishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- ayrim korxonalar va tashkilotlarni butunlay soliq to'lashdan ozod etish;

Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari



4.3.2-chizma. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari

– yangi tuzilgan korxonalar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish. Bu imtiyozlar ishbilarmonlik va tadbirkorlik (agar mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan bo'lsa) rivojlanishga ijobiy ta'sir etadi.

Soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bu soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini adolatli tarzda belgilash hisoblanadi. Ammo, qayd etish joizki, soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatidan u turli davlatlarda turlicha bo'ladi.

4.3.2-chizmadan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida amalga oshirilgan. Soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarning investitsion mavqeyiga, ularning sotsial-ijtimoiy holatiga, respublikamizda qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to'lovchilarning import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasiga hamda davlatlar o'rtasidagi halqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangan. Soliq imtiyozlarini mezonlarini to'g'ri obyektiv aniqlash soliqlarning adolatlilik tamoyilini ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

4.3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz hududlari kesimida soliq imtiyozlaridan foydalanish tahlil etilayotgan yillarda ularning miqdorlari turlichadir. Jumladan, soliq imtiyozlaridan foydalanish jarayonida asosiy ulush Toshkent shahriga (o'rtacha 40,65%) to'g'ri kelmoqda. Undan keyingi o'rinlarda Toshkent, Navoiy hamda Andijon viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mamlakatimizda soliq imtiyozlaridan foydalanishda eng kam ulushni Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil etmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlarda rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, soliq siyosatini takomillashtirishga doir olib borilayotgan islohotlar negizida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ular zimmasidagi soliq yukini yanada



kamaytirish hamda ularga keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida 2015-yildan boshlab, yuridik shaxslar foyda solig'i stavkasi 8 foizdan 7,5 foizga tushirildi³².

4.3.2-jadval

Mamlakatimiz hududlari kesimida jami soliq imtiyozlarining tarkibi³³

(foizda)

Hududlar	2005-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,3	0,8	0,3	0,3	0,5	0,8	1,2	1,4
Andijon viloyati	3,5	16,4	31,3	8,3	2,0	24,4	16,9	13,1
Buxoro viloyati	2,3	2,9	1,1	2,5	4,0	3,2	3,1	3,3
Jizzax viloyati	1,3	0,6	0,5	0,4	0,2	0,8	0,9	1,0
Qashqadaryo viloyati	1,6	1,8	6,9	15,8	32,0	4,6	4,7	5,4
Navoiy viloyati	7,7	9,6	2,4	2,3	3,2	6,5	8,7	10,2
Namangan viloyati	2,9	1,8	0,5	0,5	0,5	1,2	1,4	1,2
Samarqand viloyati	3,8	3,8	2,0	1,0	0,9	3,9	3,6	4,7
Surxondaryo viloyati	0,8	2,5	1,1	1,3	0,4	1,2	1,5	1,4
Sirdaryo viloyati	0,7	0,5	0,5	0,3	0,2	1,1	1,1	0,9
Tashkent viloyati	24,2	14,9	12,9	17,5	13,6	9,1	8,3	14,4
Farg'ona viloyati	4,2	2,1	1,4	2,5	1,8	3,8	3,8	3,5
Xorazm viloyati	1,0	1,7	0,8	0,7	0,5	1,4	3,0	5,0
Tashkent shahri	44,7	40,7	38,5	46,7	40,4	37,9	41,7	34,6
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100

Bu o'zgarishlardan asosiy maqsad soliq miqdorlarining kamayishi evaziga soliq to'lovchilarni ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish asosida qo'shimcha ish o'rinlarini barpo etishdan iborat. Soliq stavkalarining pasaytirilishi o'z navbatida investitsion jarayonlarning (shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning) ham tezlashishi (akseleratsiyasi) ga olib keladi.

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4 dekabrda 2270-sonli qarori.

³³ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblandi.

4.4. Soliqlarni undirish usullari

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mavjud:

- 1) *kadastrli*;
- 2) *daromad manbayidan*;
- 3) *daromad egasi daromadni olganidan so'ng (deklaratsiya buyicha)*.

Birinchi usul bevosita real soliqlarni hisoblash uchun foydalaniladigan obyektlar (yer, imoratlar va shu kabilar) ning bahosi va o'rtacha daromadliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reyestrda foydalanilishini taqozo etadi.

Oliy belgilariga ko'ra tasniflanadigan obyektning tavsifnomasi kadastrning tuzilishiga asos bo'ladi. Masalan, yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalanilishi va boshqa belgilariga ko'ra guruhlanadi. Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o'rtacha daromadliligi belgilanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliqni to'lashning kadastrli usulining uziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko'rsatish kerakki, soliqning to'lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'liq bo'lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining tashqi belgilari asosida baholanadi. Kadastrli usulda shaharlar va shahar qo'rg'onlarida yer solig'i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo'yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingan.

Obyektning ana shunday belgilarga asoslanadigan o'rtacha daromadliligi uning haqiqiy daromadliligidan jiddiy farqlanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko'p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo'lishi mumkinki, undan soliq apparati uncha rivojlanmagan holatda qo'llaniladi.



O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumdorligi (boniteti) hisobga olingan holdagi jadval shaklidagi yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili yangidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi usulda soliqni soliq subyektiga daromadni to'laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish haqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig'i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olguniga qadar ushlab qolinadi, bu soliqni to'lashdan bo'yin tovlashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinadigan daromadni va soliq summasini aniq hisob-kitob qilib chiqadi. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar ko'pincha fiskal agent yoki soliq agenti sifatida qaraladi.

Soliqning daromad manbayida to'lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratsiyalar bo'yicha to'lashdagi singari soliq idorasi tomonidan hisoblanib ushlab qolinmaydi, balki uni yuridik va jismoniy shaxs foydasiga to'lovni amalga oshiradigan fiskal agentlar to'lov manbalari (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar) da hisoblaydilar va ushlab qoladilar.

Uchinchi usul soliq to'lovchilarning soliq idoralariga deklaratsiyalarni, ya'ni ularning olgan daromadlari va o'zlariga tegishli bo'lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishni nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratsiyasi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini nazorat qiladilar. Soliq deklaratsiyasi asosida odatda, tadbirkorlik faoliyatidan, dehqon (fermer) xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar (fan, adabiyot, san'at asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtirolar mualliflari, sanoat namunalari yaratuvchilari va hokazo) daromadlari soliqqa tortiladi.

4.5. Soliq mexanizmi

Xo'jalik faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarishning ma'muriy rejalashtirish shakli va uslublari tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish soliqlar va soliq mexanizmiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ikkinchi darajali iqtisodiy kategoriyadan davlatning jamiyat iqtisodiy hayoti, korxonalar, tashkilot va fuqarolarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan quvvatli vositasiga aylanadi. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda yangi soliq tizimi va uning amal qilish mexanizmining umumiy asoslari ishlab chiqilganiga qaramasdan, bu sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ko'p. Shu jihatdan olib qaraganda iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari, soliqlar va soliq tizimini nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish bilan birgalikda soliqlarning amaliyotda qo'llanilishi, soliq mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda uning vazifalari hamda amaliyotdagi soliq mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga ham qaratilgan bo'lishi lozim.

Soliq mexanizmi moliya mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Soliq mexanizmini jamiyat tomonidan soliq munosabatlari tashkil etish uchun qo'llanadigan usullar yig'indisi, deb atash mumkin. Lekin bu ta'rif soliq mexanizmining tashkiliy-huquqiy mazmuni hamda mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi.

Soliq mexanizmining tub mazmuni davlat, jamiyat va alohida subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish bilan bog'liq obyektiv pul munosabatlari jarayonini aks ettiradi.

Soliq mexanizmi iqtisodiy kategoriya bo'lgan soliqlardan farqli o'laroq, kishilar ongli faoliyatining natijasi sifatida ustqurmaga tegishli bulib, uni amalga oshirish shakli subyektiv xarakterga egadir. Soliq mexanizmi haqida kengroq



tushuncha hosil qilish uchun soliq va soliqqa tortish jarayonining tarkibiy elementlarini eslab o'tish o'rinlidir.

Soliq obyekt, soliq subyekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq bo'yicha imtiyozlar va jarimalar, soliqlarni hisob-kitob qilish va byudjetga o'tkazish tartibi, soliq to'lovchilarning mas'uliyatlari, soliq idoralari tomonidan nazorat olib borish tartibi va boshqalar soliq mexanizmining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shunga ko'ra soliq mexanizmi davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan qonunlar, yo'riqnomalar hamda soliqqa tortish jarayonining tashkiliy-huquqiy elementlari va uni boshqarishning majmuyini aks ettiradi.

Bu yerda alohida olingan soliq yoki majburiy to'lovlar mexanizmini emas, balki umumiy holda barcha soliqlar va majburiy to'lovlar mexanizmini yoritishda keltirish uchun ishlatiladigan qonunlar, yo'riqnomalar va yuqorida ta'kidlab o'tilgan soliqqa tortish jarayonining tarkibiy qismlari yig'indisini umumiy nazarda tutgan holda aks ettirilgan.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari birgalikda soliq munosabatlarini tashkil etishning shakllari, turlari, usullari «soliq mexanizmi konstruksiyasini» tashkil etadi. Ushbu «konstruksiya» tarkibiy qismlarining har biriga miqdor jihatdan o'lchov birliklari o'rnatish yo'li bilan harakatga keltiriladi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi konstruksiyasi soliq obyekt va subyekti, soliq stavkasi va undirib olish muddati, soliq bo'yicha imtiyozlar berish hamda jarimalar solish va boshqalarni aniqlash yo'li bilan harakatga keltiriladi.

Soliqlarning ichki mohiyati harakat qilish qonuniyatlari va qarama-qarshiliklarni e'tiborga olish, mustaqil davlatimiz uchun soliq mexanizmidan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega. Soliqlar va ularning funksiyalarini bir tomondan, soliq siyosati va soliq mexanizmini, ikkinchi tomondan ajratib o'rganish soliqlarni obyektivligini hamda soliqlar buyicha davlat faoliyatining subyektivligini tushunish imkoniyatini beradi.

Soliq mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'la-

riga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan va markazlashmagan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish bilan bog'liq obyektiv pul munosabatlari jarayonini aks ettiradi.

Soliq mexanizmining ichki mohiyati, uning tarkibi va tuzilishi bevosita soliqlarning mazmuni, tarkibi va tuzilishi (elementlari) dan kelib chiqadi.

Soliq mexanizmi - davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan (huquqiy baza asosida) soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig'indisini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda soliq mexanizmi - bu soliq munosabatlarini tashkil qilish usullari yig'indisi bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishda qulay shart-sharoitlar ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'llaniladi.

Davlat soliq munosabatlarini tashkil etishning usullarini o'rnatar ekan, ularga mos qonunlar yaratadi va kuchga kiritadi. Davlat soliq qo'mitasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida hamda o'zining vakolat doirasida har bir soliq turlari bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqadi. Shunday ekan davlat soliq mexanizmiga soliq qonunchiligi yordamida huquqiy shakl beradi va uni boshqarib turadi.

Soliq mexanizmining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa soliqqa oid me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lib, u umum-milliy va davlat manfaatlarini aks ettiradi.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari birgalikda soliq munosabatlarini tashkil etishning shakllari, turlari, usullarini tashkil etadi. Soliq mexanizmi soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi. Undan foydalanish soliq elementlari yig'indisidan foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari uzoq yillar harakat qilsa (masalan, soliqlarning turlari), uning elementlari (masalan, stavka, imtiyoz) tez-tez o'zgartiriladi.

Soliq mexanizmi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda foydalaniladigan asosiy qurol sifatida byudjet taqchilligini mumkin qadar bartaraf qilishga qaratilgan



bo'lishi lozim. Bundan tashqari davlat soliq mexanizmidan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlikning rivojlanishiga imkon yaratib berishda va ayni vaqtda aholining kam daromadli qatlamini ijtimoiy qashshoqlashishiga qarshi muhim vosita sifatida foydalanishi lozim.

Soliq mexanizmining vazifalari bevosita soliqlarning funksiyalaridan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib, soliq mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Soliq mexanizmining fiskal ahamiyatini e'tiborga olgan holda asosiy vazifasi davlat ixtiyoriga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish hisoblanadi. Bu borada quyidagilar asos qilib olinishi lozim:

- davlat va jamiyatning iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
- davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi xarajatlari uchun moliyaviy asos yaratish;

- davlat byudjeti taqchilligini imkon qadar kamaytirish. Ma'lumki, byudjet taqchilligini kamaytirishga nafaqat byudjet xarajatlarini qisqartirish, balki oqilona tashkil etilgan soliq mexanizmidan foydalangan holda byudjet daromadlarini oshirish hisobiga ham erishish mumkin. Ushbu maqsadlariga asosan soliq mexanizmining fiskal vazifasidan foydalangan holda erishiladi.

Soliq mexanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining yana bir ahamiyatini, ya'ni iqtisodiy ahamiyatini hisobga olgan holda o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarib turishda foydalanadigan dastaklardan biri sifatida quyidagilarga bo'linishi mumkin:

- bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish. Bu vazifa respublikamizda ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash uchun asoslanadi;

- mulkchilik va xo'jalik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilar uchun bir xil imkoniyat yaratib berish. Bu borada soliq mexanizmi



universallashtirilishi lozim. Bundan tashqari mavjud soliq mexanizmi soliq to'lovchi subyektlarga xo'jalik faoliyatining sohasi va iqtisodiyot tarmog'idan qat'iy nazar normal rivojlanishni ta'minlovchi darajaga egalik qilishga imkoniyat yaratib berishi lozim;

–yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish. Soliq mexanizmining ushbu vazifasi soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish va jarimalar solish hisobiga ular xo'jalik faoliyatiga ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan ta'sir etishdan iborat;

–tashqi iqtisodiy faoliyatni hamda eksportni rag'batlantirish. Soliq mexanizmining bu vazifasi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni kengroq jalb qilish va jahon bozoriga chiqish maqsadida mahsulot eksportini etarli darajada rag'batlantirishga doir imtiyozlar berish;

–soliq to'lovchilarga ma'lum davrda ba'zi imtiyozlar berish va zarur paytda jarimalar solish orqali ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatish. Soliq mexanizmining ushbu vazifasi orqali ishlab chiqarishga soliq mexanizmi vositasida ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish orqali umumiqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

Yuqoridagi vazifalardan tashqari soliq mexanizmining iqtisodiy ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan: tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza etishni rag'batlantirish; aholi pul daromadlarini oshirish yoki qisqartirish orqali ularning to'lov qobiliyatiga ta'sir etish kabi muhim vazifalarni bajarishi lozim.

Soliq mexanizmining iqtisodiy ahamiyatini e'tiborga olgan holdagi vazifalari:

–aholining har xil ijtimoiy guruhlari daromadlarini tartibga solish. O'rnatilgan soliq stavkasi miqdori shunday optimal darajada bo'lishi kerakki, barcha aholi ijtimoiy guruhlari uchun soliq stavkasi miqdori ularni yana ham ko'proq daromad olishdagi tashabbuslari va manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak;



– aholining kam daromadli qismining keskin qashshoqlashishiga to‘siq bo‘lib xizmat qilish;

– demografik siyosat talablarini hisobga olgan holda har xil imtiyozlar berish.

Soliqlar davlat byudjetini daromadlar bilan to‘liq ta‘minlashning asosiy manbasi hamda iqtisodiyotni boshqarib turuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham soliq mexanizmi keng qamrovli ayni paytda har bir soha, tarmoq, korxonaga alohida moslashuvchan bo‘lishi lozim.

Iqtisodiyotni boshqarish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

A) ma‘muriy boshqarish;

B) iqtisodiy boshqarish.

Boshqarishning bozor munosabatlari sharoitiga mos keluvchi asosiy usuli korxonalar faoliyatini uning oxirgi moliyaviy natijalariga bog‘liq qilib qo‘yishdan iborat.

Soliq mexanizmini qo‘llash, ssuda kapitali va foiz stavkalaridan foydalanish (investitsiya siyosati), byudjetdan kapital qo‘yilmalar hamda dotatsiyalar ajratish, davlat xarid baholarini o‘rnatish, davlat buyurtmasi va boshqa davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi ta‘sir etuvchi omillari hisoblanadi.

Soliq stavkalariga o‘zgartirishlar kiritish, soliqlar bo‘yicha imtiyozlar hamda jarimalardan foydalanish, ba‘zi bir soliqlarni joriy qilish bilan birga ayrimlarini bekor qilish va boshqalar yordamida davlat alohida olingan tarmoq yoki ishlab chiqarish sohasini tezroq rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishni yoqlovchi ko‘plab nazariyalar mavjud. Jumladan, A.Smit tomonidan ilgari surilgan soliqqa tortish tamoyillari soliqlarning fiskal ahamiyati bilan birgalikda iqtisodiyotni boshqarishda foydalaniladigan vosita sifatida o‘rganish lozimligini tasdiqlaydi.

«Soliqlar - iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita» konsepsiyasi iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishni ta‘minlash va iqtisodiyotni boshqarishda soliqlardan foydalanishni anglatadi. Keynes o‘zining ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarib turish zaruratini nazariy jihatdan



asoslab bergan va soliqlarga avtomatik tarzda barqarorlashtiruvchi vosita sifatida qaragan. Shu bilan birgalikda soliq mexanizmini o'zgartirib, soliq siyosatini iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga muvofiqlashtirishni tavsiya etgan.

«Soliqlar - daromadlarni barqarorlashtiruvchi vosita» nazariyasining asoschisi E.Jerarden (Fransuz iqtisodchisi) soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta'sir etib, jumladan, soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash orqali jamiyat a'zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkinligini ta'kidlaydi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishning asosiy maqsadi xo'jalik yuritishda qulay sharoitlarni yaratib berish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, shu maqsadlarga erishish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- soliq tushumlari hajmini o'zgartirish;
- soliqqa tortishning shakl va usullarini o'zgartirish;
- soliq stavkalarini o'zgartirish, ularni tabaqalashtirish;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqqa tortilishi lozim bo'lgan obyektlarni o'zgartirish;
- jarimalar qo'llash va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ta'sir etadi. Makroiqtisodiy darajada soliq stavkasi miqdoriga o'zgartirish kiritish orqali inflyatsiyani chegaralash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarining hududlararo mukammal joylashishini tartibga solish, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sishga keng ko'lamli maqsadlarga erishish mumkin. Mikroiqtisodiy darajada esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga ta'sir etishi, ularning investitsiya faoliyatini rag'batlantirishi kabilarga erishishi mumkin.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda soliq mexanizmi elementlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Ulardan keng qo'llaniladigan va samarali choralari sifatida soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini o'zgartirish kabilarni alohida qayd etib o'tish lozim.



Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliq elementlarining mohiyatini ochib bering.
2. Soliq elementlarini o'rganish zarurati nima bilan ifodalanadi?
3. Soliq elementlari tarkibiga qanday elementlar kiradi?
4. Soliq obyekti bilan soliq predmeti farqlarini tushuntirib bering.
5. Soliq agentining o'z soliq majburiyatlari bilan boshqa soliq to'lovchilar majburiyatlarini izohlab bering.
6. Soliq stavkalarining qanday turlari mavjud?
7. Soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
8. Proporsional, progressiv va regressiv stavka, deganda qanday stavkalar tushuniladi?
9. Soliq imtiyozlarining mohiyatini tushuntirib bering.
10. Soliq imtiyozlarini guruhlab bering.
11. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini aniqlab bering.
12. Soliqni undirish usullari qanday guruhlanadi?
13. Soliq mexanizmining mohiyatini tushuntirib bering.
14. Soliq mexanizmi tarkibiga nimalar kiradi?

V BOB. SOLIQ MUNOSABATLARI SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA SOLIQ MAJBURIYATLARINING BAJARILISHI

Reja

- 5.1. Soliq to'lovchilarning huquqlari
- 5.2. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari
- 5.3. Soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi
- 5.4. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash xususiyatlari
- 5.5. Soliq hisoboti tushunchasi. Soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibi

5.1. Soliq to'lovchilarning huquqlari

O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq kodeksi-ning 4-bobida soliq munosabatlari subyektlarining huquq va majburiyatlari keltirilgan bo'lib, unda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda ularning amal qilish holati batafsil yoritilgan.

Jumladan, amaldagi soliq kodeksining 31-moddasiga muvofiq soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;
- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;
- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;



➤ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

➤ soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

➤ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

➤ soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'yg'an xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

➤ soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

➤ soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

➤ davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining ushbu Kodeksga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

➤ davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

➤ davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli etkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek, vakilning ishtirok etishi soliq to'lov-

hini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi), deb e'tirof etiladi.

5.2. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari

Soliq to'lovchilar:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;
- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliq agentlari soliq kodeksining 31-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari:

- ✓ soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;
- ✓ soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hi-



sobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari soliq Kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5.3. Soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi

Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi:

- Soliq Kodeksida belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi;
- soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;
- moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi, amaldagi soliq Kodeksiga va boshqa qonunlarga muvofiq soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga yuklatiladigan hollar bundan mustasno.

Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lgan soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.



Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan soliq Kodeksida nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralarini qo'llaniladi.

Soliq majburiyati soliq Kodeksida belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o'tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- ✓ uning vafot etishi bilan;
- ✓ uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- u tugatilganidan keyin;
- u qo'shib olish (qo'shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha



to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatining o'tishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib turiladi, uziladi va tiklanadi.

5.4. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash xususiyatlari

Soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha soliq solish obyekti hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar soliq Kodeksining Maxsus qismiga muvofiq belgilanadi.

Soliq to'lovchilarning daromadlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun ular bo'yicha tegishli chegirmalar to'lov to'langan vaqt va pul kelib tushgan sanadan qat'i nazar, ular taalluqli bo'lgan hisobot davrida aks ettiriladi (hisoblab yozish usuli).

Mol-mulkni hisobga olish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo'qotilgan yoki yo'q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini soliq to'lovchi to'g'risida, shuningdek, shunga o'xshash boshqa soliq to'lovchilar to'g'risida o'zlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda hisob-kitob qilish orqali aniqlashi mumkin.

Agar o'zaro aloqador yuridik shaxslar o'z tijorat va moliyaviy munosabatlarida o'zaro aloqador bo'lmagan yuridik shaxslar o'rtasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan narxlardan farq qiladigan narxlarni qo'llasa, soliq solinadigan baza tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish narxlarini asosida hisoblab chiqariladigan soliq solish obyekti aniqlashda davlat soliq xizmati organlari o'zaro aloqador bo'lmagan yuridik shaxslar o'rtasida qo'llaniladigan narxlardan foydalanadi.

O'zaro aloqador yuridik shaxslar quyidagilardir:

✓ O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar va ularning chet davlatlar yuridik shaxslari bo'lgan muassislari (ishtirokchilari, a'zolari);

✓ chet davlatlarning yuridik shaxslari va ularning O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar bo'lgan muassislari (ishtirokchilari, a'zolari);

✓ muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) ayni bir yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'lgan O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar va chet davlatlarning yuridik shaxslari.

Hisob hujjatlari soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir.

Hisob hujjatlari qog'ozda va (yoki) elektron shaklda tuziladi hamda soliq Kodeksining 38-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati tugaguniga qadar saqlanadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiyatlari uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda topshiriladi.

Soliq Kodeksida soliq solishning turli tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari shart.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida yuritiladi.

Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to'g'ridan to'g'ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi mumkin.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo'ljallangan hisob siyosati bilan belgilanadi hamda yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo'yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi.

To'g'ridan to'g'ri hisobga olish usuli qo'llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa, shu turga kiritiladi. Bunda faoliyatning biron turiga kiritish mumkin bo'lmagan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.

5.5. Soliq hisoboti tushunchasi. Soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq hisoboti qog'ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.



Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u kichik tadbirkorlik subyekti bo'lmagan yuridik shaxs bo'lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs — soliq to'lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to'lovchiga soliq davri boshlanganidan e'tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo'lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi. Ushbu qismning qoidalari o'zgartirish, shuningdek boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tadbirkorlik subyekti — yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo'lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi.

Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik soliq to'lovchining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagi soliqlar bo'yicha soliq hisoboti ham ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda obyektlar bo'yicha hisobga qo'yilgan joy bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

Soliq to'lovchilar, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobotini o'z xohishlariga ko'ra quyidagicha taqdim etishga haqli:



- shaxsan olib borib berish tartibida;
- pochta orqali buyurtma xat bilan;
- telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.

Tadbirkorlik subyektlari soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi.

Soliq hisobotini davlat soliq xizmati organiga taqdim etish sanasi quyidagilardir:

soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda — soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;

soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda — aloqa tashkilotining tamg'asida ko'rsatilgan, pochta jo'natmasi jo'natilgan sana;

soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda — elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Davlat soliq xizmati organi shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilib olishni rad etishga haqli emas hamda soliq to'lovchining talabiga binoan soliq hisobotining nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yishi shart.

Soliq hisoboti telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to'g'risida tasdiqnoma yuborishi shart.

Soliq hisoboti dastlabki tarzda kameral nazorat qilinmasdan va uning mazmuni muhokama etilmasdan qabul qilinadi.

Soliq hisoboti quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organiga taqdim etilmagan deb hisoblanadi, agar unda:

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatilmagan yoki noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa;

soliq davri va (yoki) soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ko'rsatilmagan bo'lsa;

soliq Kodeksining 43 va 44-moddalarida soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar buzilgan bo'lsa.



Belgilanmagan shakldagi soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi hisobot olingan kundan e'tiboran uch kun ichida bu haqda soliq to'lovchiga yozma bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarni ko'rsatgan holda uni maromiga yetkazish uchun qaytaradi.

Kamchiliklari tuzatilgan soliq hisoboti uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaguniga qadar taqdim etilgan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilmaydi.

Davlat soliq xizmati organlariga soliq hisoboti taqdim etilgan davrga taalluqli xatolarni o'zi mustaqil ravishda aniqlagan soliq to'lovchi ushbu Kodeksning 38-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati ichida o'sha davr yuzasidan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqiga ega. Mazkur norma davlat soliq xizmati organlari tomonidan moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) doirasida tekshirish o'tkazilgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etiladigan hollarda qo'llanilmaydi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan va to'langan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasidan ortiq bo'lsa, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlariga penya hisoblangan holda mazkur tafovut qo'shiladi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan va to'langan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasidan kam bo'lsa, aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e'tiboran shaxsiy varaqada soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi tafovut miqdoriga kamaytirilganligi aks ettiriladi. Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penyalarning ortiqcha to'langan summasi soliq Kodeksida belgilangan tartibda hisobga olinadi yoki qaytariladi.



Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek soliq Kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida etarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan, deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlariga o'tkazilganligi to'g'risidagi to'lov hujjatlarining ko'chirma nusxalari soliq to'lovchi tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda ham bajarilgan, deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi soliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek, agar soliq to'lovchi bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda soliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda etarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to'lov to'langan deb hisoblanmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati soliq Kodeksining 10-bobida belgilangan tartibda hisobga olish orqali ham bajarilishi mumkin.

Soliq agentining ushlab qolingani summalarni byudjetga yoki davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishga doir majburiyati ushbu moddaning ikkinchi va to'rtinchi qismlariga muvofiq bajarilgan deb hisoblanadi.



Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda to'lanadi. Kodeksning 9-bobida nazarda tutilgan hollarda soliq to'lovchiga soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lovni, shuningdek penyani to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Soliq majburiyatining soliq to'lovchi tomonidan bajarilmaganligi yoki ushbu Kodeksda belgilangan tartib buzilgan holda bajarilganligi unga nisbatan soliq majburiyatining bajarilishini ta'minlash choralarini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq Kodeksida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e'tiboran yuzaga keladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, moliyaviy sanksiyalar byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalari qayidagi tartibda o'tkaziladi:

- asosiy summa;
- hisoblangan penya;
- jarimalar.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladi.

Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organi bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlari bajarilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishni talab qilishga haqli. Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga solishtirma dalolatnoma tuzishni rad etishga haqli emas.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ixtiyoriy tugatish hollari bundan mustasno, tugatuvchi besh kunlik muddat ichida bu haqda davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda ma'lum qiladi. Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda,



yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bu haqda davlat soliq xizmati organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor etadi.

Yuridik shaxs davlat soliq xizmati organiga tugatish balansini taqdim etish bilan bir vaqtda hisobotlarni hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu yuridik shaxsning pul mablag'lari, shu jumladan, uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida tugatuvchi tomonidan bajariladi.

Yuridik shaxsni tugatish davrida yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek penya va jarimalarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati yuzaga kelishiga qarab, soliq Kodeksida belgilangan muddatlarda hamda tartibda bajariladi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq uzilmagan soliq qarzi umidsiz, deb e'tirof etiladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxsda ortiqcha to'langan soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlar summasi bo'lsa, mazkur summalar soliq Kodeksining 10-bobida belgilangan tartibda hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

Yuridik shaxs xo'jalik sudi tomonidan bankrot, deb topilgan taqdirda tugatishga doir ish yuritishning butun davrida mol-mulk solig'i, yer solig'i, shuningdek avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penya va jarimalar hisoblash to'xtatib turiladi.

Xo'jalik sudining yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi qarori mol-mulk solig'i, yer solig'i, shuningdek, avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penya va jarimalar hisoblashni to'xtatish uchun asos bo'ladi.

Yuridik shaxs bankrotligi to'g'risidagi ishni yuritish tugatilgan va uning to'lov qobiliyati tiklangan taqdirda, xo'ja-



lik sudining bankrotlik to'g'risidagi ishni yuritishni tugatish haqidagi qarori qabul qilingan sanadan e'tiboran, ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu moddada belgilangan tartibda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajariladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatini bajarish, qayta tashkil etish tugallanganiga qadar huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs soliq majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlari va (yoki) holatlari ma'lum bo'lganligi yoxud ma'lum bo'lmaganligidan qat'iy nazar, uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi uning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlarining bajarilishi muddatlarini shu yuridik shaxsning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) uchun o'zgartirmaydi.

Huquqiy vorisni (huquqiy vorislarni), shuningdek huquqiy vorislarning yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishdagi ishtiroki ulushini belgilash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilguniga qadar u ortiqcha to'lagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning summaları shu yuridik shaxs huquqiy vorisining (huquqiy vorislarining) shaxsiy kartochkasiga yuridik shaxsni qayta tashkil etish tugallangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay o'tkazilishi kerak.

Yuridik shaxsning soliq qarzi yoki u qayta tashkil etilguniga qadar ortiqcha to'langan soliq yoki majburiy to'lov summalarini qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari o'rtasida taqsimlash har bir huquqiy vorisning ulushiga muvofiq amalga oshiriladi.



Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo'ri (merosxo'rlari) tomonidan meros qilingan mol-mulkning qiymati doirasida va merosdagi ulushga mutanosib ravishda, meros qabul qilib olingan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmasdan bajari-ladi. Vafot etgan jismoniy shaxs to'lashi lozim bo'lgan penya va (yoki) jarimalarni to'lash majburiyati merosxo'rga (me-rosxo'rlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati summasi meros qilingan mol-mulk qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash bo'yicha qarzining qolgan summasi umidsiz qarz, deb e'tirof etiladi.

Merosxo'r bo'lmagan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi umidsiz qarz hisoblanadi.

Soliq qarziga ega bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo'yilgan va (yoki) uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo'ri (merosxo'rlari) to'g'risida axbo-rot olingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida unga (ularga) soliq qarzi borligini ma'lum qilishi shart.

Sud tomonidan bedarak yo'qolgan, deb topilgan jismo-niy shaxsning soliq qarzi qonun hujjatlariga muvofiq beda-rak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jis-moniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning vasiysi tomonidan muomalaga la-yoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan (yo'q bo'lgan) taqdirda, uning soliq qarzining ko'r-satilgan mol-mulk qiymatidan ortiq qismi umidsiz qarz, deb e'tirof etiladi.



Jismoniy shaxsning bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz, deb topilganligini bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan yoki jismoniy shaxsni muomalaga layoqatli, deb topish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ilgari hisobdan chiqarilgan soliq qarzining amal qilishi, da'vo qilish muddatidan qat'iy nazar qayta tiklanadi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini, qat'iy belgilangan soliqni va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lash bo'yicha qarzi umidsiz qarz, deb e'tirof etiladi.

Banklar soliq to'lovchining soliqni va (yoki) boshqa majburiy to'lovni o'tkazishga doir to'lov topshiriqnomalarini, shuningdek tegishli vakolatli organning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalarini soliq Kodeksida belgilangan tartibda bajarishi shart.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini tegishli byudjet yoki davlat maqsadli jamg'armasining hisobvarag'iga kiritish soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini o'tkazish, deb e'tirof etiladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliq to'lovchilarning huquqlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Soliq majburiyati tushunchasi, deganda nimani tushunasiz?
4. Soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi qanday?
5. Soliq majburiyatini bajarish muddatlarini aytib bering.
6. Soliq majburiyatining tugatilishi qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati haqida tushuncha bering.



8. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash xususiyatlari nimalardan iborat?

9. Hisob hujjatlari qanday hujjat hisoblanadi?

10. Hisob hujjatlarini tuzish va saqlash tartibi haqida nimalarni bilasiz?

11. Alohida-alohida hisob va uni yuritish qoidalari haqida tushuncha bering.

12. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlarini tuzish va soliq organlariga taqdim etish tartibini tushuntirib bering.

13. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati xususida nimalarni bilasiz?



VI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Reja

- 6.1. Soliq tizimining mohiyati va uning klassifikatsiyasi
- 6.2. To'g'ri va egri soliqlar
- 6.3. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imglar
- 6.4. Umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'imglar
- 6.5. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

6.1. Soliq tizimining mohiyati va uning klassifikatsiyasi

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bozor tamoyillariga to'liq javob beradigan yangi soliq tizimi shakllandi. Mamlakatimizda soliqlarni boshqarishning zamonaviy usullari va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlarining yaxlit tizimi yaratildi. O'zbekistonda bugungi kunda olib borilayotgan soliq siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq yukini yanada pasaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, aholining real daromadlari va ularning xarid qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishdir. Har bir mamlakatda ham ushbu maqsadga faqat izchil soliq ma'murchiligini amalga oshirish orqali erishiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning



tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi *soliq tizimi* deb tushuniladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuvning ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtayi nazaridan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud³⁴.

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga xususan soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi³⁵ va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini va soliq tizimi, deganda ana shu elementlarning majmuyidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar yig'indisidan kelib chiqib ifodalash mumkin, deya ta'kidlaydi.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevositi-

³⁴ Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T. «G'afur G'ulom», 2000. y. 31- bet.

³⁵ Xvan L.B. Soliq huquqi. T.: "Konsaudit inform", 2001 y. 47-bet.



ta mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Soliqlarga doir moliyaviy munosabatlarni yoritishda ularni tasniflash barcha turdagi soliqlarni guruhlariga ajratish orqali o'rganishni osonlashtiradi. Hozirgi paytda soliqlarning u yoki bu belgilari, xususiyatlariga qarab tasniflash tartibi amal qilib, soliqlarni tasniflash soliq to'lovchi va davlat o'rtasida soliqlarga doir bo'lgan moliyaviy munosabatlarga turli nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi. Soliqlar xilma-xilligi sharoitida ularning farqli va o'xshash jihatlari-ni yoritgan holda to'g'ri tasniflash nafaqat nazariya uchun, balki amaliyot uchun ham zarur. Shunga asosan aytishimiz mumkinki, respublikamiz soliq tizimini o'rganishdagi yo'nalishlardan biri ularni to'g'ri tasniflash hisoblanadi. Soliq tizimini asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo'lishiga (subyektiga), byudjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlariga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarni har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda, undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga – to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni byudjetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbayiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliq-



larni qayd etilgan guruhlarga ajratib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishini o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'implari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkka, yerga va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari korxonalar xo'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar). Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Tovar (ish, xizmat) lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan egri soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: peniya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: foyda solig'i, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

6.1.1-jadval

2013-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	2013-yil		2014-yil		2015-yil		2016-yil	
	mlrd so'm	jami nis-n, %da	mlrd so'm	jami nis-n, %da	mlrd so'm	jami nis-n, %da	mlrd so'm	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	26 223,0	100	31 730,5	100	36 493,3	100	41 030,7	100
To'g'ri soliqlar	6 353,7	24,3	7 433,0	23,4	8 798,4	24,1	9 853,6	24,0
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1 038,8	3,9	1 120,2	3,5	1 180,5	3,2	1 215,1	3,0
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	832,6	3,2	954,4	3,0	1 207,8	3,3	1 516,1	3,7
Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	755,0	2,9	967,9	3,1	1 191,7	3,3	1 440,8	3,5
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2 717,3	10,4	3 261,7	10,3	3 800,7	10,4	4 137,4	10,1



Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	415,6	1,6	553,1	1,7	681,5	1,9	822,3	2,0
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	594,4	2,3	575,7	1,8	736,2	2,0	721,9	1,7
Egri soliqlar	13 398,6	51,1	16 852,3	53,1	19 193,8	52,6	21 131,0	51,5
Qo'shilgan qiymat solig'i	7 552,5	28,8	9 476,1	29,9	10 851,0	29,7	11 891,6	29,0
Aksiz solig'i	4 168,3	15,9	4 941,1	15,6	5 618,4	15,4	6 258,5	15,3
Bojxona boji	1 007,4	3,8	1 350,0	4,2	1 481,5	4,1	1 449,5	3,5
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	670,5	2,6	1 085,1	3,4	1 242,9	3,4	1 531,3	3,7
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	3 888,2	14,8	4 311,5	13,6	4 816,1	13,2	5 306,2	12,9
Mol-mulk solig'i	1 011,6	3,9	1 273,7	4,0	1 393,0	3,8	1 659,3	4,0
Yer solig'i	583,4	2,2	647,5	2,0	750,1	2,1	966,7	2,4
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	2 190,9	8,3	2 275,6	7,2	2 514,6	6,9	2 517,7	6,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	102,4	0,4	114,7	0,4	158,4	0,4	162,5	0,4
Boshqa daromadlar	2 582,5	9,8	3 133,7	9,9	3 685,0	10,1	4 739,9	11,6

*Manba: www.mf.uz

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimini rivojlantirish an'anasi. Soliq tizimining tarkibi va turlari bo'yicha rivojlangan mamlakatlarni ikki guruhga: asosiy ulushi to'g'ri soliq-larga to'g'ri keladigan (AQSh va boshq.) va asosiy salmoqni egri soliqlar tashkil etadigan davlatlar (Yel mamlakatlari va boshq.)ga ajratish mumkin.



AQSh soliq tizimi federal hukumat hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan asosiy soliq turlarining parallel ravishda foydalanilishi bilan tavsiflanadi. Bunday soliq-lar tarkibiga daromad solig'i, aniq tovarlar uchun aksizlar, ijtimoiy sug'urta, ta'minot jamg'armalariga badallar, meros va sovg'alarga solinadigan soliqlarni kiritish mumkin. AQSh federal hukumat soliq tizimida daromad solig'i, shtatlarning soliq tizimida universal va maxsus aksizlar asosiy hisoblan-sa, mahalliy soliq tizimida mol-mulk solig'i muhim o'rin egal-laydi. Bugungi kunda to'g'ri soliqlarning 40 foizi, eng yirik fiskal yig'im hisoblanadigan federal daromad solig'i hissasi-ga to'g'ri keladi.

AQShda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish obyekti «ish yuritish»ga (tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, transport, maxsus kiyimlar va boshq.) sarflangan xarajatlar chegirilgan holdagi korporativ biznesdan olingan shaxsiy da-romad hisoblanadi. Bunda transfer to'lovlari, uzoq muddatli kapital aktivlarni sotishdan olingan daromadning yarmi, ob-ligatsiyalar bo'yicha foizlar va boshqa shu kabi ishlab chiqa-rishga taalluqli bo'lmagan daromadlar soliqqa tortiladigan bazadan qisman yoki to'liq chegiriladi. Soliqqa tortiladigan daromadga jismoniy shaxslarning barcha daromatlari, xu-susan, yollanma ishchilar ish haqi, yerkin kasb egalarining daromadi, qalam haqlari, yakka tartibdagi mehnatdan olin-gan tushumlar va boshqalar kiritiladi. Mazkur soliqni hisob-lashda soliq to'lovchining farzandlari yoki qaramog'idagilar soni, shaxsiy yoki ijaraga olingan uyda yashashi, salomatligi va shu kabi omillar ham hisobga olinadi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar soliq tizimi AQSh soliq tizimiga muqobil hisoblanadi. 2008-yilda Yevropa It-tifoqi mamlakatlarida daromad solig'i 24 foizni tashkil et-gan bo'lib, bu iste'mol soliqlarining (1/3 atrofida) ulushidan kamdir. Ko'pgina soliqlardan (50 turi atrofida) tashkil topgan va federativ tuzilishga ega Germaniya soliqqa tortish tizimi ham o'ziga xos. Ushbu mamlakatda har bir soliq turi bo'yic-ha maxsus qonunlar amal qilib kelgan.



Germaniyada soliq to'lovchilar uchinchi shaxs (soliq maslahatchilari, soliqlar bo'yicha mas'ullar, advokatlar, auditorlar) yordamidan foydalanishi mumkin. Ushbu xizmat «Soliq maslahatchilari» to'g'risidagi maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu xizmatni ko'rsatish bo'yicha sertifikatga ega bo'lmaganlar tomonidan ko'rsatilgan xizmat uchun 500 yevro miqdorida jarima solinadi.

Boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi kabi Germaniyada ham byudjet daromadlarida asosiy salmoqni iste'mol soliqlari tashkil etadi. Masalan, QQS tovar va xizmatlar iste'molchiga yetib borishining barcha bosqichlaridan undiriladi. Soliqqa tortish obyekti bo'lib ishlab chiqarish va sotish jarayonining har bir bosqichida qo'shilgan qiymat hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqatlar, tibbiy va bosmaxona xizmatlari, transport va boshqa ijtimoiy maqsadagi xizmatlar 7 foizlik stavkada soliqqa tortiladi. Eksport, dengiz floti va fuqaro aviatsiyasi uchun ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq kredit operatsiyalari soliqqa tortilmaydi. Soliqqa tortishdan pochta, banklar, sug'urta kompaniyalari, ayrim ijtimoiy-madaniy muassasalar xizmatlari, shuningdek, kichik, qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalari ozod etilgan.

2010-yillarda Yevropa Ittifoqida amalda bo'lgan soliq turlari va soliq stavkalarini tartibga solish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. O'sha davrlarda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar soliq tizimlarining turlicha bo'lganligi soliq qonunchiligining moslashuvchanligiga ma'lum darajada to'sqinlik qilganligini ko'rsatib o'tish lozim.

Yuqorida qayd etilgan soliq tizimining muqobil guruhlariga Yaponiya kirmaydi. Chunki uning byudjet daromadlarida daromad va iste'mol soliqlarining ulushi bir xil (o'rtacha 20 foiz atrofida). Yaponiya hukumati o'z mablag'larini (30 foiz atrofida) nobyudjet fondlarga ajratmalar hisobidan shakllantiradi. Ushbu ajratmalarga ijtimoiy sug'urta va yollanma mehnat bilan shug'ullanadigan shaxslarni ijtimoiy



ta'minlash uchun to'lanadigan ajratmalar kiritilgan bo'lib, ular to'g'ri soliqlar hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotni moliyalashtirish manbayi bo'lib, davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, davlat va mahalliy byudjet mablag'lari, pensiya fondlari hisoblanadi. Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi ishchilar, tadbirkorlardan undiriladigan badallar va davlat byudjeti dotatsiyalari hisobiga tashkil etiladi. Ushbu fond resurslari investitsion faoliyatdan olingan daromadlar bilan to'ldirilib boriladi. Ijtimoiy sug'urta badallari majburiy bo'lib, ular soliq to'lovlari sifatida talqin etiladi.

So'nggi yillarda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o'z milliy soliq tizimlari isloh etilmoqda. Masalan, AQSh-da 2007-yilgacha iste'mol solig'ini 60 mlrd AQSh dollarga qisqartirish ko'zda tutilmoqda. AQSh hukumatining ta'kidlashicha, soliq stavkalarining pasaytirilishi mamlakat iqtisodiy holatining yaxshilanishiga omil bo'ladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ham soliq yukining pasaytirilishi nazarda tutilgan.

Xususan, 1998-yilda Germaniya hukumati soliq stavkalarini pasaytirish yuzasidan islohotlarni amalga oshirishini e'lon qildi. Unga ko'ra 2001-2005-yillarda jismoniy va yuridik shaxslar soliqlarini 56 mlrd nemis markasi(27 mlrd AQSh dollar)ga kamaytirilishi ta'kidlanganligi, isloh qilish asosan ish xaqidan olinadigan daromad va kapitaldan olinadigan daromaddan undiriladigan soliqlarga daxldor bo'lishi hamda ular 3 bosqichda amalga oshirilishi ta'kidlandi. Masalan, mamlakatda korporativ soliq yuki pasayganligi (2010-yilda 51,6 dan 2011-yilda 39,4 foizgacha tushirilishi) islohot samarasidir.

Turli mamlakatlarda undiriladigan soliqlar tarkibi va stavkalari ham takomillashib bormoqda (2-ilova). Xususan, Fransiya hukumati 2001-2003-yillar mobaynida 120 mlrd frank(86 mlrd AQSh dollar)gacha, Italiyada esa, 20 trln. lira (9 mlrd AQSh dollar) atrofida soliq yuki kamaytirilishi



ta'minlandi. Irlandiyada korporativ soliq stavkasi 20 foiz (Yel mamlakatlarida eng kichik) darajada belgilandi.

1996-2011-yillar mobaynida rivojlangan mamlakatlarda korporativ soliq stavkasi o'rtacha 37,5 dan 33 foizgacha pasaytirildi. Lekin korporativ soliqlarni pasaytirish iste'mol soliqlarining ortishi hisobiga amalga oshirildi va byudjetni to'ldirishda ular samarali manba bo'lib qoldi.

6.2. To'g'ri va egri soliqlar

Soliqlarni tasniflashga doir qarashlarning ilk shakllaridan biri ularni to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga ajratishdir. Soliqlarni bunday tasniflash respublikamiz soliq tizimida ham amal qilib, ular o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar respublikamiz soliq tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. To'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlashda ularning har birini o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklarini e'tiborga olish lozim. Shu o'rinda soliqlarni tasniflashga bo'lgan ushbu yondashuvning shakllanishi va rivojlanishini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Soliqlarni to'g'ri va egriga ajratish mezoni va ular nisbatini ta'minlashga doir munozaralar o'rta asrlardan e'tiboran mavjud bo'lib, moliya fanida to'g'ri va egri soliqlar nisbati nazariyasi nomini oldi. Bu nazariyaning asosiy g'oyasi to'g'ri va egri soliqlarni belgilash mezoni sifatida nima bo'lishi kerakligi va ularning qaysi biriga ustuvorlik berish iqtisodiyot rivojlanishi uchun samarali hisoblanishini nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan. Ushbu g'oyadan kelib chiqqan holda to'g'ri yoki egri soliqqa tortish nazariyasi tarafdorlari o'z g'oyalarini asoslashga harakat qildilar. To'g'ri va egri soliqlar nisbati nazariyasi soliqqa oid nazariyalar ichida muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va ko'plab davlatlar uning ijobiy g'oyalardan foydalangan holda o'z soliq tizimlariga o'zgartirishlar kiritib, barqaror soliq tizimini shakllantirishga erishib kelmoqda.

Soliqlarni tasniflashga bo'lgan bunday yondashuv moliya faniga XVI asr amaliyotidan olingan bo'lib, XVII asr oxirida ingliz filosofi D.Lokk tomonidan ularning nazariy jihatlarini o'rganilgan. D.Lokk to'g'ri va egri soliqlar tarkibini aniqlashda asos qilib, ularni oxir-oqibat kimga yuklanishi nuqatai-nazaridan yondashdi. Uning fikricha, yer solig'i - bu to'g'ri soliq, qolgan barcha soliqlar egri soliqlardir. Sababi sifatida egri soliqlar oxir-oqibat yer egalari tomonidan to'lanishini qayd etib, bunda sotuvchilar soliq yukini iste'molchi hisoblangan ishchilarga, ular yer ijarachilariga, yer ijarachilari esa yer egalariга yuklashi natijasida soliqlarning manbaya bo'lib oxir-oqibat yer egalari daromadlari ekanligini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan va barcha soliqlar o'rniga yagona yer solig'i joriy etishni taklif etgan. Faqat yer egasining sof daromadidan barcha soliqlar to'lanishidan kelib chiqqan holda, fiziokratlar ushbu g'oyani qo'llab-quvvatladilar va yanada chuqurlashtirdilar.

D.Lokk va fiziokratlarning soliqlarni to'g'ri va egriga ajratishning mezonini sifatidagi yondashuvida ular nazariyalari asosiy g'oyasi hisoblangan daromadlar faqatgina yerdan keladi, deb hisoblashidir. Bizga ma'lumki, A.Smit daromadlar nafaqat yerdan, shuning bilan birgalikda kapital va mehnat faoliyati davomida olinishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Olinishi mumkin bo'lgan daromadlar tarkibining o'zgarishi tadbirkorlik daromadi va ish haqidagi olinadigan soliqlarni ham to'g'ri soliqlarga, qolgan soliqlarni esa egri soliqlarga kiritish lozim, degan xulosaga olib keldi. Natijada, daromad - mulk (yer, uy, kasb, pul mablag'lari va shaxsiy mehnatdan) soliqlari to'g'ri soliqlar qatoriga, xarajat soliqlari, ya'ni keng ma'nodagi iste'mol predmetlariga soliqlar esa egri soliqlar qatoriga kiritilishini, soliqlarni ushbu ko'rinishida to'g'ri va egriga ajratish shaxsning to'lov qobiliyatidan, ya'ni uning daromadi va iste'moli o'rtasidagi aloqadan kelib chiqishini asoslab berdi.

Soliqlar rivojlanish bosqichlarida soliq tizimlari asosan to'g'ri soliqlarga asoslanib tuzilgan. Egri soliqlar tovar qiymatini oshirishini hisobga olib, ular ancha og'ir va xalq



ahvoliga salbiy taʼsir qiladi, deb hisoblangan. Shunga qaramasdan oʻrta asrlarda egri soliqlarga ustuvorlik berilib, asosan isteʼmol uchun birlamchi boʻlgan tovarlarga nisbatan qoʻllanilgan (masalan, tuzga soliq). Egri soliqlarga nisbatan ilk yondashuvga muvofiq egri soliqlar soliq toʻlovchilar moliyaviy ahvolini yomonlashtirganligi uchun ularni keng joriy etish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblangan.

Oʻrta asrlar oxirlarida paydo boʻlgan ushbu nazariyaga ikkinchi yondashuv esa, aksincha, egri soliqlarni joriy qilinishi zarurligini asoslab berdi. Egri soliqlar yordamida soliqqa tortishning teng sharoitlarini taʼminlash taklif etilib, boy tabaqa vakillari soliqlar boʻyicha turli xil imtiyozlarga ega boʻlganligi sababli ular oladigan daromadlar soliqqa tortilmay qolishini eʼtirof etilgan holda, egri soliqqa tortish tarafdorlari soliqlarni tovar narxiga ustama shaklida belgilanishini yoqlab chiqadilar.

Hattoki, A.Smit va D.Rikardolar ham egri soliqqa tortish tarafdorlari hisoblanishgan, ular uni ixtiyoriylik gʻoyasi orqali asoslab berishdi. Bu gʻoya egri soliqlar toʻgʻri soliqlarga qaraganda engilroq degan tasdiqdan kelib chiqadi, chunki ulardan egri soliqlarga tovarlarni xarid qilmasdan oson qochish mumkin, degan xulosani beradi.

Lekin XIX asr oxirida toʻgʻri soliqlar tenglashtirish maqsadi uchun, egri soliqlar esa samarali tushumlarga erishish uchun moʻljallanishi, ushbu masala boʻyicha hamma bahslashuvlar toʻgʻri va egri soliqqa tortish oʻrtasida oʻzaro muvozanatni taʼminlash zarur, degan xulosaga kelindi. Buning sababi sifatida aytish mumkinki, toʻgʻri va egri soliqlarning har birini ijobiy va salbiy jihatlari oʻrganildi. Shunga qaramasdan bu boradagi bahs-munozaralar bugungi kunga kelib ham davom etmoqda.

Soliq tizimi barqarorligini taʼminlashda toʻgʻri va egri soliqlarga oid boʻlgan nazariyalarni oʻrganish, jumladan, ularga boʻlgan tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni uygʻunlashtirgan holda tahlil qilish hamda respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda yondashish, toʻgʻri va egri soliqlar oʻrtasidagi maqbul nisbatni taʼminlas-



hga qaratilgan soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog'liqligiga ko'ra to'g'ri va egri soliqlarga bo'linishiga doir zamonaviy yondashuvga muvofiq, to'g'ri soliqlar to'g'ridan to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarining bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga ega-lik qiladigan) xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi.

Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati mavjud. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To'g'ri soliqlarga tortishda mablag'larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o'z huquqlari bilan da'vo qiladi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkining (er, uylar, qimmatli qog'ozlar va hokazo) qiymati to'g'ri soliqlar obyekt bo'ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to'lovchining daromadligini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'ining summasini aniq biladi.

Tarixiy jihatdan olganda to'g'ri soliqlar XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida shakllandi, ular faqat XX asrda keng ommalashdi.



To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi. Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkining ayrim turlaridan (yer, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadlilikini emas, balki o'rtacha daromadlilikini hisobga oladi. Soliqqa tortish obyektiga qarab quyidagilar real soliq-larga kiradi: yerga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilariga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkining kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadlili-gi bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday soliqlar regressiv tusga ega.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida asosan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan. Shaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbayida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda obyekt (daromad, mol-mulk) har bir soliq to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oilasi soni, qarzdorlik va hokazo) e'tiborga olinadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish obyektiga qarab shaxsiy soliqlarning quyidagi turlari farqlanadi: daromad solig'i, pullik sarmoyalardan tushadigan daromadlardan olinadigan soliq, sarmoyaning o'sishidan olinadigan soliq, korporatsiyaning foydasidan olinadigan soliq, merosdan va sovg'a qilishdan olinadigan soliq, mol-mulkdan olinadigan soliq, jon boshidan olinadigan soliq va hokazo.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli



ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tovarlar odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasining (sartarohxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Egri soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliqlarning to'lovchisi bo'ladi. Tovarning sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliqlarning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lmagan holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliqlarning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'ladilar.

Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'iy nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlar narxidagi hissasi ortishiga olib keladi.

Soliqlarning ayrim turlarining nisbati jamiyatning rivojlanishiga qarab o'zgardi. XIX asrda va XX asr boshida undirilishining soddaligi bilan ajralib turadigan egri soliqlar asosiy ahamiyat kasb etgan bo'lsa, 20-yillardan boshlab ko'pgina mamlakatlarda to'g'ri soliqlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida to'g'ri soliqlar alohida ahamiyat-



ga ega bo'lib qoldi, daromad solig'i va korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq ular ichida asosiy o'rin tutardi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa qilib aytish mumkinki, to'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs hisoblanadi. Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi esa mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

6.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida amalda bo'lgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq. Mol-mulk solig'i. Yer solig'i. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar	Qo'shilgan qiymat solig'i. Aksiz solig'i. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. Bojxona to'lovlari va boshqalar

Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, byudjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini moliyalashtirishga yunaltiriladi. So'ngi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulot qiymatida bir oz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu holda to'g'ri tendensiya mavjud, chunki egri soliqlar to'g'ridan to'g'ri korxonaning investitsion faoliyatining susayishiga olib kelmaydi. To'g'ri soliqlar salmog'i YaIM qiymatida pasayishi



korxonalarining moddiy-texnikaviy bazasining kengayishiga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi.

Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog'i ham ancha oshmoqda. Ular yer, suv, va boshqa resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Yagona davlat byudjeti daromadlari tarkibida ularning salmog'i yuqoridagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi.

6.2.2-jadval

**Soliqlarning O'zbekiston Respublikasi
Davlat byudjeti daromadlaridagi o'rne³⁶**

Ko'rsatkichlar	2013-yil		2014-yil		2015-yil		2016-yil	
	mlrdso'm	jami nis-n, %da	mlrdso'm	jami nis-n, %da	mlrdso'm	jami nis-n, %da	mlrdso'm	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jang'armalar daromadlarisiz - jami	26 223,0	100	31 730,5	100	36 493,3	100	41 030,7	100
Shu jumladan:								
To'g'ri soliqlar	6 353,7	24,3	7 433,0	23,4	8 798,4	24,1	9 853,6	24,0
Egri soliqlar	13 398,6	51,1	16 852,3	53,1	19 193,8	52,6	21 131,0	51,5
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	3 888,2	14,8	4 311,5	13,6	4 816,1	13,2	5 306,2	12,9
Boshqa daromadlar	2 582,5	9,8	3 133,7	9,9	3 685,0	10,1	4 739,9	11,6

Umuman olganda iqtisodiyot tarmoqlaridan va aholining mehnatga layoqatli qismidan undiriladigan soliqlarning ak-sariyat qismi umumiylik xususiyatiga ega. Lekin ayrim soliqlar va to'lovlar ham mavjudki, ular maqsadli xarakterga

³⁶ www.mf.uz ma'lumotlari asosida hisoblandi.



ega. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda soliqlar ulardan foydalanish xususiyatiga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi:

1. Umumiy soliqlar-respublika hamda mahalliy byudjetlarga tushadi va qayta taqsimlanadi.

2. Maqsadli soliqlar-bevosita biror bir soha, tarmoq yoki obyektни rivojlantirish uchun sarflanadi va taqsimlanadi.

6.2.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2013-yil va 2016-yillar oralig'ida bilvosita soliqlar ulushining respublika byudjetida daromadlar qismida ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 2013-yilda respublika byudjetiga 13 398,6 mlrd so'm kelib tushgan bo'lsa, 2014-yilga kelib byudjet daromadlaridagi ulushi 16 852,3 mlrd so'mga, 2015-yilga kelib 19 193,8 mlrd so'mga yetganligi bu ijobiy hol. 2016-yilda esa 21 131,0 mlrd so'mga bajarilgan.

2006-yilda Davlat byudjeti daromadlarida bilvosita soliqlarning ulushi 36,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yilga kelib 51,5 foizni (15,2 foizga ortgan) tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki bilvosita soliqlar davlat byudjetining daromad qismining asosiy qismini tashkil etadi. Shu bois ham mamlakatimizda bilvosita soliqlar tushumiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini anglatadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bilvosita soliqlar davlat byudjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz byudjeti daromadlarida bilvosita soliqlarning salmog'ini oshirish va ayniqsa, qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlarini byudjet daromadlaridagi barqarorligini ta'minlash lozim. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'ini undirishda soliqni oldindan undirish holatlarini yo'q qilish lozim. Buni shunday izohlash mumkinki, qo'shilgan qiymat solig'ida soliqning byudjetga to'lanishi ishlab chiqarilgan mahsulot sotilishidan oldingi davrga to'g'ri kelmokda. Bu o'z navbatida, korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, korxonaning investitsion faoliyatini qisqartiradi. Ya'ni soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, mavjud bo'lmagan daromad uchun soliq olinadi. Bu o'z-o'zidan milliy ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kelajakda

korxonalar tomonidan davlat byudjetiga to'lanadigan soliq-larning qisqarishiga va natijada byudjet daromadlarining kamayishiga olib keladi.

Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar sal-mog'ini kamaytirish hisobiga egri soliqlar ulushini oshirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilar zimmasidan iste'molchilar zimmasiga o'tkazish bevosita korxonalar hamda fuqarolar-ning moliya-xo'jalik faoliyatiga, ya'ni ularning daromadlari hajmiga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. To'g'ri soliqlarning kamayishi bilan ishlab chiqarishning rivojlanishi rag'batlan-tiriladi, tegishli soliqqa tortish bazasi kengayib, byudjet-ga tushumlar ortadi. To'g'ri soliqlar stavkalarini kamaytirish va egri soliqlarga tortish bazasini kengaytirish orqali bunga erishish mumkin. Bundan tashqari soliq stavkalarini yana-da ko'proq pasaytirish yo'li bilan ayrim yo'nalishlar eksport, xorijiy investitsiyalar va boshqalar rag'batlantiriladi.

6.2.3-jadval

Egri soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti solikli daromadlari tarkibidagi ahamiyati ³⁷

Ko'rsatkichlar	2014-yil		2015-yil		2016-yil	
	mlrd so'm	foiz	mlrd so'm	foiz	mlrd so'm	foiz
Jami solikli daromadlar	31 730,5	100,0	36 493,3	100,0	41 030,7	100,0
<i>Shundan:</i>						
Egri soliqlar	16 852,3	53,1	19 193,8	52,6	21 131,0	51,5
1. Qo'shilgan qiymat solig'i	9 476,1	29,9	10 851,0	29,7	11 891,6	29,0
2. Aksiz solig'i	4 941,1	15,6	5 618,4	15,4	6 258,5	15,3
3. Bojxona boji	1 350,0	4,2	1 481,5	4,1	1 449,5	3,5
4. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olina-digan soliq	1 085,1	3,4	1 242,9	3,4	1 531,3	3,7

³⁷ www.mf.uz- ma'lumotlari asosida hisoblandi.

So'nggi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat byudjetining daromadlari tarkibida egri soliqlar ulushining o'sayotganini hamda to'g'ri soliqlar salmog'ining kamayayotganini ko'rsatmoqda.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda egri soliqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular summasining ham yildan yilga o'sib borishi bilan birga jami daromadlar tarkibidagi ulushi ham ortib bormoqda.

Egri soliqlar 2014-yilda 16 852,3 mlrdso'mni yoki jamiga nisbatan 53,1 foizni, 2015-yilda 19 193,8 mlrdso'mni yoki jamiga nisbatan 52,6 foizni tashkil etgani holda, 2016-yilda 21 131,0 mlrdso'mni yoki jamiga nisbatan 51,5 foizni tashkil etgan.

6.3. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlar

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri - bu davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. Olinish manbayiga ko'ra soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Soliq solish maqsadida *yuridik shaxslar*, deganda mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer qa'ridanfoydalanganlik uchun, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, savdo tashkilotlarini yalpi daromad solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq va boshqalar kiradi. Ba'zi soliqlarni (QQS, aksiz) yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar ham to'laydilar. Jismoniy shaxslar

to'laydigan soliqlarga daromadga soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kabilar kiradi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob (joriy) schyotlaridan byudjet schyotlariga ko'chirib qo'yiladi. Uni undirish oson va arzonga tushadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan ba'zi soliqlar naqd pulda undirilganligi uchun uni to'lash qiyin kechadi. Bunday soliqlarga yer, mol-mulk soliqlari, va qator yig'img'lar kiradi. Soliq yig'ish xarajatlari ko'payib ketadi.

Ilgari aytganimizdek yuridik shaxslarning byudjetlarga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rinadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, yuridik shaxslar soliqlari ichida egri soliqlar salmog'i ortib borish tendentsiyasiga ega, to'g'ri soliqlar salmog'i esa pasayib borish yo'nalishidadir. Bunday holat mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hissasiga tushadigan soliq yukini kamaytirib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga to'g'ri va egri soliqlar byudjetning mustahkam manbasiga aylanib uning o'ta ijtimoiy zarur bo'lgan xarajatlarini o'z vaqtida va uzluksiz moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bularning ahamiyati beqiyos katta. Bu soliqlarsiz byudjetlarni rejali moliyalashtirishning iloji yo'q.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'lib, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan



oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligidan inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxonalar, tashkilotlar, birlashmaning bankdagi hisob-raqamidan mablag'ni ko'chirib, respublika yoki mahalliy byudjet hisob-raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda byudjetga to'liq o'tkazishga majburdir. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar. Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq summasi hisobidan 0,033 foiz penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi.

Shuning uchun har qanday xo'jalik subyektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa, bo'nak (avans) to'lovlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foydaga) soliq va boshqalarda bo'nak to'lovlar soni ko'p bo'lganligidan boqimandaning ko'payishiga olib keladi. Hozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda. Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

Jismoniy shaxslar, deganda O'zbekiston Respublikasi-ning fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Moliya yilida soliq solinadigan daromad, mol-mulk, yer maydoni, transport vositalari va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oy-gacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti, deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinsa, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Umuman olganda mamlakatimiz soliq qonunchiligidan kelib chiqib soliqqa tortish nuqtayi nazaridan yuridik shaxslarni shartli ravishda quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

1. Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar.
2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar.
3. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.
4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari.
5. Lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar.
6. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar.

Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:

- foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;



–yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
–suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
–obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i.

Yagona soliq tizimiga o’tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar quyidagi soliqlarni to’laydi:

–yagona soliq to’lovi;
–aksiz osti tovarlarini ishlab chiqargan holda aksiz solig’i;
–foydali qazilmalarni qazib olish amalga oshirilganda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari quyidagi soliqliqni to’laydi:

–yagona yer solig’i.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari quyidagi soliqlarni to’laydi:

–yagona soliq to’lovi;

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari (sartaroshxona, billiardlar, o’yin avtomatlari) bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslar quyidagi soliqliqni to’laydi:

–qat’iy soliq.

Shuningdek, yuqoridagi barcha yuridik shaxslar quyidagi yig’imlar, bojlar va boshqa majburiy to’lovlarni ham to’laydilar:

–bojxona to’lovlari (bojxona bojlari va yig’imlari, aksiz solig’i va tovarlarni import qilishda qo’shilgan qiymat solig’i);

–davlat bojlari;

–savdo huquqini beruvchi yig’imlar, shu jumladan tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig’imlar;

–davlat maqsadli fondlariga ajratmalar (byudjetdan tashqari pensiya fondi, respublika yo’l fondi, bandlik fondi);

–ro’yxatga olganlik uchun yig’im.

Jismoniy shaxslar to’laydigan soliqlar va yig’imlar tarkibi quyidagilardan iborat:

–jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq;

–mol-mulk solig’i;

- yer solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- yagona bojxona to'lovi (import boji, qo'shilgan qiymat solig'i va yig'im o'rniga joriy etilgan);
- import uchun aksiz solig'i;
- davlat boji;
- savdo huquqini beruvchi yig'im, shu jumladan tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig'implar;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhlari bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.


6.4. Umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implar

Respublikamiz byudjet tizimida amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad yangi hududiy siyosat va ushbu siyosatga mos keluvchi byudjet qurilishi modelini shakllantirish hisoblanadi. Mamlakatimiz byudjet qurilishi shakllanishida ikki asosiy, lekin mohiyatan qarama-qarshi jarayonlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechmoqda. Bir tomondan, sobiq totalitar tuzum davridagi byudjet an'analari saqlanishiga qarshi o'laroq mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ahamiyatining o'sishi va ikkinchi tomondan, davlatning yaxlitligi va islohotlarni amalga



oshirishda uning belgilovchi ahamiyati mahalliy manfaatlardan ustun bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarurati tug'iladi. O'zining iqtisodiy, ijtimoiy, milliy-madaniy, tabiiy-iqlim, geografik va boshqa xususiyatlari bilan hamda murrakkab bo'lgan turli hududlarning tafovutlarini ifodalovchi ushbu xususiyatlar mamlakatning o'tish davriga xos ziddiyatli jarayonida yanada keskin ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri - bu shubhasiz uning byudjetidir. Malumki, unda byudjet tasnifiga ko'ra davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning taqchiliginu moliyalashtirish manbalari ifodalanadi.



6.4.1-chizma. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tarkibiy tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi Oliy Majlis tomonidan 2013-yil 23-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksiga muvofiq respublikaning mustaqil davlat va ma'muriy - hududiy tuzilishi bilan belgilanadi. Tarkibiga respublika byudjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni olib, tuziladigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish davlat rejasiga muvofiq ravishda daromad va xarajatlar bo'yicha tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida respublika byudjeti katta ahamiyatga ega. Respublika byudjeti - davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Shu sababli respublika byudjetiga asosiy soliqlar daromad qilib birlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasiga muvofiq umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i;
- jismaniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Byudjet tizimida uning daromadlarini shakllantirish jarayoni bir qadar murakkab bo'lib, doimiy ravishda uning maqbul mexanizmini ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy izlanishlar olib boriladi. Bunda mavjud resurslarni turli byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash alohida o'rin egallab, uni har tomonlama tadqiq etish va huquqiy bazasini takomillashtirishga qaratilgan yo'nalishlarni belgilash respublika soliq tizimini isloh qilishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi bo'lib soliqlar bo'lishini hisobga olgan holda, ularni mamlakat byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning nazariy va huquqiy masalalarini har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud soliqlarni byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning amal qilish mexanizmi ko'ra, ular har birining u yoki bu byudjet bo'g'iniga yo'naltirishning huquqiy bazasi mavjud. Respublika byudjeti daro-



madlari umumdavlat soliqlari hisobiga, mahalliy byudjetlar daromadlari esa mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllantirishning huquqiy bazasi mustahkamlangan³⁸.

Soliqlarning byudjetga tushishi jihatidan umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implarga guruhlanishi soliq tizimini tasniflashning zamonaviy ko'rinishlaridan bo'lib, ularni turli byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning aniq mezonlari nazariy jihatdan to'liq tadqiq etilmagan va asosanlanmagan bo'lsada, bizningcha bu jarayon bir necha omillarni hisobga olgan holda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- davlat xarajatlarini turli byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishiga ko'ra;
- soliqlarni ahamiyatidan kelib chiqqan holda;
- soliqlarning undirish samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan;
- joriy etilgan soliqlar vazifalariga ko'ra va shu kabi boshqa omillar.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'liqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mintaqani rivojlantirish manbayini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa moddiy resurslarni takror ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o'z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoo-

³⁸ O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T.: «Adolat», 2015. (8-9 betlar; 5,6,7-moddalar).



iy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi.

Mahalliy yig'imlar - bu O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qaroriga muvofiq belgilangan, yuridik va jismoniy shaxslarga ularga ko'rsatilgan madaniy-maishiy xizmatlar yoki davlat hokimiyatining mahalliy organlari nazorati ostida o'tkaziladigan boshqa tadbirlarning chiqimlari bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash uchun undiriladigan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbai hisoblanib, ular hozirga qadar davlatchilik munosabatlari rivojlanishiga mutanosib ravishda shakllanib, takomillashib keldi. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq turli sohalarda amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat idoralarining mavqeini oshirish borasidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday chora-tadbirlarning aniq yo'nalishi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbayini mustahkamlashga qaratilgan.

Bu boradagi islohotlarning ilk huquqiy asoslaridan biri, shubhasiz 1993-yil 7 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi qonunidir. Ushbu qonunga muvofiq respublikamizda mahalliy soliqlar va yig'imlar joriy qilingan bo'lib, ularni joriy etishdan maqsad mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish manbayini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish qilib belgilandi.

Yuqorida qayd etganimizdek, respublikamiz soliq tizimidagi islohotlarning muhim yo'nalishi mahalliy soliqlar va yig'imlarni takomillashtirishga qaratilgan. Bu borada birgina ularning tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, shuni alohida qayd etish lozimki, ular yuqoridagi qonunga muvofiq joriy etilgan paytda 17 turda amal qilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi



bilan 8 turda undirila boshlandi. Hozirgi paytga kelib esa ularning faqatgina 6 turi amal qilib, 4 turdagi soliq va 2 turdagi yig'im sifatida undirilmoqda.

Bugungi kunda mahalliy soliqlar va yig'implarga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga muvofiq quyidagilar kiradi:

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari.

Mahalliy soliqlar va yig'implar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibidagi o'zgarishlar nafaqat son jihatdan, shuning bilan birgalikda, mohiyat jihatdan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga yerishildi. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.


Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibini bevosita mahalliy soliqlar va mahalliy yig'implar tashkil etadi.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud mahalliy soliqlar va yig'implarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyojlari uchun ishlatiladi;
- ularning asosiy qismi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi;
- ularni huquqiy jihatdan tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati idoralariga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishni talab etadi va boshqalar.

Shuningdek, mahalliy soliqlar va yig'implarning muhim xususiyatlaridan biri, ularni belgilash usuliga ko'ra ikki gu-

ruhga, ya'ni respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan va mahalliy davlat hokimiyati idoralari qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishidir.



6.4.2-chizma. Mahalliy byudjetlarning soliqli daromadlari³⁹

Birinchi guruh mahalliy soliqlariga mol-mulk solig'i va yer solig'i kirib, ular respublika qonunchiligi bilan joriy etiladi va butun respublika hududida undiriladi hamda ular stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Shuningdek, belgilanishi va amal qilishi nuqtayi nazaridan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq ham butun respublika hududida undirilib, uning yagona stavkasi amal qiladi.

³⁹ O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi asosida tayyorlangan.

Mazkur guruh mahalliy soliqlari bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati idoralarining faqatgina bir vakolati mavjud bo'lib, bu ham bo'lsa, ular o'z hududlarida joylashgan soliq to'lovchilarga mol-mulk solig'i bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berishi mumkin.

Ikkinchi guruh mahalliy soliqlar va yig'implari, jumladan, infratuzilmani rivojlantirish solig'i; jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari; yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im mahalliy davlat hokimiyati idoralari tomonidan joriy etiladi. Ular stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, mahalliy davlat hokimiyati idoralari faqatgina ana shu stavkalar doirasida o'z hududlari uchun soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini belgilash bo'yicha esa to'liq huquqiga ega. Shu bilan birgalikda mahalliy davlat hokimiyati idoralariga yangi turdagi mahalliy soliqlar va yig'implar joriy etish vakolati ham berilgan bo'lib, ularni joriy etish Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Respublikamizda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining asosiy daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'implar bilan bog'liq muammolar markazida ularning mahalliy byudjetlar xarajatlarini to'liq miqdorda moliyalashtira olmasligidadir. Shuning uchun ham umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalar, ya'ni tartibga solinadigan soliqlardan to'liq yoki qisman ajratmalar belgilash tizimi amal qiladi va ulardan kelib chiqib mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlari yana bir qadar oshirilgan bo'lsada, bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining soliqlar va yig'implar bo'yicha vakolatlari qonunchilik nuqtayi nazaridan unchalik yuqori hisoblanmasada, amalda esa o'z hududlarida undiriladigan barcha soliqlar va yig'implarni nazorat qilish tizimi amal qiladi.



Respublikamiz soliq qonunchiligiga ko'ra soliqlarni u yoki bu byudjetga yo'naltirishi belgilangan bo'lsada, mahalliy byudjetlarda taqchilikka yo'l qo'yilmasligi jihatidan hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar ular xarajatlarini to'liq moliyalashtira olmayotganligidan kelib chiqqan holda, bugungi kunda umumdavlat soliqlarining ham ko'pgina qismi mahalliy byudjetlarga yo'naltirilmoqda va ular ko'pincha mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari sifatida qaraladi. Umumdavlat soliqlarini mahalliy byudjetlarga birlashtirish jihatidan ikki guruhga bo'lish mumkin.

Ularning birinchi ko'rinishi respublikaning barcha hududlarida bir xil tartibda amal qiladigan va to'liq mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan umumdavlat soliqlaridir. Masalan, 2004-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq, alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar qat'iy solig'i, shuningdek, ayrim turdagi tovarlar (alkogolli mahsulotlar, pivo, o'simlik yog'i va boshq.) uchun belgilangan aksiz solig'i hududlar byudjetiga to'liq tushishi belgilangan⁴⁰. Ularning ayrimlari bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati idoralariga muayyan huquqlar berilgan.

Ikkinchi ko'rinishi esa, umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlarga hududlarning daromadlar va xarajatlarini tenglashtirish zaruratidan kelib chiqqan holda, ulardan tushumlar respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida ulushli tartibda taqsimlanadi. Bunday umumdavlat soliqlariga daromad (foйда) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalarni kiritish mumkin. Ular me'yorlari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi⁴¹.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004 yil uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining parametrlari to'g'risida»gi 2003-yil 25-dekabrda 567-sonli qarori.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004 yil uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining parametrlari to'g'risida»gi



Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari miqdori hududlarning quyidagi ko'rsatkichlari asosida belgilanadi:

- hududlar moliyaviy holatiga, jumladan, ular o'z daromad bazalarining etarligiga;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlariga;
- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat) lar qiymatidagi farqlarga;
- har qaysi hududlar aholisining soniga;
- ushbu hududda joylashgan tashkilotlarining byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblik (tafovut) ni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Soliq tizimi mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tamoyillariga to'liq mos kelmay, soliq qonunchiligi va mahalliy byudjetlarni tashkil etishning huquqiy asoslarida ma'lum ziddiyatli holatlar mavjud.

Hududiy siyosatning asosiy maqsadi davlatning yagonaligini saqlagan va mustahkamlangan holda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ko'proq mustaqillik berish va ularning mas'uliyatlarini oshirishdan iborat. Hududlar mustaqillik darajasining o'sishi hududlarning respublika bilan iqtisodiy va avvalo byudjetlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Jahon amaliyoti tasdiqlashicha, byudjet tizimining shakllanishi har qanday davlatda uzoq davom etadigan jarayondir, ideal holdagi byudjet qurilishi madeli bo'lishi mumkin emas.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va byudjet tizimi tamoyillaridan kelib chiqqan holda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi hisoblangan soliqlarni turli byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash masalalariga keng e'tibor qaratilib kelinmoqda. Zero birinchi



Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir»⁴². Bu o'rinda hozirgi paytda soliq tizimini takomillashtirishning yunalishlaridan biriga e'tibor qaratilayapti va uning eng muhim yo'nalish ekanligi qayd etilayapti. Boshqa tomondan, respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida ma'lum bir chegara bo'lsada, uning etarli darajada aniq emasligi ta'kidlanayapti.

Yuzaki qaraganda yoki bir tomonlama yondashilganda, alohida olingan soliq turining respublika yoki mahalliy soliqlar tarkibiga kiritilishi prinsipial ahamiyatga ega emasdek ko'rinadi. Bu narsa ayniqsa, soliq to'lovchi nuqtayi nazaridan qaralganda yaqqol seziladi. Haqiqatdan ham soliqni to'lash natijasida soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi uning ixtiyoridan majburiy ravishda (qonunga binoan) olib qo'yilgani uchun bu mablag'ning keyingi taqdiri uni qiziqirtmasligi, tabiiydek. Soliqlarning mahalliy va respublika (davlat) soliqlariga bo'linishi hamda ularning shunga mos ravishda mahalliy va respublika byudjetiga borib tushishi oddiy soliq to'lovchilar o'ylaganidek unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan masala emas. Aksincha, o'zining tarkibiy tuzilishiga ko'ra bir necha ma'muriy-hududiy bo'linmalardan tashkil topgan bizning mamlakatimiz uchun bu masala eng muhim masalalardan biridir. Chunki ana shu alohida-alohida olingan ma'muriy-hududiy bo'linmalarning bir-biriga mos ravishda rivojlanish sur'atlari, ular o'rtasidagi mavjud nomutanosibliklarning barham etilishi, o'zaro rivojlanishlardagi uzilishlarga barham berilishi, ma'muriy-hududiy bo'linmalar o'rtasidagi mavjud tafovutlarning ma'lum darajada qisqarishi, mamlakat doirasida yagona moliyaviy siyosatning yurgizilishi, hududlar doirasida iqtisodiy rivojlanishdan manfaatdorlikning so'nmasligi va shu kabilar respub-

⁴² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998. 361-bet.



lika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq va oqilona chegaraning o'tkazilishiga bevosita bog'liqdir⁴³.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarning belgilanishi iqtisodiyotning barcha sohalarida bo'lgani kabi byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni ham chetlab o'tmadi. Respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ichida byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarning maqbul mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Bozor munosabatlari sharoitida byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarning samarali amal qilishi ko'p jihatdan uning huquqiy bazasi qay darajada mustahkamligi bilan ifodalanadi. Byudjet qonunchiligidagi islohotlar bevosita respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish zarurati bilan ifodalanadi. Ma'lumki, erkin bozor munosabatlari sharoitida davlat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar bozor qonun-qoidalari asosida amalga oshirilib, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar tizimi ishlab chiqilishi va shu asosda turli sohalaridagi munosabatlar tartibga solinishi lozim. Davlat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni ma'muriy yo'l orqali boshqarishni bozor talablari qabul qilmaydi. Shuning bilan birgalikda davlat byudjeti daromadlarin shakllantirish, daromadlar va xarajatlarni turli byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash, ular samaradorligini oshirish kabi moliya tizimining qator dolzarb jihatlar mavjudki, ularning amaliyotda samarali amal qilishining asosiy sharti birinchidan, ular huquqiy bazasining shakllanganlik darajasi bilan ifodalansa, ikkinchidan, ushbu shakllangan qonunchilikning amaliyotga qay darajada joriy etilishi bilan ifodalanadi.

Aytish lozimki, mahalliy byudjetlar daromadlari faqatgina keltirib o'tilgan manbalardan tashqari umumdavlat soliq-

⁴³ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: «Akademiya», - 2004. 106-107 – betlar.

laridan mahalliy byudjetlarga ajratmalar hamda subvensiyalar, o'zaro hisob-kitoblar shaklida beriladigan daromadlar hisobiga ham shakllantiriladi.

Bu jarayonda davlat, hududlar va soliq to'lovchilar o'rtasida soliq tushumlarini taqsimlash, soliqqa tortish darajasi va investitsiyalardan foydalanish masalalari ko'pgina munozaralarga sabab bo'ladi.

Mahalliy byudjetlarning boshqarilishida hali ham eski usullardan foydalanilib kelinmoqda, ya'ni ishonchliligi nuqtai nazaridan samaraliroq bo'lgan soliqlar respublika byudjetiga yo'naltirilgan bo'lib, faqat mahalliy byudjetga zarur bo'lib qolgan hollardagina bir qism mablag'lar ularning ehtiyojlarini qoplash maqsadlarida qayta yo'naltirilmogda. Bu usulning qo'llanilishi mahalliy hokimiyatlar uchun o'z daromadlarini oshirish borasida unchalik katta ahamiyat kasb etmaydi. Ma'lumki, umumdavlat soliqlaridan ajratmalarni belgilash chog'ida bu ajratmalarning byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi nazarda tutilmaydi. So'nggi yillarda mamlakatimiz hududlarida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari sezilarli darajada farq qilmayotganligini ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimiz hududlarini kompleks rivojlantirish hamda ularning daromad bazalarini mustahkamlash maqsadida mamlakat Prezidenti tomonidan bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5075-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida»gi PQ-3042-sonli qarorlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga hamda yuqoridagi farmon va qarorlarga muvofiq mahalliy byudjetlarning



daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarni amalga oshirish yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas'uliyatini oshirish hamda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlari oshirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasining 3.5-bandi 2-qismida hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish masalalari belgilab berilgan bo'lib, shunga mutanosib ravishda mamlakatimiz hududlari mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig'imglar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo'nalish qilib belgilanishi lozim.

6.5. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda doimo takomillashtirilib borilishi lozim.

Mamlakatimiz mustaqilligining yigirma olti yili davomida respublikamiz soliq tizimi tashkil etilib, rivojlanib, takomillashib bordi. Respublikamizda davlat soliq xizmati organlari faoliyati 1990-yilning 17-dekabrida O'zbekiston Respublika-



si Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida Davlat moliya-soliq Bosh boshqarmasini tashkil qilish to'g'risida»gi 383-sonli qarori qabul qilinganidan so'ng faollasha boshladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991-yil 14-iyundagi Nizomi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991-yil 12-avgustdagi 217-sonli qarori qabul qilinganidan so'ng, davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatidagi davlat soliq xizmati organlarining shakllanishi hamda faoliyat yuritishiga asos solindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq Bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi 1994-yil 18-yanvardagi farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq Bosh boshqarmasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirildi.

Bundan ko'rinadiki, mustaqillikning dastlabki yillarida soliq tizimida asosan tashkiliy jihatlarga ko'proq e'tibor qaratildi, ya'ni yangi bozor munosabatlariga mos keladigan soliq turlarini joriy etish va davlat byudjeti daromadlarini ta'minlab beruvchi tegishli organlar faoliyati shakllantirildi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimida o'tkazilgan islohotlarni to'rt bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich 1991-1994-yillarni o'z ichiga olib, bu bosqich soliq tizimining tashkil etilishi va soliqlarning fiskal funksiyasi yuqori ahamiyatga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston soliq tizimini yaratishda 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun birinchi me'yoriy hujjatlardan bo'ldi. Mazkur qonunda soliq tizimining tuzilishi va ishlashining umumiy asoslari ko'rsatildi hamda amaliyotga joriy etilgan soliqlarni hisoblash va undirish tartibi belgilab berildi.



Shu bilan birga, 1991-yil 15-fevralda «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga binoan soliq obyektini kengaytirildi, ya‘ni ilgari daromad solig‘ini jamoa xo‘jaligi orqali to‘lab bergan jamoa a‘zolari to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z daromadlaridan to‘laydigan bo‘ldilar.

1993-yil 7-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bunday soliqlarga jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, kurort zonalarida ishlab chiqarish obyektlari qurish solig‘i, reklama solig‘i, avtomobil vositalarini qayta sotish solig‘i, transport vositalarini egalardan soliq va 13 ta har xil yig‘imlar kiritildi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi qonunga 1993-yil 7-mayda o‘zgarishlar kiritilib, chet el valyutasida olinadigan tushumdan ajratma joriy etildi. Respublika valyuta jamg‘armasiga ajratma dastlab 25%, keyinchalik 10% miqdorida belgilandi. Soliq tizimidagi islohotlarning birinchi bosqichida soliqlarning fiskal samaradorligiga erishish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, bevosita soliq tizimiga joriy etildi.

Ikkinchi bosqich 1995-1997-yillarni o‘z ichiga olib, bu bosqich soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Soliq tizimidagi islohotlarning ikkinchi bosqichida soliqlarni korxonalarining ishlab chiqarishini rag‘batlantirishga qaratish maqsadida korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirgani hisobiga foyda solig‘i stavkasi 0,3 foizga kamaytirish, qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun foyda solig‘i stavkasi rentabellik darajasidan kelib chiqib, ya‘ni rentabellik darajasi 40% gacha bo‘lgan korxonalar uchun 3 foizli stavkada, rentabellik darajasi 40%dan yuqori bo‘lgan korxonalar uchun 20 foizli stavkada undirish tartibi belgilandi.

1995-yildan boshlab soliq tizimi ixchamlashtirilib, bir qator samarasiz soliqlar va yig'implar, ya'ni respublika tas-hqarisiga olib chiqiladigan xomashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan byudjetga 30 foiz ajratma va shu kabilar bekor qilindi. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o'zgartirildi.

1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi va 1998 yildan amaliyotga joriy qilindi. Bu hujjat orqali soliq qonunchiligini mustahkamlash bilan birga milliy mahsulotlar eksportini, import tovarlar o'rnini bosadigan mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni, nogironlarning ishlab chiqarishdagi ishtirokini, mehr-muruvvat ishlarini rag'batlantirish vazifasi kuchaytirildi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilash maqsadida 1997-yilning 29-avgustida "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Unda davlat soliq xizmati organlarining asosiy huquqlari, vazifa va funksiyalari belgilanishi bilan birga uchastka davlat soliq inspektori lavozimi joriy etildi.

Uchinchi bosqich 1998-2007-yillarni o'z ichiga olib, bu bosqichda soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni ixchamlashtirish islohotlari boshlanib, soliq to'lovchi yuridik shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etildi va ularga soliq hisob-kitoblarini, hisobotlarini topshirish, hisoblangan soliq summalarini to'lash mud-datlari qulay holatga keltirildi.

Xususan, mikrofirma va kichik korxonalar soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to'lovini to'lashi, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar yagona yer solig'ini to'lashi, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig'ini to'lashi belgilandi.

2000-yildan boshlab samarasiz, byudjetga tushishi qi-yin hisoblangan reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib-sotish solig'i, me'yoridan ortiq sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'i uchun 2 foizli haq hamda tabiatni ifloslantiruvchi chiqindilarni joylashtirish uchun haqlar bekor qilindi.



2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to'lab kelingan yagona soliq hamda Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armalariga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi.

2007-yil 1-yanvardan boshlab, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan yalpi daromad solig'i, Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armalariga majburiy ajratmalar o'rniga tanlash huquqisiz yalpi tushumdan to'lanadigan yagona soliq to'lovi joriy etildi.

Malumki, 2005-yildan boshlab O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish davri boshlandi. Prezidentimiz I.Karimov tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida 2005-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalaridan - iqtisodiyotni modernizatsiyalash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish hamda takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yuzasidan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Xususan, 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Soliq kodeksi iqtisodiy islohotlar sohasida davr talablariga javob bermasligi qayd etilib, soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etib, soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozimligi uqtirildi va amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini engillashtirish, soliq bashqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tasdiqlash topshirildi.

To'rtinchi bosqich 2008-yildan hozirgi vaqtgacha davom etib kelmoqda. Mazkur davrda yangi tahrirdagi O'z-



bekiston Respublikasi Soliq kodeksi tasdiqlanib, 2008-yil 1-yanvardan kuchga kiritildi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining avvalgisidan asosiy farqi ushbu Kodeks to'g'ridan to'g'ri tasir kuchiga ega bo'lgani, yani har bir soliqni hisoblash va to'lash tartiblari turli huquqiy-me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan, to'g'ridan to'g'ri Soliq kodeksida aks ettirilganidir.

Shu bilan birga Kodeksda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilangan, deb hisoblanishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qonunchilik hujjatlari va Prezident qarorlari bilan o'rnatilishi belgilandi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish maqsadida moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish tadbirlari belgilanib, unga ko'ra soliq organlariga taqdim etiladigan 2 ta moliyaviy hisobot shakllari bekor qilindi, 11 turdagi soliq hisobotlari va boshqa ma'lumotlarni birlashtirib 5 taga tushirildi, 12 turdagi soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal

rivojlantirish yoʻlidagi toʻsiqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4725-sonli farmoniga binoan, xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va oʻrnini tubdan oshirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yoʻlidagi mavjud toʻsiq va cheklovlarni tugatish, xususiy mulkning yalpi ichki mahsulotda, jumladan, xorij sarmoyasi ishtirokidagi ulushini izchil oshirish uchun yanada qulay iqtisodiy, huquqiy sharoit va ragʻbatlar yaratishga qaratildi.

Xususan, 2015-yilning 1-iyulidan boshlab:

–mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xoʻjaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan **toʻrt yilda bir martadan**, boshqa xoʻjalik subyektlarida esa faqat Oʻzbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga **asosan uch yilda bir martadan koʻp** boʻlmagan tartibda amalga oshiriladi;

–moliya-xoʻjalik faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan rejali tekshiruvlar oʻtkazish muddati **10 kalendar kundan** oshmaydi;

–tadbirkorlik subyektlarining moliya-xoʻjalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat soʻnggi tekshiruvdan keyingi davrni qamrab oladi;

–qoʻzgʻatilgan jinoiy ishlar munosabati bilan xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xoʻjalik yurituvchi subyekt jalb etgan **advokatlar ishtirokida** amalga oshiriladi;

–Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni (soliqlar yoki boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlashdan boʻyin tovlash) birinchi marta sodir etgan, jinoyat aniqlangandan keyin **30 kun ichida** davlatga yetkazilgan zararni toʻliq qoplagan, penya va boshqa turdagi moliyaviy sanksiyalarni toʻlagan shaxsga nisbatan **jinoiy ish qoʻzgʻatilmaydi va u javobgarlikdan ozod** qilinadi;

–2015-yilning 1-iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga eng kam



oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to'lash sharti bilan **bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi** hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan holatda kollejni bitirgandan **boshlab o'n ikki oy mobaynida** yollanma ishchilar uchun belgilangan soliqdan ozod etildi.

2015-yildan boshlab davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq va moliyaviy hisobotlar 100 foiz elektron ko'rinishda qabul qilinmoqda va «Soliq to'lovchining shaxsiy kabine-ti» orqali soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni to'lash tizimi amaliyotga joriy etildi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona soliq siyosati natijasida ilgari faqat fiskal vazifalarni bajargan davlat soliq xizmati organlari bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan ko'p funktsiyali davlat boshqaruvi organiga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaratilgan «Elektron hukumat» tizimi tarkibiga kiruvchi Davlat soliq qo'mitasining «my.soliq.uz» rasmiy sayti soliq ma'murchiligini takomillash-tirishda aholining yanada faol qatnashishini va davlat soliq xizmati organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashda qu-lay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Soliq va moliyaviy hisobotlarning to'liq elektron shakl-da taqdim etilishiga o'tilganligi tadbirkorlarni 2-3 soat vaqt sarflab navbatda turishlarining oldini olish bilan bir qatorda ularning o'rtacha 9 mlrdso'mdan ortiq mablag'lari iqtisod qilinmoqda va bu usul davlat byudjetiga to'lanadi-gan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, soliq to'lovchi yuridik shaxs-lar internetdagi «Shaxsiy kabinet»lari orqali soliq va boshqa majburiy to'lovlarni onlayn shaklda to'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar.



Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliq tizimiga ta'rif bering.
2. Soliq tizimini guruhlash mezonini bo'lib nima hisoblanadi?
3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini guruhlab bering.
4. Obyektiga qarab soliqlar necha guruhga bo'linadi?
5. To'g'ri va egri soliqlarning farqlarini tushuntirib bering.
6. To'g'ri va egri soliqlarga davrlar nuqtayi nazaridan baho bering.
7. To'g'ri va egri soliqlarga qaysi soliqlar kiradi va qanday omillar ularni u yoki bu guruhga kiritish mezonini bo'lib hisoblanadi?
8. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar qanday xususiyatlarga ega?
9. O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
10. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
11. Umumdavlat soliqlarining mohiyatini tushuntirib bering.
12. Mahalliy soliqlar va yig'implarning mohiyatini tushuntirib bering.
13. Umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'implarning xususiyatlari nimalardan iborat?
14. Respublikamizda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?
15. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish tartibini tushuntirib bering.
16. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish zarurligi nimalardan iborat?
17. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish bosqichlarini tushuntirib bering.
18. So'nggi yillarda respublika soliq tizimini isloh qilishda qanday yo'nalishlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda?

VII BOB. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Reja

- 7.1. Soliq siyosatining mohiyati
- 7.2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari, xususiyatlari va yo'nalishlari
- 7.3. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari
- 7.4. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq xizmati organlarining o'rne va ularning boshqa moliya – kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi

7.1. Soliq siyosatining mohiyati

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, *soliq siyosati* - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir qismi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va



samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baho siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga faol ta'sir etadi. Davlat soliq siyosati orqali iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi yoki cheklaydi. Zero birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek - "Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, byudjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan - korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat"⁴⁴. Soliq siyosatining asosiy vazifasi oxir-oqibat iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilishi lozim. Aynan iqtisodiy o'sishga yerishilgandagina ishlab chiqarish rivojlanishiga va uning samaradorligini ta'minlashga, aholining yashash darajasini oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan soliq tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda doimo takomillashtirilib borilishi lozim.


Soliq siyosati davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning bilvosita usuli hisoblanib, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini tartibga solishning ma'muriy usullaridan farqli ravishda ularning iqtisodiy qiziqishidan kelib chiqqan holda ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatiladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning bevosita usullariga qaraganda samarali qo'llaniladi.

⁴⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998. 52-bet.

Soliq siyosatining shakli va yo'nalishlarining asosi bo'lib, davlatning siyosiy boshqaruvi, milliy xususiyat va maqsadlar, ma'muriy-hududiy tuzilish, turli mulk shakllari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kabi qator omillar hisoblanadi. Soliq siyosati iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarni o'zida mujassam etgan holda soliq tizimi orqali davlat va alohida ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlarini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarni qayta taqsimlaydi.

Soliq siyosati davlatning boshqa sohalaridagi siyosati kabi soliq mexanizmining samarali amal qilishi hamda soliq tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy asoslangan konsepsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda soliq siyosatining turli usullaridan foydalanadi. Soliq siyosati iqtisodiy va moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi bo'lganligi bois davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatining usul va shakllaridan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Soliq siyosatining quyidagi shakllari mavjud (7.1.1-chizma).



7.1.1-chizma. Soliq siyosatining shakllari

Soliq siyosatining shakllaridan biri yuqori soliqlar bo'lib, ushbu shaklda davlat ko'plab soliq turlarini va yuqori soliq stavkalarini joriy etadi, soliq imtiyozlarini esa imkon darajasida qisqartiradi. Bunday soliq siyosati natijasida soliq to'lovchilarda amalda jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hech qanday ishonch qoldirmaydi. Shuning uchun soliq siyosatining ushbu shakli ham ko'pincha davlatning rivojlanishi shuni



taqozo etgan paytlarda, ya'ni urush, iqtisodiy tanglik sharoitlarida qo'llaniladi.

Soliq siyosatining yana bir shakli *iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan soliqlar* hisoblanib, davlat bunday soliq siyosati orqali soliqlarning nafaqat fiskalligini, shuning bilan birgalikda soliq to'lovchilar manfaatlarini ham hisobga oladi. Bunday sharoitda davlat birinchi navbatda o'z xarajatlarini, ayniqsa ijtimoiy xarajatlarni qisqartiradi. Bunday siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad, ushbu soliq siyosati shaklida ifodalanganidek, qulay soliq muhitini yaratish orqali investitsion faollik rag'batlantiriladi va kapital jamg'arish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bunday soliq siyosati XX asrning 80-yillarida AQShda samarali joriy etildi va "reyganomika" nomini oldi.

Soliq siyosatining uchinchi shakli *oqilona soliqlar* hisoblanib, birinchi va ikkinchi shakllar o'rtasidagi shakl hisoblanadi. Ushbu soliq siyosatining mohiyati shundan iboratki, yuridik va jismoniy shaxslarga yuqori soliqlar o'rnatilishi bilan bir vaqtda fuqarolarning ijtimoiy himoyasi ham kengaytiriladi, davlatning ijtimoiy dasturlari oshiriladi.


O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosi birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o'z aksini topayotgan *iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyili* hisoblanadi. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo'lib, hozirgi paytda soliq sohasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosati soliq konsepsiyasidan kelib chiqqan holda amaliyotga tadbiiq etiladi.

Soliq konsepsiyasi - bu soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarning yaxlitligidir. Agar soliq konsepsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta'minlanadi. O'z navbatida soliq konsepsiyasi esa soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarni o'zaro uyg'unligiga asoslangan g'oyalarning samaradorligiga bog'liq bo'ladi.



Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo'linadi. Soliq siyosatining amalga oshirish muddatiga ko'ra tasnifini 7.1.2-chizma orqali quyidagicha ifodalash mumkin.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan soliqqa doir moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.



7.1.2-chizma. **Soliq siyosati tasnifi**

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratil-

gan yo'nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati strategiyasi soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.


Mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayondan kelib chiqqan holda soliq siyosatining maqsadlari belgilanadi. Shuningdek, soliq siyosatining maqsadlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mamlakat iqtisodiyotini strategik rivojlanish vazifalari, davlatning xalqaro moliyaviy majburiyatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham davlatning soliq siyosati quyidagi maqsadlarni bajaradi (7.1.3-chizma).

Soliq siyosatining *iqtisodiy maqsadi* iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, ish faolligini jonlantirish, xo'jalik faoliyatini rag'batlantirishga qaratiladi.

Fiskal maqsadi davlat hokimiyati organlarining har birini iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Ijtimoiy maqsadi esa daromadlarni tartibga solishga qaratilgan davlat siyosatidan kelib chiqqan holda alohida guruhlar manfaatlarini uchun milliy daromadni qayta taqsimlaydi va tengsizlikni bartaraf qilishni ta'minlashga qaratilgan.


Xalqaro maqsadi boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqlarni mustahkamlash uchun davlatning xalqaro majburiyatlarini bajarishga xizmat qiladi.



7.1.3-chizma. **Soliq siyosatining maqsadlari**

Soliq siyosatining amaldagi ifodasi soliq mexanizmi orqali namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda aynan soliq mexanizmi

ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotini tartibga solishdagi asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Soliq mexanizmi mamlakat soliq tizimining tashkiliy jihatlari, huquqiy me'yorlari va boshqaruv usullarini o'zida mujassam etadi. Soliq mexanizmining amal qilishi, iqtisodiyotni tartibga solishda soliq elementlarini o'zida mujassam etgan soliq qonunchiligi asosida namoyon bo'ladi. Davlatning soliq siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solishi soliq elementlari orqali amalga oshirilib, bunday soliq elementlariga soliq stavkasi, soliq imtiyozi, soliq bazasi, jarimalar va shu kabilar kiradi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda ushbu vositalardan bevosita va bilvosita foydalaniladi. Soliq siyosatining asosiy tartibga solish vositalarini quyidagicha ifodalash mumkin (7.1.4-chizma).



7.1.4-chizma. Soliq siyosatini tartibga solish vositalari

7.2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari, xususiyatlari va yo'nalishlari

Soliq siyosatining samarasi ko'p jihatdan uning huquqiy bazasi mustahkamligi bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham soliq siyosatiga soliq qonunchiligi orqali shakl beriladi. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston



Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida» gi (1991-yil 15-fevral), «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risida» gi (1991-yil 15-fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida» gi (1993-yil 7-may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qildi. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi qonuniga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib bordi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar»⁴⁵. Shuningdek respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jummlalar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir»⁴⁶.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 1992-y. 51-modda.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 1992-y. 132-modda.

–mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;

–amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

–soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

–soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

Respublikamizning mustaqillikka yerishishi, o'zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etardi. Shundan kelib chiqib mustaqillikning ilk davridan e'tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o'ziga xos bo'lgan soliq tizimi shakllantirildi. O'ziga xos bo'lgan soliq tizimining shakllantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e'tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib mamlakatimizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi. Soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bilan mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu byudjetga tushishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek Vazirlar Mahkamasi-ning qaroriga muvofiq ayrim umumdavlat soliqlari mahalliy byudjetlarga to'liqligicha birlashtirilishi yoki ulardan tushumlar respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy byudjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.



Shu o'rinda yuridik shaxslarni soliqqa tortishning muhim tartiblariga alohida to'xtalib o'tish zarur. Respublikamiz soliq qonunchiligida hozirgi vaqtda soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimi bilan bir qatorda, soliqqa tortishning alohida tartiblari ham mavjud. Bu tartiblar quyidagilar uchun ko'zda tutilgan:

– savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (yalpi daromad solig'i va mol-mulk solig'ini to'laydilar);

– soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalana-yotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yalpi tushumidan yoki yalpi daromadidan yagona soliq to'laydilar);

– qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (yagona yer solig'ini to'laydilar);

– lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar (yalpi daromad solig'ini to'laydilar);

– tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bilangina shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (bilyardxonalar, qisqa muddatli avtomobil saqlash joylari, bolalar o'yin avtomatlari qat'iy soliq to'laydilar).

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o'ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e'tirof etish lozim. Chunki respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo'lgan sohalar alohida tartib bo'yicha soliqqa tortilib kelinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to'lovchilarga nisbatan ko'zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan, eksport faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o'tish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida *ikki yo'nalish: korxonalar va tashkilotlarga nis-*

batan soliq siyosati va *aholining turli ijtimoiy guruhlar* uchun soliq siyosati kabi *yo'nalishlarga* bo'lib o'rganiladi⁴⁷.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarni samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqlarning ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya'ni ko'proq e'tibor davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

1. Har xil mulk shakllariga moslangan korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama yordamlashish.

2. Ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo'lgan moliyaviy manbalar bilan ta'minlash.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;

⁴⁷ Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «G'afur G'ulom», 2000. y. 26- bet.



4. Aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlarini e'tiborga olish.⁴⁸

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga yerishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarga *nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga* alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta sekin o'tish konsepsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi.

Bevosita soliqlar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YaIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayish tendensiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha bo'lgani holda pirovard natijada

⁴⁸ Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «G'afur G'ulom», 2000-y. 25-bet.



ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Resurs soliqlari yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlovchi amaliy vosita bo'lgani holda bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash borasida muhim rol o'ynaydi.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddalashtirish va ular bo'yicha to'lov davriyligini kamaytirish hisoblanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni hisobga olgan holda soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari bilan soliq siyosatini asosiy yo'nalishlarini o'zaro bog'liqligini ta'minlash lozim. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda bir qator ta'sir etuvchi mezonlarni hisobga olgan holda tashkil etish va bu yo'nalishlarni aniqlovchi muhim omilli ko'rsatkichlarni o'rganish hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini tartiblash muammosi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Soliq siyosati choralari ishlab chiqishda eng muhim vazifalardan biri davlat xarajatlarini o'z vaqtida va mo'ljalangan hajmda moliyalashtirish uchun soliq tushumlarining yetarliligi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, soliq yukini kamaytirish borasidagi siyosatni byudjetning xarajatlar qismini optimallashtirish choralari bilan qo'shib olib borilishini taqozo etadi⁴⁹.

Mamlakatimizda iqtisodiy erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatini to'liq va aniq yuritilishini ta'minlaydigan vositalardan biri soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida davlat xarajatlarini to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir etishni bosqich-

⁴⁹ Jo'rayev T. Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida. «Toshkent haqiqati», 2003-y. 24-sentabr.



ma-bosqich maqbullashtirishning o'ziga xos yo'nalishlarini ishlab chiqish va aniqlash muammosini hal etish bilan bog'liqligidir.

7.3. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya'ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtayi nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo'mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari: **Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlari** faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta'minlanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, o'zgartirish va va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog'liqdir. Ijro hokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari, Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo'li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning ishlash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari har yilning oxirida kelgusi yil uc-



hun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo'g'inlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek, uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan subyektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarni o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog'liq. Vakolat har bir organning spetsifik rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi - byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik hatti-harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatining muvofiqlashtiruvisiz mumkin emas. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, konseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turining turlichaligi, ularni tashkil etish asoslarining farqlanishi, maqsad va vazifalarining ayrichaligi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim

muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda faol ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslashuvchanligini ta'minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning yerkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Davlat soliq qo'mitasini boshqa hokimiyat organlari, tashkilotlar bilan turli yo'nalishlarda amalga oshiriladigan o'zaro hamkorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ush-



bu o'zaro hamkorlik o'zining yuridik tabiatiga ko'ra huquqiy bo'lgani holda munosabatlar predmetining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va davlat soliq organlarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi me'yorlar turli yuridik kuchga ega bo'lgan qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Umumiy xususiyatlarga ko'ra o'zaro hamkorlik Konstitutsiya me'yorlarida, boshqa qonunchilik hujjatlari-da aks ettirilgan, o'zaro hamkorlikning yanada aniq yuzaga kelishi ko'pincha soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Mazkur davlat tuzilmalarining o'zaro munosabatlari xususiyatiga ta'sir etuvchi obyektiv omil mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarining hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlarni belgilash, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalarini hal etish uchun konstitutsiyaviy belgilanishi hisoblanadi. Bu bilan davlat hokimiyatini tashkil etishning tegishli darajalarida hal etiladigan boshqaruvning barcha masalalarida, shu jumladan, moliyaviy sohada ham yuridik vakolatlilik mustahkamlanadi.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik respublikada olib boriladigan yagona soliq siyosatini yuritilishida, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning hudud byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat organlari respublikamizda ijro hokimiyatining quyi bo'g'inlaridan biri hisoblanib, ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishlarida o'zlariga yuklatilgan majburiyat va vazifalaridan kelib chiqqan holda muayyan vakolatlarga egadirlar. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini har bir faoliyat turlariga ko'ra guruhlash mumkin. Biz o'rganayotgan soha bo'yicha mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlariga to'xtaladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy hokimiyat organlari o'z faoliyatlarini to'liq daraja-

da amalga oshirishida ularning moliyaviy resurslari muhim o'rin egallaydi. Haqiqatdan ham bozor iqtisodiyoti sharoitida muayyan faoliyatni amalga oshirish moliyaviy mablag'larga zarurat tug'diradi. Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda davlat hokimiyati organlarining har birini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning mexanizmi yaratilgan.

Ijro hokimiyatining muhim quyi bo'g'ini hisoblangan mahalliy hokimiyat organlarining ham o'z faoliyatlarini amalga oshirishlarida muayyan moliyaviy resurslar zarur hisoblanib, respublikamiz byudjet-soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan, ya'ni ular daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

– qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar, shuningdek, majburiy to'lovlar va soliqlar bo'lmagan boshqa tushumlar;

– qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari, shuningdek, majburiy to'lovlar hamda umumdavlat tushumlari;

– qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat mulkini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

– byudjet subvensiyalari, dotatsiyalari va yuqori byudjetdan beriladigan ssudalar;

– yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir sohada bo'lgani kabi davlat hokimiyati organlarining ham mustaqilligi ta'minlanadi. Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligini ta'minlashdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar davom etar ekan, shunga mos ravishda ular vakolatlarini bosqichma-bosqich kenaytirib borish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir.

Mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini kengaytirish zarurati ularning mahalliy talab va ehtiyojlarni to'liqroq ravishda hisobga olish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini oshirishda ular daromad manbalarini mustahkamlash va ularning bu boradagi vakolatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etib, respublikamiz byudjet-soliq siyosatida ularning bu boradagi bir qator vakolatlari mavjud bo'lsada, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yondashganda ular yetarli emas, ya'ni mahalliy hokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ular o'zlarining hududida joylashgan soliq to'lovchilarga mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qo'shimcha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Mahalliy hokimiyatlar mahalliy soliqlar va yig'imlardan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha mutlaq vakolatlarga ega emas, ular respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlardir.

Qolgan barcha mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qonun hujjatlarida guyoki barcha vakolatlar berilganligi mustahkamlangan bo'lsada, ularning bu boradagi vakolatlari ham cheklangan. Jumladan, soliq kodeksida belgilanishiga ko'ra transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz iste'moli uchun soliq bo'yicha mahalliy hokimiyat organlariga to'liq vakolat berilganligi qayd etilgan bo'lsada, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ushbu soliq butun respublika hududida undirilishi belgilangan. Qolganlarining eng yuqori chegarasini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi va yangi turdagi mahalliy soliqlar va yig'imlarni joriy etishni Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirilishi mahalliy hokimiyat organlarining o'z daromadlarini mustahkamlash borasidagi vakolatlarini cheklaydi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan mol-mulk solig'i bo'yicha ham birgina vakolati mavjud bo'lib, u ham bo'lsa, o'z hu-



dudida joylashgan soliq to'lovchilarga qo'shimcha imtiyozlar berishlari mumkin. Bu esa xuddi yuqorida qayd etganimizdek, mahalliy hokimiyat organlarining soliq potentsialini mustahkamlash bo'yicha mutlaq vakolatini anglatmaydi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini umumdavlat soliqlari hisobiga shakllantirilishi ular xarajatlarini mahalliy byudjetlarning birlamchi daromad manbayi hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'img'lar hisobiga moliyalashtirish imkoni yo'qligi bilan ifodalanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mahalliy hokimiyat organlarining o'zlariga bevosita birlashtirilgan mahalliy soliqlar va yig'img'lar bo'yicha vakolatlarining cheklanganligi sharoitida, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilishi ularda o'z daromadlari bazasini mustahkamlashdagi vakolatlarini yanada cheklab qo'ymoqda.

Lekin shunga qaramasdan mahalliy hokimiyat organlariga ajratmalar belgilangan umumdavlat soliqlari bo'yicha ham ayrim vakolatlar berilgan bo'lib, ular asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromad solig'i va alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan eng yuqori va quyi chegaralari belgilangan bazaviy stavkalari darajasidan kelib chiqqan holda o'z hududlari uchun ushbu chegaradan chiqib ketmagan holda ularning aniq stavkalarini belgilash vakolatlariga egadirlar. Shunday bo'lsada, mahalliy hokimiyat organlari daromadlarining asosini tashkil etadigan soliqlar va yig'img'lar bo'yicha ular vakolatlarining cheklanganligi qaysidir ma'noda mahalliy hokimiyat organlarining o'z daromadlarini mustahkamlashga doir qiziqishlarini cheklab qo'ymoqda. Shuning bilan birgalikda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning subvensiya berish tizimining mavjudligi ularni yuqori byudjetga tobeligini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy hokimiyat organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatiga qaysidir ma'noda ziddir.

Shu jihatdan kelib chiqqan holda aytish lozimki, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning umumdavlat

solliqlaridan ajratmalar belgilash va subvensiya tizimining mavjudligi, respublikamiz byudjet qonunchiligiga muvofiq belgilangan mahalliy byudjetlarda taqchilikka yo'l qo'yish mumkin emasligi bilan asoslanib, ushbu holat ham mahalliy hokimiyat organlarining boqimandaligini kuchaytirmoqda.

Qayd etilgan muammolardan kelib chiqqan holda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar olib borish respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi qilib belgilanishi lozim. Bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hozirgi paytda respublikamiz soliq tizimining eng zaif nuqtalaridan hisoblangan davlat hokimiyati organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlarini aniqlashtirish va bunda albat-ta mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini kengaytirish borasidagi mavjud muammolarni bartaraf etishning asosiy sharti hisblanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yicha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barcha hokimiyat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko'rsatadi va unda Davlat soliq qo'mitasi soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi.

7.4. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq xizmati organlarining o'rni va ularning boshqa moliya – kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va bazor iqtisodiyotiga o'tishi iqtisodiy rivojlanishning yangicha shart-sharoitlari soliqqa tortishning mutlaqo yangi tizimini joriy qilishni talab qildi va bunday tizimning birmuncha optimal darajada amal qilishini ta'minlaydigan mexanizmning yangi tuzilmasini yaratishni taqozo etdi.

Respublikamizda hozirda amal qilayotgan soliq idoralari tizimi o'zining muayyan tarixiga ega. Soliq idoralari sobiq Ittifoqda 60-yillarda ham mavjud edi va ularning tuzilmasi tabiiyki O'zbekiston hududida ham amal qilib keldi. Keyinchalik ular faoliyati to'xtatib qo'yildi va faqat 1990-yil 12-mayda qabul qilingan «Davlat soliq inspeksiyalarining huquqlari, vazifalari va mas'uliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq 1990-yilning 1-iyulidan boshlab qayta tiklandi. Biroq bu tuzilmalar moliya organlari tizimida amal qilar edi.

Respublikamizda soliq idoralari faoliyati 1990-yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida Davlat moliya-soliq bosh boshqarmasini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori (1990-yil 17-dekabrda 383-sonli) qabul qilinganidan so'ng faollasha boshladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991-yil 14-iyundagi Nizomi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991-yil 12-avgustdagi 217-sonli qarori qabul qilinganidan keyin davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatidagi soliq idoralari shakllanishi va faoliyat ko'rsatishiga asos solindi. Respublika davlat boshqaruvining mazkur tuzilmasi 1994-yilgacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirilgunga qadar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining maqomi, asosiy vazifalari, fuksiyalari vakolat doirasi va faoliyatining tashkilëy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi 1994-yil 18-yanvardagi farmoniga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi masalalari to'g'risida»gi 1994-yil 18-martda qabul



qilgan qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga binoan belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga binoan Davlat soliq qo'mitasi soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, shuningdek, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoyasini ta'minlash sohasida davlat nazorati organi ekanligi belgilab qo'yildi.

1997-yil bojxona ishini tashkil etishni takomillashtirish, yagona bojxona siyosatini olib borish, respublika bojxona organlari faoliyatining tezkorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, bojxona ishi sohâsida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815-sonli farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 1997-yil 30-iyuldagi 374-son qaroriga muvofiq Davlat bojxona qo'mitasi tashkil etildi, ya'ni soliq va bojxona faoliyatining funksiyalari bir biridan ajratildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgustdagi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1998-yil 12-yanvardagi qaroriga muvofiq soliq organlarining asosiy funktsiya va vazifalari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari, viloyat davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq xizmatining quyi organlari hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga, Vazirlar



Mahkamasining qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil ravishda, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'z vakolaolari doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilishi (ichki tuzilmasi) deganda uning huquqiy va tashkiliy jihatdan nisbatan mustaqil va alohida tUSDagi bir-biriga o'zaro bog'langan bo'linmalarining uyushmasi tushuniladi, ularning har biri alohida tarzda va barchasi birgalikda davlat vakolatlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Organning tuzilishi unga yuklangan vakolatlarining samarali tarzda bajarilishini, har bir tarkibiy bo'linmaning vakolatlari va mas'uliyatining aniq chegaralab qo'yilishini, yagona bir butun mexanizmning unsurlari sifatida kelishilgan holda ish olib borishini ta'minlashi lozim. Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasi va faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1998-yil 12-yanvardagi 14-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga va unga kiritilgan o'zgarishlarga asosan belgilangan.

Respublika soliq idoralarining tuzilishi uch darajali ierarxiya bo'lib, u markaziy idora, ya'ni Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar soliq boshqarmalarini hamda tumanlar va shaharlardagi soliq inspeksiyalarini o'z ichiga oladi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi soliq qonunlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat nazoratining hududiy organi hisoblanadi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning baja-



rilishini ta'minlashda mahalliy bojxona idoralari bilan bahamjihat harakat qilinishini amalga oshiradi.

Tumanlardagi, shaharlardagi va shaharlar tumanlaridagi davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq boshqarmasi tasarrufida bo'lgan va u bilan birgadikda soliq idoralarining bir yagona tizimini tashkil etadigan idoralar hisoblanadi.

Davlat soliq boshqarmasi o'zining faoliyati to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi oldida javob beradi. Soliq inspeksiyasi esa o'zining bevosita rahbari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari oldida javob beradi.

Soliq inspeksiyasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga amal qilgan holda ushbu Nizomning uning vakolatlariga tegishli talablarini to'liq amalga oshiradi. Tuman (shahar) soliq inspeksiyasi idorasining tuzilishi va xodimlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan Davlat soliq qo'mitasi belgilagan ish haqi fondi va xodimlar soni doirasida tasdiqlanadi.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmaviy bo'linmalari, odatda, funksional asosda tashkil etiladiki, uning mohiyati rahbarlikning mustaqil funksiyalarga taqsimlanishi va har bir ana shunday funktsiyani maxsus tuzilmaviy bo'linmaning (boshqarma, bo'lim, sektor) amalga oshirishidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilishining negizini quyidagi uchta tamoyil tashkil etadi.

Nazorat-muvofiqlashtiruvchi - tarmoqli tamoyil (savdo, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nazorat qilish, umumiy ovqatlanish korxonalarini nazorat qilish bo'limlarini o'z ichiga oladigan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nazorat qilish boshqarmasi; dehqonchilik - sanoat majmuyi korxonalarini taftish qilish bo'limi) nazorat-muvofiqlashtiruvchi - funksional tamoyili (jismoniy shaxslarni, yuridik shaxslarni soliqqa tortish boshqarmalari) bilan birga qo'shib olib boriladi.



Nihoyat, tuzilmaviy bo'linmalar funksional bo'linmalar (ular orasida mablag' bilan ta'minlash, buxgalterlik hisobi va hisoboti bo'limi va shu kabilar bor) va markaziy idoraga xizmat ko'rsatadigan bo'linmalar kotibiyati, rais huzuridagi inspeksiya va shu kabilar bilan to'ldiriladi.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmaviy bo'linmalari ushbu boshqaruv organining ishchi idorasi hisoblanadi. Ularning faoliyati rang-barang bo'lib, mazkur organ funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu bo'linmalar turli materiallarni tayyorlaydi, Davlat soliq qo'mitasining boshqaruviga tegishli o'zga faoliyatni bajaradi, shu jumladan, muvofiqlashtirish tusidagi funksiyalarni bajaradi, maslahatlar beradi, fikr-mulohaza va xulosalar taqdim etadi, loyihalarning ekspertizasini o'tkazadi, hujjatlarning loyihalarini, yuqori hokimiyat va boshqaruv organlariga takliflarni tayyorlaydi.

Boshqaruv organlarining butun faoliyati, barcha tashkiliy munosabatlari va huquqiy munosabatlari organning o'z vakolatlarini amalga oshirishining natijasi hisoblanadi. Idoraning vakolatida boshqaruvning idoraviy mazmuni ko'proq namoyon buladi. Davlat huquqiy normalarni chiqarish yo'li bilan boshqaruv idorasining vakolatini belgilar ekan ushbu organning har qanday sohadagi xatti-harakatlarining chegaralarini belgilab beradi.

Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun qator vazifalar va funksiyalarni bajaradi.

Davlat soliq xizmati organining *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat:

- soliq qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarieng to'g'ri hisoblanishi, soliqlar to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- soliq qonun hujjatlariga rioya etishda zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatish;

- soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;

- soliq solish subyektlari va obyektlarini to'liq va o'z vaqtida hisobga olishni ta'minlash;

– soliqqa doir huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf qilish;

– nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishlarni muvofiqlashtirish.

O'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi quyidagi *funksiyalarni* bajaradi:

1. Qonun hujjatlariga rioya qilinishi, soliqlar to'g'ri hisoblangani, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, ana shu maqsadda:

– soliq solish obyektlari va subyektlarini hisoblangan va to'langan soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olishni, jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta'minlashga doir;

– soliq qonun hujjatlarini buzish faktlarini to'plash, tahlil qilish va baholashga hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish buyicha takliflar kiritishga doir;

– yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni ro'yxatga olish (identifikatsiya) raqamlarini bergan holda soliq to'lovchilar sifatida ularni hisobga qo'yish haqida hujjatlarni berishga doir;

– soliqlar tushumini ta'minlash ishida topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilishga doir;

– jismoniy shaxslar daromadlarini yalpi deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishga doir;

– xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar yordamida tartibga solish choralari ishlab chiqishga, hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni tayyorlash va tuzishga, soliq siyosatini, shuningdek ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etish bo'yicha bitimlarni muvofiqlashtirishga doir;

– muddatida to'lanmagan soliqlarni undirishga, musodara qilingan, egasiz mol-mulk, xazinalarni, shuningdek, meros qoldirish huquqi buyicha davlatga yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tgan mol-mulkn hisobga



olish, baholash va sotish ustidan nazorat qilishga doir ishlarni tashkil etadi.

2. Yagona umumdavlat soliq siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi, ana shu maqsadda:

– soliq qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha uslubiy ishlarni olib boradi;

– O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasining boshqa vazirlik hamda idoralari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish uchun majburiy bo'lgan soliq qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha yo'riqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda e'lon qiladi;

– byudjetga soliqlar tushishi prognozini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

– soliqlarni hisoblab yozish va to'lash bilan bog'liq hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi;

– soliq qonun hujjatlari buyicha me'yoriy hujjatlar to'plamlarini tayyorlaydi va nashr etadi. O'z qo'l ostidagi organlarni qonun va yo'riqnomaviy materiallar, soliq to'lovchilarni hisobga olish shakllari bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi.

3. Yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonunlarda muhofazalanadigan manfaatlarini himoya qiladi, soliq solish masalalari va soliq qonun hujjatlarini buzishlar bo'yicha shikoyat va arizalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ana shu maqsadda:

– soliq qonun hujjatlari masalalari buyicha me'yoriy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi;

– soliq qonun hujjatlari to'g'risidagi axborotni nashr etish, ko'paytirish va qo'l ostidagi tashkilotlarga yetkazish uchun servis markazlar faoliyatini, soliq to'lovchilarni soliq-larni to'g'ri hisoblash, hisobot va deklaratsiyalarni taqdim etishga o'rgatishni, shuningdek, maslahat xizmatlari ko'rsatishni tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlaridan kelib chiqib va davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qonun hujjatlari qo'llanishi amaliyotini hisobga olib, davlat soliq xizmati organlari ishining ustun yo'nalishlarini belgilaydi, ular faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda kiritadi.

5. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda soliqqa doir huquqbuzarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

6. Soliq qonun hujjatlarini buzishlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshiradi.

7. Xizmat vazifalarini bajarayotganida davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari faoliyatining xavfsizligini ta'minlaydi.

8. Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishiga doir ishlarni tashkil etadi.

9. Qo'l ostidagi bo'linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

10. Davlat soliq xizmati hududiy organlarining kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha ishini tashkil etadi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirishni yo'lga qo'yadi, ana shu maqsadda davlat soliq xizmati organlari idoralarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha markazlar tashkil etadi.

11. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyalashni, ularga belgilangan tartibda maxsus unvonlar berilishini amalga oshiradi.

12. Davlat soliq xizmati organlari ishining samarali bo'lishini ko'zlab:

– soliq axborotini qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va saqlashning eng sermehnat jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida soliq, tushumlari, barcha soliq to'lovchi yuridik



va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini yaratadi va undan foydalanadi, soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reestrini shakllantiradi va yuritadi;

– davlat soliq xizmati organlarining moddiy-texnika ta'minotini, materiallar va uskunalarga ajratilgan fondlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– davlat soliq xizmati organlarining ijtimoiy rivojlanish va moddiy-texnika ta'minoti maxsus fondini to'g'ri shakllantirish, taqsimlash va ishlatish ustidan nazorat qiladi;

– soliqlar va soliq to'lovchilarni hisobga olishning yagona kompyuter tizimini yaratish, davlat soliq xizmati organlarini moddiy-texnikaviy ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi va xorijiy soliq organlari bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

13. Yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish hamda taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilishi va taftish qilishini to'xtatish to'g'risida takliflar kiritadi. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

Davlat soliq idoralari o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarish va o'z funksiyalarini amalga oshirish davomida davlatning boshqa idoralari bilan doimiy hamkorlik qiladilar. Davlatning boshqa idoralari bilan o'zaro munosabatlarida aniq soliq idoralarining mazkur vazifa va funksiyalarni qanday darajada bajarishini ham belgilab beradi.

Davlat idoralari tizimi umumiy vakolatli, funksional va tarmoq idoralarining bir butun holda o'zaro hamkorlik qiluvchi tizimini ifodalaydi. Shu sababli davlat soliq idoralari davlatning boshqa tashkilotlari bilan o'zaro aloqalari xarakterini o'rganish mustaqil tahlil va doimiy takomillashish obyekti sifatida qaralishi kerak. Soliq idoralarining respublika iqtisodiyotiga huquqiy ta'sirining ko'lami kengligini, mazkur idoralar ish shakllari va faoliyat mazmunining o'ziga xosli-

gini hisobga olsak, ushbu muammoga katta e'tibor berish juda muhimligi to'g'risida xulosa kelib chiqadi.

Soliq qonunlari so'zsiz ravishda o'zgartirishlarga muhtoj bo'lgan bir sharoitda davlatning soliq tizimi soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va ularning byudjetga to'liq miqdorda kiritilishi, soliq idoralarini tashkil etish paytida ular oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi, soliq to'lovchilarning munosabatlari, soliq qonunlariga rioya qilinishi ko'p jihatdan respublikadagi soliq, huquqni muhofaza qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlarining muvofiqlashtirilgan tarzdagi amaliy, tezkor ravishdagi bahamjihat harakatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi davlat organlari bilan birgalikda soliq qonunlarining qo'llanilish amaliyotini muntazam tarzda tahlil etadi va umumlashtiradi, ular asosida amaldagi me'yoriy hujjatlarga respublikadagi iqtisodiy vaziyatning rivojlanishini talab qiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni kiritish yuzasidan tegishli takliflarni beradi.

Davlat soliq qo'mitasining ishtirokida amalga oshiriladigan ma'muriy-xuquqiy munosabatlarni ko'rib chiqarkanmiz, ularning ichida Davlat soliq qo'mitasi davlat boshqaruvining mustaqil subyekti sifatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Davlat soliq qo'mitasi xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, soliq siyosatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni tayyorlash va imzolashda, ikkiyoqlama soliq solinishini bartaraf qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoan hukumatlararo bitimlarni tasdiqlash va imzolashda ishtirok etadi.

Vakillik hokimiyatining mahalliy organlari davlat boshqaruvi organlari bilan turli yo'nalishlar bo'yicha bahamjihat hamkorlik qiladilar.

Davlat soliq organlarining mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikdagi harakati ularning O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan yagona soliq siyosatini amalga



oshirishda, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar byudjetlariga soliqlar va boshqa toʻlovlarning kelib tushishini taʼminlash borasidagi topshiriqlarning bajarilishi natijalarini tahlil etishda qatnashishida namoyon boʻladi.

Davlat soliq inspeksiyalarining tegishli maʼmuriy-hududiy birlikda markazlashtirilgan idora usuli va qonunchilik rejimida ish olib borishi ham koʻrib chiqilayotgan organlarning munosabatlarini tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikdagi harakatning ayni shunday darajasida umumdavlat va hududiy manfaatlarni qoʻshib olib borishning mahalliy hokimiyat organlari hududlarini kompleks tarzda rivojlantirishning turli xildagi muammolari vujudga keladi. Ularning muvaffaqiyatli tarzda hal etilishi, hamkorlik masalalarining birgalikda muhokama qilinishi, vakillik hokimiyati mahalliy organlari vakillarining ishtirokini taqozo etadi.

Davlat soliq qoʻmitasi kundalik faoliyat jarayonida davlat boshqaruvining boshqa organlari bilan tez-tez munosabatlarga kirishadiki, bunday munosabatlar davlat nazoratining ushbu markaziy organi faoliyati tusini aniq-ravshan ajratib koʻrsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar uning asosiy tartibga soluvchi omili boʻladi. Hokimiyat va boshqaruvning deyarli barcha organlari bu jihatni u yoki bu darajada hisobga olishi kerak boʻladi va aynan shu holat Davlat soliq qoʻmitasining ushbu organlar bilan koʻp turdagi munosabatlarining obyektiv zarurligini belgilaydi.

Shu jihatdan olganda davlat boshqaruvining Davlat soliq qoʻmitasi va Moliya vazirligi singari organlar tizimining hamkorlikdagi harakati birmuncha muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo mazkur organlar oldida turgan vazifa va maqsadlarning umumiyligini taʼkidlab oʻtish kerak boʻladi. Moliya vazirligi moliya tizimi tarkibiga kiradigan organlarni boshqarish jarayonida Oʻzbekiston Respublikasi moliya tizimi mexanizmining yaxlitligini, bozor munosabatlarining shakllanishi va aholini ijtimoiy himoyalash sharoitida narxlarni tartibga solishning iqtisodiy usullarining ahamiyatini kuchaytirishni taʼminlay borib davlatning moliyaviy, valyuta, narx-navo,



monopoliyaga qarshi siyosatiga muvofiq keladigan soliq siyosatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining soliq va moliya organlari korxonalarining xorijiy valyutadagi mablag'larini majburiy tartibda sotilishi lozim bo'lgan summalarini, shuningdek, korxonalarining to'laydigan soliqlarining to'g'riligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Davlat soliq qo'mitasi bilan respublikaning bank tizimi o'rtasida g'oyat mustahkam hamkorlik qaror topgan. Ular o'tkaziladigan valyuta operatsiyalarining amaldagi qonunlarga muvofiqligini va buning uchun zarur ruxsatnomalarning mavjuddigini, rezidentlarning byudjetga soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashga oid majburiyatlarini, shuningdek, xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga sotishiga doir majburiyatlarini bajarishlarini, valyuta mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishni, xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslilikini, nihoyat, valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotning to'liqligini va obyektivligini birgalikda tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasining barcha bank muassasalariga soliq boshqarmalari va inspeksiyalarining taqdimnomalariga binoan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisobvaraqlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid qarzlar summasini muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,07 foiz miqdoridagi penyani hisoblagan holda undirib olish huquqi berilgan.

Bank yoki kredit muassasasining aybiga ko'ra soliq to'lovchining to'lov topshiriqnomasi ijro qilinmagan hollarda esa ushbu bank yoki kredit muassasasidan soliq to'lovchining yoki soliq idorasining topshiriqnomasi kelib tushgan kundan keyingi uchinchi kundan boshlab to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun soliqning to'lanmagan summasidan belgilangan tartibda penya undirib olinadi. Penyaning undirilishi bank yoki kredit muassasasini soliqqa oid topshiriqlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Soliq idoralarining rahbarlari o'z xizmatlari va bo'linmalarining O'zbekiston Respublikasining soliqqa oid qonunlari



buzishlarini o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berishga, shuningdek, o'zaro manfaatli bo'lgan boshqa masalalarni hal etishga oid harakatlarini doimiy ravishda muvofiqlashtirib turishlari shart. Shu maqsadlarda ishchi guruhlarini tashkil etilishi, kelishilgan harakatlar uchun manfaatdor bo'linmalar vakillarining muntazam tarzdagi uchrashuvlar o'tkazilishi, eng muhim muammolar esa hay'atlarning birgalikdagi yig'ilishlarida ko'rib chiqilishi mumkin.

Birgalikdagi ishlar buyicha yagona dalolatnoma tuziladi va uni bir tomondan, ushbu tekshirishni o'tkazgan xodimlar, ikkinchi tomondan esa, tekshirilgan korxonalar, muassasalar, tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqaro imzolaydi.

Xulosa qilib aytganda respublikamizda soliq xizmati organlari o'z oldiga qo'yilgan vazifa va funksiyalarga muvofiq bir qancha organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliq siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Soliq siyosatining qanday shakllari mavjud, ularni izohlab bering.
3. Soliq konsepsiyasi nima?
4. Soliq siyosati tasnifi, deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq siyosati strategiyasi, deganda nimani tushunasiz?
6. Soliq siyosati taktikasini izohlab bering.
7. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasining o'zaro aloqasini tushuntirib bering.
8. Soliq siyosatining qanday maqsadlari mavjud?
9. Soliq siyosatining qanday tartibga solish vositalari mavjud?
10. Soliq siyosatining huquqiy asoslarini ifodalab bering.
11. Soliq siyosati xususiyatlari va yo'nalishlarini tushuntirib bering.



12. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, deganda nimani tushunsiz?

13. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyat qanday vakolatlarga ega?

14. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ijro etuvchi hokimiyat qanday vakolatlarga ega?

15. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlari qanday vakolatlarga ega va bu borada qanday muammolar mavjud?

16. Soliqlar bo'yicha sud hokimiyati qanday vakolatlarga ega?

17. Soliq siyosatining ijrosini ta'minlashda davlat soliq idoralari qanday rol o'ynaydi?

18. Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat soliq idoralari boshqa qanday tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik qiladi va ularning bu borada ahamiyati qanday?



VIII BOB. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK TUSHUNCHASI, ULARNING TURLARI VA JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI UMUMIY QOIDALAR

Reja

- 8.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi
- 8.2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari
- 8.3. Moliyaviy sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi
- 8.4. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

8.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi

Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlangan sari soliqqa tortish uslublari ham o'zgarib boradi, soliq obyektlarini aniqlash, soliq to'lovchilarni hisobga olish ishlari doimo nazorat sifatining rivojlanishi talab qiladi.

Soliq kodeksi bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan soliq islohotlarining asosi, desak adashmagan bo'lamiz. Soliq kodeksining 106-moddasida soliqqa oid qonunbuzarlik tushunchasi yoritilgan bo'lib, unga ko'ra "Soliq to'lovchining ushbu Kodeksda javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik, deb e'tirof etiladi".

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, soliq qonunlari buzilganligi uchun qonun asosida tegishli jarima va boshqa jazo choralari belgilangan.

Jarima va jazo choralari soliq idoralari tomonidan qonunda belgilangan moddalarga binoan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilarning qilgan xato va kamchiliklarini nafaqat jazolash, balki soliq qonunlarini ular tomonidan buzilish sabablarini, qonunlarni ularga bo'lgan ta'sirlarini o'rga-



nish hamda shu orqali kelib chiqishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni ham tahlil qilish lozim.

Hech kim faqat soliq to'lash uchun ishlamaydi, bu haqiqat. Korxonalar va tashkilotlar avvalo ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchidir so'ngra esa soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Davlat o'zining fiskal siyosatini amalga oshirishda asosiy bir qiyinchilik soliq to'lovchilar tomonidan turli xil yo'llar bilan soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga ro'baro bo'ladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash, deyilganda keng ma'noda quyidagilar tushuniladi:

- ✓ olingan daromad va foydani yashirish,
- ✓ hisoblangan soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik yoki umuman to'lamaslik,
- ✓ imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish,
- ✓ tegishli hisobotlarni o'z vaqtida to'ldirmaslik va umuman topshirmaslik,
- ✓ boshqa qoidalardan va taqiqlangan metodlardan bevosita va bilvosita foydalanish kabilardir.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri juda ham salbiyki, uning natijasi quyidagilarni kelib chiqaradi.

odavlat byudjeti defitsiti paydo bo'ladi,

odavlat soliq stavkalarini ko'tara boshlaydi, davlat byudjetini to'ldirish maqsadida yangi soliq va to'lovlar o'ylab chiqiladi,

oinflyatsiya darajasi ko'tarila boshlaydi,

odavlatning ichki va tashqi qarzlari orta boshlaydi,

obozor iqtisodiyotining richaglari izdan chiqa boshlaydi.

Yuqorida qayd qilingan sabablarni inobatga olib, soliq to'lovchilarning soliq to'lashdan bo'yin tovlashi va uni keltirib chiqaradigan sabablarni soliq xizmati xodimlari doimiy ravishda o'rganishlari va bunday holatlarga olib kelmaslik uchun tegishli tashkiliy ishlar, chora va tadbirlarni ko'rib borishlari lozim.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash kabi munosabatlarning kelib chiqish sabablarini quyidagi faktorlar ta'sirida, deyish mumkin.



Ma'naviy omillar – bu faktorlar soliq qonunlarining ijtimoiylik, doimiylik va daxlsizlik prinsiplariga to'g'ri kelmasligi bo'lib, qonunlarning obro'sini va ta'sirini pasaytiradi.

Bundan tashqari soliq stavkalarining yuqori bo'lishi o'z navbatida, soliq to'lovchilar tomonidan unga nisbatan ichki qarshilik hissini uyg'otadi va soliq to'lashdan bo'yin tovlash to'g'risidagi turli xil fikrlarga olib keladi. Masalan, foyda solig'ining stavkasini yuqoriligi, korxonani foyda olishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytirib yuboradi yoki qandaydir yo'llar bilan soliqqa tortiladigan foyda hajmini kamaytirishga harakat qiladi, yoki bo'lmasa, bizning qonunlarimizga asosan soliq-larni realizatsiya qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun emas, balki yuklab jo'natilgan va hali puli to'lanmagan paytdan boshlab hisobga olinishi.

Iqtisodiy omillar - bunda soliq to'lovchilar soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida unga bo'ladigan ta'sirlarni o'rganadilar. Agarda soliq stavkasi qanchalik yuqori va qo'llaniladigan jarima summolari qanchalik past bo'lsa, soliq to'lovchi uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasi shunchalik samarali bo'ladi.

Albatta, bunday holatlarda soliq to'lovchilar soliq to'lamaslikka har qanday yo'llar bilan harakat qilishadi, chunki birinchi tomondan joriy etilgan barcha turdagi soliq va to'lovlarni to'lanishi soliq to'lovchining iqtisodiy holatiga katta ta'sir qilib, uni ahvolini og'irlashtirishiga olib kelishiga ta'sir qilsa, soliq to'lamaslik esa unga o'z iqtisodiy potentsialini saqlab qolish uchun yagona iqtisodiy yo'l bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchi tomondan moliyaviy jarimalarning iqtisodiy jihatdan kuchsiz bo'lgan subyektlarga qo'llanilishi nafaqat uni rivojlanishdan, balki undan keyin umuman faoliyat ko'rsata olmaslikka olib kelishi mumkin. Chunki barcha foydasini qarzlarni to'lashga sarflamasa, unga hisoblanayotgan ustama foiz summalar ham tobora oshib boraveradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soliq to'lashdan bo'yin tovlashning barcha formalari, iqtisodiy o'sish sur'ati pasayayotgan, hamda tanazzulga uchrayotgan mamlakat-

larda yuqori darajada bo'ladi. Chunki bunday sharoitlarda soliq to'lovchilarning moddiy sharoitining yomonlashuviga mamlakat miqiyosida mahsulot, tovar va xizmatlarga bo'lgan talablarning pasayishi ham katta ta'sir qiladi.

Albatta, to'lov qobiliyatining pasayishi natijasida tovar oborot hajmi qisqaradi hamda korxonaga o'ziga tegishli foydasini, davlat esa byudjetga tegishli soliqlarini ololmay qoladi. Natijada korxonaga o'z qobiliyatini saqlab qolish maqsadida soliq qonunchiligida ta'kidlangan turli yo'llarni izlashga tushadi. Masalan: soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarni to'la hisobga ololmaslik, xo'jalik operatsiyalariga taalluqli hujjatlarning barchasini tekshirishdan to'la o'tkaza olmaslik, tekshirishlarni sifatli o'tkazish darajasi, tekshiruvchilarning bilim darajasi, koorupsiya va shunga o'xshash holatlarining mavjudligidir.

Ko'pgina mamlakatlarda ayniqsa, g'arbda, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini xalq xo'jaligining tarmoqlari va faoliyat turlaridan kelib chiqib tadqiq etadilar. Afsuski, biz mamlakatimiz bo'yicha ana shunday ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga hozircha ega emasmiz. Bizda ham hech bo'lmaganda kompleks tekshiruvlar yakunlari bo'yicha soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga doir ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilishning oshkora tizimi tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qaysi tarmoqlarda va qanday soliq turlari bo'yicha bo'yin tovlashlar mavjudligini, ularning sabablari, soliq qonunlari yoki yo'riqnomaviy hujjatlarning zaif tomonlarini aniqlab borish, iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilib borish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Jahon amaliyotida soliq to'lashdan bo'yin tovlash hamda soliqdan qochish degan tushuncha mavjud bo'lib, ularning amaliyotda qo'llanilishi turlichadir. Ularning bir-biridan farqi shundaki, soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda mamlakatning mavjud bo'lgan qonun-qoidalariga amal qilmagan holda yoki unga zid ravishda ayrim paytlarda ochiqdan-ochiq bo'ysinmasdan faoliyat ko'rsatish natijasida olgan daromadlarni yashirish tushuniladi.

Soliqdan qochish yoki soliqlarni aylanib o'tish, deganda esa mavjud barcha qonun-qoidalarni to'la o'zlashtirgan holda, soliq to'lovchi uchun tegishli bo'lgan imtiyoz va vaqtinchalik yengilliklardan foydalanib, o'zining davlat oldidagi majburiyatlarni eng minimum holatga keltirish tushuniladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning turli formalarini yuqorida sanab o'tgan bo'lsak, soliqdan qochishning quyidagi formolari mavjud:

- soliq qonunlarining takomillashmaganidan yoki qonun, qaror, yo'riqnoma va ko'rsatmalarning ayrim tomonlarini bir-biriga zid kelishidan foydalanish;

- ma'lum muddatga soliq to'lashdan imtiyoz berilgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tuzish;

- soliq stavkalari past bo'lgan mamlakatlar bilan turli xil shartnoma va sxemalar orqali yoki mablag'larni aylantirish yoki jalb qilish;

- mamlakatlar o'rtasida ikki yoqlama soliq solish to'g'risidagi shartnomalarning yo'qligidan foydalanish;

- filiallar tashkil qilish va soliq solinmaydigan tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish kabilardir.

Umuman olganda soliq to'lashdan qonuniy yo'l bilan qochish yoki soliqlarni aylanib o'tish, bu soliq to'lovchilarning bilimdonligi, ijodkorligi va soliq maslahatgo'ylarining yuqori darajadagi professionalligidan dalolat beradi.

Bu to'g'rida 1935-yil Amerikalik sudya J. Sanderland shunday degan edi "soliq to'lovchilarning huquqi qonun bilan ruxsat etilgan barcha yo'llar bilan soliqlarni kamaytirishdir, bunday faoliyatni hech kim taqiqlay olmaydi"⁵⁰.

Jazo, javobgarlikka tortish jinoyat sodir etgan shaxsning qonunlarga rioya etmagan holatlarida qo'llaniladigan ma'muriy choralardir.

U fuqarolarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiya qilish, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik

⁵⁰ A.S.Jo'rayev, A.N.Artiqov. "Soliq huquqi asoslari" O'quv qo'llanma, T.: Toshkent moliya instituti, 2012. 34-b.

sodir etilishini oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ularning bir turi ma'muriy va moliyaviy jarimalardir.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

8.2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari

Soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning turlariga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda amaldagi qonunchiligimizga asosan uch xil javobgarlik belgilangan. Bunda moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik turlarining har birini tahlil qilib chiqsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Dastlab, moliyaviy javobgarlik haqida to'xtalib o'tamiz. Bunda biz bevosita Soliq kodeksiga e'tibor qaratamiz. Unga binoan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-bobi "Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda qisqa bo'lsada aniq qilib soliqqa oid qonunbuzarliklarni turlari va ular uchun javobgarlik masalalari ko'rsatilgan. Bugungi kunda davlat soliq inspeksiyasi xodimlari ushbu bob asosida va boshqa qonun osti hujjatlari asosida jarimalarni qo'llab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-bobida quyidagi soliqqa oid huquqbuzarlik turlari ko'rsatilgan:

1. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlash.
2. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish).
3. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish.
4. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish.



5. Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz vaboshqa ruxsat be-
ruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish.

6. Hisobvaraqa-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini bu-
zish.

7. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan va to'lov-
larni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hi-
sob-kitob terminallaridan foydalanish tartibini buzish.

8. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash mud-
datlarini buzish.

9. Yer uchastkalaridan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlo-
vchi hujjatlarsiz foydalanish.

Yuqorida ko'rsatilgan ayrim huquqbuzarlik holatlari
bo'yicha maxsus yo'riqnomalar ham ishlab chiqilgan bo'lib,
mazkur huquqbuzarliklar agarda sodir etilsa, ushbu modda-
lar va kerakli yo'riqnomalar bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda amaliyotda eng ko'p uchrayotgan soliqqa
oid huquqbuzarliklar bu kirim qilinmagan tovarlarni saqlash
yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan
tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) va Soliq
kodeksining 119-moddasida ko'rsatilgan fiskal xotirali nazo-
rat-kassa mashinalaridan va to'lovlarni plastik kartochka-
lar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan
foydalanish tartibini buzishdir.

“Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash deganda buxgalte-
riya hujjatlarida aks ettirilmasdan saqlanayotgan, realizatsi-
ya qilishga chiqarilgan va realizatsiya qilingan tovarlar tus-
huniladi”⁵¹.

Shunigdek, Soliq kodeksining 22-moddasiga ko'ra, to-
varlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan
tushum bu realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)
uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi,
shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmat-
lar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan

⁵¹ Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010-yil 18-iyundagi “Xo'jalik sud-
lari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi Umumiy qismini
qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi 210-sonli qarori 38.1 bandi 1 qis-
mi

mol-mulk qiymati. Mazkur tushumlarni yashirish esa realizatsiyadan tushgan tushumni kamaytirib ko'rsatish yoki uni qayd etmaslik tushuniladi.

Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash (ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar bundan mustasno), kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Ushbu moddani qo'llash maqsadida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish), deb quyidagilar e'tirof etiladi:

➤ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;

➤ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat beruvchi hujjatlar almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

➤ hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi⁵².

Shuningdek, e'tirof etish lozimki, Soliq kodeksining 114, 119-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid qonunbuzilish moliyaviy jarima sanaladi va moliyaviy jarimalar xo'jalik sudlari tomonidangina qo'llaniladi. Ushbu vaziyatni huquqiy tartibga solish maqsadida Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010-yil 18-iyundagi "Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining Umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 210-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, Plenum Qarorining 38-bandiga ko'ra Soliq kodeksi 114-moddasining birinchi qismiga muvofiq, kirim qilin-

⁵² O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y.,



magan tovarlarni saqlash, bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno, kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida, ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) - tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, Plenum qarorini 38.1-bandiga ko'ra chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari va tovar cheklari daftarchasi hisoblanadi. Daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Kirim qilinmagan tovarlarning qiymati yuzasidan nizo vujudga kelgan holda u manfaatdor tarafning iltimosnomasi bo'yicha xo'jalik sudi tomonidan tayinlangan mutaxassis (ekspert)ning xulosasiga asosan belgilanadi.

Soliq kodeksi 114-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

✓ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;

✓ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat beruvchi hujjatlarning almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

✓ hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi "Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1504-sonli Prezident farmoni 3-bandining beshinchi xatboshisiga muvofiq barcha chakana savdo korxonalari, shuningdek aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining tushgan naqd pul mablag'larini har kuni bank muassasalariga topshirmasligi ham tushumni yashirish, deb baholanadi.

Oliy Xo'jalik Sudini 210-sonli Plenum qarorini 38.2-bandiga ko'ra ushbu ro'yxat tugal hisoblanadi va kengaytirilgan tarzda talqin qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq kodeksi 114-moddasining uchinchi qismiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Mazkur holatda moliyaviy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari tahliliga tayangan holda soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik haqida qisqacha to'xtalamiz.

Ma'muriy javobgarlik – yuridik javobgarlik turi bo'lib, vakil qilingan organ yoki mansabdor shaxsning qonunbuzarlik qilgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorasini qo'llashda ifodalanadi.

Soliq munosabatlari sohasida qo'llaniladigan davlat majburllovchi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:

– ular huquqiy shaxslarga ham, jismoniy shaxslarga ham birdek qo'llaniladi;

– soliq sohasida qonunchilikni ta'minlash soliqlarni to'lash qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi;

– qoida tariqasida soliqqa oid majburllov choralari maxsus organlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan sudsiz tartibda qo'llaniladi;



– soliq sohasidagi majburlov choralar tizimi ahamiyati, ta’sir kuchi va miqiyoslari bo’yicha turli-tuman jazolarni nazarda tutadi;

– soliq sohasidagi davlat majburlovining asosiy maqsadi soliq qonunlariga qat’iy amal qilganlikni, soliqlarni o’z vaqtida va to’liq davlat byudjetiga kelib tushishini ta’minlashdan iborat bo’ladi;

– soliq sohasidagi majburlov choralari qo’llash tartibi moliyaviy qonun hujjatlarida ma’muriy protsessual normalarda belgilab qo’yiladi, ya’ni ma’muriy huquq ramkasida qo’llaniladi;

– Soliq sohasidagi majburlov choralari soddalashtirilgan tartibda (huquqbuzarlik aniqlanadi – qayd etiladi, bayonoma yoki dalolatnoma vositasida – jazo qo’llaniladi) tatbiq etiladi;

– Soliqlar bilan bog’liq davlat zo’rligi ishlatilishi chog’ida ta’sirchan prokuror nazoratini amalga oshirishi, soliq organlari va ularning mansabdor shaxslari xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta’minlash orqali va boshqa vositalar bilan qonunchilik rejimi ta’minlanishi, soliq to’lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya etilishi lozim⁵³.

Ma’muriy huquqiy javobgarlik soliq qonunlarini buzganlik uchun Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksda belgilangan miqdorda moliyaviy-huquqiy jazo choralari ko’rish yo’li bilan qo’llaniladi.

O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksining “Savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik” deb nomlangan 13-bobida soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun javobgarlik turlari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini buzish.

⁵³ A.S.Jo’raev, A.N.Artiqov. “Soliq qonunchiligi asoslari”. Ma’ruza matni. Toshkent moliya instituti, T., 2015-y. 87-b.



2. Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish.
3. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish.
4. Mollarni ularning sifatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlaydigan hujjatlarsiz sotish.
5. Bozorlarda savdo qilish qoidalarini buzish.
6. Tarkibida kimyoviy moddalarning qoldig'i yo'l qo'yiladigan darajadan ortiq bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish.
7. Valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish.
8. Valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish tartibini buzish.
9. Yonilg'i-moylash materiallarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash, berish, olish qoidalarini buzish.
10. Standart talablariga yoki texnik shartlarga javob bermaydigan yonilg'i-moylash materiallarini realizatsiya qilish.
11. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash.
12. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish.
13. Soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bor-maslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek, to'lov intizomini buzish.
14. Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish.
15. Byudjet intizomini buzish.
16. Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish.
17. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etish tartibini buzish.
18. Tadbirkorlik subyektlaridan qonun hujjatlarini buzgan holda hujjatlar talab qilib olish va boshqalar.



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175-moddasining "Soliqlar va boshqa to'lovlar to'lashdan bo'yin tovlash" deb ataladigan. 1-qismida soliq solinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirganlik (kamaytirib ko'rsatganlik) yoxud soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ko'rib chiqilayotgan huquqbuzarlikning yuridik tarkibini tahlil qilishga o'tishdan oldin shuni aytish kerakki, soliq to'g'risidagi qonunlar muttasil rivojlanib bormoqda. Vaqti-vaqti bilan Soliq solinadigan obyektlarning ro'yxati o'zgartirilmoqda va to'ldirilmoqda, soliq stavkalari o'zgartirilmoqda. soliqlar tizimining o'zi ham o'zgarimoqda - ba'zilari joriy etilmoqda, boshqalari bekor qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1994-yil 30-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi farmonni misol qilib ko'rsatish mumkin. Shu munosabat bilan davlat soliq organlarining mansabdor shaxslari mazkur o'zgartirish va qo'shimchalarni doimo diqqat markazlarida tutishlari, soliq to'g'risidagi qonunlarni buzish hollarini baholashga doir aniq masalalarni hal qilishda ularni hisobga olishlari zarur. Soliq solishdan ozod qilishning amaldaga tartibini, soliqlar sohasidagi imtiyozlar ro'yxatini bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Xolis qaralganida 174-moddaning 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik soliq va boshqa majburiy to'lovlar tarzida belgilangan summalarini byudjetga o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan rasmiy hujjatlarda soliq solinadigan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirmaslik yoki to'la aks ettirmaslikda namoyon bo'ladi.

Ko'rib chiqilayotgan holatda daromadlar, deganda masalan, xususiy mulk asosida faoliyat olib boradigan tadbirkorlarning daromadi, mol-mulknii ijaraga berishdan keladigan tushumlar, ko'rilgan ziyonni to'lash tarzida olingan summalar, korxonaga qarashli aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar va h.k. tushuniladi. Boshqa to'lovlar, deganda turli yig'imlar, shu jumladan,

ro'yxatga olish haqi, bojlar, pul-buyum lotereyalari o'tkazishdan kelgan daromadlar va shu kabi soliqqa tortilmaydigan daromadlar tushuniladi.

Soliq solishdan yashiriladigan summaning miqdori (bu tushunchaga yig'imglar, bojlar to'lash, boshqa to'lovlarni to'lash ham kiritiladi) alohida ahamiyatga ega, chunki agar bu summa eng kam ish haqining o'n baravaridan oshmasa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

MJK 174-moddasining 1-qismi bo'yicha huquqbuzarlik subyektlari fuqarolar ham, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslari ham bo'lishi mumkin. Mansabdor shaxslar deganda soliq solish sohasida belgilangan qoidalariga rioya etish vazifasi zimmasiga yuklatilgan rahbarlar, bosh (katga) buxgalterlarni anglamoq kerak. Bunda mulkning shakli, xo'jalik yurituvchi subyektning kimga buysunishi huquqbuzarlikni baholash uchun ahamiyatga ega emas. Shuni ham nazarda tutish kerakki, buxgalteriya xizmatiga ega bo'lmagan korxonalar, muassasa, tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarini ixtisoslashgan tashkilot yoki tegishli mutaxassis shartnoma asosida olib borishi mumkin.

Ushbu moddani qo'llash paytida ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda o'n olti «yoshga to'lgan aqli raso shaxslar tortilishi haqidagi umumiy qoidani hisobga olish kerak (MJK. 14, 20-moddalar), O'zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolar (immunitetga ega bo'lganlaridan tashqari) va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim (MJK 17-moddasi). Shunday qilib, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bulmagan shaxslar MJK 174-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik subyekti bo'lishlari mumkin. Uni sodir etish fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi⁵⁴.

⁵⁴ A.S.Jo'rayev, A.N.Artiqov. "Soliq huquqi asoslari" O'quv qo'llanma, T.: Toshkent moliya instituti, 2012. 109-110-b.



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175-moddasida soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek, to'lov intizomini buzish, soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun javobgarlik masalasi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarning hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda olib borish, basharti bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarning summasini kamaytirishga olib kelsa, shuningdek, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarini hamda boshqa hujjatlarni taqdim etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etish, (huddi shuningdek, kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaslik eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahrir) (2016-yil 13-aprel), O'RQ-404-sonli qonunining 1-moddasida buxgalteriya hisobining maqsadi belgilangan bo'lib, mazkur moddada qayd etilishicha "Buxgalteriya hisobining maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir, deb belgilangan.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahrirda)gi qonunning 4-moddasiga binoan buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzliksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek, uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.



Buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtda va o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi.

Buxgalteriya hisobining vazifalari:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzishdan iborat".

Demak, buxgalteriya hisobi qoidalariga amal qilmaslik natijasida soliqqa oid huquqbuzilishlari vujudga kelishi mumkin va mazkur turdagi huquqbuzulishlar tasnifi Soliq kodeksida ham ko'rsatilgan.

Buxgalteriya hisobining mavjud emasligi yoki uni belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmasligiga olib kelsa, soliq to'lovchi - yuridik shaxsning mansabdor shaxsi ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi soliq to'lovchi - yuridik shaxsni buxgalteriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi⁵⁵.

Mazkur soliqqa oid huquqbuzarlikka nisbatan ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeksni 175¹-moddada ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish, - mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima sabab bo'ladi.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y.,



Jinoiy huquqiy javobgarlik soliq qonunlarini buzganlik uchun jinoyat kodeksda belgilangan miqdorda jazo choralari ko'rish yo'li bilan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida soliq qonunchiligini buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar quyidagilardan iborat:

–Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash;

–Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish jinoyatlaridan iborat.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash deganda - foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko'rsatishni, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliq'larni yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa, — eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ammo, so'ngi yillarda amaldagi qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartirishlar sababli soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatni birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan, penyal va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga etkazilgan zararining o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi haqidagi norma joriy qilindi.

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'lmasa, bu huquqbuzarlik

zarlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda qo'llaniladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqqa oid bir necha huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar uncha og'ir bo'lmagan moliyaviy sanksiyani og'irroq jarima bilan qamrab olish yoxud tayinlangan jarmalarni to'liq yoki qisman qo'shish orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar majmuyi bo'yicha qo'llaniladi. Bunda jarimaning uzil-kesil miqdori jarimaning yuqori miqdori nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun belgilangan eng ko'p miqdordan oshishi mumkin emas.

Agar soliq to'lovchi birinchi ish bo'yicha qaror chiqarilguniga qadar soliqqa oid yana boshqa huquqbuzarliklar sodir etganligi ish bo'yicha qaror chiqarilganidan so'ng aniqlansa, jarima qo'llaniladi. Bu holda sud tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar majmui bo'yicha tayinlangan jarima miqdorida birinchi qaror bo'yicha to'langan jarimaning summasi hisobga olinadi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzar-



likni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanksiyalarga tortilmagan hisoblanadi.

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun quyidagi holatlardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi.

Soliq Kodeksida nazarda tutilgan boshqa holatlar ham mavjud bo'lgan taqdirda shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno.

Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik subyekti qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan, shu jumladan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lagan taqdirda unga nisbatan jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo'llanilishi mumkin emas.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar, deb quyidagilar e'tirof etiladi:

soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi);

soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali



isbotlanadi) jismoniy shaxs — soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda;

vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda (mazkur holatlar ushbu organlarning tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjatlar ma'nosi va mazmuniga ko'ra, hujjatlar qabul qilingan sanadan qat'iy nazar soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo'lishi lozim).

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar, deb quyidagilar e'tirof etiladi:

huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda;

soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar, deb quyidagilar e'tirof etiladi:

og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish;

tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish;

sud tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi, deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomondan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat, deb e'tirof etiladi.

8.3. Moliyaviy sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi

Soliq to'lovchi soliqqa oid bir necha huquqbuzarliklar sodir etgan taqdirda moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlikka nisbatan alohida-alohida qo'llaniladi.



Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlikni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanksiyalarga tortilmagan hisoblanadi⁵⁶.

Soliq solish tizimini liberallashtirish maqsadida Soliq kodeksining 109-modda soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikdan ozod qilish holatlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra "Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun quyidagi holatlardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi;

3) Soliq Kodeksida nazarda tutilgan boshqa holatlar ham mavjud bo'lgan taqdirda, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno.

Shuningdek, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash tariqasidagi jinoyat tegishli soliq davri uchun soliq qonunchiligida belgilangan muddatlarda soliq to'lanmasligi holati kelib chiqqan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi (agar bunda soliqlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish imkoniyati (Soliq Kodeksining 56-moddasi) yoki soliqqa oid huquqbuzarlik uchun shaxsning javobgarligini istisno etuvchi holatlar (Soliq Kodeksining 109, 110-moddalari) mavjud bo'lmasa).

Soliq kodeksi 162-moddasiga ko'ra soliq davri kalendar yiliga mos keladi⁵⁷.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y.,.

⁵⁷ Oliy Sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 8-son qarori 9-bandi



Ushbu gaplarimizni mantiqiy davomi sifatida ta'kidlash mumkinki, Soliq kodeksining 110-moddasida shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini va uni javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar, deb quyidagilar e'tirof etiladi:

soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi);

soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali isbotlanadi) jismoniy shaxs - soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda;

vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda (mazkur holatlar ushbu organlarning tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjatlar ma'nosi va mazmuniga ko'ra hujjatlar qabul qilingan sanadan qat'iy nazar soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo'lishi lozim). Shuningdek, Soliq kodeksining 110-moddasi ikkinchi qismida javobgarlikni istisno etadigan holatlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar, deb quyidagilar e'tirof etiladi:



huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda;

soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda.

Mazkur moddada ko'rsatilgan "o'n olti yosh" so'zini "mumomala layoqatiga ega bo'lmagan" degan so'zlar bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik masalalari O'zbekiston qonunchiligida yaxshi tartibga solinganligi barchamizga ma'lum albatta, lekin javobgarlikni og'irlashtirish va engillashtirish masalasi yetarli darajada mustahkamlanganmi, degan savol bo'lishi tabiiy j\hol albatta.

Soliq kodeksining 111-moddasiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu moddada Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar yoritilgan bo'lib, unga ko'ra soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar, deb quyidagilar e'tirof etiladi:

og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish;

tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish;

sud tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi, deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari huddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat, deb e'tirof etiladi.

Shuningdek, Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010-yil 18-iyundagi "Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi Umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 210-sonli qarorining 43-bandida ta'kidlanishicha, "Moliyaviy sanksiyani qo'llashda xo'jalik sudlari Soliq kodeksining 111-moddasida belgilangan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi

holatlarning tugal emasligini, og'irlashtiruvchi holat esa tugal hisoblanishini inobatga olishlari lozim.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar qat'iy belgilangan moliyaviy sanksiyalarni qo'llashda inobatga olinmaydi". Soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun qo'llaniladigan jarimalarni eng ko'p tarqalgan turlaridan biri bu moliyaviy jarimadir.

Soliq kodeksining 112-moddasida moliyaviy sanksiyalarva ularni qo'llash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga - soliq to'lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek, soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno.

Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik subyekti - soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga — soliq to'lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan



olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno.

Qo'llaniladigan moliyaviy sanksiya huquqbuzarlikning oqibatlariga nomutanosib bo'lgan, javobgarlikni yengillash-tiruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, shuningdek huquq-buzarning moddiy ahvolini inobatga olib, sud Soliq Kodeksi-ni-ning 17-bobida nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyaning eng kam darajasidan ham kamroq, biroq belgilangan sanksiya eng kam miqdorining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdor-da sabablar va asoslarni albatta ko'rsatgan holda moliyaviy sanksiya qo'llashga haqli.

Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik subyekti — soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lov-larni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qi-linadi.

8.4. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

Soliq to'lovchining, shu jumladan, O'zbekiston Respub-likasi norezidentining (bundan bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan so-liq to'lovchilar mustasno), davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo'yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi:

✓ agar faoliyat ko'pi bilan o'ttiz kun amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o'n foizi-dan kam bo'lmagan miqdorda;



✓ agar faoliyat o'ttiz kundan ortiq amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning ellik foizidan kam bo'lmagan miqdorda.

Soliq to'lovchining, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentining davlat soliq xizmati organida obyektlar bo'yicha hisobga turishdan bo'yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi:

✓ agar hisobga turish bo'yicha belgilangan muddatdan ko'pi bilan o'ttiz kun o'tgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida;

✓ agar hisobga turish bo'yicha belgilangan muddatdan o'ttiz kundan ortiq o'tgan bo'lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida.

Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash (bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno), — kirim qilinmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Kirim qilinmagan tovarlar qo'zg'atilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi doirasida davlat daromadiga o'tkazilgan taqdirda, sanksiya qo'llanilmaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) — tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Ushbu moddani qo'llash maqsadida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;



tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat beruvchi hujjatlar almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to'lovchi — jismoniy shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Buxgalteriya hisobining mavjud emasligi yoki uni belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmashligiga olib kelsa, soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi soliq to'lovchi — yuridik shaxsni buxgalteriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanganlik uchun shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraqa-fakturada aks ettirganlik.

-mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini byudjetga to'lashi shart.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilarga nisbatan jarima solish qo'llanilmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet bilan qayta hisob-kitob qilmaydi.



Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek, sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik — -eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Harakatlar jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda — -eng kam ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek, plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik—

-eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Harakatlar jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda —

-eng kam ish haqining ikki yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish —

-to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov kuni ham shunga kiradi, 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi. Bunda boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summaga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Penya miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshib ketishi mumkin emas. Penya undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan



ozod qilmaydi. Yuridik shaxs — tadbirkorlik subyekti ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penyalar hisoblash to'xtatiladi. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, penya belgilangan tartibda qo'shib hisoblanadi hamda hisoblashlar to'xtatib turilgan butun davr uchun undiriladi.

Har bir soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berish uchun davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) shikoyat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat berilganligi shunday shikoyatni sudga berish huquqini istisno etmaydi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat berish tegishincha shikoyat bo'yicha davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan qaror qabul qilinguniga yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar shikoyat qilinayotgan qarorni yoki harakatni ijro etishni, shu jumladan, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirishni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishini to'xtatib turadi. Soliq to'lovchi qaysi davlat soliq xizmati organining qarori yoki mansabdor shaxsining harakatlari ustidan shikoyat qilayotgan bo'lsa, o'sha organni davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat berganligi to'g'risida tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qilishi shart.



Davlat soliq xizmati organining qarori uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat davlat soliq xizmatining tegishli yuqori turuvchi organiga yozma shaklda beriladi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat soliq to'lovchi o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida beriladi. Shikoyatga uni asoslantiruvchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyat davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan shikoyat olingan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi quyidagilarga haqli:

- shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirish;
- davlat soliq xizmati organining shikoyatga sabab bo'lgan qarorini bekor qilish yoki o'zgartirish.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan mazmunan qaror chiqarishga haqli.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, deganda nimalarni tushunasiz?
2. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari haqida tushuncha bering.
3. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik nimalardan iborat?
4. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlashga nisbatan soliq qonunchiligida qaysi asosga ko'ra hamda qanday choralar qo'llaniladi?

5. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi necha yoshdan boshlab amalga oshiriladi?

6. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari nimalardan iborat?

7. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikdan ozod qilish tartibini tushuntirib bering.

8. Soliq to'lovchilarning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini va uni javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar haqida tushuntirib bering.

9. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar haqida tushuncha bering.

10. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar haqida nimalarni bilasiz?

11. Moliyaviy sanksiyalar haqida nimalarni bilasiz?

12. Moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibi qanday?



IX BOB. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY HOLATNING UZVIY BOG'LIQLIGI

Reja

- 9.1. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi
- 9.2. Soliq yuki va uni aniqlash tartibi
- 9.3. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri
- 9.4. Soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi

9.1. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi boshqa ko'pgina omillar bilan bir qator-da unga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosatiga ham bevosita bog'liq. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish jarayonida iqtisodiy rivojlanishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan davlat soliq siyosati orqali makroiqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda xizmat qiladigan soliq dastaklari (imtiyozlar, stavkalar, soliqqa tortiladigan bazani shakllanishi va boshqalar) kuchli ta'sir etuvchi va qiyin boshqariladigan soliq qurollaridir. Masalan, soliq to'lovchilarga keng soliq imtiyozlarini berish byudjetning daromadlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan butunlay teskari oqibatlar-ga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan esa soliq imtiyozlarining har tomon-lama bekor qilinishi tadbirkorlik faolligiga salbiy ta'sir ko'r-satishi va korxonalarining ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalariga kapital qo'yilmalarning sezilarli kama-yishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida ba'zi tarmoqlardagi mavjud muvozanat buziladi.

Soliq islohotlarini amalga oshirishning asosiy maqsadi makroiqtisodiy samaradorlikka erishish hisoblanib, davlat



soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda xizmat qiladigan bir qator yuqorida keltirilgan dastaklardan samarali foydalanishga harakat qiladi. Lekin bu dastaklar iqtisodiy yuksalishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi muammosi mavjud. Ulardan foydalanishda ehtiyotkorlik chora-tadbirlarni ko'rib, bu dastaklarni iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir etishida uning ta'sirchanligini oshirish muammosi hal etilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yurgizilayotgan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati mustaqil ravishda yurgizilayotgan soliq siyosati hisoblanib, uning markaziy vazifalaridan biri sifatida respublikamizda bozor munosabatlarini qaror toptirish va uni rivojlantirishga xizmat ko'rsatish qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik muhitini yaratish va uni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etganligi uchun soliq siyosati ham bizning respublikamizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi, shak-shubhasizdir.

Bir vaqtning o'zida puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatining hayotga qanday tadbiriq etilishi shu siyosatni amalga oshirishda qo'llanilishi lozim bo'lgan soliq mexanizmiga uzviy bog'liq.

Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'siri juda katta bo'lib, mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'zgarishi soliq siyosatining samarasiga bevosita bog'liq. Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'sirini soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga, investitsion muhitga, iste'molga, iqtisodiy barqarorlikka ta'siri kabilar bilan baholash mumkin.

Soliq stavkalarining o'zgartirilishi bevosita talablar yig'indisiga ta'sir qiladi. Iste'molning ham, investitsiyalarning ham hajmi soliqlarning katta-kichikligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, byudjetga soliq tushumi kamayib, davlat xarajatlari avvalgicha qolgan paytda iste'mol va investitsiya xarajatlarining o'sishi rag'batlantiriladi.

Yalpi talab qanchalik ko'paygani bilan u iqtisodiyotni ishlab chiqarish imkoniyatlari (mavjud resurslar va texno-



logiyalarning shartli miqdori va sifati) doirasidan tashqariga «surib qo'yishga» qodir bo'lmaydi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasiga yaqinlashganda yig'ma talabning o'sishi asosan real ishlab chiqarishning emas, balki narxlarning ko'tarilishi hisobiga ro'y beradi. Binobarin, rag'batlantiruvchi soliq-byudjet siyosati iqtisodiyot pasayish vaziyatida bo'lgandagina chinakam ijobiy samara beradi. Soliq siyosati olib borilayotganda qisib chiqarish, deb ataladigan vaziyat bilan to'qnashuv ro'y beradi. Masalan, davlat xarajatlari o'zgarmay turgan sharoitda soliq tushumlari kamaydi (yoki aksincha, davlat xarajatlari ko'payib, soliq tushumlari esa avvalgi darajasida qoldi). Bunday vaziyatda davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi farqning ortishini (byudjet kamomadining o'sishini) davlat qarzlar hisobiga qoplashga majbur. Bunda davlat obligatsiyalar chiqarishi mumkin, bu obligatsiyalarning sotilishi moliya bozori mablag'laridan foydalanish imkonini beradi. Bunday sa'y-harakat moliya bozorida milliy jamg'armalar taklifi kamayishiga olib keladi. Natijada foiz stavkalari ko'tariladi va xususiy investitsiyalar hajmi tushib ketadi. Biz ko'rgan holatda soliqlarning kamayishi tufayli kelib chiqqan byudjet kamomadining o'sishi xususiy investitsiyalarni "surib chiqaradi"ki, buning natijasi o'laroq, yalpi talab darajasi o'zgarmay qoladi. Binobarin, qisqa muddat ichida surib chiqarish samarasi amal qilmaydi yoki sezilmaydigan darajada ro'y beradi: moliya bozori takomillashmagani (korporatsiyalar kapital mablag' sarflash uchun pul oladigan kredit haqidagi bitimlar ilgari tuzib qo'yilgani) sababli investitsiyalar va jamg'armalar uzoq istiqboldagina tenglashadi.

Soliq siyosatining samaradorligi sof eksport samarasi bilan cheklanadi. Biz aniqlaganimizdek, soliqlarning kamaytirilishi milliy jamg'armalar miqdorini kichraytiradi hamda ichki foiz stavkalarini kattalashtiradi. Bunday vaziyat oqibatda faqat ichki (milliy) investitsiyalarning qisqarishigagina emas, balki mamlakatga chet el kapitalining oqib kirishi tezlashishiga ham olib keladi. Mazkur holatda xorij investitsiyalari o'sib borayotgan ichki foizli stavkalar bilan rag'batlantiriladi.



Chet el kapitalining oqib kelishi milliy valyutaga talabni os-hiradi. Natijada valyuta kursi ko'tariladi, sof eksport miqdori qisqaradi. Valyuta kursi ko'tarilganida milliy tovarlar jahon bozorida ancha qimmatlashadi, xorij tovarlari esa ichki bo-zorda arzonlashadi. Shunday qilib, soliqlarni kamaytirish tufayli jamiyat xarajatlarining kengayib ketishi eksportning qisqarishi va importning o'sishi bilan bog'liq yalpi talabning pasayishi hisobidan qisman tekislanadi. Bunday samara qayd etilgan valyuta kurslari sharoitida amal qilmaydi: soliq-lar kamaytirilganida valyuta kursi avvalgi darajasida qoladi hamda sof eksport tegishli ravishda o'zgar olmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, rag'bat-lantiruvchi soliq siyosati faqat qisqa muddatli turkumiy teb-ranishlar oqibati bo'lgan iktisodiy pasayish sharoitida, faqat qayd etilgan valyuta kurslari paytida sezilarli makroiqtisodiy samara beradi. Vaqtning uzoq oraliqlarida esa u ta'sirli bo'l-maydi.

Endi soliqlarni qisqartirish oqibatlarini yalpi taklifga ta'sirini ko'rib chiqaylik. Mazkur tadbirning samarasi shun-dan iboratki, bunda taklifning egri chizig'i o'ngga qarab sil-jiydi - soliqlarning pasaytirilishi xarajatlarning qisqarishini (bu holat tadbirkorlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batlantiradi) hamda "sof" ish haqining o'sishini (bu ho-lat esa yollanma xodimlarni mehnat taklifini ko'paytirishga rag'batlantiradi) anglatadi. Bunda (soliqlarning kamayti-rilishi oqibatida) yalpi talab odatda yalpi taklifga nisbatan ko'proq o'sib boradi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish-ning kengayishi bilan bir qatorda narxlarning umumiy dara-jasi ko'tarilishi kuzatiladi.

Biroq yig'ma taklif darajasining o'zgarishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham makro-iqqisodiy barqarorlik maqsadiga erishish uchun davlat eng avvalo yalpi taklifga emas, balki yalpi talabga ta'sir ko'rsatis-hga intiladi. Buning ustiga, hozirgi zamon iqtisodchilarining aksariyati hisoblashicha, makroiqtisodiy beqarorlik (iqtiso-diy turkumlar) asosan yig'ma talab beqarorligining oqiba-tidir. Masalan, iqtisodiyot yalpi talabning salbiy o'zgarishi

ta'siri tufayli pasayish jarayonini boshdan kechirmokda. Bunday holatda davlat jamiyatning yig'ma xarajatlarini soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini kengaytirish vositasida rag'batlantirishga intiladi. Agar hukumat iqtisodiyotning "zo'riqishi" dan xavotirlansa yoki pulning qadrsizlanish sur'atlarini sekinlashtirishni istasa, u holda o'zining moliya siyosatini qattiq olib borishda soliqlarni oshirishi va davlat xarajatlarini qisqartirishi lozim bo'ladi.

9.2. Soliq yuki va uni aniqlash tartibi

Soliq tushumlarining darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladi, balki soliq tizimidan samarali foydalanishga va uning o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga ham bog'liq bo'ladi. Bu funksiyalarning ta'siri haqida xo'jalik subyektlaridagi soliq yuki orqali mulohaza qilish mumkin.

Xo'jalik subyektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli soliq yukining og'irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to'lovlilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ayrim mutaxassislar soliq tizimining samaradorligini YaIMda soliqlarning hissasi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruhdagi mutaxassislar esa soliq yukini to'lovlarning barchasini birlashtirish yo'li bilan hisoblashni tavsiya etadilar. Bunda byudjetdan tashqari fondlarga va mahsulotni sotish hajmiga ajratmalar ham soliq yukining tarkibiga kiritiladi.

Jamiyat a'zolariga soliq og'irligining taqsimlanish darajasini tavsiflab aytish mumkinki, ishlab chiqarishdagi aksariyat soliqlar, xususan, egri soliqlar tovar tannarxi tarkibiga kiritiladi va pirovard natijada iste'molchi zimmasiga tushadi.

Aholining soliq yukini, jon boshiga soliq salohiyatini olinadigan o'rtacha boshiga daromadga nisbatan aniqlash mumkin.

Shu asosda butun mamlakatning soliq salohiyatini hisoblashda, barcha soliq summasi va sug'urta badallarining majmui sifatida hisoblash soliq yukini hisoblashda yollangan xodimlar mehnatiga haq to'lashda har bir so'miga barcha soliqlar summasining, shuningdek, soliq yuki salmog'ini, yalpi qo'shilgan qiymat salmog'i ulushi bilan aniqlanib, uni aholining soliq yuki koeffitsientiga tuzatish (ko'paytirish) kiritish taklif etiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan soliq yukini YaIMdagi soliq ulushi sifatida hisoblash metodologiyasi juda oddiy va tushunarlidir. Shuning uchun u chet mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Ayni paytda, bu metodologiya turli ishlab chiqarish tarmoqlariga va iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo'lgan korxonalar uchun uni taqqoslab mikrodarajadagi soliq yuki darajasini tadqiq etish imkonini bermaydi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi yuridik shaxslarga soliq yukini hisoblashning metodologiyasini tavsiya etgan. Unda soliq yuki barcha hisoblangan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarning hisobga olingan summasi, mahsulot sotish hajmiga va boshqa sotuvdan tushumni o'z ichiga olgan nisbat orqali aniqlanadi.

Ish haqini to'lash bo'yicha xarajatlarning ortishi byudjetdan tashqari fondlarga to'lovning ko'payishiga ta'sir etadi. Soliq yukining ortishiga, shuningdek, soliq to'lovlarining byudjetga o'z vaqtida o'tkazilmasligi natijasida to'langan jarimalar ham ta'sir etishi mumkin.

Soliq yukini aniqlashda absolyut va nisbiy soliq yukini farqlash lozim. Absolyut soliq yuki - bu jami to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladi, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq majburiyatlarining absolyut miqdori-dir. Statistik hisobotlarda bu ko'rsatkichga haqiqatda soliq to'lovlarining byudjetga o'tkazilganini va byudjetdan tashqa-




ri fondlarga o'tkazilgan majburiy sug'urta badallarini, shuningdek, bu to'lovlar bo'yicha boqimandalik kiritiladi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan byudjetdan tashqari fondlarga to'lanadigan sug'urta badallari majburiy to'lovlar bo'lib, soliq xarakteriga ega. Shu sababli soliq yukini hisoblashda ularni hisobga olish zarur.

Biroq absolyut soliq yuki soliq majburiyatlarining ziddiyatini ifodalamaydi. Bu ko'rsatkich soliq to'lovchilar miqdori bilan to'lash manbalarining mosligini aks ettirmaydi. Shu sababli, nisbiy soliq yuki ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nisbiy soliq yuki, deb uning absolyut miqdorining yangidan yaratilgan qiymatga munosabati tushuniladi, ya'ni soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar hissasi hamda yangi yaratilgan qiymatdagi boqimandalik ham bunga qo'shiladi.



9.2.1-rasm. O'zbekistonda soliq yuki darajasining o'zgarishi
(YalMga nisbatan foizda)⁵⁸

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Soliq to'lovlarini to'lash manbayi bo'lib qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat - tovar va xizmatlar qiymati bo'lib, oraliq iste'molga kamaytiriladi, ya'ni keyingi ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan iste'molga kamaytiriladi. Soliqlarni undirishning turli usullari bir maqsadni, ya'ni qo'shilgan qiymatning bir qismini olishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida soliq yukining ta'sirchanligi shubhasizdir. Uning ta'siri umumiy ko'rinishda salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin. Soliq yuki og'irlashgan paytda tadbirkorlik faoliyati susayadi va hatto, umuman to'xtab qolishi ham mumkin. Aksincha, soliq yukining nisbatan engillashuvi tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga olib keladi. Lekin soliq yukini engillashtirishni tadbirkorlikni rivojlantirishning yakka-yu yagona sababi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emas. Undan tashqari soliq yukini yengillashtirish ham o'zining mantiqiy chegarasiga ega bo'lib, bu chegara ko'p jihatdan davlat byudjetidan qilinishi lozim bo'lgan xarajatlarning hajmi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan hozircha bizning nazarimizda O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yanada faollashtirish uchun soliq yukini yanada yengillashtirish emas, balki mavjud tarkib topgan soliq yukini iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlashni dolzarb masala sifatida qaramoq lozim.

Respublikamiz soliq siyosatini takomillashtirishda xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq yukini kamaytirishga ahamiyat berilmoqda. Soliq yukini aniqlashning turli mamlakatlarda, shu jumladan, respublikamizda ham o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, lekin soliq yukini aniqlashning eng maqbul usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Ma'lumki, soliq yuki ham ishlab chiqaruvchilar, ham iste'molchilar zimmasiga tushadi. Biroq yo'qotish hajmi odatda bir xil bo'lmaydi (yuqorida keltirib o'tilgan hisob-kitoblar faqat bizning shartli misolimizga xos). Soliq yukining xususiyati bozor talabi va bozor taklifining egiluvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Ortiqcha soliq yuki jamiyatning soliqqa tortiladigan tovarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni ularning maqbul

darajasidan qisqartirish oqibatida ko'rgan zarari hajmidir. Bu qoidadan kelib chiqadigan xulosa shuki, davlat iqtisodiyotni haddan tashqari katga soliqlar bilan qiynab qo'ymaslik uchun o'zining qayta taqsimlash siyosatini haqiqiy «zarur minimum» bilan cheklashi lozim. Nega, deganda daromadlarni qayta taqsimlash, biz aniqlaganimizdek, jamiyat uchun muayyan yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Respublikamiz soliq siyosatida mahsulot ishlab chiqaruvchi sohalar va jismoniy shaxslar uchun soliq og'irligini tobora kamaytirib borish tadbirlari ko'rilmogda. Masalan, 2016-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat byudjetiga undirilgan soliq ulushi 20 foizgacha qisqardi. Ko'pgina xorijiy davlatlarda bu ko'rsatkich hozir o'rtacha 30-33 foizni tashkil etadi. Eng muhimi, soliq og'irligini bundan buyon ham kamaytirish siyosatini yurgizish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirib borish, ayniqsa, tabiiy va mineral xomashyolardan foydalanish borasida korxonalar faoliyatiga ta'sir doirasini kuchaytirish lozimligi ta'kidlab o'tildi. Soliqlar og'irligini faqat yuridik shaxslargagina emas, balki jismoniy shaxslarga nisbatan ham kamaytirish tadbirlari belgilangan.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratib kelindi. Bunda birinchi navbatda, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini pasaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga ularning aylanma mablag'lari miqdorini oshirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, uning samaradorligini oshirish maqsadida investitsiyalarni keng jalb etish, ishchi-xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkoni yaratiladi.

O'zbekistonda soliq yukini kamaytirishga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ish beruvchilar uchun ish haqi tarzidagi daromadlarga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov va boshqa shu



kabi asosiy soliqlar stavkalarini kamaytirish, ayrim samarasiz soliqlar va yig'implarni bekor qilish yoki ularning soliq solish bazasini qisqartirish, shuningdek, iqtisodiyotning ayrim tarmoq va soha korxonalariga soliqlardan turli imtiyozlar berish orqali erishildi. Natijada soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1991-yilda 41,2 foizni tashkil etgani holda 2000-yilda 27,9 foizni, 2016-yilda esa 20 foizni tashkil etdi. Boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olganda bu ko'rsatkich 30-33 foizdan oshmaydi. Dunyo davlatlari soliq amaliyotida bu ko'rsatkich normal holat hisoblanadi.

Soliq og'irlig'ini kamaytirish iqtisodiyotimizda yuridik shaxslarning o'z ixtiyorida qoladigan daromadlarini ko'paytirish va shu orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, kreditorlik qarzlarini kamaytirish va nihoyat, boqimandalar bo'lmaligiga olib keladi. Bu esa soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytiradi, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga sharoit yaratadi.


Jahon iqtisodiy taraqqiyotida o'zining muayyan o'rniga ega bo'lgan taklif iqtisodiyoti nazariyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi soliqlarni kamaytirish va korporatsiyalarga soliq imtiyozlarini berishni nazarda tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik qiziqishini kamaytiradi va investitsiya siyosati, ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishni cheklab qo'yadi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalardan biri davlat xarajatlarini kamaytirishdir. Ularning shiorlaridan biri tartiblovchi kuch - bu bozorning o'zidir, davlat boshqaruvi va yuqori soliqlar faqatgina uni normal amal qilishiga xalaqit beradi.

Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo'yicha umumiy qonun bor. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, etarli darajada kam bo'lgan soliq bazasiga nisbatan esa buning teskarisi, alohida soliq turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinib turibdiki yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarning ish faolligiga har xil ta'sir ko'rsatadi.



A.Smitning fikricha, soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat ko'proq yutadi, ya'ni soliقدan ozod bo'lgan summadan ortiqcha daromad olish mumkin va natijada olingan daromad soliqqa tortish uchun qo'shimcha soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Shu bilan birga soliq to'lovchilar soliq summasini o'z xohishlari va yengillik bilan byudjetga o'tkazib berishadi. Bu esa davlatni ortiqcha xarajatlardan, ya'ni soliqlarni undirish, soliq bo'yicha jinoyatlarni topish va unga nisbatan jazolarni qo'llash xarajatlarini kamaytiradi. A.Smitning bu g'oyalari uning davomchilariga emas, balki keyingi iqtisodchi olimlar uchun aksioma bo'lib qoldi.

1980-yillarda AQShda iqtisodiy taklif nazariyasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan olimlar M.Bernson, G.Stayn va A.Lafferlardir. Bu olimlar soliq stavkalarini pasaytirish orqali soliqni progressivligini kamaytirishga erishish, bu esa korxonalarini kelajakda investitsiya qilishlari uchun jamg'arma manbalarini ko'payishiga olib keladi, deb hisoblashgan.



BD – byudjet daromdlari; D_{maks} – maksimal byudjet daromdlari;
 S_tN – soliq stavkasi; S_tN_{maks} – maksimal soliq stavkasi.

9.2.2-rasm. “Laffer egri chizig’i”

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va byudjet daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini byudjetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yu-bormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va byudjet xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

A.Lafferning hisobiga ko'ra soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyotning o'sishi va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergan. Bu tarixda Laffer egri chizig'i, deb ataladi. Soliq stavkasi ma'lum darajaga yetishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksincha, soliq tushumlarini kamaytiradi. Iqtisodiy subyektlarning soliq stavkasining dinamikasiga ta'siri bir ondayoq sezilmaydi, balki qandaydir vaqt o'tgandan so'ng seziladi. Laffer egri chizig'i davlat daromadlarining o'sishi soliq stavkalarining kamayishiga obyektiv bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu egri chiziqda yotuvchi fundamental g'oya shundaki, soliq stavkasining chegarasi qancha yuqori bo'lsa, individlarning soliqni to'lashdan chetlashlari shuncha ko'p bo'ladi. Chunki odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar. Sof foyda, ya'ni daromadlardan soliqlarni ayirib tashlangan summa individlarni ishlayaptimi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Agar tadbirkor o'zining ishlab chiqarish faoliyatidan daromad olish kelajagiga ishonmasa, ya'ni uni daromadlari yuqori progressiv stavkali soliqlar bilan olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkor bozorda normal faoliyat ko'rsatmay qo'yadi. Daromadning ko'p qismi soliqlar orqali tortib olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkorning ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga va yangi ishlab chiqarishga investitsiya qilishga qiziqishi yo'qoladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga etgunicha byudjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari byudjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib soliq stavkasi ma'lum darajaga yetgani-

dan tadbirkorlik tashabbusi o'ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotning "qonuniy" sektoridan "yashirin" sektoriga o'tadi. Laffer nazariyasiga ko'ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukining oshishiga to'g'ri proporsionaldir, ya'ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot ko'payadi, natijada olingan daromadlarning ko'p qismi deklaratsiyada ko'rsatilmaydi. Bunga aksincha, soliqlarning kamaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga rag'bat beradi. Bu esa davlat daromadlari soliq stavkasi va yukining ko'payishi hisobiga emas, balki soliqqa tortiladigan bazaning ko'payishi hisobiga oshadi.

9.3. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri

Soliqlarning joriy qilinishi va mavjud soliq tizimiga o'zgarishlar kiritilishi bevosita yoki bilvosita yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etadi. Tovar narxi qancha yuqori bo'lsa, uni sotib olishga tayyor xaridorlar shuncha kam va uni ishlab chiqaruvchilar esa ko'proq taklif qiladilar. Bozor muvozanati talab va taklif kesishgan nuqtada to'xtaydi.

Talabning egiluvchanligi xaridorning taklif qilinayotgan tovarni sotish shartlariga bog'liq ravishda (eng avvalo, narxiga qarab) sotib olishga tayyorligi darajasini ko'rsatadi. Xaridorlar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, talab shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Talab egiluvchan bo'lmasa, sotuvchilar soliq yukini xaridorlar zimmasiga osongina o'tkazib yuboradilar.

Talabning narx egiluvchanligi asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

1. O'rnini bosuvchi tovarlarning mavjud bo'lishi. Agar bozorda bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar qancha ko'p bo'lsa, talab ham shuncha egiluvchan bo'ladi: xaridorda qimmat tovarlarning o'rniga arzonrog'ini sotib olish imkoniyati tug'iladi. Lekin bozorda bir-birining o'rnini bosadigan ne'matlar mavjud bo'lmasa, xaridor belgilab qo'yilgan narx-



ga ko'nishga majbur bo'lib, bunday holatda talab egiluvchan bo'lmaydi.

2. Tovarga ketgan xarajatlarning xaridor byudjetidagi ulushi. Ne'matlar qiymati xaridor byudjetida qanchalik katta o'rin tutsa, unga talabning egiluvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar qalamning narxi 10 foiz ko'tarilsa, unga talab sezilarli darajada pasaymasligi mumkin: qalamning narxi shu qadar kichikki, xaridor bu tovar narxi oshganini payqamasligi ham mumkin. Lekin avtomobilning narxi 10 foiz oshsa (boshqa teng shartlar qatorida), talab ancha-muncha kamayib ketishi aniq: narxning mutlaq o'sishi xaridorning "hamyoni" uchun haddan ziyod katta bo'ladi.

3. Tovarning foydalilik darajasi. Kundalik ehtiyoj tovarlariga talab odatda egiluvchan bo'lmaydi; ziynat buyumlariga talab esa egiluvchandir. Masalan, non, gugurt, tuzga talab an'anaviy egiluvchan sanalmaydi. Aksincha, qimmatbaho, ko'ngilochar va shu kabi boshqa buyumlarga talab birmuncha egiluvchan bo'ladi.

4. Vaqt omili. Xarid qilish xususidagi qarorga kelish uchun muddat qancha ko'p bo'lsa, talab ham shu qadar egiluvchan tus oladi. Xaridorlar yangi narxga moslashishlari uchun vaqt kerak: ularning didi va iste'mol texnologiyasi asta-sekin o'zgarib boradi. Masalan, qimmatlashgan mol go'shti o'rniga ma'lum muddat mobaynida yemish sifatida baliq va parrandalardan foydalaniladi. Mana, boshqa misol: 1970-yillarda G'arb davlatlarida neft narxi ko'tarilishi sababli eski texnologiyalarni energiyani tejaydigan yangi texnologiyalarga almashtirish jarayoni bir necha yil davom etdi, oqibat-natijada neft mahsulotlariga bo'lgan talab keskin kamayib ketdi.

Tovarga talab qanchalik kam egiluvchan bo'lsa soliqning katta qismi iste'molchilar zimmasiga tushadi, chunki bozordagi narx keskin ko'tariladi. Buning aksicha, xaridorlar qimmatlashgan tovarlarni olishdan osongina voz kechsalar, narx deyarli ko'tarilmaydi va zararni sotuvchilarning o'zlari qoplashga majburdirlar.



Taklifning egiluvchanligi sotish sharoiti o'zgarganda taklif etilayotgan tovarlarning miqdorini sotuvchilarning ko'paytirish yoki kamaytirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Sotuvchilar kelishubga qanchalik ko'p intilsalar, bozor taklifi shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Taklif egiluvchan bo'lmaganida soliq yukini ma'lum darajada ishlab chiqaruvchilar o'z zimmalariga olishga "rozi" bo'ladilar.

Soliq stavkalarining o'sishi davlat byudjeti daromadlarini oshirishga qaratilganligi bilan u ma'lum muddatgacha amal qiladi. Davlat soliq stavkalarini o'zgartirish orqali iqtisodiyotga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Lekin davlatning soliq stavkalarini yuqori yoki past qilib belgilashi natijasida yalpi talab va taklifning egiluvchanligiga qay darajada ta'sir etish muammosi paydo bo'ladi.

Taklif egiluvchanligining asosiy omili tovar sotish sharoiti o'zgarishiga munosabat bildirish uchun ishlab chiqaruvchi ixtiyorida mavjud bo'lgan vaqt miqdoridir. Iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida resurslarni (ishchi kuchi, uskunarlar, xomashyo) qayta taqsimlash ma'lum muddatni talab etadi. Binobarin, tadbirkorlar ixtiyoridagi vaqt qancha ko'p bo'lsa, ular ishlab chiqarishning tuzilishini o'zgartirgan bozor sharoitiga moslashtirish uchun shunchalik katta imkoniyatga ega bo'ladilar hamda taklifning egiluvchanligi ham ortadi.

Egiluvchan taklifli vaziyatda bilvosita soliq joriy etilganda ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini osongina qisqartirib, shu hisobdan bozorda narxni ko'tarishlari ko'rsatilgan. Bunday holatda soliq yukining katta qismi xaridor zimmasiga o'tkaziladi. Aksincha, taklif egiluvchan bo'lmaganida ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini keskin darajada qisqartira olmaydilar va bozorda narx deyarli o'zgarmaydi. Bunday holatda soliq to'lovlarining asosiy qismini tadbirkorlarning o'zlari qoplaydilar.

Shunday qilib, soliq narxning o'sishi orqali iste'molchi zimmasiga o'tishi mumkin. Soliqning iste'molchi zimmasiga o'tkazilishi bozorning o'ziga xos xususiyatlariga, bozor talabi va taklifiga bog'liq. Agar tovarga talab barqaror bo'lsa, ya'ni kam egiluvchan vaziyatlarda soliqlarni iste'molchilar zimma-



siga mahsulot bahosini ko'tarish yo'li bilan o'tkazish mumkin. Agarda talab egiluvchan bo'lsa bahoni ko'tarishga bo'lgan intilish tovar hajmining, shunga tegishli ravishda ishlab chiqarish, foyda va soliq hajmlarining kamayib ketishiga olib keladi. Talabning egiluvchanligi soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi va cheklaydigan omildir.

9.4. Soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi

Soliq mexanizmidagi o'zgarishlar yalpi talab va yalpi taklifning o'zgarishiga ta'sir qilishi bilan birgalikda investitsiyalar o'zgarishiga ham ta'sir etadi. Bunday olib qaraganda soliqlar va investitsiyalar o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymatning davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlanishi soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Soliqlar bo'yicha yengilliklar berilishi ko'p jihatdan soliq to'lovchilarni ishlab chiqarishga rag'batini kuchaytiradi, ularda ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish moyilligini kuchaytiradi. O'z navbatida soliqlar vositasida investitsiyalarning rag'batlantirilishi kelajakda davlat byudjetiga undiriladigan soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi. Masalan, bu holatni birgina misol bilan izohlashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2002-yil 13-noyabrdagi 390-sonli qaroriga muvofiq yuqori sifatli, raqobatbardoshli iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni va ularning assortimentini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini ular bilan yuqori darajada to'ldirish maqsadida 2003-yildan 2008-yilga qadar yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq, ayrim turdagi tovarlarga nisbatan belgilangan aksiz solig'i,



yer solig'i bo'yicha bir qator imtiyozlar belgilanganki, ushbu imtiyozlar vositasida korxonalarining investitsiya mablag'lari kengaytirilishiga yerishishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu qayd etilgan imtiyozlarning eng xususiyatli tomoni shundan iboratki, imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar korxonalar tomonidan faqat ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlarining assortimentini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq tadbirlargagina sarflinishi mumkin yoki boshqacha qilib aytganda bo'shaydigan mablag'lar yuqoridagi tadbirlargagina investitsiya qilinishi mumkin. Aks holda, ya'ni bo'shaydigan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanilgan hollarda ushbu mablag'lar, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jarimalarni hisobga olgan holda to'liq hajmda byudjetga undiriladi.

Soliqlar bilan investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish ekanmiz, shuni alohida qayd etishimiz lozimki, investitsiyalarning o'sishi ham o'z navbatida soliqqa tortiladigan bazaning oshishiga olib keladi. Yuqoridagi misolimizga qaytadigan bo'lsak, mamlakatimiz soliq tizimida amal qilayotgan ushbu imtiyozlar investitsiyalarni o'sishiga olib kelishi bilan birgalikda kelajakda soliq bazasining kengayishiga ham xizmat qiladi.

Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymat ko'proq miqdorda davlat tomonidan o'zlashtirilsa korxonalarining ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. Lekin bunda shuni ham ta'kidlash o'rinliki, buning ham ayrim ijobiy jihatlari mavjud. Ma'lumki, davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri norentabel sohalarga investitsiya kiritishdan iborat. Ishlab chiqaruvchilarga qanchalik imtiyozlar berilgan bilan ularda norentabel sohalarni investitsiya qilishga moyillikni kuchaytirmaydi. Chunki ularning bunday faoliyati ularga kelajakda foyda bermaydi. Ana shuning uchun davlat soliqlar hisobiga shakllantirilgan mablag'lar hisobidan ana shunday sohalarga investitsiya kiritishini ham qaysidir ma'noda soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikning bir ko'rinishi sifatida izohlash mumkin.



Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati investitsiyalarni jalb qilishga va shu orqali soliqqa tortiladigan bazaning kengayishiga, iste'mol tovarlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Soliqlar vositasida investitsiyalarni keng jalb qilish mumkin, lekin investorlar ko'proq rentabelli sohalarga mablag' yo'naltiradilar, ularning norentabel sohalarga investitsiyalarni sarflash moyilligi kam. Davlat esa soliq vositasida investitsiyalarni norentabel sohalarni rivojlantirishga yo'naltirishi har bir davrda o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi, deganda nimani tushunasiz?
2. Soliqlarga doir qanday makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni bilasiz?
3. Soliq yuki, deganda nimani tushunasiz?
4. Soliq yukini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
5. Soliq yukini qanday ko'rinishlarda ifodalash mumkin?
6. Laffer egri chizig'i mohiyatini tushuntirib bering.
7. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri, deganda nimalarni tushunasiz?
8. Soliqlar orqali yalpi talab va yalpi taklifga qanday ta'sir etiladi?
9. Soliqlar va investitsiyalarning bog'liqligini izohlab bering.
10. Respublikamizda soliq vositasida investitsiyalarni rag'batlantirish jarayoni qanday kechmoqda?



X BOB. SOLIQ ISHINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Reja

10.1. Soliq xizmati va bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari

10.2. O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi

10.3. Davlat soliq qo'mitasining vazifalari va funksiyalari

10.4. Soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi

10.5. AQSh soliq tizimida soliq idoralari faoliyati

10.1. Soliq xizmati va bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq va barqaror yig'ilishini ta'minlash davlatning moliya tizimi mustahkamligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur masalaning yechimi soliq ma'murchiligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish xususiy biznes va davlat o'rtasidagi optimal munosabatlarni shakllantirish, soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligi sifatini yaxshilash ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalaridan bo'lib, uning yo'nalishi mamlakatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratiladi.

Soliq ma'murchiligi qonun hujjatlarida belgilangan soliq-larni hisoblash, davlat byudjetiga o'tkazish va soliq qonunchiligining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha soliq to'lovchilar va davlat organlari faoliyatini o'z ichiga oladi.

Soliq ma'murchiligi davlat tomonidan soliq munosabatlarining boshqaruv tizimi sifatida qaralib, davlat tomonidan

ushbu boshqarishni amalga oshirish uchun uning usullari va shakllari belgilab olinadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va bozor iqtisodiyotiga o'tilishi iqtisodiy rivojlanishning yangicha shart-sharoitlari soliqqa tortishning mutlaqo yangi tizimini joriy qilishni talab qildi va bunday tizimning birmuncha optimal darajada amal qilishini ta'minlaydigan mexanizmning yangi tuzilmasini yaratishni taqozo etdi.

Respublikamizda hozirda amal qilayotgan soliq va bojxonalar idoralari tizimi o'zining muayyan tarixiga ega. Soliq idoralari sobiq Ittifoqda 60-yillarda ham mavjud edi va ularning tuzilmasi tabiiyki, O'zbekiston hududida ham amal qilib keldi. Keyinchalik ular faoliyati to'xtatib qo'yildi va faqat 1990-yil 12-mayda qabul qilingan «Davlat soliq inspeksiyalarining huquqlari, vazifalari va mas'uliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq 1990-yilning 1-iyulidan boshlab qayta tiklandi. Biroq bu tuzilmalar moliya organlari tizimida amal qilar edi.

Respublikamizda soliq idoralari faoliyati 1990-yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida Davlat moliya-soliq bosh boshqarmasini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori (1990-yil 17-dekabrda 383-sonli) qabul qilinganidan so'ng faollasha boshladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991-yil 14-iyundagi Nizomi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991-yil 12-avgustdagi 217-sonli qarori qabul qilinganidan keyin davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatidagi soliq idoralarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishiga asos solindi. Respublika davlat boshqaruvining mazkur tuzilmasi 1994-yilgacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirilgunga qadar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funkksiyalari vakolat doirasi va



faoliyatining tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi 1994-yil 18-yanvardagi farmoniga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi masalalari to'g'risida»gi 1994-yil 18-martda qabul qilgan qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga binoan belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga binoan Davlat soliq qo'mitasi soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, shuningdek, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoyasini ta'minlash sohasida davlat nazorati organi ekanligi belgilab qo'yildi.

1997-yil bojxona ishini tashkil etishni takomillashtirish, yagona bojxona siyosatini olib borish, respublika bojxona organlari faoliyatining tezkorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815-sonli farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 1997-yil 30-iyuldagi 374-sonli qaroriga muvofiq Davlat Bojxona Qo'mitasi tashkil etildi, ya'ni soliq va bojxona faoliyatining funksiyalari bir biridan ajratildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgustdagi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1998-yil 12-yanvardagi qaroriga muvofiq soliq organlarining asosiy funktsiya va vazifalari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi, Qo-

raqalpogʻiston Respublikasi va Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari, viloyat davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq xizmatining quyi organlari hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari oʻz faoliyatlarida Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Davlat soliq xizmati toʻgʻrisida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa meʼyoriy hujjatlar, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari oʻz faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil ravishda, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan oʻz vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

10.2. Oʻzbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi

Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilishi (ichki tuzilmasi), deganda uning huquqiy va tashkiliy jihatdan nisbatan mustaqil va alohida tuzilishdagi bir-biriga oʻzaro bogʻlangan boʻlinmalarining uyushmasi tushuniladi, ularning har biri alohida tarzda va barchasi birgalikda davlat vakolatlari-ning amalga oshirilishini taʼminlaydi.

Organning tuzilishi unga yuklangan vakolatlarning samarali tarzda bajarilishini, har bir tarkibiy boʻlinmaning vakolatlari va masʼuliyatining aniq chegaralab qoʻyilishini, hammaning yagona bir butun mexanizmning unsurlari sifatida kelishilgan holda ish olib borishini taʼminlashi lozim. Davlat soliq qoʻmitasi tuzilmasi va faoliyatini tashkil etish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish masalalari toʻgʻrisida»gi 1998-yil 12-yanvardagi



14-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga va unga kiritilgan o'zgarishlarga asosan belgilangan.

Respublika soliq idoralarining tuzilishi bu uch darajali iyerarxiya bo'lib, u markaziy idora, ya'ni Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar soliq boshqarmalarini hamda tumanlar va shaharlardagi soliq inspeksiyyalarini o'z ichiga oladi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi soliq qonunlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat nazoratining hududiy organi hisoblanadi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning bajarilishini ta'minlashda mahalliy bojxona idoralari bilan bahamjihat harakat qilinishini amalga oshiradi.

Tumanlardagi, shaharlardagi va shaharlar tumanlaridagi davlat soliq inspeksiylari davlat soliq boshqarmasi tasarrufida bo'lgan va u bilan birgalikda soliq idoralarining bir yagona tizimini tashkil etadigan idoralar hisoblanadi.

Davlat soliq boshqarmasi o'zining faoliyati to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi oldida javob beradi. Soliq inspeksiya esa o'zining bevosita rahbari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari oldida javob beradi.

Soliq inspeksiya Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga amal qilgan holda ushbu Nizomning uning vakolatlariga tegishli talablarini to'liq amalga oshiradi. Tuman (shahar) soliq inspeksiya idorasining tuzilishi va xodimlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat soliq boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan Davlat soliq qo'mitasi belgilagan ish haqi fondi va xodimlar soni doirasida tasdiqlanadi.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmaviy bo'linmalari, odatda, funksional asosda tashkil etiladiki, uning mohiyati rahbarlikning mustaqil funksiyalarga taqsimlanishi va har bir



ana shunday funksiyani maxsus tuzilmaviy bo'linmaning (boshqarma, bo'lim, sektor) amalga oshirishidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilishining negizini quyidagi uchta tamoyil tashkil etadi.

Nazorat-muvofiqlashtiruvchi - tarmoqli tamoyil (savdo, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nazorat qilish, umumiy ovqatlanish korxonalarini nazorat qilish bo'limlarini o'z ichiga oladigan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nazorat qilish boshqarmasi; dehqonchilik - sanoat majmui korxonalarini taftish qilish bo'limi) nazorat-muvofiqlashtiruvchi - funksional tamoyili (jismoniy shaxslarni, yuridik shaxslarni soliqqa tortish boshqarmalari) bilan birga qo'shib olib boriladi.

Nihoyat, tuzilmaviy bo'linmalar funksional bo'linmalar (ular orasida mablag' bilan ta'minlash, buxgalterlik hisobi va hisoboti bo'limi va shu kabilar bor) va markaziy idoraga xizmat ko'rsatadigan bo'linmalar kotibiyati, rais huzuridagi inspeksiya va shu kabilar bilan to'ldiriladi.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmaviy bo'linmalari ushbu boshqaruv organining ishchi idorasi hisoblanadi. Ularning faoliyati rang-barang bo'lib, mazkur organ funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu bo'linmalar turli materiallarni tayyorlaydi, Davlat soliq qo'mitasining boshqaruviga taalluqli o'zga faoliyatni bajaradi, shu jumladan muvofiqlashtirish tusidagi funksiyalarni bajaradi, maslahatlar beradi, fikr-mulohaza va xulosalar taqdim etadi, loyihalarning ekspertizasini o'tkazadi, hujjatlarning loyihalarini, yuqori hokimiyat va boshqaruv organlariga takliflarni tayyorlaydi.

Boshqaruv organlarining butun faoliyati, barcha tashkiliy munosabatlari va huquqiy munosabatlari organning o'z vakolatlarini amalga oshirishining natijasi hisoblanadi. Idoraning vakolatida boshqaruvning irodaviy mazmuni hammadan ko'proq namoyon bo'ladi. Davlat huquqiy normalarni chiqarish yo'li bilan boshqaruv idorasining vakolatini belgilar ekan, ushbu organning har qanday sohadagi xatti-harakatlarining chegaralarini belgilab beradi.

10.3. Davlat soliq qo'mitasining vazifalari va funksiyalari

Davlat soliq qo'mitasining huquqlari uning boshqaruv faoliyati to'g'risida tasavvur beradi. Davlat idorasining huquqlari – biron bir vazifani amalga oshirish mumkinligi me'yori-dir, uning burchi esa - mazkur vazifani tegishlicha amalga oshirish me'yori-dir. Davlat idorasining funksiyasi tegishlicha hatti-harakat me'yori sifatida biron-bir boshqaruv harakati-ni ko'rsatish chog'ida kamroq konkretlashtirilgan burchdan farq qiladi, me'yoriy tarzda umumiy ko'rinishda ifodalangan bir qator tipik burchlarning umumlashgani sifatida qaraladi.

Huquqlar bilan majburiyatlar o'rtasidagi farq ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Huquqlar davlat organiga u yoki boshqa masalalarni hal etishda tanlash erkinligini beradi. Majburiyatlar organ-ning faoliyat yuritishini qat'iy tartibga solib turadi, ularni amalga oshirish shart-sharoitlari esa, qonunda aniq ifoda-langan bo'lishi lozim.

Davlat soliq xizmati organining asosiy vazifalari quyida-gilardan iborat:

- soliq qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, soliqlar to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- soliq qonun hujjatlariga rioya etishda zarur shart-sha-roitlarni ta'minlash, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatish;
- soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;
- soliq solish subyektlari va obyektlarini to'liq va o'z vaq-tida hisobga olishni ta'minlash;
- soliqqa doir xuquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf qilish;
- nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qi-lishlarni muvofiqlashtirish.



O'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Qonun hujjatlariga rioya qilinishi, soliqlar to'g'ri hisoblangani, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, ana shu maqsadda:

- soliq solish obyektlari va subyektlarini hisoblangan va to'langan soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olishni, jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta'minlashga doir;

- soliq qonun hujjatlarini buzish faktlarini to'plash, tahlil qilish va baholashga hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritishga doir;

- yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni ro'yxatga olish (identifikatsiya) raqamlarini bergan holda soliq to'lovchilar sifatida ularni hisobga qo'yish haqida hujjatlarni berishga doir;

- soliqlar tushimini ta'minlash ishida topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilishga doir;

- jismoniy shaxslar daromadlarini yalpi deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishga doir;

- xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar yordamida tartibga solish choralarini ishlab chiqishga, hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni tayyorlash va tuzishga, soliq siyosatini, shuningdek, ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etish bo'yicha bitimlarni muvofiqlashtirishga doir;

- muddatida to'lanmagan soliqlarni undirishga, musodara qilingan, egasiz mol-mulk, xazinalarni, shuningdek, meros qoldirish huquqi buyicha davlatga yoki fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organlariga o'tgan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotish ustidan nazorat qilishga doir ishlarni tashkil etadi.

2. Yagona umumdavlat soliq siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi, ana shu maqsadda:

- soliq qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha uslubiy ishlarni olib boradi;

- O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasining boshqa vazirlik hamda idoralari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish uchun majburiy bo'lgan soliq qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha yo'riqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda e'lon qiladi;

- byudjetga soliqlar tushishi prognozini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- soliqlarni hisoblab yozish va to'lash bilan bog'liq hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi;

- soliq qonun hujjatlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plamlarini tayyorlaydi va nashr etadi. O'z qo'l ostidagi organlarni qonun va yo'riqnomaviy materiallar, soliq to'lovchilarni hisobga olish shakllari bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi.

3. Yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonunlarda muhofazalanadigan manfaatlarini himoya qiladi, soliq solish masalalari va soliq qonun hujjatlarini buzishlar bo'yicha shikoyat va arizalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ana shu maqsadda:

- soliq qonun hujjatlari masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi;

- soliq qonun hujjatlari to'g'risidagi axborotni nashr etish, ko'paytirish va qo'l ostidagi tashkilotlarga yetkazish uchun servis markazlar faoliyatini, soliq to'lovchilarni soliq-larni to'g'ri hisoblash, hisobot va deklaratsiyalarni taqdim etishga o'rgatishni, shuningdek, maslahat xizmatlari ko'rsatishni tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlaridan kelib chiqib va davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qonun hujjatlari qo'llanishi amaliyotini hisobga olib, davlat soliq xizmati organlari ishining ustun yo'nalishlarini belgilaydi, ular faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qo-



nun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda kiritadi.

5. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda soliqqa doir huquqbuzarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

6. Soliq qonun hujjatlarini buzishlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshiradi.

7. Xizmat vazifalarini bajarayotganida davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari faoliyatining xavfsizligini ta'minlaydi.

8. Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishiga doir ishlarni tashkil etadi.

9. Qo'l ostidagi bo'linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

10. Davlat soliq xizmati hududiy organlarining kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha ishini tashkil etadi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirishni yo'lga qo'yadi, ana shu maqsadda davlat soliq xizmati organlari idoralarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha markazlar tashkil etadi.

11. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyalashni, ularga belgilangan tartibda maxsus unvonlar berilishini amalga oshiradi.

12. Davlat soliq xizmati organlari ishining samarali bo'lishini ko'zlab:

- soliq axborotini qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va saqlashning eng sermehnat jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida soliq, tushumlari, barcha soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini yaratadi va undan foydalanadi, soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reestrini shakllantiradi va yuritadi;

- davlat soliq xizmati organlarining moddiy-texnika ta'minotini, materiallar va uskunalarga ajratilgan fondlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;



- davlat soliq xizmati organlarining ijtimoiy rivojlanish va moddiy-texnika ta'minoti maxsus fondini to'g'ri shakllantirish, taqsimlash va ishlatish ustidan nazorat qiladi;

- soliqlar va soliq to'lovchilarni hisobga olishning yagona kompyuter tizimini yaratish, davlat soliq xizmati organlarini moddiy-texnikaviy ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi va xorijiy soliq organlari bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

13. Yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish hamda taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilishi va taftish qilishini to'xtatish to'g'risida takliflar kiritadi. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

10.4. Soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi

Davlat soliq idoralari o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarish va o'z funksiyalarini amalga oshirish davomida davlatning boshqa idoralari bilan doimiy hamkorlik qiladi. Davlatning boshqa idoralari bilan o'zaro munosabatlarda aniq soliq idoralarining mazkur vazifa va funksiyalarni qanday darajada bajarishini ham belgilab beradi.

Davlat idoralari tizimi umumiy vakolatli, funksional va tarmoq idoralarining bir butun holda o'zaro hamkorlik qiluvchi tizimini ifodalaydi. Shu sababli davlat soliq idoralari davlatning boshqa tashkilotlari bilan o'zaro aloqalari xarakterini o'rganish mustaqil tahlil va doimiy takomillashish obyekti sifatida qaralishi kerak. Soliq idoralarining respublika iqtisodiyotiga huquqiy ta'sirining ko'lami kengligini, mazkur idoralar ish shakllari va faoliyat mazmunining o'ziga xosligini hisobga olsak, ushbu muammoga katta e'tibor berish juda muhimligi to'g'risida xulosa kelib chiqadi.



Soliq qonunlari soʻzsiz ravishda oʻzgartirishlarga muhtoj boʻlgan bir sharoitda davlatning soliq tizimi soliqlarning toʻgʻri hisoblanishi va ularning byudjetga toʻliq miqdorda kiritilishi, soliq idoralarini tashkil etish paytida ular oldiga qoʻyilgan maqsadlarga erishishi, soliq toʻlovchilarning munosabatlari, soliq qonunlariga rioya qilinishi koʻp jihatdan respublikadagi soliq, huquqni muhofaza qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlarining muvofiqlashtirilgan tarzda amaliy, operativ ravishdagi bahamjihat harakatiga bogʻliq. Oʻzbekiston Respublikasining Davlat soliq qoʻmitasi davlat organlari bilan birgalikda soliq qonunlarining qoʻllanilish amaliyotini muntazam tarzda tahlil etadi va umumlashtiradi, ular asosida amaldagi meʼyoriy hujjatlarga respublikadagi iqtisodiy vaziyatning rivojlanishini talab qiladigan oʻzgartirishlar va qoʻshimchalarni kiritish yuzasidan tegishli takliflarni beradi.

Davlat soliq qoʻmitasining ishtirokida amalga oshiriladigan maʼmuriy-huquqiy munosabatlarni koʻrib chiqarkanmiz, ularning ichida Davlat soliq qoʻmitasi davlat boshqaruvining mustaqil subyekti sifatida namoyon boʻladigan munosabatlarni ajratib koʻrsatish mumkin.

Davlat soliq qoʻmitasi bilan ijrochilik hokimiyatining rahbari Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti, shuningdek, hokimiyatning oliy vakillik organi - Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va respublika ijrochilik hokimiyati organi - Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oʻrtasida vujudga keladigan munosabatlardir. Davlat soliq qoʻmitasining respublikadagi davlat va ijrochilik hokimiyati rahbari Respublika Prezidenti bilan munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalarida belgilab berilgan.

Konstitutsiyaning 89-moddasiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasi-ning Raisi hisoblanadi, bunda u oʻziga yuklangan vakolat- larga muvofiq ravishda ijro etuvchi hokimiyat devonini tu- zadi va unga rahbarlik qiladi, respublika oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini taʼminlaydi, Oʻzbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qoʻmitalarini



hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi.

Prezident, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini lavozimlarga tayinlaydi va bo'shatadi, respublika boshqaruv organlarining qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi. Prezidentning respublika Konstitutsiyasi va qonunlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan chiqaradigan farmonlari ko'pincha direktivalar va aniq vazifalardan iborat bo'ladiki, bunda hukumatning va Davlat soliq qo'mitasining harakatlarining uyg'unligi ta'minlangan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining o'zaro munosabatlari masalasiga kelganda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bunday huquqiy munosabatlar uchun quyidagilar asosiy omil hisoblanadi: birinchidan, Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq uning vakolatlariga kiritilgan har qanday masalani, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilishga doir masalani o'zining ko'rib chiqishi uchun qabul qilishga haqlidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 19-bandiga va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunga muvofiq Oliy Majlis Prezidentning vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tashkil etish va tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlaydi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash Oliy Majlisning favqulodda vakolatlariga kiradi.

Agar Respublika Prezidenti davlat boshqaruvi organlarining hujjatlariga nisbatan ularni bekor qilish huquqiga ega bo'lsa, Oliy Majlis bunday yuridik vakolatlarga ega emas. Oliy Majlis o'zining doimiy amal qiluvchi qo'mitalari va ko-



missiyalari orqali Davlat Soliq Qo'mitasiining faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib turadi.

Shunday qilib, Davlat soliq qo'mitasi bilan Oliy Majlisning bahamjihat harakati avvalo uning qonunchilik funksiyalarini amalga oshirishi jarayonida namoyon bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasi bilan respublika hukumati, Vazirlar Mahkamasi o'rtasida juda mustahkam o'zaro munosabatlar mavjud. Vazirlar Mahkamasi - O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi va butun davlat boshqaruv organlari tizimiga ularning kelishilgan tarzidagi faoliyatini ta'minlagan holda rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq respublikaning faoliyat doirasiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va u to'g'risidagi qonunga binoan Mahkamasining vakolatlariga kiradigan davlat va xo'jalik boshqaruvining hamma masalalarini hal etishga haqli.

Aynan Vazirlar Mahkamasi vazirliklar va davlat qo'mitalarining, idoralar va davlat boshqaruvining boshqa organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi va yo'naltiradi, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari to'g'risidagi tegishli Nizomlarni tasdiqlaydi, ya'ni davlat organining tuzilishini va uning vakolatlarini belgilaydi. Qonunning ushbu normalari boshqa barcha davlat boshqaruvi organlari singari Davlat soliq qo'mitasini ham Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunishini va uning oldida mas'uliyatli ekanligini bildiradi.

Vazirlar Mahkamasining Davlat soliq qo'mitasiga bevosita rahbarlik qilishi Davlat soliq qo'mitasi amal qiladigan me'yoriy hujjatlar, umumiy direktivalar yoki aniq (yakka tartibdagi) ko'rsatmalar chiqarish shakli orqali ham namoyon bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasining hujjatlari xususida shuni aytish mumkinki, agar ular amaldagi qonunlarga zid bo'ladigan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasi ularni bekor qilishi mumkin. Davlat soliq qo'mitasi soliq qonunlarini takomillashtirishga doir takliflarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo'yicha to'liq huquqqa ega.



Davlat soliq qo'mitasi o'ziga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq ravishda, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga soliqlar va boshqa to'lovlarning kelib tushishiga doir toshpirlarning bajarilishi natijalarini tahlil etish va keyinchalik bu borada Vazirlar Mahkamasiga axborot berish vazifasini ham bajaradi.

Davlat soliq qo'mitasi xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, soliq siyosatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni tayyorlash va imzolashda, ikkiyoqlama soliq solinishini bartaraf qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoan hukumatlararo bitimlarni tasdiqlash va imzolashda ishtirok etadi.

Vakillik hokimiyatining mahalliy organlari davlat boshqaruvi organlari bilan turli yo'nalishlar bo'yicha bahamjihat hamkorlik qiladilar.

Davlat soliq organlarining mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikdagi harakati ularning O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan yagona soliq siyosatini amalga oshirishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar byudjetlariga soliqlar va boshqa to'lovlarning kelib tushishini ta'minlash borasidagi topshiriqlarning bajarilishi natijalarini tahlil etishda qatnashishida namoyon bo'ladi.

Davlat soliq inspeksiyalarining tegishli ma'muriy-hududiy birlikda markazlashtirilgan idora usuli va qonunchilik rejimida ish olib borishi ham ko'rib chiqilayotgan organlarning munosabatlarini tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikdagi harakatning ayni shunday darajasida umumdavlat va hududiy manfaatlarning qo'shib olib borishning mahalliy hokimiyat organlari hududlarini kompleks tarzda rivojlantirishning turli xildagi muammolari vujudga keladi. Ularning muvaffaqiyatli tarzda hal etilishi, hamkorlik masalalarining birgalikda muhokama qilinishi vakillik hokimiyati mahalliy organlari vakillarining ishtirokini taqozo etadi.



Davlat soliq qo‘mitasi kundalik faoliyat jarayonida davlat boshqaruvining boshqa organlari bilan tez-tez munosabatlarga kirishadiki, bunday munosabatlar davlat nazoratining ushbu markaziy organi faoliyati tusini aniq-ravshan ajratib ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar uning asosiy tartibga soluvchi omili bo‘ladi. Hokimiyat va boshqaruvning deyarli barcha organlari bu jihatni u yoki bu darajada hisobga olishi kerak bo‘ladi va aynan shu holat Davlat soliq qo‘mitasining ushbu organlar bilan ko‘p turdagi munosabatlarning obyektiv zarurligini belgilaydi.

Shu jihatdan olganda davlat boshqaruvining Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi singari organlar tizimining hamkorlikdagi harakati birmuncha muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo mazkur organlar oldida turgan vazifa va maqsadlarning umumiylikini ta‘kidlab o‘tish kerak bo‘ladi. Moliya vazirligi moliya tizimi tarkibiga kiradigan organlarni boshqarish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi mexanizmining yaxlitligini, bozor munosabatlarning shakllanishi va aholini ijtimoiy himoyalash sharoitida narxlarni tartibga solishning iqtisodiy usullarining ahamiyatini kuchaytirishni ta‘minlay borib davlatning moliyaviy, valyuta, narx-navo, monopoliyaga qarshi siyosatiga muvofiq keladigan soliq siyosatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq va moliya organlari korxonalarining xorijiy valyutadagi mablag‘larini majburiy tartibda sotilishi lozim bo‘lgan summalarini, shuningdek, korxonalarining to‘laydigan soliqlarining to‘g‘riligi va o‘z vaqtida amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Davlat soliq qo‘mitasi bilan respublikaning bank tizimi o‘rtasida g‘oyat mustahkam hamkorlik qaror topgan. Ular o‘tkaziladigan valyuta operatsiyalarining amaldagi qonunlarga muvofiqligini va buning uchun zarur ruxsatnomalarning mavjuddigini, rezidentlarning byudjetga soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashga oid majburiyatlarini, shuningdek, xorijiy valyutani O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga sotishiga doir majburiyatlarini bajarishlarini, valyuta mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishni,



xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslilikini, nihoyat, valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotning to'liqligini va obyektivligini birgalikda tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasining barcha bank muassasalariga soliq boshqarmalari va inspeksiyalarining taqdimnomalariga binoan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisobvaraqlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid qarzlarning summasini muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,07 foiz miqdoridagi penyani hisoblagan holda undirib olish huquqi berilgan.

Bank yoki kredit muassasasining aybiga ko'ra soliq to'lovchining to'lov topshiriqnomasi ijro qilinmagan hollarda esa ushbu bank yoki kredit muassasasidan soliq to'lovchining yoki soliq idorasining topshiriqnomasi kelib tushgan kundan keyingi uchinchi kundan boshlab to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun soliqning to'lanmagan summasidan belgilangan tartibda penya undirib olinadi. Penyaning undirilishi bank yoki kredit muassasasini soliqqa oid topshiriqlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Davlat soliq qo'mitasi asosiy faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliqqa oid qonunlariga rioya qilinishi, soliqlar, yig'imglar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida respublika huquqni muhofaza qilish organlari tizimi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish zarurati paydo bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati va ularning joylardagi bo'linmalari bilan amaliy hamkorligi ularda davlatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan qator umumiy vazifalarning mavjudligi bilan bog'liq. Ularning har biri o'z vakolatlari doirasida tegishli vosita va usullar orqali iqtisodiyotdagi jinoiy vaziyat xususida zarur axborotlarni yig'ishni amalga oshiradi, ularni tahlil qiladi va aniqlangan huquqbuzarliklarga nisbatan choralar ko'radi.



Bunday chora-tadbirlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi bajaradigan chora-tadbirlarga katta ahamiyat beriladi, bu organ soliq va bojxona idoralaridan huquqni muhofaza qilish organlariga beriladigan materiallarni ko'rib chiqilishi ustidan amaliy nazorat yuritilishini ta'minlashi va ushbu materiallar yuzasidan qo'zg'atiladigan jinoiy ishlar bo'yicha tekshiruvlarning borishi, to'liqligi, sifati va muddatlari ustidan qat'iy nazorat yuritishi, sudlarning bunday ishlarni ko'rib chiqishida prokurorlarning albatta ishtirok etishlarini ta'minlashlari lozim bo'ladi.

Soliq idoralarining rahbarlari o'z xizmatlari va bo'linmalarining O'zbekiston Respublikasining soliqqa oid qonunlari buzishlarini o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berishga, shuningdek, o'zaro manfaatli bo'lgan boshqa masalalarni hal etishga oid harakatlarini doimiy ravishda muvofiqlashtirib turishlari shart. Shu maqsadlarda ishchi guruhlari tashkil etilishi, kelishilgan harakatlar uchun manfaatdor bo'linmalar vakillarining muntazam tarzdagi uchrashuvlari o'tkazilishi, eng muhim muammolar esa hay'atlarning birgalikdagi yig'ilishlarida ko'rib chiqilishi mumkin.

Birgalikdagi ishlar bo'yicha yagona dalolatnoma tuziladi va uni bir tomondan, ushbu tekshirishni o'tkazgan xodimlar, ikkinchi tomondan esa, tekshirilgan korxonalar, muassasa, tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqaro imzolaydi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda soliq xizmati organlari o'z oldiga qo'yilgan vazifa va funksiyalarga muvofiq bir qancha organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Bunday hamkorlik respublikaning barcha hokimiyat idoralari, jumladan, respublika Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasini, sud organlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat soliq qo'mitasining ushbu idoralar bilan hamkorligi ko'pincha qonuniy aktlarni ishlab chiqish, ijrosini ta'minlash kabi masalalarda ifodalansa, uning moliya-kredit muassasalari bilan hamkorligi bevosita soliqlarni undirib olishga qaratilgan vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



10.5. AQSH soliq tizimida soliq idoralari faoliyati

AQShda soliq yig'ishning uch pog'onaligi tizimi uning tarixiy rivojlanish evolyutsiyasini aks ettiradi. Shunga asosan, soliq idoralari uch bosqichda faoliyat ko'rsatadi.

Birinchi bosqich - AQShning federal soliq idoralari.

Ikkinchi bosqich - Shtatlar soliq idoralari.

Uchinchi bosqich - Mahalliy (shahar, okrug) soliq idoralari.

Soliq idoralari bir-biriga bog'liq bo'lmagan va o'zaro bo'ysunmagan holda faoliyat ko'rsatadi, ammo hamkorlikda ishlab, ma'lumotlar almashish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Federal idorani komissar boshqaradi. Bu AQSh Prezidenti tomonidan tayinlanadigan siyosiy lavozim. Komissar muovini esa kunlik operatsiyalarga va o'tkazilayotgan siyosatning turg'unligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan fuqaro xizmatchisi (shahodatlanmagan fuqaro) tavsiya etiladi. Federal soliq boshqarmasi (FSB) AQShning asosiy sanoat va madaniy markazlarida joylashgan 7 regional boshqarmaga ega (Nyu-York, San-Fransisko, Tsintsinati, Dallas, Filadelfiya, Atlanta, Chikago)⁵⁹.

Regional boshqarmalarni regional komissar boshqaradi. Regional boshqaruvning funksiyalari milliy boshqaruv tomonidan ishlab chiqarilgan dastur va siyosatning bajarilishini ta'minlash, bo'ysunadigan boshqarmalar (tuman boshqarmasi va soliq markazlari) ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat.

Hozirgi vaqtda AQShda 63 tuman boshqarmasi, 10ta xizmat ko'rsatish markazi va 3 kompyuter markazi mavjud.

Tuman boshqarmalari asosan yirik sanoat va madaniy markazlarda joylashgan va har bir shtatda kamida bittadan tuman boshqarmasi mavjud. Boshqarma boshlig'i - tuman direktori tomonidan tavsiya etiladigan fuqarolik lavozim.

Soliq idoralari dastur yo'nalishlari doirasida fuqarolar bilan bevosita muloqot olib boradilar. Ular muloqot chog'ida:

⁵⁹ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015

- soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish: axborotlar, konsultatsiyalar, soliq deklaratsiya shakllari va mos adabiyotlar bilan ta'minlash;

- to'ldirilgan soliq deklaratsiyalari va unga mos hujjatlarini tekshirish;

- to'lanmagan soliqlarni topish va soliq to'lovchilarning hisoblaridan mos summalarini olishni ta'minlash;

- soliq to'lovchilarning shikoyatlarini tahlil qilib, qoniqtirish ishlarini olib boradilar.

Soliqlarni to'lamaganlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tekshirish axborotlaridan foydalanib, bozorni o'rganish va soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasini ko'tarish uchun keng miqyosdagi texnologiyalardan foydalanadilar.

Xizmat ko'rsatish markazlari har bir regionda kamida bittadan joylashgan bo'lib, uning boshlig'i - xizmat ko'rsatish markazining direktori hisoblanadi.

Markaz direktorining vazifalariga FSB faoliyatiga xizmat ko'rsatish bilan birga soliq deklaratsiyalari va axborotlar hujjatlarini qayta ishlash, soliq deklaratsiyalarini dastlabki tekshirish va qo'shimcha axborot yoki hujjatlarini tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish maqsadida soliq to'lovchilar bilan yozishmalar o'tkazish kiradi.

Kompyuter markazlari Detroyt, Martinsburg va Memfisda joylashgan bo'lib, ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

- elektron pochta orqali qabul qilingan hamma soliq deklaratsiyalarini va to'lovlarini olish va qayta ishlash;

- dastlabki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, navbatdagi tahlil uchun muammolarni aniqlash yoki soliq to'lovchilar bilan muloqotning zarurlik darajasini aniqlash;

- hisobotlarni ro'yxatdan o'tkazish va mamlakatning FS-Bga hisobotlarni elektron ko'rinishda jo'natishdan iborat.

AQSh shtatlarining barchasida o'zining mahalliy hukumatlariga bo'ysunadigan va shtatlarning soliqlari bilan shug'ullanadigan okrug soliq idoralari mavjud.



Shahar bosqichida shahar byudjetiga tushadigan soliq-lar bilan shug'ullanuvchi o'z soliq idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Soliq to'lovchilar AQSh Hukumatiga federal soliq, shtatga soliqlar va mahalliy soliqlarni to'laydilar va mos ravishda har yili soliq deklaratsiyalarining kamida 3 ko'rinishini to'ldiradilar.

Soliqqa tortish qonunchiligi soliqlarni to'lashdan bosh tortganlik uchun juda qat'iy sanksiyalarni ko'zda tutadi, jumladan: butun mol-mulkini musodara qilishgacha yetib boradigan jarimalar, 1 yildan 5 yilgacha muddatda qamoqda saqlash, ommaviy axborot vositalari orqali mas'uliyatsiz ST haqida xabar berish kabilar. Alohida kompyuter dasturi yordamida hamma soliq deklaratsiyalarining 1 foizi tanlanib, har yili tekshiriladi. Ixtiyoriy tekshirishlar esa faqat ilmiy-tadqiqot va tekshirish maqsadlari uchun o'tkaziladi.

AQShda davlat sektorining kamligi hisobga olinib, daromadlarning asosiy qismi aholining daromadlaridan olinadi, bu tadbirkorlarning (80 foiz) va korporatsiyalarning foydasini ham o'z ichiga oladi.

AQShda soliq to'lashlar bo'yicha imtiyozlarga kichik biznes korxonalar, shuningdek, notijorat asosida ishlaydigan tashkilot va korxonalar, maorif, davlat o'quv muassasalari va hokazolar ega. AQSh soliq tizimi – soliq siyosati, moliya tadbirlari, davlatning tadbirkorlikka ta'sir o'tkazishi bozor munosabatlari rivojlangan bu mamlakat xo'jalik mexanizmining asosiy unsurlari hisoblanadi⁶⁰.

AQShda doimiy soliq tushumlarining aksariyat qismi federal byudjetga yuborilib, xususiy kapitalni iqtisodiyot sohasiga jalb etishga mo'ljallangan. Soliq imtiyozlari bevosita turli usullar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi. Aholidan olinadigan daromad solig'ining nisbati katta bo'lib, u o'sib boruvchi shkala bo'yicha hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar federal byudjetda hajmi bo'yicha ikkinc-

⁶⁰ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015

hi o'ringda bo'lib, uni ish beruvchi yoki ishchining o'zi to'laydi. To'lov stavkasi har yili o'zgarib turadi. Uchinchi katta soliq – korporatsiya solig'idir. Korporatsiyalar tabaqalashtirilgan stavkalarda 15, 25 va 34 foiz soliq to'laydi. Korporatsiyalardan shtatlar byudjetiga ham tegishli soliqlar olinadi. Odatda, uning miqdori 3-12 foizgacha bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti mexanizmi tadbirkorlikning erkinligini ta'minlaganligi sababli resurslar taqsimoti, narxlar tovarlar ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar asosida, foydaning o'rtacha miqdorini hisobga olgan holda belgilanadi. AQShda jismoniy shaxslar va korporatsiyalardan olinadigan soliq miqdori umumiy tushumning 75 foizdan yuqori qismini ta'minlaydi.

Shtatlar korporatsiyalar va fuqarolardan daromad solig'ini yig'ib oladilar. Sotuvlardan olinadigan soliq ularning daromad manbai bo'lib, uning bir qismi shahar byudjetiga o'tkaziladi. AQSh shtatlaridan 44tasida savdodan olinadigan soliq qo'llaniladi. Mahalliy soliqlarning tarkibi va stavkalari to'rt guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – bevosita soliqlar (mulk solig'i, yer solig'i, sovg'alar va meroslardan olinadigan mahalliy soliq) faqat shu hududda yig'iladi. Bilvosita soliqqa tortish turlicha bo'lib, asosan, savdo va maxsus aksiz soliqlaridan iborat. Ikkinchi guruh – bu soliqlar mahalliy soliqlardan faqat shaklan farq qiluvchi umumdavlat soliqlariga qo'shimcha bo'lib, uning ma'lum foizi mahalliy byudjetga ajratiladi. Uchinchi guruh – transport vositalariga, mehmonxonalariga, musiqa va sport tadbirlariga, kommunal xizmatlarga belgilangan soliqlarni o'z ichiga oladi. Iste'mol soliqlariga avtomashinalarni ro'yxatga olish, avtomashinalar turar joyiga, yonilg'iga soliq, aksiz solig'i va yo'llar uchun olinadigan soliqlar kiradi. To'rtinchi guruh – mahalliy soliqlar, mazkur hududni boshqarish organlari ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu guruhga ekologiya solig'i ham kiradi va u atrof-muhitni muhofaza qilish va tozalashga sarflanadi.

AQShda ichki soliq xizmati (ISX) soliq to'lovchilarni soliq hisobotlarini elektron holatda topshirishga undab, soliq hisobotlarining elektron fayllar turini ko'paytirmoqda. 2003-yil 51,2 million, 2004-yil hisobiga esa salkam 61 million soliq



deklaratsiyalari onlayn tartibida to'ldirilgan. 2007-yilda ISX 80 foiz soliq deklaratsiyalarini elektron holatda to'ldirilishiga erishgan. Bunday holat esa joriy deklaratsiyalar sonini ikki barobar o'sishiga olib keladi.

ISX soliq to'lovchilarga elektron deklaratsiya dasturidan foydalanishning afzalliklarini yoritishda maxsus yo'riqnoma-lar chiqarib, radio va televideniye dasturlaridan foydalanadi. Elektron deklaratsiyalar soliq to'lovchilar uchun ham, ISX uchun ham juda qulay. Shuning uchun ham ISX soliq to'lo-vchilar uchun bepul elektron deklaratsiyalar dasturlarini qo'llashni tavsiya etadilar.

Elektron deklaratsiya AQSh soliq hukumati uchun juda katta iqtisodiy foyda keltiradi. 2004-yilda ISX elektron hi-sobot dasturini yangi (S va C) korporatsiyalarni hisobga ol-gan holda ilk marotaba kengaytirdilar. Bu esa o'z navbatida, elektron hisobot topshiruvchilar sonining kengayishiga olib keldi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy bazasi qanday qonun hujjatlari bilan belgilanadi?
2. Davlat bojxona xizmati organlarining huquqiy bazasi qanday qonun hujjatlari bilan belgilanadi?
3. Davlat soliq qo'mitasi qanday tarkibiy tuzilishga ega?
4. Davlat soliq boshqarmasi qanday tarkibiy tuzilishga ega?
5. Davlat soliq inspeksiyasi qanday tarkibiy tuzilishga ega?
6. Soliq xizmati organlarining boshqa tashkilot, muassa-salar bilan hamkorligi, deganda nimalarni tushunasiz?
7. Soliq xizmati organlarining bojxona xizmati idoralari bilan hamkorligini tushuntirib bering.
8. Soliq xizmati organlarining bank massasalari bilan hamkorligini tushuntirib bering.
9. Soliq xizmati organlarining auditorlik tashkilotlari bi-lan hamkorligini tushuntirib bering.



10. Soliq siyosatini amalga oshiruvchi organlar vakolatlari nimalardan iborat?
11. Soliq xizmati organlarining moliya-kredit muassasalari bilan qanday o'zaro hamkorligi mavjud?
12. «Soliq xizmati to'g'risida»gi qonunning qabul qilinish zarurligi va asosiy xususiyatlarini ko'rsating.
13. Soliq siyosatini amalga oshirishda Davlat Soliq Qo'mitasining tutgan o'rni qanday?
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining qanday funksiyalari va vazifalari mavjud?
15. Soliq ishini tashkil etish asoslari nimalardan iborat?
16. Soliq xizmati organlarining huquqiy asoslari va tarkibiy tuzilishi qanday?
17. Soliq xizmati organlari tarkibi va asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

XI BOB. XALQARO SOLIQQA TORTISH

Reja

11.1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari

11.2. Jahon soliq kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati

11.3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish

11.1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari

Jahon hamjamiyati iqtisodiy tizimlari integratsiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarini o'zaro ta'siriga olib keldi. Turli malakatlarda soliqqa tortishning u yoki bu masalalariga bo'lgan yondashuvlarning bir-biriga mos kelmasligi nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish ana shunday masalalardan biridir.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish, deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xshash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortishda ifodalanadi.

Ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- soliqqa tortish obyektining o'xshashligi;
- soliqqa tortish subyektlarining o'xshashligi;
- soliq to'lash muddatining o'xshashligi;
- soliq to'lovining bir xilligi va boshqalar.

Har bir mamlakatda soliq qonunchiligini kengaytirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari be-



rish bilan bogʻliq tadbirlarning umumiy yigʻindisi mamlakatning tashqi soliq siyosati, deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yoʻnalishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtayi nazaridan yoki eksportni qoʻllab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin. Ammo shu narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, bu sohada manyovrlashtirish imkoniyatlari ancha chegaralangan: yuqorida aytilganidek, hech bir mamlakat oʻz fuqarolari yoki kapitali uchun boshqa mamlakatdan, mahalliy aholiga qoʻllanilayotgan soliqqa tortishga nisbatan imtiyozliroq boʻlgan tartibni talab qilishga haqli emas. Xuddi shuningdek, hech bir mamlakat oʻz hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqaro va shaxslarga, soliq yukini mahalliy aholidan keskin farq qiluvchi nisbatlarda oshirishga haqli emas. Bunday holatning yuz berishi mazkur mamlakatning xorijiy bozorlaridagi faoliyatiga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar qoʻllanilishiga olib kelishi mumkin.

Aksariyat mamlakatlar soliq qonunchiligida xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiy tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat koʻrsatmalarida, sud qarorlarida, maʼlum milliy odatlarda va boshqalarda aniqlashtiriladi.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlari-ning tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

- bir yoqlama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosati-ning chora-tadbirlari boʻlib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayotgan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);

- shartnomaviy chora-tadbirlar ikki tomonlama yoki koʻp tomonlama asosda (xalqaro kelishuv), yoki "soliqlarning uygʻunlashuvi" deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (yaʼni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlar-ning milliy soliq siyosatlarini oʻzaro muvofiqlashtirish asosida) gi chora-tadbirlar.



Hozirgi kunda amalda yuzdan ortiq soliq kelishuvlari mavjud. Bundan tashqari u yoki bu darajada mamlakatlar o'rtasidagi soliq munosabatlariga tegishli bo'lgan turli xil xalqaro kelishuvlar ham mavjud.

Umuman soliq kelishuvlari bir nechta tur va ko'rinishga ega. Ulardan ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ma'muriy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuvlar;
- "chegaralangan" soliq kelishuvlari;
- umumiy soliq kelishuvlari;
- hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo'yicha kelishuvlar;
- ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha soliq kelishuvlari va boshqalar.

Hozirda ushbu kelishuvlarning barchasi ko'pchilik vaziyatlarda yangi kelishuv shakli bo'lgan "Umumiy soliq kelishuvi" bilan almashtirilmoqda (ushbu soliq kelishuvi to'liqligicha "Ikki yoqlama soliqqa tortishni bekor qilish hamda daromad va kapitalni soliqqa tortish sohasidagi chetga chiqishlarga qarshi kurash bo'yicha kelishuv" deb nomlandi va asosan, birinchi jahon urushidan so'ng keng qo'llanila boshlangan).

11.2. Jahon Soliq Kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati

Birlashgan millatlar tashkiloti u yoki bu xalqaro dasturlar asosida bozor islohotlarini amalga oshirayotgan davlatlarga ma'lum bir loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda yordam berish hamda hamkorlik qilishni amalga oshiradi. Bunday hamkorlik yo'nalishlaridan biri - zamonaviy xalqaro iqtisodiy talablarga javob beradigan milliy soliq tizimining yuzaga kelishiga, shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishdir. Aynan shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, ya'ni xalqaro soliq dasturi doirasida Jahon soliq kodeksini tayyorlash fikri yuzaga keldi. Ushbu Kodeksning asosiy maqsadi - islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlar-



ga ilmiy asosda soliq munosabatlarini tashkil qilish, yagona terminologiya va yagona mazmundagi izohni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishdan iborat.

Jahon soliq kodeksi asoslari shaklidagi ushbu hujjat 1993-yilda tayyorlanib, nashrdan chiqarildi. Uning mualliflari Garvard universiteti (AQSh) mutaxassisleri Uord M. Xassi va Donald S. Lyubik. Ushbu Kodeks asoslari 300 betdan iborat bo'lib, 591 ta modda va izohni o'z ichiga olgan.

Kodeksning kirish qismida mualliflar ko'pgina davlatlar tajribasidan o'tgan soliq tizimining zamonaviy ma'nosini o'hib berishga harakat qilganliklarini yozishgan.

Jahon soliq kodeksi namuna sifatida bo'lishiga qaramasdan, unda soliq to'lovlarining aniq stavkalari, uning minimumlari va imtiyozlar berilgan.

Kodeks matni va unda berilgan stavkalar kodeksdan foydalanishni xohlovchi davlatlar uchun majburiy emas, balki tavsiyaviy tusga ega.

Milliy soliq qonunchiligi tayyorlanayotganda ushbu davlat mutaxassislari tomonidan mamlakatdagi aniq iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar inobatga olinishi kerak.

Kodeksda berilgan nizom alohida ahamiyatga ega. Nizomga ko'ra soliq tizimi orqali iqtisodiy subsidiyalar berish to'g'ri subsidiya to'lovlariga nisbatan kam samaralidir. Imtiyoz turlari va yengilliklarning ko'pligi, soliq imtiyozlarini nazorat qilishning qiyinligi sababli soliq tizimini murakkablashtiradi va samaradorligini pasaytiradi, uning zarur bo'lgan egiluvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan kelib chiqib, kodeksda soliqlardan vaqtinchalik yoki doimiy ozod etish kabi imtiyozlar ko'zda tutilmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda Kodeks mualliflari fikricha, ushbu davlatlar daromadlarining asosiy qismi bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar hamda korxon va tashkilotlar foydasiga soliq hisobiga shakllanadi. Bunday soliq tizimi soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan kam bo'ladi.

Tavsiya etilayotgan Kodeksdagi soliqlar tizimiga faqatgina yuqori daromadlarga ega bo'lgan aholi qismiga qo'llaniladigan jismoniy shaxslardan olinadigan individual daromad solig'i ham kiritilgan. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda asosan rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik davlatlarda individual daromad solig'ini rivojlangan davlatlardagi kabi keng miqyosda qo'llash uchun yetarli darajadagi ma'muriy va huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Individual daromad solig'i soliq tushumlari maqsadida emas, balki tenglik hissini qaror toptirish maqsadida joriy etiladi.

Jahon soliq kodeksini ishlab chiqqanlar soliq qonunlarini tayyorlash va qabul qilish soliq islohotiga dastlabki qadamdir, deb hisoblaydilar. Asosiysi, soliq apparatining samaradorligini yaratishda, deb biladilar. Adolatli va yuqori salohiyatli soliq xizmatining mavjudligi soliq islohotidagi muvaffaqqiyatlarning zaruriy shartidir.

Jahon soliq kodeksi asosiy soliq turlari bo'yicha 5 qismga bo'linib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda joriy etish uchun tavsiya qilinadi. Birinchi qism - daromad solig'i; ikkinchi qism - qo'shilgan qiymat solig'i; uchinchi qism - aksiz soliqlari; turtinchi qism - ko'chmas mulkka soliq; beshinchi qism - soliq ma'muriyati, deb nomlanadi.

11.3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etishning asosiy mexanizmlaridan biri ikki tomonlama soliq kelishuvlaridir. Soliq kelishuvlarining asosiy maqsadi hamkor mamlakatlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikki yoqlama soliqqa tortishning barcha ko'rinishlariga barham berishdan iborat. Ushbu kelishuvlar ma'lum qoida va tadbirlar ketma-ketligini qat'iy tartibda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Kelishuvlar ikki yoqlama soliqqa tortishga qanday qilib barham beradi?



Soliq kelishuvlari ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berishning uch pog'onali tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Birinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda "rezident" va "daromad manbasi" qoidalaridan kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Ushbu maqsadlarda kelishuvda ikki yoqlama rezidentlik va "moddiy" moddalar bo'yicha tortishuvlarni yechishga qaratilgan qismlar mavjud bo'lib, ular tomonlardan biriga daromadlarning aniq turlari bo'yicha ma'lum soliqqa tortishda mutlaq huquq beradi.

Ikkinchi bosqichda, "rezident" va "daromad manbasi" moddalar bo'yicha barcha munozaralar hal etilgandan so'ng qolgan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Bunday barham berish har bir mamlakatning ichki me'yorlari asosida ta'minlanadi. Yangi soliq kelishuvida esa, ushbu me'yorlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko'rib chiqiladi. Oxirgi holatda ikki yoqlama soliqqa barham berish bo'yicha yangi tartib kelishuv asosida joriy etilishi mumkin. Odatda, quyidagi usullardan biri qo'llaniladi: "ozod qilish" usuli yoki "soliq krediti" usuli. Soliq kelishuvi tuzilayotgan paytda tomonlar ushbu ikki usuldan birini tanlashi, yoki ularni ikkalasidan ham zaruriy paytlarda foydalanishi mumkin. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq kelishuvlarida "soliq krediti" usulidan ko'proq foydalaniladi. Bu holatni hattoki, ichki soliqqa tortish tizimida ko'proq "ozod qilish" usulidan foydalanadigan mamlakatlarda ham kuza-tish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri "soliq krediti" usulida soliqlarni to'lashda xalqaro chetga chiqish imkoniyatlarining ancha pastligidir.

Uchinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda soliqqa tortiladigan daromadlarni turlicha aniqlash sababli kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Bunday ikki yoqlama soliqqa tortish odatda, soliq organlarining o'z vakolatlari doirasida soliqlarni undirish uchun soliq to'lovchilar daromadlarini qayta taqsimlash bo'yicha harakatlaridan kelib chiqadi. Aksariyat mamlakatlarda soliq organlariga bunday huquq ichki qonunchilikda ko'zda tutilgan bo'lib, tadbirkorlik daromadlari, foiz va royalti to'g'risidagi

kelishuv moddalari bilan tasdiqlanadi. Masalan, 1977-yilda qabul qilingan IXRT Shakliy konvensiyasining tadbirkorlik daromadlari to'g'risidagi moddalariga binoan, "doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot"ning foydasi soliq ma'muriyati tomonidan xuddi shunday faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi korxonalar, tashkilotning foydasi kabi hisob-kitob qilinishi mumkin. Foiz va royalti xaqidagi moddada esa, kreditor va qarzdor o'rtasidagi alohida kelishuvlar natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlarga barham berish to'g'risida so'z boradi. Ammo o'z-o'zidan ma'lumki, agar biror mamlakat mahalliy korxonalarga nisbatan soliqqa tortiladigan daromadni yoki biror shaxsni, xorijiy shaxs foydasiga o'tkazgan va xarajat sifatida aks ettirilgan summasini "tiklasa", unda ushbu summani oluvchi xorijiy shaxs daromadlari bo'yicha kerakli o'zgarishlar amalga oshiriladi. Aks holda, birinchi mamlakat soliq organlarining bunday kvalifikatsiyani inobatga olmasligiga qaramasdan xorijiy shaxs tomonidan olingan ushbu summa xorijiy shaxsning daromadi sifatida qaytadan soliqqa tortilishi mumkin. Soliq kelishuvlari mavjud bo'lmagan sharoitda birinchi mamlakatning soliq organlari, soliq to'lovchining bunday daromadlari ikkinchi davlat hukumati tomonidan daromad sifatida tan olinmaydi va ushbu daromadlarni soliqqa tortish bazasidan chiqarish zarurligi bo'yicha iltimosnomasini ko'pchilik hollarda qondirmaydi.

Soliq kelishuvlari ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berish maqsadlaridan tashqari muhim maqsad soliq to'lashdan chetga chiqish holatlariga qarshi kurashni ko'zlaydi. Ushbu sohada soliq kelishuvlari orqali soliq organlari hamkorligining asosi va tartibi belgilanadi. Shuning uchun ham soliq kelishuvlarida daromadlarni yashirishga qarshi, chet elga daromadni yashirin tarzda o'tkazishga qarshi soliq organlarining birgalikdagi kurashi bo'yicha bir qator yo'riqnomalar kiritiladi. Bu "doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot"ning daromadlarini tartibga solish bo'yicha yo'riq; assotsiatsiyalashgan korxonalar to'g'risidagi modda (bosh kompaniya va filiallar o'rtasida daromadlarni taqsimlash bo'yicha tuzatishlar kiritishga imkon beradigan); alohida munosabatlar

tufayli hamkorlar o'rtasida foiz to'lovlari va royalti bo'yicha soliqqa tortiladigan daromadlardagi "xatolarni" to'g'rilash bo'yicha shartlar va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, boshqa asosiy masalalar bilan birga soliqqa doir masalalarni ham o'z ichida oladigan bir qancha xalqaro kelishuvlar mavjud.

Birinchidan, ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosini tashkil etuvchi keng tarqalgan kelishuvlar. Ushbu kelishuvlarda qoidaga binoan boshqa mamlakatning fuqaro va kompaniyalariga xuddi mahalliy fuqaro va kompaniyalar uchun joriy qilingan soliq tartibini joriy qilish to'g'risidagi yo'riqnomalar aks etadi. Ammo shu narsa qayd etiladiki, har bir mamlakat o'z fuqarolariga va kompaniyalariga beradigan soliq imtiyozlarini boshqa mamlakat fuqarolariga va kompaniyalariga berishga majbur emaslar.

Ikkinchidan, diplomatik va konsullik munosabatlarini o'rnatish bo'yicha kelishuvlar. Ushbu kelishuvlarda tomonlar diplomatik va konsullik idoralari hamda ularda faoliyat yuritayotgan shaxslarga beriladigan soliq imtiyozlarini o'zaro kelishadilar. Imtiyozlar hajmi, odatda, ushbu shaxslarning boshqa mamlakat hududida bo'lish maqsadlari va faoliyat doiralari bilan chegaralanadi. Mazkur imtiyozlar ro'yxati 1961-va 1963-yillarda qabul qilingan ko'p tomonlama diplomatik hamda konsullik vakolatxonalariga haqidagi Vena konvensiyalarida o'z aksini topgan.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari ushbu konvensiyaga a'zo. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ikki xil kelishuvlarda ko'zda tutiladigan kelishuvlar, u yoki bu ko'rinishda, umumiy soliq kelishuvlarida ham inobatga olinadi.

Uchinchidan, hamkor mamlakatdan olib kiriladigan tovar va xizmatlarga maksimal darajadagi qulay soliq muhitini yaratishga yo'naltiriladigan tartibni qo'llash bo'yicha, tomonlar o'rtasida tuziladigan savdo kelishuvi va shartnomalari. Soliqlar bo'yicha ta'sir etishga ko'ra, ushbu kelishuvlar, ko'pchilik holatlarda faqatgina boj to'lovlari bo'yicha keng tarqaladi. Ammo ba'zi hollarda ushbu kelishuvlar umumiy soliqqlarga ham tegishli bo'lishi hamda tashqi savdo faoliyati-



ning boshqa me'yorlarini (valyuta bo'yicha, bank operatsiyalari bo'yicha va boshqalar) ham qamrab olishi mumkin.

Yaponiya soliq tizimi

Chet el soliq qonunchiligini o'rganuvchilari uchun Yaponiya soliq tizimi alohida qiziqish kasb etadi. Yaponiyaning barcha soliq daromadlarining 64% dan ortig'ini hukumat moliyaviy qudratini ifodalovchi federal soliqlar tashkil etadi. Yevropa mamlakatlaridan farqli ularoq, Yaponiya davlatida daromadning ko'proq qismini daromad soliqlari-korporatsiyalarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad soliqlari tashkil qiladi.

Korporatsiyalarning foyda solig'i Yaponiyada milliy, prefektura va munitsipalitet byudjetlar hisobiga kelib tushadi. Soliqning milliy stavkasi 33,48%ni, prefektura soliqg'i milliy soliqning 5%ni, munitsipalitet solig'i esa milliy soliq stavkasining 12,3%ni tashkil etadi. Shunday qilib, ushbu soliq buyicha olingan soliqlarning umumiy xajmi korporatsiya foydasining qariyb 40%ni tashkil qiladi. Yaponiyada kichik biznes uchun ushbu soliqning imtiyozli stavkalari ham ko'zda tutilgan. Bu soliq bo'yicha soliqqa tortiladigan baza bo'lib, xalqaro buxgalteriya hisobi qoidalariga asosan aniqlanadigan korporatsiya foydasi hisoblanadi. Oxirgi yillar davomida korporatsiyalar foydasi solig'idan tushadigan tushum hajmi, milliy byudjet umumiy daromad hajmini barcha tushumlarining chorak qismini tashkil etadi.

Yaponiyadagi soliqqa tortiladigan daromad kategoriyalari tug'risida

Turli yillar davomida byudjet daromad hajmining 35 foiz dan 42 foizgacha ulushini jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tashkil etgan. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i Yaponiya davlat byudjeti uchun katta ahamiyatga ega.

Yaponiyada qabul qilingan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari

Soliqqa tortiladigan daromad, mln. ien	Soliq stavkasi, %			
	Milliy	Prefektura	Munitsipalitet	Jami
1,6 dan kam	10	2	3	15
1,6-3,0	10	2	8	20
3,0-5,5	20	2	8	30
5,5-6,0	20	4	11	35
6,0-10,0	30	4	11	45
10,0-20,0	40	4	11	55
20,0dan yuqori	50	4	12	76

Izoh: Soliqqa tortiladigan summalardan olinadigan chegirma darajalari turli soliq imtiyozlari tufayli barcha guruhlar uchun ko'plab belgilari bilan farqlanadi. Shu sababli guruhlar bo'yicha soliq stavkasi va soliqqa tortiladigan daromad jadvalda ko'rsatilgani kabi to'g'ri kelishi shart emas.

Daromad solig'i ish haqi, dehqonlar va erkin kasb egalari daromadlari, ko'chmas mulkdan kelgan daromad (ijaraga berish) hamda dividendlar, foizlar, nafaqa va boshqalardan olinadi. Soliqqa tortiladigan daromadlar Yaponiyada 9 toifaga bo'linadi:

1. Pul omonatlari buyicha foizlar.
2. Dividendlar.
3. Ko'chmas mulkdan olingan daromad.
4. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.
5. Ish haqi.
6. Pensiya va nafaqalar.
7. Bir martalik daromadlar.
8. Aralash har tomonlama kelgan daromadlar.
9. Kapitaldan olinadigan daromad.

Bularning ko'pchiligi (foiz va dividendlardan tashqari) soliq to'lashdan ozod etilgan yoki soliq imtiyozlari belgilangan. Bundan tashqari daromadining kam- ko'pligiga qaramasdan har bir Yaponiya fuqarosi *yashash solig'ini* (bir yilda 3200 iyen) to'lashi shart. Yaponiya amaliyotida oddiy yapon

soliq to'lovchisi me'yoridan ortiq soliq yukini ko'tarmayap-timi, degan savol tugiladi. Ammo shuni ham inobatga olish kerakki, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda katta imtiyozlar ham ko'zda tutilgan.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'idagi imtiyozlari

O'rta darajadagi soliq to'lovchi foydalanadigan asosiy soliq imtiyozlari «bazaviy imtiyoz» (soliq to'lovchi daromadining soliqqa tortilmaydigan minimal qiymati 350000 iyenga teng) va xuddi shunday imtiyozlarning xotin yoki er hamda qaramog'ida bo'lgan barcha oila azolari uchun berilishi hisoblanadi. Bundan tashqari quyidagi daromad turlari: ish haqi, nafaqa, ijtimoiy sug'urta kabi daromad turlari maxsus soliq ozodliklariga ega. Yaponiya Moliya vazirligi har bir soliq to'lovchi uchun soliqqa tortiladigan bazani hisoblashda 5 ta imtiyoz va ozodliklarni taqdim etadi. Jismoniy shaxslar uchun daromad solig'iga nisbatan soliqqa tortiladigan eng kam miqdorini xisoblash tizimi quyidagi jadvalda berilgan.

11.3.2-jadval

Yaponiyada jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i buyicha soliqqa tortiladigan eng kam miqdorning hisoblash tartibi

Soliq to'lovchi	Milliy byudjet	Maxalliy byudjet
Bitta odam uchun	1075 ming iyen	1032 ming ien
Er-xotin	1928 ming iyen	1738 ming iyen
3 ta azosi bo'lgan oila uchun	2484 ming iyen	2230 ming iyen
4 ta azosi bo'lgan oila uchun	3198 ming iyen	2801 ming iyen

Daromad solig'ini hisoblash uchun soliq to'lovchining turli manbalardan olgan daromadlari qo'shiladi va so'ngra daromadning umumiy summasidan turli chegirmalar (ijtimoiy sug'urta badallari, hayotni sug'urta qilish va nafaqa fondi, tibbiy xizmatga ketadigan xarajatlar hamda nogironlar, qariyalar, bevalar uchun maxsus chegirmalar) inobatga olingan holda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor chegirib qolinadi. Buning natijasida Yaponiyada 4 kishidan iborat

bo'lgan oila uchun soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor qiymati AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori⁶¹.

Aniq va xususiy soliqdan ozod etishdan tashqari soliq tizimiga ayrim muhim sabablarga ko'ra, turli manbalardan olingan soliqqa tortiladigan daromadlarga nisbatan bir qator maxsus imtiyozlar ham mavjud:

- aholining turli qatlamlari daromadlarini to'g'ri soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadlarini kamaytiradigan maxsus chegirma kiritilgan. Bu chegirma o'z mehnatini sotish yo'li bilan daromad oladigan yollangan ishchi uchungina qo'llaniladi. Chegirma miqdori maxsus aniqlanadigan shaxsiy xarajatlari (personal expenses) miqdoriga teng. Bu chegirmani kiritishdan maqsad bir tomondan yollanma mehnat kishilarini, ikkinchi tomondan tadbirkorlarni teng soliqqa tortishga erishishdir. Tadbirkorlar o'zlarining shaxsiy xarajatlarning bir qismini «biznes xarajatlari hisobiga» boshqacha aytganda, tannarxga yozib qo'yadi va natijada undan soliq olinmaydi, bunda, yollanma mehnat shaxslari ushbu chegirma kiritilgunga qadar bundan mahrum edilar (bu esa Yaponiya soliq boshqarmasi nuqtayi nazaridan soliqqa tortishning adolat mezonlariga to'g'ri kelmaydi). Shu sababli Yaponiya xukumati va soliq boshqarmasi tadqiqotlar o'tkazib, uning natijasida yuqoridagi «adolatsizlik»ka barham berish uchun yollanma mehnatdan daromad oladigan shaxslarning soliq manbayi 28,6 % ga kamaytirilishi kerakligini aniqladi. Bu foiz Yaponiyada qonuniylashtirilgan.

- Bir qator maxsus yo'riqnomalar soliqqa tortish maqsadlari uchun tijoratdan kelgan daromadlarni ham taqsimlashga imkon berdi. Tushgan foydadan barcha zarur xarajatlar olib tashlangach, qolgan daromad soliqqa tortish obyekti bo'lib hisoblanadi. Soliq deklaratsiyasini to'ldirayotgan soliq to'lovchilariga soliqqa tortiladigan daromaddan

⁶¹ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015



soliq deklaratsiyasini tayyorlash uchun ketgan 100.000 iyen miqdoridan katta bo'lmagan qiymatni olib tashlashga ruxsat berilgan. Hozirda bu miqdor 350.000 iyenni tashkil kiladi.

• Yaponiyada bir xil yillik daromadga ega bo'lgan oila azolari (er-xotin) bir yoki ikki kishi ishlashidan qat'iy nazar turli xil daromad solig'ini to'laydilar. Zamonaviy Yaponiya soliq tizimi er-xotin har ikkalasi bir xil daromad olib ishlaydigan oilalarni qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun faqat bir kishi ishlaydigan oilalar og'ir soliq yukini to'lashga majburdirlar. Jadvalda bir kishi ishlaydigan va ikki kishi ishlaydigan oilalar to'laydigan soliq miqdori ko'rsatilgan.

11.3.3-jadval

Daromadidan olinadigan soliq miqdori bir va ikki kishi ishlaydigan oilalar

Daromad shkalasi, Mln, iyen	Bir kishi ishlaydigan oila		Ikki kishi ishlab, bir xil daromad oladigan oila	
	Soliq summasi	Soliq yuki darajasi, %	Soliq summasi	Soliq yuki darajasi, %
3	0	0	0	0
4	57500	1,4	57500	1,4
5	130500	2,6	130500	2,6
8	469000	5,9	384500	4,8
10	821000	8,2	560500	5,6
20	4282000	21,4	2836500	14,2
30	5577500	28,6	6182000	20,6
50	18077500	36,2	14177500	28,4

Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i, meros va hadya soliqlari Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini mulk qiymatining 1,4% ni tashkil qiladigan yagona stavka bo'yicha to'laydilar. Yaponiyada mulkka egalik huquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tish jarayonini soliqqa tortishga katta e'tibor beriladi. Mulknii boshqa shax-

sga egalikka berish, meros, sovg'alar hamma vaqt soliqqa tortiluvchi obyektlar bo'lib kelgan.

Topshiriladigan xususiy mulkni soliqqa tortishning ikki asosiy shakli mavjud: sovg'a va vasiyatnoma. Bunga mos ravishda meros solig'i va sovg'a solig'i mavjud.

Farzand, ota-ona, aka-uka yoki opa-singil bo'lmagan merosxurlar uchun meros solig'i stavkasi qo'shimcha 20 % ga oshadi, umumiy soliq stavkasi esa, ushbu qo'shimchalar qo'shilgan holda merosxo'rning 75 % haqiqiy ulushidan oshmasligi kerak.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro soliq kodeksi asoslarini qabul qilish zarurati va ahamiyati?
2. Xalqaro soliqqa tortishni tartibga solish yo'llari?
3. Soliq siyosati tushunchasi va asosiy yo'nalishlari?
4. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish?
5. Soliq va byudjet tizimining o'zaro bog'liqligi: uyg'unligi va muammolari?
6. Soliq xizmati organlarining tarkibi va asosiy funksiyalari?
7. Xalqaro jahon soliq kodeksi asoslarini qabul qilish zarurati va ahamiyati?
8. Soliq stavkalarining mazmuni hamda ulardan iqtisodiyotni boshqarishda foydalanish yo'nalishlari?

TEST SAVOLLARI

1. "SOLIQ NAZARIYASI" FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA METODI

1. "Soliq nazariyasi" fanining predmeti nimani o'rgatadi?

A. Soliq to'lovchilar bilan davlat byudjeti o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni.

B. Soliq to'lovchilari bilan davlat byudjeti o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni.

C. Soliq to'lovchilarning davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini.

D. Soliq to'lovchilar bilan davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlarni.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

2. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish ularning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish.....anglatadi.

A. Fanning mohiyatini.

B. Fanning predmetini.

C. Fanning vazifasini.

D. Fanning zarurligini.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

3. Soliq nazariyasi fanini o'rganishning umumiy usullariga qaysi usullar kiradi?

A. Dialektik, grafik, jadval.

B. Ilmiy izlanish, statistika.

C. Dialektik, ilmiy abstraksiya, taqqoslash.

D. Induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya.

E. B va C.



4. Soliq nazariyasi fani quyidagi qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?

A. Iqtisodiyot nazariyasi, soliq tarixi, soliq huquqi, marketing.

B. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, iqtisodiyot nazariyasi, moliya, davlat byudjeti.

C. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, soliqlar va soliqqa tortish, sug'urta.

D. Moliya, soliq menjmenti, davlat byudjeti, tarix.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

5. Fanni o'rganishning alohida usullariga qaysi usullar kiradi?

A. Jadval, grafik taqqoslash, analiz va sintez, statistika.

B. Dialektik, statistik, ilmiy abstraksiya.

C. Analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, deduksiya.

D. Jadval, grafik, taqqoslash, ilmiy abstraksiya.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

6. "Soliq nazariyasi" fanining vazifasi nimadan iborat?

A. Muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilishni anglatadi.

B. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish.

C. Mutaxassis kadrlarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish.

D. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy manfaatni e'tiborga olish.

E. B va D.

7. "Soliq nazariyasi" fanining mohiyati nimadan iborat?

A. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi moliya munosabatlarini chuqur o'rganish.

B. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi soliqqa oid munosabatni chuqur o'rganish.

C. Yuridik shaxslar o'rtasidagi kredit munosabatlari chuqur o'rganish.



D. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni chuqur o'rganish.

E. C va D.

8. "Soliq nazariyasi" fanining o'rganish usullari....ga bo'linadi.

A. Umumiy va alohida usullar.

B. Dialektik va ilmiy abstraksiya.

C. Induksiya va ilmiy abstraksiya.

D. Dialektik va jadval.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

9. Induksiya - nima?

A. Fanning o'rganish usullaridan biri bo'lib, umumiy xulosalardan yakka xulosalar chiqarishni anglatadi.

B. Fanni o'rganish usullaridan biri.

C. Fanni o'rganish usullaridan biri bo'lib, yakka fakt-dan-umumiy xulosa tomon o'rganish, degan ma'noni anglatadi.

D. Soliq elementlaridan biri.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

10. Soliqlarni makroiqtisodiy darajada o'rganish ko'lamini ko'rsating.

A. Respublika byudjeti.

B. Shahar byudjeti.

C. Tuman byudjeti.

D. Viloyatlar byudjeti.

E. C va D.

11. "Tahlil va sintez" tushunchasi bu.....

A. O'rganilyotgan obyektini saralash.

B. O'rganilayotgan mavzuni rejalar asosida o'rganish.

C. O'rganilayotgan obyektini qismlarga bo'lib o'rganish va umumiy xulosaga kelish.

D. "Jamlash" degan ma'noni anglatadi.

E. B va D.

12. Fanni "Dialektik" usulda o'rganish yo'nalishlarini ko'rsating.

A. Ilmiy abstraksiya va taqqoslash.

B. Induksiya va deduksiya.



- C. Induksiya va dialektika
- D. Deduksiya va taqqoslash
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

13. "Ilmiy abstraksiya" bu....?

A. Mavhum obyektning bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning ikkinchi darajali omillariga e'tibor qaratish.

B. Mavhumlilik.

C. Mavhum bo'lgan obyektни bo'lak qismlarga bo'lib o'rganish.

D. Ilmdagi mavhumlik.

E. Mavhum obyektning bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratib, ikkinchi darajali omillarni hisobga olmay o'rganish.

14. Jadval, grafik, taqqoslash fanning.....usullaridir.

A. Alohida.

B. Umumiy.

C. Dialektik.

D. Ilmiy abstraksiya.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

15. Fanni grafik usulda o'rganish bu.....

A. Soliq voqe'liklarini chiziqlarda aks ettirish.

B. Soliq voqe'liklarini koordinata o'qlarida egri chiziqlar orqali tasvirlash.

C. Soliq voqe'liklarini o'sish-kamayish sur'atlarini ifodalash.

D. Soliq turlari dinamikasini kuzatish.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

2. SOLIQ MUNOSABATLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1. Soliqlarning dastlabki ko'rinishi qanday shaklda bo'lgan?

A. Natura

B. Natura, mol-mulk, pul.

C. Mol-mulk, hosil, pul.

D. Mol-mulk, pul.



E. C va D.

2. Soliqlarning rivojlanish bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

A. 2 bosqich: 1. Eski davr soliqlari; 2. Hozirgi davr soliqlari.

B. 5 bosqich: 1. Qadimgi davr soliqlari; 2. Arab istilosi davridagi soliqlar; 3. A. Temur davridagi soliqlar; 4. Chor Ros-siyasi davridagi soliqlar; 5. hozirgi davr soliqlari.

C. 3 bosqich: 1. Qadimgi davr soliqlari; 2. 17-18 asr soliqlari; 3. 19-asr va hozirgi davr soliqlari.

D. 3 bosqich: 1. 1991-1994-yillar; 2. 1995-1997-yillar; 3. 1997-yildan hozirgacha bo'lgan davr.

E. 1 bosqich: hozirgi davr soliqlari.

3. Arab istilosi davrida juzya(jon) solig'ini kimlar to'lagan?

A. Xotin-qizlar, keksalar.

B. Musulmon bo'lmagan fuqarolar.

C. Qullar, keksalar va kambag'allar.

D. Musulmonlar, savdogorlar hamda hunarmandlar.

E. Nasroniylar.

4. Somoniylar davrida kirim-chiqim ishlarini, xususan soliqlarni yig'ishni qaysi devon boshqargan?

A. Qullar, keksalar va kambag'allar.

B. Devoni muxtasib.

C. Devoni mushrif.

D. Devoni mustafiy.

E. B va C.

5. Somoniylar davrida "mulki xiroj"dan kimlar ozod etilgan?

A. Musulmonlar.

B. Qadimiy dehqon zodagonlar.

C. Turk gvardiyasining ayrim rahbarlari.

D. Sultonga tegishli Yerlarda ishlovchi dehqonlar.

E. Ruhoniylar va saidlar.

6. Qaysi davrda "iqta" soliq yig'ishning asosiy man-bayiga aylandi?

A. Qoraxoniylar davrida.



- B. Somoniylar davrida.
- C. Saljuqiylar davrida.
- D. Mo'g'ullar istilosi davrida.
- E. A. Temur davrida.

7. Mo'g'ullar istilosi davrida "kalon" solig'ini kimlar to'lagan?

- A. Chorvadorlar.
- B. Savdogarlar va dehqonlar.
- C. Dehqonlar.
- D. Hunarmandlar, savdogarlar.
- E. Hunarmandlar, chorvadorlar.

8. "Kopcho'r" solig'ini kim to'lagan?

- A. Chorvadorlar.
- B. Ruhoniylar, savdogarlar.
- C. Boy dehqonlar.
- D. Savdogarlar.
- E. Dehqonlar va savdogarlar.

9. Amir Temur davrida dehqonchilikdan olinadigan asosiy soliq turlarini ko'rsating.

- A. Xiroj va ushr.
- B. Mol o'tloq va sarshumar.
- C. Mol sardaraxt va mirobono.
- D. Tamg'a va qo'nalg'a.
- E. Juzya.

10. Amir Temur davrida bog'dorchilik va chorvachilikdan qanday soliqlar olingan?

- A. Tamg'a va qo'nalg'a.
- B. Mol o'tloq, xiroj, qo'nalga.
- C. Mirobona, tamg'a, xiroj, molujihot, ixrojt.
- D. Mol sardaraxt, mol o'tloq, mol suvoq, mirobona.
- E. Xiroj, molujihot, ixrojt

11. Amir Temur davrida savdogar va hunarmandlar qaysi soliqlarni to'lashgan?

- A. Peshkash va qo'nalg'a.
- B. Tamg'a va zakot.
- C. Tamg'a va xiroj.
- D. Ushr va shilon puli.



E. Xiroj va qo'nalg'a.

12. Amir Temur davrida saroylarga qarash uchun maxsus yig'im qanday nomlangan?

- A. Peshkash.
- B. Xonashumar.
- C. Ixrojot.
- D. Qunalg'a.
- E. Shilon puli.

13. Shayboniylar davrida amal qilgan soliqlarni ko'rsating.

- A. Xiroj, tagor, ulufa, qo'nalg'a, madadilashkar, boj, tan-suqot, tuhfa.
- B. Xiroj, ushr, zakot, solg'it, tanobona, mirobona, kalon.
- C. Molujihot, ixrojot, shilon puli, ushr, tamg'a.
- D. Xiroj, ipak moli, omonpuli, ixrojot, xonashumar, juzya, zakot.
- E. Xiroj, ixrojot, xonashumar, juzya, zakot.

14. Xiva xonligida natura shaklida to'lanadigan o'lpon yig'uvchilarni qayday nomlashgan?

- A. Oqsoqollar.
- B. Bojmonlar.
- C. Xokimlar.
- D. Zakot yig'uvchilar.
- E. Mushriflar.

15. Xiva xonligida Yer solig'i..... deb nomlashgan.

- A. Mushrifona.
- B. Olg'ut.
- C. Qo'nalg'a.
- D. Solg'ut.
- E. Alaf puli.

16. Buxora amrligida mol-mulk solig'i bilan shug'ul-langan amaldor qanday nomlangan?

- A. Devonbegi.
- B. Qushbegi.
- C. Bojmon.
- D. Zakotchi kalon.
- E. Xokim.



17. Misaha, muqota, muqosama tarixda qaysi soliqning shakli bo'lib hisoblanadgan?

- A. O'lpon.
- B. Zakot.
- C. Vazifa.
- D. Jon solig'i.
- E. Xiroj.

18. Amir Temur davrida favqulodda qanday soliqlar joriy qilingan?

A. Molujihot, qo'nolg'a, ixrojot, xonamushar, sarmushar, peshkash.

- B. Ixrojot, xonamushar, juzya, Yer solig'i.
- C. Sarmushar, peshkash, jon solig'i.
- D. Qo'nalg'a, shilon puli, zakot, jon solig'i.
- E. Zakot, jon solig'i.

19. A.Makedonskiy hukmronligi davridagi asosiy soliq turlarini ko'rsating.

- A. Daromad solig'i, Yer solig'i.
- B. Yer, ehson va zakot.
- C. Daromad solig'i, ehson, yig'im.
- D. Daromad solig'i, yig'implar, zakot.
- E. Xiroj va juzya.

20. Xiva xonligi davrida amal qilgan soliq turini ko'rsating.

- A. Tanob yig'imi, boy puli, solg'it.
- B. Solg'it, qazuv, kechuv, tanobona.
- C. Begor, qo'nolg'a, tanobona.
- D. Boy puli, ko'chuv solig'i, qazuv, begor.
- E. Misaxa, muqota.

3. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI

1. Soliq - bu.....

A. Qonunchilik asosida davlat tomonidan tashkil etiladigan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat byudjetiga majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlari.



B. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan pul ko'rinishidagi to'lovdir.

C. Davlat tomonidan qonun asosida olinadigan yuridik va jismoniy shaxslardan yig'im.

D. Qonunchilik asosida belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan to'lov.

E. Yuridik shaxslardan olinadigan pul ko'rinishidagi to'lov.

2. "Soliq" tushunchasiga ta'rif bering.

A. Soliq, deganda davlat byudjetiga undiriluvchi majburiy to'lov tushuniladi.

B. Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlar.

C. Yuridik shaxslar tomonidan byudjetga undiriladigan majburiy to'lovlar tushuniladi.

D. Jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi.

E. Soliq, deganda davlat byudjetiga undiriluvchi ixtiyoriy to'lov tushuniladi.

3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimada?

A. Davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

B. Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlari.

C. Sohalar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash.

D. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobi davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda.

E. C va D.

4. Soliqlarning o'ziga xos belgilarini ko'rsating.

A. Foizlilik, qat'iy va doimiylik.

B. Majburiylik, ekvivalentsizlik, muddatlilik.

C. Majburiylik, qat'iy va doimiylik, foizlilik.

D. Davlat byudjetiga tushishlilik, ekvivalentsizlik.



E. Majburiylik, davlat byudjetiga tushishlilik, qat'iy va doimiylik, ekvivalentsizlik.

5. Soliqlarning ekvivalentsizlik belgisi, deganda nimanani tushunasiz?

- A. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi.
- B. Soliqlar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy tarzda olinadi.
- C. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga tushadi.
- D. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi.
- E. B va C.

6. Soliqlarning fiskal funksiyasi nimanani anglatadi?

A. Soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag'larni tashkil qilishni.

B. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini.

C. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslardan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini.

D. Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni.

E. Soliq tushumlari ustidan nazorat qilishni.

7. Soliqlarning tartibga solish funksiyasi nimanani anglatadi?

A. Soliqlar yordamida davlatning moliya resurslarini tashkil qilishni.

B. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyodan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini.

C. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini.

D. Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni.

E. Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rag'batlantirishni.

8. Soliq bazasini hisoblashning qanday usullari mavjud?

- A. Kadastrli usul.



- B. Kadastrli usul va manbadan olish usuli.
- C. Kassa usuli va kadastrli usul.
- D. Kassa usuli va hisobga olish usuli.
- E. Daromad manbayidan.

9. "Fiskal" so'zining ma'nosi nima?

- A. Byudjet.
- B. Xazina.
- C. Soliq.
- D. Daromad.
- E. Tartibga solish.

10. Soliqqa tortishning qanday tamoyillari mavjud?

A. Adolatlilik, oddiylik va xolislik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish, etarlilik, boshqarishga qulaylilik, maqbullilik, tadbirkorlik va investitsiyani rag'batlantirish, stavkalarini qiyoslash.

B. Yetarlilik, tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, boshqarishga qulaylik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish, me'yorlilik.

C. Adolatlilik, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq stavkalarini qiyoslash, rag'batlantirish.

D. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish.

E. Oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish.

11. A.Smit tomonidan keltirilgan soliq tamoyillari qaysi qatorda keltirilgan?

- A. Arzonlik, me'yorlilik.
- B. Aniqlik, tadbirkorlik va investitsiyani rag'batlantirish.
- C. Tenglik, aniqlilik, arzonlilik, qulaylilik.
- D. Qulaylik, oddiylik.
- E. Aniqlilik, arzonlilik.

12. Soliq to'lovchining aybi isbotlanmaguncha, qaysi tamoyilga asosan ish tutiladi?

- A. Soliq solishning adolatliliigi tamoyiliga.
- B. Soliq solishning majburiyligi va soliq solishning adolatliliigi tamoyiliga.



C. Soliq solishning aniqligi va soliq tizimining yagonaligi tamoyiliga.

D. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi tamoyiliga.

E. Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyiliga.

13. "Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin" ushbu satrlar qaysi tamoyilni mazmunini ochib beradi?

A. Yetarlilik.

B. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish.

C. Oddiylik va xolislik

D. Adolatlilik.

E. Arzonga tushishlilik.

14. A.Smit soliqqa tortish tamoyillari qaysi kitobida asoslab bergan?

A. "Xalqlar boyligi omillari va shakllari".

B. "Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari".

C. "Xalqlar boyligini orttirish uslublari".

D. "Xalqlar boyligining kelib chiqish sabablari".

E. "Xalqlar boyligining asoslari".

15. Oddiylik va xolislik tamoyili nimani nazarda tutadi?

A. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishishni, soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiy bo'lish va xolisona to'lanishini.

B. Soliq solishning majburiyligi va soliq solishning adolatliligi tamoyiliga.

C. Oddiylik va xolislik.

D. Soliqlarni eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni.

E. Soliqlarni eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni.

16. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi tamoyillar qaysi qatorda keltirilgan?

A. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, ham-



ma daromadlarni soliqqa tortish.

B. Oddiylik va xolislik.

C. Tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash.

D. Soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatligi, yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi.

E. Soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatligi, yagonaligi.

17. "Soliq to'lovchining haqligi prizumpsiyasi" tamoyili qaysi tamoyillar guruhiga mansub?

A. A.Smit tamoyillari.

B. A.Temur tamoyillari.

C. Soliq qonunchiligi tamoyillari.

D. Soliqlarning xarajatlardan oshib ketmasligi.

E. A va D.

18. Soliqlarning huquqiy tamoyillari Soliq kodeksining nechanchi bobida berilgan?

A. 2-bob.

B. 1-bob.

C. 5-bob.

D. 8-bob.

E. 4-bob.

19. "Soliq solishning majburiyligi" tamoyili Soliq kodeksining nechanchi moddasida keltirilgan:

A. 6-modda.

B. 3-modda.

C. 7-modda.

D. 11-modda.

E. 5-modda.

20. A.Smit, Amir Temur tamoyillarida keltirilgan aynan o'xshash tamoyilni aniqlang:

A. Oshkoralik.

B. Aniqlilik.

C. Qonun hujjatlaring oshkoraligi.

D. Soliq tizimining yagonaligi.

E. Yetarlilik.



4. SOLIQ ELEMENTLARI VA SOLIQQA OID BOSHQA TUSHUNCHALAR

1. Qaysi satrda soliq elementlari keltirilgan?

- A. To'langan soliq summasi.
- B. Soliq turlari.
- C. Soliq agenti.
- D. Soliq subyekti, soliq obyeksi, soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq normasi.
- E. To'g'ri javob yo'q.

2. Soliq subyekti bu –

- A. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.
- B. Soliq to'lovchining daromadi, oborot va mol-mulki.
- C. Soliq to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar.
- D. Obyektning o'lchov birligi.
- E. Soliq to'lovchining foydasi.

3. Soliq obyeksi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A. Yuridik va jismoniy shaxslar.
- B. Soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan daromadi, oboroti va mol-mulki.
- C. Soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha beriladigan imtiyozlar.
- D. Soliq to'lovchining daromadi.
- E. To'g'ri javob yo'q.

4. Soliq agenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqning ushlab va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi shaxslar.
- B. Soliq solinadigan daromad.
- C. Soliq to'lovchining to'laydigan soliqlar manbayi.
- D. Yuridik va jismoniy shaxslar.
- E. Soliq to'lovchining daromadi.

5. Soliq manbayi bu –

- A. Soliq to'lovchiga berilgan imtiyoz.
- B. Soliq to'lovchining soliqqa tortish uchun asos bo'ladigan daromadi, oborot va mol-mulki.
- C. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llanadigan miqdori.



- D. Obyektning o'lchov birligi.
- E. Soliq to'lovchining daromadi.

6. Soliq bazasi deganda –

A. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori tushuniladi.

B. Obyektning o'lchov birligi tushuniladi.

C. Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi.

D. Soliq to'lovchining to'laydigan soliqlar manbayi tushuniladi.

E. Soliq to'lovchining soliqqa tortish uchun asos bo'ladigan daromadi.

7. Soliq tortish birligi bu –

A. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

B. Obyektning o'lchov birligi.

C. Obyektning xar bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir.

D. Soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk.

E. Soliq to'lovchining to'laydigan soliqlar manbayi tushuniladi.

8. Soliq stavkasi nima?

A. Subyektlar uchun davlat tomonidan belgilangan soliq undirish me'yor tushuniladi.

B. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori tushuniladi.

C. Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilangan me'yor.

D. Soliq solinadigan daromad, oborot va mol-mulk.

E. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

9. Soliq yuki tushinchasiga izoh qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Barcha fuqarolardan undirilgan soliqlar yig'indisi.

B. Soliq qonunchiligiga ko'ra xar bir soliq turi bo'yicha byudjetga kelib tushgan daromad.

C. Yuridik shaxslarning to'lagan barcha soliqlari yig'indisi.



D. Soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini jami daromadga nisbati.

E. B va C.

10. Mezodarajadagi soliq yuki deganda nimani tushunasiz?

A. Yuridik shaxslar miqyosidagi soliq yuki.

B. Mamlakat miqyosidagi soliq yuki.

C. Korxonalar miqyosidagi soliq yuki.

D. Jismoniy shaxslar miqyosidagi soliq yuki.

E. Soha va tarmoq miqyosidagi soliq yuki.

11. Mikrodarajadagi soliq yuki qaysi qarashda ifodalanadi?

A. Aniq olingan subyektlar miqyosida.

B. Mamlakat miqyosida.

C. Vazirliklar miqyosida.

D. Viloyatlar va tumanlar miqyosida.

E. Soha va tarmoq miqyosida.

12. Soliq imtiyozlarining turlarini ko'rsating?

A. Butunlay va qisman ozod etish.

B. Yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish.

C. Jismoniy shaxslarni soliqdan ozod etish.

D. To'liq ozod etish, vaqtincha ozod etish, qisman ozod etish.

E. Vaqtincha ozod etish.

13. Soliqni undirish usullari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A. Deklaratsiya usuli.

B. Kadastrli, daromad manbayidan, daromad olgandan so'ng.

C. Kadastrli va daromad manbayidan.

D. Deklaratsiya hamda kadastrli usuli.

E. Kadastrli va daromad olgandan so'ng.

14. Soliq stavkalari turlari qaysi javobda to'liq berilgan?

A. Regressiv, progressiv va oshirilgan stavka.

B. Proporsional va regressiv.

C. Proporsional, regressiv, progressiv.

D. Oraliq stavka va proporsional.

E. Pasaytirilgan va oshirilgan.

15. Soliq bazasini hisoblash usullarini ko'rsating

A. Kassa va hisobga olish usuli.

B. Chegirish va qo'shish usuli.

C. Qo'shish va hisobga olish usuli.

D. Deklaratsiyalash va kassa usuli.

E. To'g'ri javob yo'q.

16. Progressiv soliq stavkalarining turlari qaysi javobda berilgan?

A. Oddiy va murakkab progressiv.

B. Oshirilgan va oraliq stavka.

C. Pasaytirilgan va murakkab progressiya.

D. Oddiy va oraliq stavka.

E. Murakkab va oraliq stavka.

17. Soliq stavkasining ko'rinishiga ko'ra turlarini aniqlang.

A. Progressiv, regressiv, proporsional, nollik.

B. To'g'ri, proporsional.

C. So'mda va foizda.

D. Qat'iy, nisbiy.

E. Proporsional, nollik.

18. Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasi qaysi stavka turiga mos keladi?

A. Proporsional.

B. Regressiv.

C. Qat'iy.

D. Progressiv.

E. B va C.

19. Soliq mexanizmi bu -

A. Moliya mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

B. Soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llanadigan usullar yig'indisi.

C. U yoki bu obyektga ta'sir o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar, usullar, dastaklar va shakllarn-



ing ichki o'zaro bog'liqlik va aloqadorliklarining yig'indisini anglatadi.

D. Soliqlarni hisoblash jarayoni.

E. To'g'ri javob yo'q.

20. Soliqqa tortiladigan bazaga tarif bering.

A. Soliq obyekt.

B. Soliq manbayiga soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

C. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

D. Soliq obyektiga o'xshash bir xil tushuncha.

E. B va D.

5. SOLIQ MUNOSABATLARI SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA SOLIQ MAJBURIYATLARINING BAJARILISHI

1. Soliq kodeksining qaysi moddasida Soliq to'lovchilarning huquqlari keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 34-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

2. Amaldagi soliq kodeksining qaysi moddasida Soliq to'lovchilarning majburiyatlari keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

3. Soliq majburiyatiga ta'rif bering.

A. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan huquqlari soliq majburiyati, deb e'tirof etiladi.

B. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati, deb e'tirof etiladi.

C. Moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi.

D. Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari soliq majburiyati, deb e'tirof etiladi.

E. Soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi.

4. Soliq majburiyatini bajarish tartibi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

5. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

6. Soliq majburiyatining tugatilishi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

7. Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 38-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.



8. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin necha yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin?

A. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin uch yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

B. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin etti yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin..

C. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

D. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin o'n yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

E. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin olti yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

9. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin necha yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli?

A. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

B. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin yetti yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.



C. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin uch yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

D. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin o'n yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

E. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin olti yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

10. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash hamda ularning hisobi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

11. Ayrim hollarda soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 40-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 41-moddasida.

12. Hisob hujjatlari. Hisob hujjatlarini tuzish va saqlash soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 41-moddasida.



13. Alohida-alohida hisob va uni yuritish qoidalari soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 42-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 41-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 43-moddasida.

14. Soliq hisoboti qanday hujjat hisoblanadi?

A. Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z ichiga oladigan hujjat.

B. Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

C. Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lov bo'yicha, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjat.

D. Soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjat.

E. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladigan hujjat.

15. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 45-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 42-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 46-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 44-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 41-moddasida.



6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1. Soliqlar kelib tushish manbayiga ko'ra -.....

- A. Egri va to'g'ri soliqlarga bo'linadi.
- B. Umumdavlat va mahalliy soliqlarga guruhlanadi.
- C. Shaxsiy va real soliqlardan iborat.
- D. Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

2. Resurs soliqlariga.....lari kiradi.

- A. Yer solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
- B. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq.
- C. Yer solig'i, mol-mulk solig'i.
- D. Transport vositalariga benzin, dizel va gaz yoqilgisidan foydalanganlik uchun soliq.
- E. Mol-mulk solig'i va daromad solig'i.

3. To'g'ri soliqning tarifi qaysi javobda keltirilgan?

- A. Haqiqiy va huquqiy to'lovchisi boshqa-boshqa shaxslar bo'lgan soliq.
- B. Haqiqiy va huquqiy to'lovchisi yuridik shaxs bo'lgan soliq.
- C. Haqiqiy va huquqiy to'lovchisi bir shaxs bo'lgan soliq.
- D. Haqiqiy to'lovchisi yuridik shaxs va huquqiy to'lovchisi iste'molchi bo'lgan soliq.
- E. Huquqiy to'lovchisi yuridik shaxs bo'lgan soliq.

4. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra-.....

- A. Yuridik va jismoniy shaxslar soliqlari.
- B. Umumdavlat va mahalliy.
- C. Shaxsiy va real.
- D. Bilvosita va bevosita.
- E. O'zgaruvchan va o'zgarma S.

5. Soliqlar tizimi bu - ...

- A. Bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig'imglar turlarining yig'indisi.



B. Davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarni rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

C. Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisi.

D. Soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisi.

E. B va D.

6. Qaysi soliq turi soliq to'lovchining moliyaviy holatini hisobga oladi?

A. Egri soliq.

B. Real soliq.

C. Xususiy soliq.

D. Umumiy soliq.

E. Shaxsiy soliq.

7. Egri soliqlar keltirilgan javobni ko'rsating.

A. Aksiz solig'i va mol-mulk solig'i.

B. QQS, aksiz, bojxona boji.

C. Qo'shilgan qiymat solig'i va yer solig'i.

D. Real soliqlar.

E. Aksiz solig'i, foyda solig'i.

8. To'g'ri soliqlar keltirilgan javobni ko'rsating.

A. Jismoniy shaxslar daromad solig'i, yuridik shaxslar foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i.

B. Jismoniy shaxslar daromad solig'i, yuridik shaxslar foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, aksiz solig'i.

C. Jismoniy shaxslar daromad solig'i, yuridik shaxslar foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yer solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i.

D. Yuridik shaxslar foyda solig'i, resurs solig'i, mol-mulk solig'i, davlat boji.

E. Yuridik shaxslar foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yer solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i.

9. Soddalashtirilgan soliq tizimi qanday soliqlarni to'lashni nazarda tutadi?

A. Yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

B. Yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, mol-mulk solig'i.

C. Yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy soliq.

D. Qo'shilgan qiymat solig'i, yagona yer solig'i, mol-mulk solig'i.

E. Yagona soliq to'lovi, yer solig'i.

10. Oborotdan olinadigan soliqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Aksiz solig'i, foyda solig'i, mol-mulk solig'i va QQC.

B. Mol-mulk va daromad solig'i.

C. QQS va foyda solig'i.

D. QQS, aksiz solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'i va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

E. QQS, aksiz solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'i va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, yer solig'i.

11. Daromaddan olinadigan soliqlar qaysi javobda to'liq keltirilgan?

A. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

B. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, mol-mulk solig'i va jismoniy shaxslardan daromad solig'i.

C. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yer va mol-mulk soliqlari.

D. QQS va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

E. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, aksiz solig'i.



12. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, aksiz solig'i.
- B. Yer solig'i, QQS va mol-mulk solig'i.
- C. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning undiriladigan foyda solig'i.
- D. Yer solig'i, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig'i, mol-mulk solig'i.
- E. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

13. Soliqlarning soliqqa tortish obyektiga ko'ra guruhlanishi qaysi bandeda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Umumdavlat va mahalliy soliqlar.
- B. Oborotdan, daromadidan, mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar.
- C. Egri va to'g'ri soliqlar.
- D. Yuridik va jismoniy shaxslardan olingan soliqlar.
- E. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar.

14. Egri soliqlar tarkibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. QQS, yer solig'i, mol-mulk solig'i.
- B. QQS, aksiz solig'i va mol-mulk solig'i.
- C. QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganligi uchun olinadigan soliq.
- D. QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig'i.
- E. Aksiz solig'i, bojxona bojlari, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig'i.

15. Qaysi soliq turlari guruhida soliqlarning haqiqiy va huquqiy to'lovchisi farqlanadi?

- A. Egri soliqlarda.
- B. To'g'ri soliqlarda.
- C. Umumdavlat soliqlarida.
- D. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarda.
- E. Mahalliy soliqlarda.

16. Quyidagi soliqlardan qaysi biri resurs soliqlari tarkibiga kiradi?

- A. Transport vositasi, benzin, dizel yoqilg'i va suyultirilgan gaz ishlatish uchun soliq.
- B. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i.
- C. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
- D. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
- E. Aksiz solig'i.

17. Qaysi qatorda mahalliy soliqlar turlari ko'rsatilgan?

- A. Yagona soliq to'lovi.
- B. Yuridik shaxslardan undirilgan foyda solig'i.
- C. Egri soliqlar.
- D. To'g'ri soliqlar.
- E. Yer solig'i, mol-mulk solig'i.

18. Faqat yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar qaysi bandda ko'rsatilgan?

- A. Mol-mulk solig'i.
- B. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
- C. Yer solig'i.
- D. Qo'shilgan qiymat solig'i.
- E. Aksiz solig'i.

19. Ham yuridik ham jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar qaysi bandda ko'rsatilgan?

- A. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i.
- B. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq, aksiz solig'i.
- C. Obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- D. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
- E. Yer solig'i, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig'i.

20. "Soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta'sir etib, jumladan soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash orqali jamiyat a'zolarining



mulkiy tengsizligini tugatish mumkin”, - degan fikr kimga tegishli?

- A. Samuelson.
- B. A.Laffer.
- C. A.Smit.
- D. E.Jerarden.
- E. D.Rikardo.

7. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

1. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati - ... deyiladi.

- A. Soliq tizimi.
- B. Soliq strategiyasi.
- C. Soliq taktikasi.
- D. Soliq tizimi.
- E. Soliq siyosati.

2. Quyidagilardan qaysi biri soliq siyosatining huquqiy asosi hisoblanadi?

- A. Soliqqa oid qonunlari majmuasi.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- C. “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun.
- D. Soliq kodeksi.
- E. Fuqarolik kodeksi.

3. Qaysi vakolatli organ soliq turlarini joriy etish huquqiga ega?

- A. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- C. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- D. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- E. Mahalliy hokimiyatlar.

4. Soliq siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi organlarni ko‘rsating.

- A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi.
- C. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va vakolatli davlat organlari.



D. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.

E. Davlat soliq inspeksiyalari.

5. Soliq siyosati strategiyasi bu - ...?

A. Uzoq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlar yig'indisi.

B. Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlar.

C. Davlatning soliq sohasida islohotlari.

D. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati.

E. Tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlar.

6. Soliq siyosati taktikasi bu - ...?

A. Belgilangan soliq siyosati taktikasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlar yig'indisi.

B. Uzoq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlar yig'indisi.

C. Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlar.

D. Soliq strategiyasini amalga oshirishda xizmat qiladigan chora-tadbirlar majmuasi.

E. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati.

7. Soliq konsepsiyasi bu - ...?

A. Uzoq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlar yig'indisi.

B. Soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarning yaxlitligi.

C. Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlar.

D. Stavkalarni qo'llash tartibi.

E. To'g'ri javob yo'q.

8. 2017-yil uchun soliq stavkalari Respublika Prezidentining nechanchi sonli qarori bilan tasdiqlangan?

A. PQ-2099.

B. PQ-2455.



- C. PQ-2699.
- D. PQ-1245.
- E. PQ-1449.

9. Davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan (huquqiy baza asosida) soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig'indisiga ... deyiladi.

- A. Soliq mexanizmi.
- B. Soliq tizimi.
- C. Soliq siyosati.
- D. Soliq strategiyasi
- E. Soliq taktikasi.

10. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qachonan joriy qilingan?

- A. 1997-yil 27 oktabrda.
- B. 1991-yil 15 fevralda.
- C. 2010-yil 1 yanvar.
- D. 2008-yil 1 yanvar.
- E. To'g'ri javob yo'q.

11. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 2008-yil 1 yanvar.
- B. 1991-yil 15 fevralda.
- C. 1997-yil 24 aprel.
- D. 1992-yil 27 oktabrda
- E. 1997-yil 29-avgust.

12. Soliq stavkalari qaysi me'yoriy hujjat asosida tasdiqlanadi?

- A. Prezident farmoni.
- B. Soliq kodeksi.
- C. Prezident qarori.
- D. Bojxona kodeksi.
- E. Soliq qo'mitasi raisi qarori.

13. Soliq siyosatining yo'nalishi.....-

- A. Soliq taktikasi, soliq strategiyasi.
- B. Soliq stavkasi, soliq qonunchiligi.
- C. Soliq stavkasi, soliq me'yori.
- D. Soliq mexanizmi.

E. Soliq elementlari.

14. Soliq konsepsiyasi, deganda nimani tushunasiz?

A. Soliq mexanizmini.

B. Soliqqa oid g'oyalar yig'indisini.

C. Soliq qonunchiligini.

D. Soliq me'yorlarini.

E. Soliq siyosatini.

15. Soliq siyosatini yuritishda bevosita ishtirok etuvchi organlarni aniqlang.

A. Moliya Vazirligi.

B. Soliq qo'mitasi, Moliya Vazirligi.

C. Soliq inspeksiyasi.

D. Soliq Kodeksi.

E. Oliy majlis, soliq qo'mitasi.

16. Soliq to'lashning majburiyligi qaysi me'yoriy hujjatlarda belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq Kodeksi.

B. Soliq Kodeksi, PQ-2699.

C. Soliq inspeksiyasi.

D. Soliq boshqarmasi.

E. Fuqarolik kodeksi.

17. Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi nimaga bog'liq?

A. Davlat boshqaruvi tizimiga bog'liq.

B. Soliq qo'mitasiga bog'liq.

C. Moliya vazirligiga bog'liq.

D. Davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi moshlashuvchanlikka bog'liq.

E. Soliq solish sohasidagi vakolatlarga bog'liq.

18. Mahalliy hokimiyat organlarining soliq qonunchiligiga muvofiq vakolatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash.

B. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq stavkalarini o'zgartirish.



C. Hududida o'ndiriladigan soliqlar bo'yicha stavkalarni mustaqil o'zgartirish.

D. Soliqlar va yig'imglar bo'yicha soliq stavkalarini belgilash.

E. C va D.

19. Respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

A. Yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish, Davlat xarajatlarini optimallashtirish.

B. Bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash.

C. Resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, davlat xarajatlarini optimallashtirish.

D. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirish.

E. Davlat xarajatlarini optimallashtirish.

20. Soliq siyosati choralari ishlab chiqishda eng muhim vazifa nimalardan iborat?

A. Resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, davlat xarajatlarini optimallashtirish.

B. Soliq yukini kamaytirish orqali xarajatlarni qoplash.

C. Davlat xarajatlarini o'z vaqtida va mo'ljallangan hajmda moliyalanishi uchun soliq tushumlarining etarliligini ta'minlash.

D. Yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlash.

E. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortilishini takomillashtirish.

8. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK TUSHUNCHASI, TURLARI VA JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI UMUMIY QOIDALAR

1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 102-moddasida.



- B. Amaldagi soliq kodeksining 104-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 106-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 107-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 108-moddasida.

2. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi necha yoshdan boshlab vujudga keladi?

A. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

B. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n yetti yoshdan boshlab vujudga keladi.

C. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n sakkiz yoshdan boshlab vujudga keladi.

D. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n besh yoshdan boshlab vujudga keladi.

E. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi yigirma yoshdan boshlab vujudga keladi.

3. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 102-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 104-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 106-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 107-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 108-moddasida.

4. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etadimi?

A. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.



B. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etadi.

C. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan qisman ozod etadi.

D. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan butunlay ozod etadi.

E. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan vaqtinchalik ozod etadi.

5. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikdan ozod qilish soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 110-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 109-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 106-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 107-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 108-moddasida.

6. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini va uni javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

A. Amaldagi soliq kodeksining 110-moddasida.

B. Amaldagi soliq kodeksining 109-moddasida.

C. Amaldagi soliq kodeksining 111-moddasida.

D. Amaldagi soliq kodeksining 107-moddasida.

E. Amaldagi soliq kodeksining 108-moddasida.

7. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun qanday tarzida qo'llaniladi?

A. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

B. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, qamoq tarzida qo'llaniladi.

C. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib faqat jarimalar tarzida qo'llaniladi.

D. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, faoliyatni tugatish tarzida qo'llaniladi.

E. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, rahbarlarni ishdan olish tarzida qo'llaniladi.

8. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlash soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 110-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 112-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 111-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 113-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 114-moddasida.

9. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 115-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 116-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 111-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 113-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 114-moddasida.

10. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 115-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 116-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 111-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 113-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 114-moddasida.

11. Amaldagi soliq kodeksining qaysi moddasida hisobvara-q-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish holatlari keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 118-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 116-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 117-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 113-moddasida.



E. Amaldagi soliq kodeksining 114-moddasida.

12. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik uchun qancha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi?

A. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik— eng kam ish haqining ikki yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

B. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek, plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik— eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

C. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik— eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

D. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik— eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

E. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik — eng kam ish haqining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

13. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 120-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 119-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 121-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 125-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 114-moddasida.

14. Yuridik shaxslarga yer uchastkalaridan hujjatsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanganda yer solig'i so'mmasining necha barobari miqdorida jarima solinadi?

- A. Ikki baravari miqdorida.
- B. Uch baravari miqdorida.
- C. Besh baravari miqdorida.
- D. O'n baravari miqdorida.
- E. Bir yarim baravari miqdorida.

15. Jismoniy shaxslarga yer uchastkalaridan hujjatsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanganda yer solig'i summasining necha barobari miqdorida jarima solinadi?

- A. Ikki baravari miqdorida.
- B. Bir baravari miqdorida.
- C. Bir yarim baravari miqdorida.
- D. Uch baravari miqdorida.
- E. Besh baravari miqdorida.

9. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY HOLATNING UZVIY BOG'LIQLIGI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi farmoni qachon qabul qilingan?

- A. 1994-yil 18-yanvar.



- B. 1991-yil 12-avgust.
- C. 1994-yil 15-iyul.
- D. 1994-yil 28-mart.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

2. Qaysi soliq turlari stavkalari soliq to'lovchilarning eksport salohiyatiga ko'ra tabaqalashtirilgan?

- A. Daromad solig'i va yer solig'i.
- B. Yer solig'i va mol-mulk solig'i.
- C. Foyda solig'i va mol-mulk solig'i.
- D. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- E. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

3. «Soliq stavkalarini pasaytirish orqali byudjet daromadlarini yuqori darajaga olib chiqish mumkin» degan fikr kimga tegishli?

- A. A.Smit.
- B. G.Menkyu.
- C. D.Rikardo.
- D. A.Laffer.
- E. K.MarkC.

4. Soliq siyosatini amalga oshirishning muhim mezonini ko'rsating.

- A. Soliq kodeksi.
- B. Soliq undirish me'yorlari.
- C. Soliq to'lovchilar.
- D. Soliq inspektorlari.
- E. Jismoniy shaxslar.

5. Jami to'langan soliqlar yig'indisini jami daromadga nisbati qaysi ko'rsatgichni ifodalaydi?

- A. Soliq manbayi.
- B. Soliq summasi.
- C. Soliq stavkasi.
- D. Soliq o'lchovi.
- E. Soliq yuki.

6. Soliq siyosatini makroiqtisodiyotga ta'sirini nimalarga qarab baholash mumkin?

- A. Soliq yukining darajasiga.
- B. Investitsion muhitga, yalpi talab va yalpi taklifga.
- C. Aholi daromadlariga.



D. Yalpi talab va yalpi taklifga.

E. Yalpi taklifga.

7. Soliq yuki qanday aniqlanadi?

A. Jami to'langan soliqlar yig'indisini jami daromadga nisbati orqali.

B. Jami daromadni jami to'langan soliqlarga nisbati orqali.

C. Jami daromadni milliy daromadga nisbati orqali.

D. Jami to'langan soliqlar yig'indisini sof daromadga nisbati orqali.

E. Jami soliqlar yig'indisini qo'shilgan qiymatga nisbati orqali.

8. Absolyut soliq yuki qaysi javobda keltirilgan?

A. Nisbiy soliq yukiga teskari tushuncha.

B. Soliq majburiyatlarining ziddiyati.

C. Soliqdan bo'yin tovlash.

D. Jami to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'indisi.

E. Nisbiy soliq yuki.

9. "Soliq yuki" tushunchasi qaysi guruhga mansub?

A. Soliq tamoyillari.

B. Soliq funksiyalari.

C. Soliq elementlari.

D. Soliq tushunchalari.

E. Soliq belgilari.

10. "Soliq yuki"ni bir shaxs uchun hisoblash tartibi qanday?

A. Ma'lum davr oralig'ida to'langan soliqlar yig'indisini jami daromadga nisbati.

B. Ma'lum davr oralig'idagi soliqlar yig'indisi.

C. Soliqlar yig'indisini jami daromadga nisbati.

D. Ma'lum davr oralig'idagi olingan jami daromadni soliqlarga nisbati.

E. Jami daromadning jami soliqlarga nisbati.

11. "Absolyut soliq yuki" nima?

A. Jami to'langan soliqlar, kommunal to'lovlar, yig'imlar.

B. Jami daromaddan soliq to'lovlariga yo'naltirilgan xis-
sa.



- C. To'lovchiga nisbatan soliq og'irligi.
D. Jami to'langan soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlar yig'indisi.

E. Shaxsning hamma xarajatlari.

12. "Iqtisodiy taklif" nazariyasining asoschilari kim?

- A. A.Smit, U.Petti, D.Rikardo.
B. M.BYernson, C.Stayn, A.Laffer.
C. R.Xoll, R.Reygan
D. M.Lore.
E. D.Rikardo.

13. "Laffer egri chizig'i" da asosiy omillarni ko'rsat-ing?

- A. Soliq yuki, soliqqa tortish birligi.
B. Soliq stavkasi, soliq yuki.
C. Soliq stavkasi va daromad.
D. Soliq yuki, soliq tushumi.
E. Solikli daromadlar.

14. Soliq yukini ifodalovchi qanday ko'rsatkichlarni bilasiz?

- A. Vertikal soliq yuki, gorizantal soliq yuki.
B. Absolyut soliq yuki, nisbiy soliq yuki.
C. Umumiy va xususiy soliq yuki.
D. Soliq stavkasi, soliq yuki.
E. Gorizantal soliq yuki.

15. "Laffer egri chizig'i" ni amaliyotga qo'llagan iqtisodchi kim?

- A. R.Reygan.
B. A.Laffer.
C. Fisher.
D. J.M.Keyns.
E. B.Klinton.

16. "Soliq stavkalarini o'zgartirish bevosita "ga ta'sir etadi.

- A. Barcha javoblar to'g'ri.
B. Jami daromadga.
C. Yalpi tushumga.
D. Talab va taklifga.
E. Yalpi taklifga.



17. Soliq stavkasining qaysi turi, soliq yukini kamaytirish imkonini bYeradi?

- A. Qat'iy stavka.
- B. Progressiv stavka.
- C. Proporsional stavka.
- D. Advalor stavka.
- E. Regressiv stavka.

18. Yangi tahrirdagi soliq kodeksi qachon kuchga kirgan?

- A. 2010-yil 1-yanvar.
- B. 2008-yil 1-yanvar.
- C. 2009-yil 1-yanvar.
- D. 2007-yil 1-yanvar.
- E. 2011-yil 1-yanvar.

19. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi.....-

- A. Mustaqil tizim.
- B. Markazlashmagan tizim.
- C. Markazlashgan tizim.
- D. 2 qismdan iborat.
- E. 3 qismdan iborat.

20. Makrodarajadagi soliq yuki qaysi miqiyosda aniqlanadi?

- A. Sohalar miqiyosida..
- B. Tarmoqlar miqiyosida.
- C. Vazirliklar miqiyosida.
- D. Viloyatlar miqiyosida.
- E. Butun mamlakat miqiyosida

10. SOLIQ ISHINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonining soni va muddati to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A. 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815.
- B. 1994-yil 18-yanvardagi PF-141.
- C. 1990-yil 17-dekabrdagi PF-1983.
- D. 1991-yil 14-iyundagi PF-1723.



E. 1991-yil 12-avgustdagi PF-1799.

2. Soliq nazorati organlari yig'indisini ko'rsating?

A. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmasi, soliq inspeksiyalari, Oliy majlis.

B. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmasi, soliq inspeksiyalari, Oliy sud.

C. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmasi, soliq inspeksiyalari, Vazirlar Maxkamasi.

D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmasi, soliq inspeksiyalari.

E. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, soliq inspeksiyalari, Moliya vazirligi.

3. Soliq funksiyalari keltirilgan javobni ko'rsating.

A. Nazorat, axborot bilan ta'minlash.

B. Nazorat, rag'batlantirish, axborot bilan ta'minlash.

C. Fiskal, nazorat, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, axborot bilan ta'minlash, stavkalarini qiyoslash.

D. Fiskal, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, axborot bilan ta'minlash, investitsiyalarni rag'batlantirish.

E. Fiskal, nazorat, tartibga solish, rag'batlantirish, axborot bilan ta'minlash.

4. Soliq xizmati organlarining quyi bo'g'inini ko'rsating.

A. Soliq boshqarmasi.

B. Soliq inspektori.

C. Soliq agenti.

D. Soliq inspeksiyasi.

E. Soliq qo'mitasi.

5. Jismoniy shaxslar daromad solig'ida soliq summasini davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi shaxsni ko'rsating.

A. Jismoniy shaxs.

B. Soliq agenti.

C. Tijorat banklari.

D. Moliya bo'limlari.

E. Soliq inspektori.

6. Soliq xizmati organlarining huquqiy faoliyati qaysi me'yoriy hujjat bilan tartibga solinadi?

A. Soliq Kodeksi.

B. "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun.



C. "Davlat soliq inspeksiyalari huquqlari, vazifalari va mas'uliyati" to'g'risidagi qonun.

D. Prezident qarori.

E. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

7. Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilishi (ichki tuzilmasi), deganda nima tushuniladi?

A. Markazlashgan tizim tushuniladi.

B. Markazlashmagan tizim tushuniladi.

C. Huquqiy va tashkiliy jihatdan nisbatan mustaqil va alohida tusdagi bir-biriga o'zaro bog'langan bo'linmalarining uyushmasi tushuniladi.

D. Bir-biriga bog'liq organlar tuzilmasi tushuniladi.

E. B va D.

8. Davlat soliq xizmati organlari ketma ketligini aniqlang?

A. O'zbekiston respublikasi Soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi, Tuman soliq inspeksiyalari.

B. Tuman soliq inspeksiyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi.

C. Tuman, viloyat, shahar inspeksiyalari.

D. "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun.

E. Tuman va shahar soliq inspeksiyalari.

9. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shahslarining harakatlari ustidan shikoyat berish haqida qaysi me'yoriy hujjatlar keltirilgan?

A. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi.

B. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi.

C. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi.

D. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

E. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi.

10. Nechanchi yilda soliq va bojxona faoliyatining funksiyalari bir-biridan ajratildi?

A. 1994-yilda.

B. 1997-yilda.

C. 1995-yilda.

D. 1996-yilda.

E. 1999-yilda.



11. Korxonada soliq hisobotini qaysi Davlat soliq xizmati organiga topshiradi?

- A. Istalgan soliq xizmati organiga.
- B. Soliq qo'mitasiga.
- C. Shahar boshqarmasiga.
- D. Tuman Davlat soliq inspeksiyasiga.
- E. Viloyat boshqarmasiga.

12. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risidagi qaror qachon qabul qilgan?

- A. 1998-yil 12-yanvar.
- B. 1998-yil 15-yanvar.
- C. 1998-yil 1-yanvar.
- D. 1998-yil 5-yanvar.
- E. 1999-yil 5-yanvar.

13. 1998-yil 12-yanvarda 14-sonli qaror bilan tasdiqlangan me'yoriy hujjat qaysi qatorda keltirilgan?

- A. Bojxona kodeksi.
- B. Soliq kodeksi.
- C. Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi nizom.
- D. 1675-sonli Prezident qarori.
- E. Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi nizom.

14. Soliq organlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonuniy hujjati ... hisoblanadi.

- A. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
- B. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni.
- C. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
- D. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi qonuni.
- E. Bojxona kodeksi.

15. Soliq hisobotidagi ma'lumotlarning to'g'riligiga javobgar kim?

- A. Jismoniy shaxslar.
- B. Soliq to'lovchi yuridik shaxsning rahbari.
- C. Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxs.
- D. Soliq undirish uchun mas'ul idora.
- E. Soliq to'lovchi.

16. Soliq maslahatchisi bo'.....

- A. Malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.
- B. Malaka sertifikatini olgan yetakchi soliq inspektori.
- C. Korxonalar.
- D. Malaka sertifikatini olgan jismoniy va yuridik shaxslar.
- E. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar.

17. Yagona soliq to'lovini to'lovchisi bo'lgan kichik korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar mi?

- A. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini pasaytirilgan stavkalarda to'laydilar.
- B. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.
- C. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini ba'zida to'laydilar.
- D. Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'laydilar.
- E. Qo'shilgan qiymat solig'ini imtiyozli stavkalarda to'laydilar.

18. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi prinsiplari:

- A. Soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi.
- B. Oddiylik va xolislik.
- C. Tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash.
- D. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish.
- E. Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi.

19.da "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

- A. 1998-yil
- B. 1996-yil
- C. 1997-yil
- D. 1999-yil
- E. 1992-yil



20. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi organlar bo'libhisoblanadi.

- A. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- B. Davlat Soliq qo'mitasi.
- C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- D. Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, vakolatli davlat organlari.
- E. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.

11. XALQARO SOLIQQA TORTISH

1. Ikki tomonlama soliq olmaslik to'g'risidagi bitimlar nima maqsadda tuziladi?

- A. Soliqdan qochishni oldini olish maqsadida.
- B. Ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish maqsadida.
- C. Qulay soliq muhitini yaratish maqsadida.
- D. Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida.
- E. Soliq to'lovchilar manfaatini ko'zlab.

2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra....

- A. Umumdavlat solig'i.
- B. Real soliq.
- C. Egri soliq.
- D. To'g'ri soliq.
- E. Mahalliy soliq.

3. Ikki tomonlama soliqqa tortish, deganda nimani tushunasiz?

- A. Bir soliq to'lovchi daromadlari va mol-mulkini ikki davlat qonunchiligi bo'yicha soliqqa tortish.
- B. Faqat daromad olingan davlatda soliqqa tortish.
- C. Qaysi davlatda soliq stavkasi past bo'lsa, o'sha davlatda soliqqa tortish.
- D. Qaysi davlatda soliq stavkasi yuqori bo'lsa, o'sha davlatda soliqqa tortish.
- E. Fuqoroligi mavjud bo'lgan davlatga.

4. Umumdavlat solig'i bo'lgan va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq turini ko'rsating.

- A. Yer solig'i.
- B. Mol-mulk solig'i.
- C. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
- D. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.
- E. Yagona soliq to'lovi.

5. Da'vo qilishning umumiy muddatini aniqlang.

- A. 1 yil.
- B. 3 yil.
- C. 6 yil.
- D. 10 yil.
- E. 5 yil.

6. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa ...

- A. Xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.
- B. O'zbekiston Respublikasi qoidalari qo'llaniladi.
- C. Qonunchilikda ko'rsatilgan qoidalar qo'llaniladi.
- D. O'zbekiston Respublikasi qoidalari va xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.
- E. O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari qo'llaniladi.

7. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar qaysi tomon foydasiga talqin qilinadi?

- A. Davlatning.
- B. Jismoniy shaxslarning.
- C. Soliq to'lovchining.
- D. Yuridik shaxslarning.
- E. Xech qaysi tomon foydasiga talqin etilmaydi.

8. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi soliq kodeksiningmoddasida ko'rsatilgan.

- A. 11-modda.
- B. 26-modda.
- C. 13-modda.



D. 10-modda.

E. 9-modda.

9. Soliq solishning adolatliligi prinsipi soliq kodeksiningmoddasida keltirilgan.

A. 8-modda.

B. 7-modda.

C. 6-modda.

D. 9-modda.

E. 11-modda.

10. Soliq stavkalariturlardan iborat.

A. To'g'ri, egri, resurs.

B. Proporsional, progressiv, regressiv.

C. Regressiv, qat'iy bo'lmagan, bazaviy stavkalar.

D. O'sib boruvchi, bazaviy stavkalar, egri.

E. Bazaviy stavkalar, egri.

11. Oilaviy korxonada qaysi soliq to'lovchisi bo'lib hisoblanadi?

A. Qat'iy belgilangan soliq.

B. Yagona yer solig'i.

C. Yagona soliq to'lovi.

D. Foyda solig'i.

E. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

12. Soliq obyektini bu

A. Soliq manbayi.

B. Yuridik shaxslar.

C. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar.

D. Soliq to'lovchining daromadi.

E. Soliq hisoblanadigan daromad, oborot, mol-mulk.

13. bu soliq imtiyozlarining turlari bo'lib hisoblanadi.

A. Yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish.

B. To'liq, vaqtincha va qisman ozod etish.

C. Jismoniy shaxslarni soliqdan ozod etish.

D. Butunlay ozod etish.

E. Vaqtinchalik ozod etish.

14. Soliqlarni undirishningusullari mavjud.

A. Daromad olgandan so'ng, kadastrli, daromad man-



bayidan.

- B. Deklaratsiya usuli.
- C. Kadastrli.
- D. Deklaratsiya xamda kadastrli usuli.
- E. Daromad manbayida.

15. Kadastrli usulundirishda qo'llaniladi.

- A. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma si rivojlantirish solig'ini.
- B. Foyda solig'ini.
- C. Jismoniy shaxslarni daromad solig'ini.
- D. Yer va mol-mulk solig'ini.
- E. Aksiz solig'i.

16. Davlatlararo bitimlarga ko'ra ikki tomonlama soliq solinmasligi qaysi soliq imtiyozini belgilash mezoniga ko'ra belgilanadi?

- A. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni darajasi mezoniga ko'ra.
- B. Soliq to'lovchilarning investitsiya mavqei mezoniga ko'ra.
- C. Sohani rivojlantirish ustuvorligi mezoniga ko'ra.
- D. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish mezoniga ko'ra.
- E. Sanoatni rivojlantirish ustuvorligi mezoniga ko'ra.

17. Soliqqa tortishning kadastrli usulining o'ziga xos xususiyati nimada?

- A. Soliq stavkalarining pastligida.
- B. Soliqqa tortish obyektining kam yoki ko'pligiga bog'liq bo'ladi.
- C. Soliqning to'lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'liq bo'lmaydi.
- D. Soliq imtiyozlarining nisbatan ko'pligida.
- E. Foyda miqdoriga bog'liq bo'ladi.

18. Qaysi qatorda soliq to'lash shakllari to'g'ri keltirilgan?

- A. Faqat naqd pulsiz.
- B. Bo'nak va to'liq.
- C. So'mda va chet el valyutasida.
- D. Naqd pulda.
- E. Naqd pul yoki naqd pulsiz.

19. Soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori... hisoblanadi.

- A. Soliq yuki..
- B. Soliq bazasi
- C. Soliq manbayi.
- D. Soliq og'irligi.
- E. Soliq predmeti.

20. Jahon soliq kodeksining mualliflari kim?

- A. D.Rikardo va U.Petti.
- B. A.Smit.
- C. A.Laffer.
- D. Uord M. Xassi va Donald C. Lyubik.
- E. R.Reygan va J.M.Keyns.

TEST JAVOBLARI

1. "Soliq nazariyasi fanining predmeti, mazmuni va metodi" bobi bo'yicha test javoblari:

1. C., 2. A., 3. D., 4. B., 5. A., 6. C., 7. B., 8. A., 9. C., 10. A., 11.C., 12.B., 13.E., 14.A., 15.B.

2. "Soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi" bobi bo'yicha test javoblari:

1. A., 2. C., 3.B., 4. D., 5. E., 6. A., 7. C., 8. A., 9. A., 10. D., 11.B., 12.C., 13.A., 14.E., 15.D., 16.B., 17.E., 18.A., 19.C., 20.D.

3. "Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari" bobi bo'yicha test javoblari:

1. A., 2. B., 3. B., 4. E., 5. D., 6. A., 7. C., 8. D., 9. B., 10. A., 11.C., 12.E., 13.A., 14.B., 15.A., 16.D., 17.C., 18.B., 19.A., 20.E.

4. "Soliq elementlari va soliqqa oid boshqa tushunchalar" bobi bo'yicha test javoblari:

1. D., 2. C., 3. B., 4. A., 5. E., 6. A., 7. B., 8. C., 9. D., 10. E., 11.A., 12.D., 13.B., 14.C., 15.A., 16.A., 17.D., 18.D., 19.B., 20.C.

5. "Soliq munosabatlari subyektlarining huquqlari va soliq majburiyatlarining bajarilishi" bobi bo'yicha test javoblari:

1. C., 2. A., 3. B., 4. D., 5. E., 6. A., 7. C., 8. C., 9. A., 10. C., 11.A., 12.E., 13.A., 14.B., 15.A.

6. "O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanishini nazariy asoslari" bobi bo'yicha test javoblari:

1. B., 2. A., 3. C., 4. D., 5. A., 6. E., 7. B., 8. A., 9. C., 10. D., 11.A., 12.E., 13.B., 14.C., 15.A., 16.C., 17.E., 18.B., 19.A., 20.D.

7. "Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari" bobi bo'yicha test javoblari:



1. E., 2. A., 3. B., 4. C., 5. A., 6. D., 7. B., 8. C., 9. A., 10. D., 11. E., 12. C., 13. A., 14. B., 15. E., 16. A., 17. D., 18. A., 19. A., 20. C.

8. "Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, turlari va javobgarlik to'g'risidagi umumiy qoidalar" bobi bo'yicha test javoblari:

1. C., 2. A., 3. E., 4. A., 5. B., 6. A., 7. A., 8. D., 9. A., 10. B., 11. A., 12. D., 13. A., 14. A., 15. C.

9. "Soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligi" bobi bo'yicha test javoblari:

1. A., 2. C., 3. D., 4. B., 5. E., 6. B., 7. A., 8. D., 9. C., 10. A., 11. d., 12. B., 13. C., 14. B., 15. A., 16. A., 17. E., 18. B., 19. C., 20. E.

10. "Soliq ishini tashkil etish asoslari" bobi bo'yicha test javoblari:

1. A., 2. D., 3. E., 4. D., 5. B., 6. B., 7. C., 8. A., 9. E., 10. B., 11. D., 12. A., 13. C., 14. B., 15. E., 16. A., 17. D., 18. A., 19. C., 20. D.

11. "Xalqaro soliqqa tortish" bobi bo'yicha test javoblari:

1. B., 2. D., 3. A., 4. C., 5. E., 6. A., 7. C., 8. E., 9. A., 10. B., 11. C., 12. E., 13. B., 14. A., 15. D., 16. A., 17. C., 18. E., 19. B., 20. D.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104-b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56-b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48-b.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususi mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 88-b.
6. Karimov I. 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. –T.: “O‘zbekiston”, 2014
7. Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. –T.: “Noshir”, 2011
8. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: “Sharq”, 2009
9. Jo‘rayev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210-b.
10. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. –T.: “NOSHIR”, 2012.



11. Гадоев Э. и др. Упрощённая система налогообложения. Учебно-практическое пособие. –Т.: “Норма”, 2011.
12. Гадоев Э. и др. Косвенные налоги. Учебно-практическое пособие. –Т.: “Норма”, 2011.
13. Malikov T., Jalilov P. Budget-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. –Т.: “Akademnashr”, 2011.
14. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mam-lakatlari soliq tizimi. Darslik. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2011.
15. Заяц Н. Теория налогов. Учебник. –М.: “БГЕУ”, 2014.
16. Попова С. и др. Теория и история налогообложения. Учебник. –М.: “Деко и Сервис”, 2015.
17. Майбуров И., Соколовская А. Теория налогообложения. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2015.
18. Черник Д., Шмелев Ю. Кризис и налоги. Учебное пособие. –М.: “Экономика”, 2014.
19. Тарасова В., Владика М., Саприкина Т., Семикина С. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “КНОРУС”, 2014.
20. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2015.
21. Алиев Б. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”, 2015.
22. Jo'rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmanov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'slanma. –Т.: “Norma”, 2009.
23. Deborah Schanz, Sebastian Schanz. Business Taxation and Financial Decisions (Germany), Springer. 2011.
24. Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, FA 2014.
25. Advanced Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, 2014.



26. Jane Fracknall-Hughe C. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2007.
2. Tuxliyev B. va boshqalar. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisodiyot”, 2007.
3. Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. –T.: “Akademiya”, 2007.
4. Майбуров И.А. Налоговая политика. Теория и практика. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2014.
5. Александров И.М. Налоги и налогообложение. –Т.: “Дашков и К”, 2014.
6. Сердюков А.Е. Налоги и налогообложение: Учебник для ВУЗов. –М.: “Питер”, 2013.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi qonuni. 1997-yil 29-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-398-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda”gi “O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-2699-sonli qarori.
5. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda”gi PF-4947-sonli farmoni.



5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustdagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3168-sonli qarori

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli farmoni.

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Mahalliy eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3157-sonli qarori

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2005-yil 5-oktabrdagi PF-3665-sonli Farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi PF-5102-sonli Farmoni.

Ilmiy jurnallar

1. Жураев А.С. Налоговый контроль: вопросы теории и практики. НИР Экономика, №5, 2015, стр 14-17.

2.Abdurahmonov H.T. Soliq siyosatining investitsiyalarga ta'sirini baholash modeli. //Moliya.-Toshkent, 2014,-№1.-B.67-72.

3. Abdurakhmonov H/T/ Fiscal policy and its featutes in the developing countrieС. Actual problems of tax policy. Minsk. 2015. B. 5-8.

Davriy nashrlar:

1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013-yil. -T.:2014.-№12.

2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014 yil. -T.:2015.-№10.

3. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2015 yil. -T.:2016.-№3.

Statistik nashrlar



1.O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2011 - 2016.

Internet resurslar

<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali

<http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

<http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

<http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi

<http://www.ziyonet.uz> - Jamoat axborot ta'lim tarmog'i

<http://www.customC.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi

<http://www.uz> - UZINFOCOM markazi

<http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati



MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. SOLIQ NAZARIYASI FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA METODI	7
1.1. Soliq nazariyasi fani ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida	7
1.2. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi	9
1.3. Soliq nazariyasi fanini o'rganish usullari	12
II BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	17
2.1. Soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari	17
2.2. Markaziy Osiyo hududida soliqlarning paydo bo'lishi, uning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi	28
2.3. Amir Temur va Temuriylar davrida soliqlar va soliqqa tortishning xususiyatlari	36
2.4. Xonliklar va Chor Rossiyasi davrida soliqlar va soliqqa tortishning xususiyatlari	42
2.5. Sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo'lgan yondashuv	51
III BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI	59
3.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati	59
3.2. Soliqlarning obyektiv zarurligi va belgilari	69
3.3. Soliqlarning funksiyalari	72
3.4. Soliqqa tortish tamoyillari	81
IV BOB. SOLIQ ELEMENTLARI VA SOLIQQA OID BOSHQA TUSHUNCHALAR	91
4.1. Soliq elementlarining mohiyati va tarkibi	91
4.2. Soliq stavkalari	97
4.3. Soliq imtiyozlari	106
4.4. Soliqlarni undirish usullari	118
4.5. Soliq mexanizmi	120

V BOB. SOLIQ MUNOSABATLARI SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA SOLIQ MAJBURIYATLARINING BAJARILISHI	128
5.1. Soliq to'lovchilarning huquqlari.....	128
5.2. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari.....	130
5.3. Soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi.....	131
5.4. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlash xususiyatlari	133
5.5. Soliq hisoboti tushunchasi. Soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibi.....	135
VI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	146
6.1. Soliq tizimining mohiyati va uning klassifikatsiyasi	146
6.2. To'g'ri va egri soliqlar	155
6.3. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imglar	165
6.4. Umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'imglar.....	170
6.5. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	183
VII BOB. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI	192
7.1. Soliq siyosatining mohiyati	192
7.2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari, xususiyatlari va yo'nalishlari	198
7.3. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari.....	205
7.4. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq xizmati organlarining o'rni va ularning boshqa moliya – kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi	212
VIII BOB. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK TUSHUNCHASI, ULARNING TURLARI VA JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI UMUMIY QOIDALAR	227
8.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi	227
8.2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari.....	232
8.3. Moliyaviy sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi	246



8.4. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik.....	251
--	-----

**IX BOB. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY
HOLATNING UZVIY BOG'LIQLIGI..... 258**

9.1. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasi	258
9.2. Soliq yuki va uni aniqlash tartibi	262
9.3. Soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri.....	270
9.4. Soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi	273

X BOB. SOLIQ ISHINI TASHKIL ETISH ASOSLARI 276

10.1. Soliq xizmati va bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari	276
10.2. O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi	279
10.3. Davlat soliq qo'mitasining vazifalari va funksiyalari	282
10.4. Soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi	286
10.5. AQSH soliq tizimida soliq idoralari faoliyati	294

XI BOB. XALQARO SOLIQQA TORTISH..... 300

11.1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari.....	300
11.2. Jahon Soliq Kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati	302
11.3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish...	304

Test savollari..... 314

Test javoblari..... 365

Adabiyotlar ro'yxati..... 367



Jo'rayev Abdug'affor Safarovich
Safarov G'iyosiddin Abdullaevich
Meyliyev Obid Raxmatullayevich

SOLIQ NAZARIYASI

O'quv qo'llanma

Muharrir N.Artikova
Badiiy muharrir K.Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi O.Fozilova

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.
Bosishga ruxsat 10.01.2019-yilda berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi №2.
«Bookman Old Style» garniturasini.
Shartli b.t. 21,6. Nashr hisob t. 22,6.
Adadi 50 dona. 2-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 -A.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI”
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur 60 -A.